

621.3/07

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI RIVOJLANТИRISH
INSTITUTI

N. JABBOROV, M. YAKUBOV

**ELEKTROTEXNIKA
VA ELEKTRONIKA
ASOSLARIDAN MASALALAR
TO'PLAMI**

*Noelektrotexnik yo'nalishdagi kasb-hunar
kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

2023.8.8.9

621.3(075)

J
31.2

J13

Mas'ul muharrir TIQXMII professori S.Majidov.

Taqrizchilar: Abu Rayhon Beruniy nomli Toshkent Davlat texnika universiteti nazariy va umumiy elektrotexnika kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi **B.Abdullayev**; Toshkent Informatika kolleji o'qituvchisi **T.O'lmasov**.

J13 **N. Jabborov, M. Yakubov.**

Elektrotexnika va elektronika asoslaridan masalalar to'plami:
Noelektrotexnik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv
qo'llanma. — Toshkent: "Uzinkomsentr", 2003 — 160 bet.

Ushbu qo'llanmaga elektrotexnika va elektronika asoslari fani dasturining asosiy qismlariga
doir masalalar va unga qo'shimcha tarzda nazariy ma'lumotlar, uslubiy ko'rsatmalar,
formulalar, masalalar yechish namunalari hamda ko'plab masalalarning javoblari kiritildi.


Masalalar talabalarning tayyorgarligi turlicha ekanligini hisobga olgan holda tanlandi. Bundan
tashqari, to'plamda kasb-hunar yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari va hozirgi zamон
ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari ham e'tiborga olingan.

BBK 31.2ya722+32.85ya722

№ 262-2003

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy kutubxonasi

2202010000



© «UZINKOMSENTR», 2004

SO‘Z BOSHI

Elektroenergetika, elektrotexnika va elektronika sanoatining rivojlanishi ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur’atlar bilan yuksalishini ta’minlash bilan birligida shu soha uchun yuqori malakali mutaxassislarga bo’lgan talabni oshiradi. Elektrotexnika – umumtexnik fan bo’lib, maxsus fanlarni o’zlashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun to’plamdagagi qator masalalarni yechish umumta’lim fanlari bo’lgan fizika, matematika, kimyo bilan birga maxsus texnologiya va ishlab chiqarish amaliyotiga doir bilimlardan ham foydalanishni taqozo etadi.


Mazkur «Elektrotexnika va elektronika asoslari» fanining dasturi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun tamoyillariga mos bo’lib, hozirgi zamon texnika taraqqiyotini hisobga olgan holda tuzilgan. Qo’lingizdagagi masalalar to’plami ham ushbu dasturga to’la mos keladi.

Masalalar yechish va ularni har tomonlama tahlil etish talabalarga «Elektrotexnika va elektronika asoslari» fanini chuqur o’zlashtirishlarida katta yordam beradi. To’plamga kiritilgan masalalarda hozirgi zamon elektrotexnika va elektronika sohasiga oid turli talablar majmui aks ettirilgan.

Masalalarni yechishda elektr va magnit hodisalarining fizik mohiyatini tushunish, ularning o’zaro bog’lanishi va sifat nisbatlarini bilish hamda elektrotexnik zanjirlarning va qurilmalarning xarakteristikalarini hisoblash uchun kerak bo’lgan matematik amallarni o’zlashtirish zarur. Bundan tashqari, talaba elektrotexnik qurilmalar tuzilishining o’ziga xosligi, ularni montaj qilish, sozlash, ekspluatatsiya qilish, ta’mirlash xarakteristikalarini va parametrlarini real o’zgartirish diapazonini ko’z oldiga keltira olishi kerak.

Ushbu to’plamni tuzishda turli yo’nalishdagi kasb-hunar kollejlardida o’qitiladigan «Elektrotexnika va elektronika asoslari» fani dasturidagi professional xususiyatlar hisobga olingan bo’lib, bu narsa o’qituvchilarga va talabalarga masalalarni yechishga tayyorgarlik ko’rishda katta yordam beradi.

Bundan tashqari, talabalarga uslubiy yordam sifatida har bir bobning boshlanishida qisqacha nazariy ma’lumot va to’plamning oxirida ilovalar keltililgan.



1-BOB

Elektrostatika

1.1. ELEKTROSTATIK MAYDON

Nuqtaviy elektr zaryadlar orasidagi o'zaro ta'sir etish kuchi Kulon qonuni bilan ifodalanadi, ya'ni:

$$F = q_1 q_2 / (4\pi \epsilon_0 \epsilon_r r_q^2), \quad (1.1)$$

bunda q_1, q_2 — zaryadlarning kattaligi, Kl; r_q — zaryadlar orasidagi masofa, m; $\epsilon_0 = 1/4\pi \cdot 9 \cdot 10^9 = 8,85 \cdot 10^{-12}$ — elektr doimiysi, F/m; ϵ_r — muhitning nisbiy dielektrik singdiruvchanligi.

Elektrostatik maydonning biror nuqtasidagi kuchlanganlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{E} = \frac{\bar{F}}{q_0}, \text{ V/m} \quad (1.2)$$

bunda q_0 — maydonga kiritilgan sinov zaryadi.

Masalalar

1.1. Oraliq masofasi 0,1 m bo'lgan ikkita parallel plastinalar orasidagi kuchlanish 100 V ga teng. Plastinalar orasiga joylashtirilgan $q=10^{-8}$ Kl zaryadli jismga qanday kuch ta'sir etadi? Agar plastinalar orasidagi masofa ikki baravar oshirilsa, zaryadga qanday kuch ta'sir etishini toping.

Yechish. Elektr maydon kuchlanganligini hisoblaymiz:

$$E_1 = \frac{U}{d} = \frac{100}{0,1} = 1000 \text{ V/m.}$$

Zaryadga ta'sir qiladigan kuch, $F_1 = E q = 1000 \cdot 10^{-8} = 10^{-5}$ N.

Agar plastinalar orasidagi masofa ikki baravar oshirilsa, zaryadga ta'sir etuvchi kuch $F_2 = E_2 q = 500 \cdot 10^{-8} = 0,5 \cdot 10^{-5}$ N ga teng bo'ladi.

1.2. Elektr maydonga kiritilgan $q = 30 \cdot 10^{-9}$ Kl zaryadga $F = 2,4 \cdot 10^{-5}$ N kuch ta'sir etsa, berilgan nuqtadagi maydon kuchlanganligini aniqlang.

Yechish. Elektr maydon kuchlanganligi quyidagicha aniqlanadi:

$$E = \frac{F}{q} = \frac{2,4 \cdot 10^{-5}}{30 \cdot 10^{-9}} = 800 \text{ V/m.}$$

1.3. Ikkita zaryadlangan jismlarning o'zaro tortish kuchi: a) ular orasidagi masofa ikki baravar ortsas; b) zaryadlardan bittasi uch baravar ortsas; d) ikkala zaryad ikki baravar ortsas, qanday o'zgaradi?

1.4. Ma'lum masofadagi ikki zaryad vakuumda 10^{-4} N kuch bilan, suyuqlikda esa $5 \cdot 10^{-5}$ N kuch bilan ta'sirlashadi. Suyuqliknii nisbiy dielektrik singdiruvchanligini aniqlang.

1.5. Ikki zaryadlangan jismlar orasidagi $r_g = 0,1$ m masofa 0,1 m ga oshirildi. Agar ularning zaryadlari $q_1 = q_2 = 5 \cdot 10^{-6}$ KI bo'lsa, ular orasidagi tortish kuchi qanchaga o'zgaradi? Nisbiy dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon_r = 5$.

1.6. Massasi 10^{-3} kg bo'lgan zaryadlangan zoldir zaryad ishorasi bir xil bo'lgan jism tepasida 0,1 m masofada erkin osilib turibdi. Agar zoldirning zaryadij jism zaryadidan 10 baravar kam bo'lsa, uning zaryadi topilsin.

1.7. Ikkita bir xil ishorali, oraliq masofasi 0,1 m, birining zaryadi ikkinchisiniidan 4 baravar katta bo'lgan zoldirlar orasiga uchinchi zoldirni qanday masofada joylashtirilsa, u muvozanatda bo'ladi?

1.8. Ikkita bir xil ishorali zaryadlangan sharlni o'zaro ta'sir kuchi ular orasidagi tortish kuchi bilan muvozanat holatidadir. Agar sharlnarning massasi 10^{-3} kg dan bo'lsa, ularning zaryadini aniqlang.

1.9. $2 \cdot 10^{-6}$ va $3 \cdot 10^{-6}$ KI zaryadlarning o'zaro ta'sir kuchi ular orasidagi masofa 0,15; 0,25; 0,35 m bo'lganda topilsin.

1.10. Radiusi 0,1 m bo'lgan sharning zaryadi 0,01 KI ga teng. Sharning birlik sirtiga to'g'ri keladigan zaryadi topilsin.

1.2. KONDENSATORLAR

Ma'lum kattalikdagi elektr sig'imini hosil qilish maqsadida yaratilgan elektrotexnik qurilma *kondensator* deb ataladi.

Kondensatorning sig'imi quyidagicha aniqlanadi:

$$C = \frac{q}{U} [\text{F}] \quad (1.3)$$

bunda q – zaryad, U – kondensator qoplamlari orasidagi kuchlanish, [F] – farada.

Kondensatorlarning sig'imi turiga ko'ra, quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

1. Yassi kondensatorlar uchun

$$C = \frac{q}{U} = \epsilon_r \epsilon_0 S/d, \quad (1.4)$$

bunda S – bir plastinaning yuzi, m^2 ; d – plastinalar orasidagi masofa, m.

2. Silindrik kondensator uchun

$$C = \frac{2\pi \epsilon_r \epsilon_0 l}{\ln R/r}, \quad (1.5)$$

bunda l – koaksial plastinalarning balandligi, m; r va R – mos ravishda ichki va tashqi silindrлarning radiuslari, m.

3. Sferik kondensator uchun

$$C = \frac{4\pi\epsilon_r\epsilon_0 R}{R-r}, \quad (1.6)$$

bunda r va R ichki hamda tashqi sferalarning radiuslari, m.

Kondensator elektr maydonining energiyasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W_e = \frac{CU^2}{2} = \frac{1}{2} \frac{q}{C} = \frac{1}{2} q(\varphi_1 - \varphi_2) [J], \quad (1.7)$$

U – plastinalar orasidagi kuchlanish, V.

O‘zaro parallel ulangan kondensatorlar batareyasining elektr sig‘imi quyidagicha hisoblanadi:

$$C_{\text{par}} = C_1 + C_2 + \dots + C_n. \quad (1.8)$$

O‘zaro ketma-ket ulangan kondensatorlar batareyasi elektr sig‘imining teskari ifodasi quyidagicha:

$$\frac{1}{C_{\text{k.k.}}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \dots + \frac{1}{C_n}. \quad (1.9)$$

Masalalar

1.11. Yassi havo kondensatori qismalari $U = 800$ V li manbaga ulangan. Kondensator plastinalari orasidagi masofa $d = 5$ mm bo‘lsa, kondensator elektr maydoni kuchlanganligini va uning plastina oralariga kiritilgan $q = 1,5 \cdot 10^{-7}$ Kl zaryadga ta’sir qiladigan kuchni hisoblang. Agar kondensator plastinasining yuzi $S = 24 \text{ sm}^2$ bo‘lsa, kondensator sig‘imini aniqlang.

Kondensator boshqa muhitga, masalan, paxta yog‘iga tushirilsa, uning sig‘imi qanday o‘zgaradi?

Yechish. Yassi kondensator elektr maydonining kuchlanganligi

$$E = \frac{U}{d} = 800 / 5 \cdot 10^{-3} = 16 \cdot 10^4 \text{ V/m}.$$

Birlik q zaryad kondensator elektr maydoniga joylashtirilsa, unga maydonning ta’sir kuchi quyidagicha bo‘ladi:

$$F = Eq = 16 \cdot 10^4 \cdot 1,5 \cdot 10^{-7} = 0,024 \text{ N}.$$

Yassi havo kondensatorining sig‘imi

$$C = \frac{\epsilon_r \epsilon_0 S}{d} = \frac{8,85 \cdot 10^{-12} \cdot 24 \cdot 10^{-4}}{0,5 \cdot 10^{-2}} = 4,25 \cdot 10^{-12} \text{ F} = 4,25 \text{ pF}.$$

Kondensator plastinalari orasiga boshqa dielektrik material joylashtirilsa, uning sig‘imi havoga nisbatan materialning nisbiy dielektrik singdiruvchaliqi ϵ_r , marta ortadi, masalan spirt uchun $\epsilon_r = 33$. Demak, sig‘im

$C = \epsilon$, $C = 33 \cdot 4,25 = 140$ pF. Paxta yog'i uchun $\epsilon_r = 5$ demak, $C = 5 \cdot 4,25 = 21,25$ pF.

1.12. Sig'imi $C_1 = 0,5$ mkF va $C_2 = 1,5$ mkF li ikkita bir xil o'lchamli yassi kondensatorlar o'zaro ketma-ket birlashtirilib manbaga ulangan. Agar kondensatorlar qoplamlarining zaryadi $q = 4,5 \cdot 10^{-4}$ Kl va kuchlanganlik $E = 200$ V/sm bo'lsa, umumiy (ekvivalent) sig'imni, manba kuchlanishi, kondensatorlardagi kuchlanishlarni va kondensator plastinalari orasidagi masofani aniqlang. Ekvivalent kondensatorning elektr maydoni energiyasini hisoblang.

Yechish. Kondensatorlardagi kuchlanishlar:

$$U_1 = q/C_1 = 4,5 \cdot 10^{-4} / (0,5 \cdot 10^{-6}) = 900 \text{ V.}$$

$$U_2 = q/C_2 = 4,5 \cdot 10^{-4} / (1,5 \cdot 10^{-6}) = 300 \text{ V}$$

$$\text{Manba kuchlanishi } U = U_1 + U_2 = 900 + 300 = 1200 \text{ V.}$$

Ekvivalent sig'im:

$$C_{\text{ekv}} = C_1 C_2 / (C_1 + C_2) = 0,5 \cdot 1,5 / (0,5 + 1,5) = 0,375 \text{ mkF.}$$

Ekvivalent sig'imni $C = q/U$ ifodadan foydalanib topish ham mumkin:

$$C = \frac{q}{U} = 4,5 \cdot 10^{-4} / 1200 = 0,375 \cdot 10^{-6} F = 0,375 \text{ mkF.}$$

$$d_2 = U_2/E = 300/200 = 1,5 \text{ sm.}$$

Kondensator plastinalarining yuzalari bir xil bo'lgani uchun $C_1/C_2 = d_2/d_1$. Bundan birinchi kondensatorning plastinalari orasidagi masofa

$$d_1 = \frac{C_2 d_2}{C_1} = \frac{1,5 \cdot 10^{-6} \cdot 0,15}{0,5 \cdot 10^{-6}} = 0,45 \text{ sm ga teng.}$$

Elektr maydon energiyasi

$$W_e = \frac{CU^2}{2} = \frac{0,375 \cdot 10^{-6} \cdot 1200^2}{2} = 0,29 \text{ J.}$$

1.13. $U_1 = 20$ V potensiallar farqigacha zaryadlangan kondensator $C_2 = 33$ mkF sig'imli $U_2 = 4$ V potensiallar farqigacha zaryadlangan boshqa kondensator bilan parallel ulangan. Agar kondensatorlar ulanganidan keyin ularning qoplamlaridagi kuchlanish $U = 2$ V bo'lsa, birinchi kondensatorning sig'imi C_1 topilsin. Kondensatorlar o'zaro har xil ishorali zaryadlangan qoplamlar bilan ulangan.

Yechish. Turli ishorali zaryadlangan qoplamlar bilan ulangan kondensatorlar batareyasidagi umumiy zaryad $q = CU$ har bir kondensatorning $q_1 = C_1 U_1$ va $q_2 = C_2 U_2$ zaryadlar farqiga teng. Bunda $C_{\text{ekv}} = C_1 + C_2$ ulanganidan keyingi ekvivalent sig'im. Shunday qilib, agar $q_1 > q_2$ bo'lsa, $(C_1 + C_2)U = C_1 U_1 - C_2 U_2$ va agar $q_2 > q_1$ bo'lsa, $(C_1 + C_2)U = C_2 U_2 - C_1 U_1$

bo'ladi. Bu tenglamalarni yechib, birinchi va ikkinchi hollar uchun mos ravishda quyidagi ifodalarni olamiz:

$$C_1 = C_2 \frac{U_2 + U}{U_1 - U}; \quad C_1 = C_2 \frac{U_2 - U}{U_1 + U}.$$

Berilgan qiymatlar o'rniga qo'yib hisoblansa, quyidagi natija kelib chiqadi:

yoki $C_1 = C_2 \frac{U_2 + U}{U_1 - U} = 33 \cdot \frac{4+2}{20-2} = 11 \text{ m}\mu\text{F};$

$$C_1 = C_2 \frac{U_2 - U}{U_1 + U} = 33 \cdot \frac{4-2}{20+2} = 3 \text{ m}\mu\text{F}.$$

Javob. Kondensatorlar zaryadlarining nisbatiga qarab birinchi kondensatorning elektr sig'imi $C_1 = 11 \text{ m}\mu\text{F}$ yoki $C_1 = 3 \text{ m}\mu\text{F}$ bo'ladi.

1.14. Sig'imi 1 m μ F va plastinalari orasidagi kuchlanish 50 V bo'lgan kondensator zaryadini toping.

1.15. Plastinalar yuzi 10^{-3} m^2 , plastinalar orasidagi masofa 0,1 m va dielektrik singdiruvchanligi $\epsilon_r = 7$ bo'lgan kondensatorning sig'imi aniqlang.

1.16. Yassi kondensatorning sig'imi: a) plastinalar yuzi 3 marta ko'payganda, b) plastinalar orasidagi masofa 4 marta kamayganda; d) plastinalar yuzi 2 baravar va bir yo'la ular orasidagi masofa 3 marta kamayganda qanday o'zgaradi?

1.17. Agar kondensator sig'imi 0,1 m μ F, plastinalar orasidagi masofa 0,2 mm va nisbiy dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon_r = 50$ bo'lsa, plastinalarning yuzini aniqlang.

1.18. Diametri $d = 10 \text{ mm}$ bo'lgan sferik kondensatorning plastinalari orasidagi masofa 0,05 mm, nisbiy dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon_r = 40$. Kondensator sig'imi toping.

1.19. Agar yassi kondensator plastinalarining yuzi 10^{-2} m^2 , plastinalar orasidagi masofa 0,05 mm, sig'imi esa 0,1 m μ F bo'lsa, izolyatsiyaning nisbiy dielektrik singdiruvchanligi topilsin.

1.20. Yassi kondensator plastinalari yuzini 10^{-2} m^2 ga orttirilganda, uning sig'imi 3 marta ortdi. Plastinalarning dastlabki yuzini toping.

1.21. Silindrik kondensatorning balandligi 9 mm. Ichki va tashqi silindrлarning diametri 5–7 mm va 8–10 mm atrofida o'zgarsa, nisbiy dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon_r = 10$ bo'lsa, kondensator sig'imi qaysi oraliqda o'zgaradi?

1.22. Balandligi 9 mm, sig'imi 10; 20; 50 m μ F bo'lgan silindrik kondensatorning ichki va tashqi silindr diametrlarining nisbatini toping. Nisbiy dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon_r = 10$.

1.23. Sferik kondensatorning ichki va tashqi sferalarining diametrлari mos ravishda 6–8 mm va 9–11 mm ga o'zgardi. Agar nisbiy dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon_r = 45$ bo'lsa, kondensator sig'imi qaysi oraliqda o'zgaradi?

1.24. Sferik kondensatorning sig'imi 5; 7,5; 10 pF, tashqi diametri 10 mm, nisbiy dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon_r = 45$ bo'lsa, ichki sferaning diametri topilsin.

1.25. Sig'imi 10 mkF, plastinalar orasidagi kuchlanish 100 V bo'lgan kondensator elektr maydonining energiyasini aniqlang.

1.26. Plastinalar orasidagi kuchlanish 100 V bo'lgan kondensator elektr maydonining energiyasi 5 mJ. Kuchlanishi 250, 500, 750 V bo'lgan shu kondensator elektr maydonining energiyasini toping.

1.27. Sig'imi 1 mkF bo'lgan kondensator yig'ish uchun, yuzi 10^{-2} m^2 bo'lgan nechta plastina olish kerak? Dielektrik sifatida nisbiy dielektrik singdiruvchanligi $\epsilon_r = 50$ va qalinligi 0,05 mm bo'lgan lakotkan olingan.

1.28. Agar o'zgaruvchan kondensatorning plastinalari orasidagi kuchlanish 100 V va plastinalari o'zaro bir-birini 100% ga qoplaganda maydon energiyasi 0,1 J bo'lsa, plastinalar bir-birini 30% ga qoplaganda kondensator sig'imi qancha bo'ladi?


1.29. O'zgaruvchan kondensatorning o'qi qo'l yordamida $\omega = 2,6 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$ burchak chastotasi bilan buralyapti. Agar harakatlanuvchi va qo'zg'almas plastinalar radiuslari 30 mm va ular orasidagi masofa 0,1 mm bo'lsa, 1 s davomida kondensator sig'imi qanchaga o'zgaradi?

1.30. Silindrik kondensator yasash uchun eni bir xil 20 mm metal folga va polietilen plyonkadan foydalilanigan. Agar polietilen plyonkaning qalinligi 0,1 mm bo'lsa, sig'imi 2 pF bo'lgan kondensator yasash uchun qanday uzunlikdagi pylonka va folga olish kerak?

1.31. Sig'implari $C_1 = 10 \text{ mkF}$ va $C_2 = 15 \text{ mkF}$ ikki kondensator o'zaro ketma-ket ulansa, ekvivalent sig'im qancha bo'ladi?

1.32. Agar ikkita ketma-ket ulangan kondensatorlarning sig'imi $C = 1,2 \text{ mkF}$ bo'lib, bunda bir kondensator $C_1 = 3 \text{ mkF}$ bo'lsa, ikkinchi kondensatorning sig'imi aniqlang.

1.33. Elektr sig'implari $C_1 = 2 \text{ mkF}$, $C_2 = 3 \text{ mkF}$, $C_3 = 4 \text{ mkF}$ bo'lgan uchta kondensator ketma-ket ulansa, umumiy sig'im qancha bo'ladi?



2-BOB

O‘zgarmas tok elektr zanjiri qonunlari

2.1. OM VA KIRXGOF QONUNLARI

O‘zgarmas tok zanjirining bir qismidan o‘tayotgan tok kuchlanishga to‘g‘ri, qarshilikka esa teskari proporsionaldir, ya’ni

$$I = \frac{U}{R}, \quad (2.1)$$

bunda U – o‘tkazgich uchlardagi kuchlanish, R – o‘tkazgichning qarshiligi.

Berk zanjir uchun Om qonuni (2.1-rasm) quyidagicha ifodalanadi:

$$I = \frac{E}{r_{\text{ich}} + R_{\text{yuk}}}. \quad (2.2)$$

Bunda E – manba EYuKi, r_{ich} – manbaning ichki qarshiligi, R_{yuk} – yuklama qarshiligi.

Silindr shaklidagi o‘tkazgichning qarshiligi

$$R = \rho \frac{l}{S}, \quad (2.3)$$

2.1-rasm

bunda ρ – o‘tkazgichning solishtirma qarshiligi, $\text{Om} \cdot \text{m}$; l – o‘tkazgichning uzunligi, m ; S – ko‘ndalang kesim yuzi, m^2 .

Qizigan o‘tkazgichning qarshiligi R_t uning 0 °C dagi qarshiligi R_0 ning termik qarshilik binomi $(1 + \alpha t)$ ga ko‘paytmasiga teng, ya’ni:

$$R_t = R_0(1 + \alpha t) \text{ yoki } R_t = R_0 \frac{T}{T_0}, \quad (2.4)$$

bunda $T_0 = 273$ K va $T = (t + 273)$ K; α – o‘tkazgich qarshiligining termik koefitsienti.

O‘tkazuvchanlik G harfi bilan belgilanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$G = \frac{1}{R}. \quad (2.5)$$

O‘ichov birligi $[G] = \left[\frac{1}{\text{Om}} \right] = [\text{Sm}]$ (Simens).

Elektr tokining energiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$W = UIt \text{ [J].} \quad (2.6)$$

Elektr tokining quvvati:

$$P = UI = I^2 R = \frac{U^2}{R} = U^2 G \text{ [Vt].} \quad (2.7)$$

Elektr energiya manbai, uzatish liniyasi va yuklama orasidagi quvvatlar quyidagicha bog'langan:

$$UI = I^2 r_{\text{lin}} + U_{\text{yuk}} I \quad (2.8)$$

bunda UI – elektr energiya manbaida ishlab chiqarilayotgan quvvat, $I^2 r_{\text{lin}}$ – uzatish liniyasidagi quvvat isrofi, $P = U_{\text{yuk}} I$ yuklamaning quvvati.

Bundan quvvatlar balansi ifodasi kelib chiqadi, ya'ni:

$$P_{\text{manba}} = \Delta P_{\text{lin}} + P_{\text{yuk}}. \quad (2.9)$$

Om qonuni bilan birga elektr zanjirlarini hisoblashda Kirxgof qonunlaridan keng foydalaniladi.

Kirxgofning birinchi qonuniga binoan *elektr zanjir tugunida toklarning algebraik yig'indisi nolga teng*.

$$\sum_{t=1}^n I_t = 0. \quad (2.10)$$

Kirxgofning ikkinchi qonuniga binoan *zanjir konturi bo'ylab EYuK larning algebraik yig'indisi, shu kontur elementlaridagi kuchlanishlar tushuvining algebraik yig'indisiga teng*, ya'ni:

$$\sum_{k=1}^m E_k = \sum_{i=1}^n I_i R_i. \quad (2.11)$$

Ketma-ket ulangan rezistorlarning ekvivalent qarshiligi quyidagicha:

$$R_{\text{ekv}} = R_1 + R_2 + \dots + R_n. \quad (2.12)$$

Parallel ulangan rezistorlarning ekvivalent o'tkazuvchanligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{1}{R_{\text{ekv}}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \dots + \frac{1}{R_n} \quad \text{yoki} \quad G_{\text{ekv}} = G_1 + G_2 + \dots + G_n. \quad (2.13)$$

Zanjirning shoxobchalanmagan qismidagi I_{um} tok quyidagiga teng:

$$I_{\text{um}} = I_1 + I_2 + \dots + I_n. \quad (2.14)$$

n ta bir xil manba ketma-ket ulanganda to'liq zanjir uchun Om qonuni quyidagicha yoziladi:

$$I = \frac{E_n}{R_{\text{yuk}} + n r_{\text{ich}}}. \quad (2.15)$$

n ta bir xil manba parallel ulanganda esa:

$$I = \frac{En}{R_{yuk} + \frac{r_{ich}}{n}}. \quad (2.16)$$

Ba'zi hollarda murakkab zanjirlarda rezistorlar uchburchak yoki yulduz usulda birlashtiriladi va ularni ekvivalent qarshilikka o'zgartirishga to'g'ri keladi. Zanjirning ekvivalent qarshiligidini topish uchun uchburchak usulda (2.2-a rasm) ulangan qarshiliklarni ekvivalent yulduz usulga (2.2-b rasm) yoki aksincha, yulduz usulda ulangan qarshiliklarni ekvivalent uchburchakka almashtiriladi. Uchburchakdan ekvivalent yulduzga o'tish quyidagi formulalar bilan ifodalanadi:

$$R_a = R_{ab}R_{ca}/(R_{ab} + R_{ca} + R_{bc}),$$

$$R_b = R_{ab}R_{bc}/(R_{ab} + R_{ca} + R_{bc}), \quad (2.17)$$

$$R_c = R_{ca}R_{bc}/(R_{ab} + R_{ca} + R_{bc}).$$

Yulduzdan ekvivalent uchburchakka o'tish esa quyidagicha amalga oshiriladi:

$$R_{ab} = R_a + R_b + R_aR_b/R_c,$$


$$R_{ac} = R_a + R_c + R_aR_c/R_b, \quad (2.18)$$

$$R_{bc} = R_b + R_c + R_bR_c/R_a.$$

Masalalar

2.1. Cho'g'lanma lampaning volframli toiasi qarshiligi $t_1=20$ °C haroratda $R_1=40$ Om, uning $t_1=0$ °C haroratdagи R_0 qarshiligidini toping. Agar cho'g'lanma lampa $U=120$ V kuchlanishli tok manbaiga ulangan bo'lsa, tolasidan $I=0,3$ A tok o'tsa, qizigan volfram tolasining qarshiligi R_2 va harorati t ni aniqlang. Volfram uchun qarshilikning harorat koefitsienti $\alpha=4,6\cdot10^{-3}$.

Yechish. Harorati katta bo'lмаган intervallarda o'tkazgichning qarshiligi R harorat t va α ga chiziqli bog'liq bo'ladi: $R=R_0(1+\alpha t)$, bunda R_0 —



2.2-rasm

o'tkazgichning $t = 0$ °C haroratdagi qarshiligi, α – qarshilikning harorat koefitsienti.

Bu holda $t_1 = 20$ °C haroratdagi volfram tolasining qarshiligi $R_t = R_0(1 + \alpha t)$ bo'lib, bundan

$$R_0 = \frac{R_t}{1+\alpha t} = \frac{40}{1+4,6 \cdot 10^{-3} \cdot 20} = \frac{40}{1,092} = 36,63 \text{ Om.}$$

Om qonuniga asosan yonib turgan cho'g'lanma lampaning volfram tolesi qarshiligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$R_2 = \frac{U}{I} = \frac{120}{0,3} = 400 \text{ Om.}$$

Qizigan tolaning qarshiligi $R_t = R_0(1 + \alpha t)$ ga teng, bundan tolaning harorati topiladi:

$$t_0 = \frac{R_2 - R_0}{\alpha R_0} = \frac{400 - 36,63}{4,6 \cdot 10^{-3} \cdot 36,63} = 2157 \text{ °C.}$$

2.2. Nominal kuchlanishlari $U_{\text{nom}}^2 = 110$ V va nominal quvvatlari $P_{1\text{nom}} = 50$ Vt va $P_{2\text{nom}} = 150$ Vt ikkita cho'g'lanma lampalari ketma-ket ulangan va kuchlanishi $U = 220$ V bo'lgan manbara qo'shilgan. Lampalarning qarshiligi tokka bog'liq bo'lmasa, ulardagi kuchlanishning pasayishi va quvvatlari aniqlansin.

Yechish. Berilgan nominal parametrlerga ko'ra birinchi va ikkinchi lampalarning qarshiliklari R_1 va R_2 ni aniqlaymiz:

$$R_1 = U_{\text{nom}}^2 / P_{1\text{nom}} = 110^2 / 50 = 242 \text{ Om,}$$

$$R_2 = U_{\text{nom}}^2 / P_{2\text{nom}} = 110^2 / 150 = 80,5 \text{ Om.}$$

Zanjirning umumiy qarshiligi:

$$R_{\text{ekv}} = R_1 + R_2 = 242 + 80,5 = 322,5 \text{ Om}$$

bo'lib, lampalarning toki quyidagicha aniqlanadi:

$$I = U / R_{\text{ekv}} = 220 / 322,5 = 0,68 \text{ A.}$$

Lampalardagi U_1 va U_2 kuchlanishlar pasayishi mos ravishda:

$$U_1 = IR_1 = 165 \text{ V; } U_2 = IR_2 = 55 \text{ V.}$$

Lampalarning P_1 va P_2 quvvatlari quyidagicha topiladi:

$$P_1 = I^2 R_1 = 0,685^2 \cdot 242 = 112 \text{ Vt; } P_2 = I^2 R_2 = 0,685^2 \cdot 80,5 = 37 \text{ Vt.}$$

50 Vt quvvatga mo'ljallangan lampaning cho'g'lanish simi 112 Vt quvvatda kuyib tushadi.

2.3. Agar yuklama quvvati $P_{\text{yuk1}} = 2,7$ kVt bo'lganda generator qismalariagi kuchlanish $U_1 = 225$ V, $P_{\text{yuk2}} = 1,84$ kVt da $U_2 = 230$ V bo'lsa, generatorning E_2 EYuKi va r_{ich} ichki qarshiliginini aniqlang.

Yechish. Yuklamaning ikkala holati uchun tok qiymatlarini hisoblaymiz:

$$I_1 = \frac{P_{yuk1}}{U_1} = \frac{2,7 \cdot 10^3}{225} = 12 \text{ A},$$

$$I_2 = \frac{P_{yuk2}}{U_2} = \frac{1,84 \cdot 10^3}{220} = 8 \text{ A}.$$

2.1-rasmdagi elektr zanjir sxemasi uchun Om qonuni quyidagicha yoziladi:

$$I = \frac{E_2}{r_{ich} + R_{yuk}},$$

bundan $E_2 = (r_{ich} + R_{yuk})I$. Sxemaning har xil yuklamali ikkala ish rejimi uchun ikkita elektr muvozanat tenglamasini yozamiz:

$$E_2 = RI_{yuk1} + r_{ich}I_1 = 225 + 12r_{ich},$$

$$E_2 = RI_{yuk2} + r_{ich}I_2 = 230 + 8r_{ich}.$$

Bu tenglamalarni birgalikda yechib, E_2 va r_{ich} topiladi. $E_2 = 240 \text{ V}$, $r_{ich} = 1,25 \text{ Om}$.

2.4. Manba kuchlanishi $U = 220 \text{ V}$ bo'lganda, elektr plitkasidan 15 minut davomida 216 kkal issiqlik ajraladi. Shu isitgichning qarshiligini, undan o'tuvchi tok va elektr energiya qiymatini hisoblang.


Yechish. Joul-Lens qonuniga binoan $Q = 0,24 UIt$, isitgichdan o'tuvchi tok quyidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{Q}{0,24 U t} = \frac{216 \cdot 10^3}{0,24 \cdot 220 \cdot 15 \cdot 60} = 4,55 \text{ A}.$$

$$\text{Isitgichning qarshiligi } R = \frac{U}{I} = \frac{220}{4,55} = 48,3 \text{ Om ga teng.}$$

Isitgichning quvvati $P = UI = 220 \cdot 4,55 = 1000 \text{ W} = 1 \text{ kWt ga teng.}$
Shunday quvvatli elektr isitgich 15 minut (15/60 soat) davomida $W = P t = 10^3 \cdot 15/60 = 0,25 \text{ kWt} \cdot \text{soat}$ energiya sarflaydi.

2.5. Kuchlanishi $U = 150 \text{ V}$ o'zgarmas tok manbaiga har xil quvvatli to'rtta yuklama ulangan (2.3-rasm). Agar yuklamalar quvvatlari $P_1 = 90 \text{ W}$, $P_2 = 270 \text{ W}$, $P_3 = 157,5 \text{ W}$ va $P_4 = 360 \text{ W}$ bo'ssa, har bir shoxobcha o'tkazuvchanligi va shoxobchalardan o'tuvchi tok qiymatlarini aniqlang.



2.3-rasm

Yechish. Quvvatni hisoblash formulasi $P = UI = \frac{U^2}{R} = U^2 G$ dan foydalanib, har bir shoxobchaning o'tkazuvchanligini hisoblaymiz:

$$G_1 = \frac{P_1}{U^2} = \frac{90}{150^2} = 4 \cdot 10^{-3} \text{ Sm};$$

$$G_2 = \frac{270}{150^2} = 12 \cdot 10^{-3} \text{ Sm};$$

$$G_3 = \frac{157,5}{150^2} = 7 \cdot 10^{-3} \text{ Sm};$$

$$G_4 = \frac{360}{150^2} = 16 \cdot 10^{-3} \text{ Sm}.$$

Yuklamalarning ekvivalent o'tkazuvchanligi

$$G = G_1 + G_2 + G_3 + G_4 = (4 + 12 + 7 + 16) \cdot 10^{-3} = 39 \cdot 10^{-3} \text{ Sm}.$$

Yuklamalarning ekvivalent qarshiligi esa:

$$R = \frac{1}{G} = \frac{1}{39 \cdot 10^{-3}} = 25,6 \text{ Om.}$$

$$\text{Umumiy tok } I = UG = 150 \cdot 39 \cdot 10^{-3} = 5,85 \text{ A.}$$

Zarur bo'lgan hollarda har bir shoxobcha tokini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$I_1 = \frac{U}{R_1} = UG_1 = 150 \cdot 4 \cdot 10^{-3} = 0,6 \text{ A};$$

$$I_2 = UG_2 = 150 \cdot 12 \cdot 10^{-3} = 1,8 \text{ A};$$

$$I_3 = UG_3 = 150 \cdot 7 \cdot 10^{-3} = 1,05 \text{ A};$$

$$I_4 = UG_4 = 150 \cdot 16 \cdot 10^{-3} = 2,4 \text{ A}$$

va umumiy tok Kirxgofning birinchi qonuniga ko'ra

$$I = I_1 + I_2 + I_3 + I_4 = 0,6 + 1,8 + 1,05 + 2,4 = 5,85 \text{ A.}$$

2.6. 2.4-rasmda keltirilgan zanjirda $R_1 = 20 \text{ Om}$, $R_2 = 30 \text{ Om}$, $E_1 = 100 \text{ V}$, $E_2 = 50 \text{ V}$. Voltmetrning ko'rsatishi aniqlansin.


Yechish. Kirxgofning ikkinchi qonuni bo'yicha $E_1 + E_2 = I(R_1 + R_2)$.

$$\text{Bundan } I = \frac{E_1 + E_2}{R_1 + R_2} = \frac{100 + 50}{20 + 30} = 3 \text{ A}.$$


Voltmetr ko'rsatishi U_{ab} ni quyidagicha topamiz:

$$E_2 = IR_2 - U_{ab} \Rightarrow U_{ab} = IR_2 - E_2 = 3 \cdot 30 - 50 = 40 \text{ V}.$$

2.7. Manba kuchlanishi $U = 240 \text{ V}$, elementlar qarshiligi $R_1 = R_2 = 0,5 \text{ Om}$, $R_3 = R_5 = 10 \text{ Om}$, $R_4 = R_6 = R_7 = 5 \text{ Om}$ bo'lgan elektr zanjirni (2.5-rasm) hisoblang, toklar va elementlardagi kuchlanish qiymatlarini aniqlang.



2.4-rasm



2.5-rasm

Yechish. Toklar qiymatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniqlash mumkin emas, chunki elementlardagi kuchlanishlar noma‘lum. Elektr zanjir sxemasini o‘zgartirish usuli bilan ekvivalent qarshiliklarni hisoblaymiz:

$$R_{ac} = \frac{(R_6+R_7) \cdot R_5}{R_6+R_7+R_5} = \frac{(5+5) \cdot 10}{5+5+10} = 5 \text{ Om.}$$

$$R_{ab} = \frac{(R_{ac}+R_4) \cdot R_3}{R_{ac}+R_4+R_3} = \frac{(5+5) \cdot 10}{5+5+10} = 5 \text{ Om.}$$

$$R_{ekv} = R_{ab} + R_1 + R_2 = 5 + 0,5 + 0,5 = 6 \text{ Om.}$$

Om qonuniga binoan shoxobchalanmagan qismdagi tok kuchini tопish mumkin:

$$I = U/R_{ekv} = 240/6 = 40 \text{ A,}$$

kuchlanish

$$U_{ab} = R_{ab} \cdot I = 40 \cdot 5 = 200 \text{ V}$$

yoki

$$U_{ab} = U - (R_1+R_2)I = 240 - (0,5 + 0,5) \cdot 40 = 200 \text{ V.}$$

Shoxobchalardagi toklar:

$$I_3 = U_{ab}/R_3 = 200/10 = 20 \text{ A, } I_4 = I - I_3 = 40 - 20 = 20 \text{ A.}$$

Qarshiliklar $R_5 = R_6$ bo‘lgani uchun $I_5 = I_6 = I_4/2 = 20/2 = 10 \text{ A.}$
Kuchlanishlar quyidagicha aniqlanadi:

$$U_{ac} = R_5 I_5 = 10 \cdot 10 = 100 \text{ V,}$$


$$U_{bc} = R_4 I_4 = 20 \cdot 5 = 100 \text{ V.}$$

Quvvatlar balansi bo‘yicha yechimni tekshirish mumkin.

2.8. 2.6-rasmda keltirilgan sxema bo‘yicha elektr zanjir hisoblansin. Kuchlanishlar va toklar qiymatlari aniqlansin.

Berilgan. $I_5 = 20 \text{ A}; R_1 = R_3 = 8 \text{ Om}; R_2 = R_4 = 4 \text{ Om}; R_5 = R_6 = 2 \text{ Om}; R_7 = 3 \text{ Om.}$ E’tibor bering, U ning miqdori berilmagan.

Yechish. Kuchlanishlar quyidagicha aniqlanadi:



2.6-rasm

$$U_{ed} = R_5 I_5 = 2 \cdot 20 = 40 \text{ V.}$$

$$U_{ec} = R_1 I_1 = R_3 I_3 = I_5 (R_1 R_3) / (R_1 + R_3) = 80 \text{ V.}$$

$$U_{cd} = U_{ed} + U_{ec} = 120 \text{ V.}$$

Elektr zanjirning shoxobchalangan qismidagi toklar quyidagicha topiladi:

$$I_1 = I_3 = U_{ec} / R_1 = 10 \text{ A,}$$

chunki $R_1 = R_3$

$$I_6 = \frac{U_{cd}}{R_6 + R_2 R_4 / (R_2 + R_4)} = 30 \text{ A.}$$

$$I_2 = I_4 \text{ chunki, } R_2 = R_4; \quad I_2 = I_4 = I_6 / 2 = 15 \text{ A; } U_{ef} = R_2 I_2 = 60 \text{ V;} \\ I_7 = U_{cd} / R_7 = 40 \text{ A.}$$

Kirxgofning birinchi qonuni yordamida sxemaning shoxobchalanma-gan qismidan o'tuvchi tokni hisoblaymiz:

$$I = I_5 + I_6 + I_7 = 20 + 30 + 40 = 90 \text{ A.}$$

2.9. Kirxgof qonunlaridan foydalanib zanjirdan (2.7-rasm) o'tuvchi toklarni hisoblang.

Berilgan. $R_1 = 0,3 \text{ Om}, R_7 = 0,6 \text{ Om}, R_2 = R_6 = 0,4 \text{ Om}, R_3 = R_4 = 2 \text{ Om}, R_5 = 6 \text{ Om}, E_1 = 140 \text{ V}, E_2 = 85 \text{ V.}$

EYuK manbalarining ichki qarshiliklari:

$$r_{ich1} = 0,1 \text{ Om}, r_{ich2} = 0,2 \text{ Om.}$$

Yechish. Sxema (2.7-rasm) uchun tugunlar soni 3 ta a, b va c chunki c va d nuqtalar potensiali bir xil.


Toklar yo'nalishlarini ixtiyoriy belgilaymiz.

Kirxgofning birinchi qonuni bo'yicha 2 ta tenglama yozamiz, chunki tugunlar soni $T = 3$ bo'lgani uchun ($T - 1$) = 2 ta tenglama tuziladi.

$$a \text{ tugun uchun } I_1 + I_3 - I_5 = 0$$

$$b \text{ tugun uchun } I_2 + I_5 - I_4 = 0$$

Yopiq I, II va III konturlar uchun Kirxgofning ikkinchi qonuni



2.7-rasm

asosida tenglamalar tuzamiz. Konturlarni aylanib chiqish yo‘nalishi ixtiyoriy (masalan, soat mili harakati yo‘nalishida) tanlanadi.

$$\text{I kontur uchun } E_1 = (R_7 + r_{\text{ich}1} + R_1)I_1 + R_3I_3.$$

$$\text{III kontur uchun } E_2 = (R_6 + r_{\text{ich}2} + R_2)I_2 + R_4I_4.$$

Nihoyat II kontur uchun $0 = R_5I_5 + R_4I_4 - R_3I_3$, chunki II kontur *passiv kontur*, ya’ni shu konturni tashkil etuvchi shoxobchalarning hammasi ham passiv elementlar (rezistorlar)dan tarkib topgan va bu konturda EYuK yo‘q.

Tenglamalarni yechish natijasida $I_3 = -45 \text{ A}$ ga teng bo‘ladi.

Bundagi ($-$) ishora ushbu I_3 tokining haqiqiy yo‘nalishi sxemada dastlab belgilangan yo‘nalishga teskari ekanligini ko‘rsatadi.

$$I_4 = 30 \text{ A}, \quad I_1 = 50 \text{ A}, \quad I_2 = 25 \text{ A}, \quad I_5 = 5 \text{ A}.$$

c va *d* uchastka uchun tok yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda *c* va *d* tugunga yo‘nalgan deb qabul qilaylik, bu uchastka uchun $R = 0$.

Kirxgofning birinchi qonuni bo‘yicha

$$I_5 + I_4 = I_2$$

$$I_3 = I_2 - I_4 = 25 - 30 = -5 \text{ A}.$$

Ushbu manfiy ishora tokning haqiqiy yo‘nalishi dastlab qabul qilingan yo‘nalishga teskari ekanligini bildiradi.

2.10. Bir konturli zanjir uchun potensiallar diagrammasini quring.


Berilgan: 2.8-rasm da keltirilgan zanjir uchun $E_1 = 10 \text{ V}$; $E_2 = 50 \text{ V}$; $R_1 = 4 \text{ Om}$; $R_2 = 3 \text{ Om}$; $R_3 = 7 \text{ Om}$; $r_{\text{ich}1} = r_{\text{ich}2} = 1 \text{ Om}$.

Yechish. E_2 EYuK E_1 EYuK dan katta bo‘lgani uchun tokning haqiqiy yo‘nalishi E_2 EYuK yo‘nalishi bilan bir xil bo‘ladi.

Kirxgofning ikkinchi qonuniga binoan

$$E_2 - E_1 = R_1I + r_{\text{ich}1}I + R_2I + r_{\text{ich}2}I + R_3I,$$

$$I = \frac{E_2 - E_1}{R_1 + r_{\text{ich}1} + R_2 + r_{\text{ich}2} + R_3} = \frac{50 - 10}{4 + 1 + 3 + 1 + 7} = 2,5 \text{ A}.$$



2.8-rasm

Potensial diagramma qurish uchun zanjirning barcha nuqtalari potensialini bilish zarur. Buning uchun sxemaning istalgan nuqtasining masalan, a nuqtaning potensiali $\varphi_a = 0$ deb olamiz, ya’ni a nuqta fikran yerga ulangan bo’lsin.

a nuqtadan b ga o’tishda R_1 qarshilikda $R_1 I$ kuchlanish pasayishi hosil bo’ladi, ya’ni $\varphi_b - \varphi_a = R_1 I$. Demak, b nuqtaning potensiali $\varphi_b = \varphi_a - R_1 I = 0 - 4 \cdot 2,5 = -10$ V. b va c nuqtalar orasida EYuK manbai E_1 ulangan, c' nuqta potensiali E_1 miqdorga pasayadi.

$$\varphi_{cc'} = \varphi_b - E_1 = -20 \text{ V}.$$

$$\varphi_c = \varphi_{cc'} - r_{ich1} = -22,5 \text{ V}.$$

chunki c' dan c ga o’tishda r_{ich1} rezistor bor

$$\varphi_c - \varphi_d = R_2 I; \quad \varphi_d = \varphi_c - R_2 I = -30 \text{ V}.$$

h' nuqta potensiali ko’payadi, chunki E_2 EYuK manbai musbat yo’nali shda ulangan.

$$\varphi_{h'} = \varphi_d = E_2 = 20 \text{ V},$$

$$\varphi_h = \varphi_d - r_{ich2} = 17,5 \text{ V}.$$

R rezistor ulangan a nuqtadagi potensial h nuqta potensialidan kam.

$$\varphi_h - \varphi_d = R_3 I, \quad \varphi_a = \varphi_h - R_3 I = 0;$$


$$\sum R = R_1 + r_{ich1} + r_{ich2} + R_3 = 16 \text{ Om}.$$

Potensiallар diagrammasini qurishda potensial va rezistor qiymatlari uchun masshtab tanlaymiz (2.9-rasm).

$$m_R = 0,1 \text{ Om/mm}.$$

$$m_\varphi = 0,5 \text{ V/mm}.$$

Potensial diagrammadan berilgan kesmaning og’ish burchagi tangensi tok miqdoriga tengligini ko’rish mumkin.



2.9-rasm

dh' uchastkada $E_2 = 50$ V, $r_{ich2}I = 2,5$ V, ya'ni r_{ich2} ichki qarshilikdagi potensial pasayishidan 20 marta ko'p.

2.11. Ikki o'zaro parallel birlashtirilgan o'zgarmas tok EYuK manbaliga umumiy R_{yuk} ulangan va parametrlari quyida berilgan elektr zanjir sxemasini chizing va toklarni hisoblang.

Berilgan: $E_1 = 11,5$ V, $E_2 = 16,5$ V, EYuK manbalarining ichki qarshiliklari $r_{ich1} = 2,5$ Om, $r_{ich2} = 6$ Om; $R_{yuk} = 30$ Om.

Yechish. Elektr zanjir sxemasini chizamiz (2.10-rasm).

Shoxobchalardan o'tuvchi I_1 , I_2 va I_{yuk} toklarning yo'nalishini ixtiyoriy belgilaymiz. Kirxgofning birinchi qonuniga binoan $I_2 = I_1 + I_{yuk}$.

Kirxgofning ikkinchi qonunidan foydalaniib, ikkita kontur uchun tenglamalar tuzamiz. 2.10-rasmida birinchi (I) konturni aylanib o'tish yo'nalishini soat mili harakati yo'nalishiga teskari, ikkinchi (II) kontur uchun esa soat mili harakati yo'nalishida ko'satilgan.

Bunday ixtiyoriy tanlangan yo'nalishlar uchun elektr muvozanat tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$\text{I kontur uchun } E_2 - E_1 = r_{ich1}I_1 + r_{ich2}I_2,$$

$$\text{II kontur uchun } E_2 = r_{ich2}I_2 + R_{yuk}I_{yuk}.$$

Uchta I_1 , I_2 va I_{yuk} toklarni hisoblash uchun uchta tenglama tuziladi. Berilgan manbalarning EYuK lari, ichki qarshiliklarni va yuklama qarshiligi qiymatlarini tenglamalar sistemasiga qo'yib, toklarni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} I_2 &= I_1 + I_{yuk}; \\ (16,5 - 11,5) &= 2,5I_1 + 6I_2 \\ 16,5 &= 30I_1 + 6I_2 \end{aligned} \quad \left. \begin{array}{l} \\ \\ \end{array} \right\}$$


$$I_1 = 0,3 \text{ A}; I_2 = 0,71 \text{ A}; I_{yuk} = I_2 - I_1 = 0,41 \text{ A}.$$

Demak, $E_2 > E_1$ bo'lgani uchun I_1 tok yo'nalishi EYuK E_1 ning yo'nalishiga qarama-qarshi bo'ladi.

Keltirilgan sxemada EYuK E_1 manba iste'molchi, E_2 EYuK manba esa generator rejimida ishlaydi. Shuning uchun quvvatlar balansi tenglamalarini tuzishda $E_1 I_1$ quvvat tenglamaga manfiy ishora bilan kiradi.

Quvvatlar balansi shartiga ko'ra manbalar quvvatlarining algebraik yig'indisi yuklamada ajralayotgan quvvatlar yig'indisiga teng:

$$P_{\text{man.}} = P_{\text{yuk}} \text{ yoki } E_2 I_2 - E_1 I_1 = r_{ich1} I_1^2 + r_{ich2} I_2^2 + R_{yuk} I_{yuk}^2.$$



2.10-rasm

$$16,5 \cdot 0,71 - 11,5 \cdot 0,3 = 2,5 \cdot (0,3)^2 + 6 \cdot (0,71)^2 + 30(0,41)^2 \cdot 11,7 = 11,72 \text{ Vt.}$$

Yuklama kuchlanishi quyidagicha aniqlanadi:

$$U_{\text{yuk}} = R_{\text{yuk}} I_{\text{yuk}} = 30 \cdot 0,41 = 12,3 \text{ V.}$$

2.12. Rezistorning qarshiligi: a) uzunligi 2 baravar kattalashganda; b) ko'ndalang kesim yuzi 3 baravar kamayganda; d) uzunligi 4 baravar va bir yo'la diametri 2 baravar ko'payganda qanday o'zgaradi?

2.13. 100 m mis simning qarshiligi 1 Om dan oshmasligi uchun uning minimal diametri qancha bo'ladi? Diametri $d = 0,5$ mm bo'lgan 1 m mis simning qarshiligini toping.

2.14. Uzunligi 10 m va diametri $d = 0,1$ mm bo'lgan volfram simning qarshiligi hisoblansin. Qarshiligi 2 Om, uzunligi 10^3 m bo'lgan po'lat simning ko'ndalang kesim yuzi qanday bo'ladi?

2.15. Uzunligi 500 m, diametri $d = 0,1$ mm va qarshiligi 2 Om bo'lgan simning solishtirma qarshiligini hisoblang.

2.16. Simli rezistorlar izolyatsion karkas ustiga sim o'ralib yasaladi. Qarshiligi $R = 1,5$ kOm, diametri $d = 0,1$ mm nixrom sim o'raladigan uzunligi 0,1 m bo'lgan silindrsimon keramik karkasning diametri qanday bo'lishi kerak?

2.17. Qarshiligi 10 Om bo'lgan o'zgaruvchan rezistor yasash uchun diametri 1 mm nixrom simdan necha metr kerak bo'ladi?

2.18. Metal simning uzunligi 100 m orttirilganda uning qarshiligi 3 baravar oshgan. Simning dastlabki uzunligi topilsin.

2.19. Ikkita rezistor yasash uchun bir xil materialdan yasalgan uzunligi bir xil sim olingan: a) rezistorning qarshiligi birinchisidan 2 baravar kam; b) 4 baravar ko'p; d) 10 baravar ko'p bo'lishi uchun ularning diametrlari qanday nisbatda bo'ladi?

2.20. Avtomatik o'lchash ko'prigining o'zgaruvchan reoxordinining qarshiligi 50 Om. Agar reoxord uzunligi 10 m va $d = 0,6$ mm simdan o'ralgan bo'lsa, u qanday metalldan yasalgan?

2.21. Kvartiraning mis elektr uzatish simlari xuddi shu uzunlikdagi va qarshilikdagi alumin sim bilan almashtirilgan. Simlarning kesim yuzalari nisbatini toping. Mis simni alumin sim bilan almashtirganda massadan qancha iqtisod bo'ladi?

2.22. Rezistorning $T_0 = 300$ K dagi qarshiligi 10 kOm, qarshilikning issiqlik koefitsienti $\alpha_T = 2 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$. Uning $T = 350$ K dagi qarshiligi qanday bo'ladi?

2.23. Agar muhit temperaturasi har bir 100 K ga o'zgarganda rezistorning qarshiligi 100 Om ga o'zgarsa, uning temperatura koefitsientini toping. Qarshilikning nominal qiymati 1 kOm.

2.24. Rezistor qarshiligining temperaturaga bog'lanish grafigini umumiy ko'rinishda quring va koordinata o'qlaridan kesib o'tuvchi kesmalarining fizik ma'nosini aytинг.


2.25. $T_1 = 323$ K da rezistor qarshiligi 270 Om , $T_2 = 353$ K da esa 275 Om . Rezistorning temperatura koefitsienti va $T_3 = 293$ K dagi qarshiligi topilsin.

2.26. 2.11-rasmda beshta rezistorning volt-amper xarakteristikasi tasvirlangan. Har bir rezistorning qarshiligini aniqlang.


2.27. Qarshiligi 0 dan 1 kOm gacha bo'lgan o'zgaruvchan rezistor 20 V kuchlanish manbaiga ulangan. Agar: a) hamma o'rmlar kuchlanish ta'sirida bo'lsa; b) harakatlanuvchi kontakt rezistorning o'rtasida bolsa; d) kuchlanish ta'sirida 80% o'rmlar bo'lsa; e) kuchlanish ta'sirida 20% o'rmlar bo'lsa, rezistordan qanday tok o'tadi?

2.28. Elektr zanjirning almashlash sxemasida (2.12-a rasm) elektr zanjirining barcha shoxobchalaridagi toklarni toping. Hamma qarshiliklar bir xil $R = 15 \text{ Om}$. Manba kuchlanishi $U = 120 \text{ V}$.


Ko'rilyotgan zanjirda a, b, c uchlarga ega uchburchakni ekvivalent yulduzga o'tkazish qulay. Natijada 2.12-b rasmdagi zanjirni hosil qilamiz.



2.12-rasm



2.11-rasm



2.29. Agar: a) kuchlanish hamma qismidan olinsa; b) kuchlanish bo'lgich chulg'aming yarmidan olinsa; d) kuchlanish bo'lgich chulg'amlarining $1/4$ qismidan olinsa, kuchlanishi 10 V bo'lgan manbara ulangan kuchlanish bo'lgichning chiqishini toping.

2.30. Yuklama rezistori 10 V kuchlanishga ulangan. Agar rezistorning qarshiligi 10 kOm , 20 kOm , $1 \text{ M} \Omega$ bo'lsa, tok topilsin. Agar kuchlanish 1 V , tok esa $0,1 \text{ A}$; 10 mA ; 10 mA bo'lsa, yuklama qarshiligi hisoblansin.

2.31. O'tkazgichning qarshiligi 1 kOm , undan o'tadigan tok $0,2 \text{ A}$ dan katta bo'imasligi uchun maksimal kuchlanish qancha bo'lishi kerak?

2.2. O'ZGARMAS TOK MURAKKAB ZANJIRLARINI HISOBBLASH USULLARI

Bir necha konturlari bo'lgan zanjirlar uchun (2.13-a rasm) kontur toklar usuli qo'llaniladi. Bu usul dastavval tuzilgan tenglamalarni bog'lanmagan konturlar sonigacha kamaytirish imkonini beradi:

$$(R_1 + R_2 + R_5)I_1 - R_5 I_{II} - R_1 I_{III} = 0;$$

$$- R_5 I_1 + (R_4 + R_2 + R_5)I_{II} - R_4 I_{III} = 0;$$

$$- R_1 I_1 - R_4 I_{II} + (R_1 + R_4)I_{III} = E.$$

Zanjirdagi tugunlar soni konturlar sonidan kam bo'lsa, (2.13-b rasmdagi differensial sxema) tugun potensiallari usuli qo'llaniladi. Bu usul bo'yicha tenglamalar soni tugunlar sonidan bittaga kam bo'ladi, ya'ni:

$$U_{12} = \frac{E_1 G_1 - E_2 G_2}{G_1 + G_2 + G_3},$$

bunda G_1, G_2, G_3 – 1- va 2- tugunlar orasidagi shoxobchalarining o'tka-zuvchanligi.

Agar murakkab zanjirning faqat bitta R shoxobchasiidan o'tuvchi tokni topish zarur bo'lsa, ekvivalent generator usuli qo'llaniladi. Bu holda toki hisoblanadigan shoxobchadan tashqari bo'lgan zanjirning barcha qismini ekvivalent generator deyish mumkin. Uning kuchlanishi $U_{s.ish}$ ga teng va ichki qarshiligi esa r_{ich} bo'lgan manba deb hisoblanadi.

Mazkur shoxobchadagi tok quyidagicha aniqlanadi:

$$I = U_{s.ish} / (r_{ich} + R) \quad (2.19)$$


bunda R – shoxobcha qarshiligi va ekvivalent generator parametrlari bir-biri bilan $U_{s.ish} = I_{q.t.} r_{ich}$ ifoda orqali bog'langan. Bunda $I_{q.t.}$ – shaxobchadan qisqa tutashgan holda o'tadigan tok. Agar ajratilgan shoxobchada EYuK E manbai bo'lsa, tok quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$I = (U_{s.ish} + E) / (r_{ich} + R) \quad (2.20)$$

bunda EYuK E oldidagi ishora ekvivalent generatorning salt. ishlash kuchlanishining yo'nalishiga nisbatan olinadi.

Masalalar

2.32. Differensial sxemaga (2.13-b rasm) ulangan manbalarning EYuK $E_1 = 60$ V; $E_2 = 75$ V; $R_1 = 2$ Om; $R_2 = 3$ Om; $R_3 = 5$ Om bo'lsa, umumiy shoxobchadagi tok kuchini toping.



Yechish. Murakkab zanjirlarning hisoblash usullarini shu masalani yechish misolda ko'rib chiqamiz.

1. Ustma-ustlash usuli.

Faqat EYuK E_1 manba ta'sirida zanjir shoxobchalaridagi toklarni topish uchun E_2 manbani sxemadan fikran istisno etamiz, ya'ni EYuK E_2 qismalarini qisqa tutashtiramiz (2.14-a rasm).

Bu holda quyidagi natija kelib chiqadi:

$$R_{ekvl} = R_1 + \frac{R_2 R_3}{R_2 + R_3} = 3,875 \text{ Om.}$$

Shoxobchalardagi toklar mos ravishda:

$$I_{11} = \frac{E_1}{R_{ekvl}} = 15,5 \text{ A} ; \quad I_{12} = I_{11} \frac{R_3}{R_2 + R_3} = 9,6 \text{ A} ; \quad I_{13} = I_{11} - I_{12} = 5,9 \text{ A} .$$

EYuK E_2 ta'sirida shoxobchalardan o'tadigan toklarni topish uchun E_1 manbani fikran qisqa tutashtiramiz (2.14-b rasm). Bu holda $R_{ekv2} = \frac{R_1 R_3}{R_1 + R_3} = 4,4 \text{ Om}$. Shoxobchalardagi toklar mos ravishda teng:


$$I_{22} = \frac{E_2}{R_{ekv2}} = 17 \text{ A} ; \quad I_{23} = I_{22} \frac{R_1}{R_1 + R_3} = 4,9 \text{ A} ; \quad I_{21} = I_{22} - I_{23} = 12,1 \text{ A}$$

2.14-a, b rasmlardagi mos shoxobchalar toklarining yo'naliшини hisobga olib, izlanayotgan toklarni topamiz;

$$I_1 = I_{11} + I_{21} = 27,6 \text{ A} ; \quad I_2 = I_{12} + I_{22} = 26,6 \text{ A} ; \quad I_3 = I_{13} - I_{23} = 1 \text{ A} .$$

2. Kirxgof qonunlariga asoslangan usul.

Zanjir (2.14-d rasm) shoxobchalaridagi toklarga ixtiyoriy yo'naliш berib, bitta tugun va ikkita kontur uchun tenglamalar sistemasini tuzamiz:



2.14-rasm

$$\begin{cases} I_2 + I_3 - I_1 = 0; \\ E_1 = I_1 R_1 + I_3 R_3; \quad \text{yoki} \\ E_2 = -I_3 R_3 + I_2 R_2. \end{cases} \quad \begin{cases} -I_1 + I_2 + I_3 = 0; \\ 2I_1 + 5I_3 = 60; \\ 3I_2 - 5I_3 = 75. \end{cases}$$

Birinchi $I_3 = I_1 - I_2$ tenglamani keyingi ikkitasiga qo‘yib, ikki tenglamali sistema hosil qilamiz:

$$\begin{cases} 7I_1 - 5I_2 = 60 \\ -5I_1 + 8I_2 = 75 \end{cases}$$

Sistemanı yechib, tok qiymatlarini aniqlaymiz: $I_1 = 27,6$ A, $I_2 = 26,6$ A, $I_3 = 1$ A.

3. Kontur toklar usuli.

Berilgan sxema uchun ikkita kontur tanlaymiz va ular uchun Kinx-gofning ikkinchi qonun bo‘yicha kontur tenglamalari tuzamiz:

$$\begin{cases} E_1 = I_1 R + (I_1 - I_{II})R_3 \\ E_2 = (I_{II} - I_1)R_3 - I_{II}R_2 \end{cases} \quad \text{yoki} \quad \begin{cases} 60 = 2I_1 + (I_1 - I_{II})5 \\ 75 = (I_{II} - I_1)5 + 3I_{II} \end{cases}$$

Murakkab bo‘lmagan o‘zgartirishlardan keyin

$$\begin{cases} 7I_1 - 5I_{II} = 60 \\ -I_1 + 8I_{II} = 75 \end{cases}$$

Sistemanı hosil qilib, quyidagi yechimlarni topamiz:

$$I_1 = 27,6 \text{ A}; \quad I_2 = 26,6 \text{ A}; \quad I_3 = I_1 - I_2 = 1 \text{ A}.$$

4. Tugun potensiallari usuli.

Zanjirning 1- va 2-tugunlari orasidagi kuchlanish quyidagicha aniqlanadi:

$$U_{21} = \frac{60/2 - 75/3}{1/2 + 1/3 + 1/5} = -4,8 \text{ V}.$$

Shoxobchalardagi toklar mos ravishda teng, ya’ni:

$$I_1 = (E_1 + U_{21})/R_1 = 27,6 \text{ A};$$

$$I_2 = (E_2 - U_{21})/R_2 = 26,6 \text{ A};$$

$$I_3 = U_{21}/R_3 = 1 \text{ A}.$$

5. Ekvivalent generator usuli.

Zanjirdan 1-shoxobchani ajratib olamiz. Zanjirning bu shoxobchadan tashqari qismini *ekvivalent generator* deymiz. Uning kuchlanishi $E_0 = U_{01}$ va ichki qarshiligi $r_{ich} = r_{ich1}$, bunda

$$U_{01} = E_1 + U_{12} = E_1 + \frac{E_2 R_3}{R_2 + R_3} = 107 \text{ V},$$

$$r_{ich2} = \frac{R_1 R_3}{R_1 + R_3} = 1,43 \text{ Om.}$$

Binobarin, 1-shoxobchadagi tok kuchi Om qonuniga asosan:

$$I_1 = U_{01}/(r_{ich1} + R) = 27,6 \text{ A.}$$

Shunga o'xshash 2-shoxobcha uchun

$$U_{02} = E_2 + U_{12} = E_2 + \frac{E_1 R_3}{R_1 + R_3} = 117 \text{ V;}$$

$$r_{ich2} = \frac{R_1 R_3}{R_1 + R_3} = 1,43 \text{ Om;}$$

2-shoxobchadagi tok $I_2 = U_{02}/(r_{ich2} + R_2) = 26,6 \text{ A}$;

3-shoxobchadagi tok $I_3 = I_1 - I_2 = 1 \text{ A}$.

Shunday qilib, ko'rيلayotgan sxema uchun tugun kuchlanishlari (potensiallari) usuli eng qulay usuldir.

Hisoblarning to'g'riligini quvvatlar balansi bilan tekshirib ko'rish mumkin, ya'ni:

$$E_1 I_1 + E_2 I_2 = I_1^2 R_1 + I_2^2 R_2 + I_3^2 R_3.$$


Toklar va qarshiliklar qiymatlarini qo'yib, $3651 \text{ Vt} = 3651 \text{ Vt}$ ni hoslil qilamiz.

2.33. Ustma-ustlash, kontur toklar va tugun potensiali usullaridan foydalanib, 2.15-a rasmida tasvirlangan sxemalar shoxobchalaridagi toklari hisoblang. $E = 15 \text{ V}$; $R = 2 \text{ Om}$; Quvvatlar balansi tenglamasini tuzing.



2.34. Ustma-ustlash, kontur toklar va tugun potensiallari usullaridan foydalanib, 2.15-b rasmida tasvirlangan zanjir shoxobchalaridagi toklar topilsin.

$E = 30 \text{ V}$; $R = 5 \text{ Om}$. Quvvatlar balansi tenglamasi tuzilsin.

2.35. Elektr zanjirda aktiv ikki qutblik va ampermetr ulangan shoxobcha ajratilgan (2.16-rasm). Ikkala kalitlar uzilganda ampermetrning ko'rsatishi



2.15-rasm




2.16-rasm


2 A, agar $S4_1$ kalit ulangan, $S4_2$ kalit uzungan bo'lsa, ampermetr 3 A ko'rsatadi. Agar $R_1 = R_2 = 10 \text{ Om}$ bo'lsa, ikkala kalitlar ulangan holatda ampermetrning ko'rsatishini toping.

2.36. Kontur toklar usulidan foydalanim, 2.17-rasmida zanjir shoxobchalaridagi tok kuchlari topilsin. Manba EYuKlari va rezistor qarshiliklari mos ravishda teng, ya'ni: $E_1 = 50 \text{ V}$, $E_2 = 200 \text{ V}$, $E_3 = 55 \text{ V}$; $R_1 = R_2 = R_4 = 10 \text{ Om}$; $R_3 = 15 \text{ Om}$; $R_5 = R_6 = 5 \text{ Om}$.

2.37. Chiziqli potensiometrning kontakti o'rtada bo'lsa, chiqish kuchlanishi topilsin. Zanjir (2.18-rasm) elementlarining parametrlari: $U_1 = 30 \text{ V}$; $U_2 = 25 \text{ V}$; $U_3 = 6 \text{ V}$ va $R_1 = R_2 = R_3 = 1 \text{ kOm}$, $R_{o'zg}$ o'zgaruvchi rezistorning to'la qarshiligi 2 kOm.



2.17-rasm




2.18-rasm


2.38. 2.19-rasmda keltirilgan sxemada uchta o'zgarmas tok generatorlari ulangan. Agar parametrlar $E_1 = 230 \text{ V}$; $E_2 = 220 \text{ V}$; $E_3 = 160 \text{ V}$ va $R_1 = 2 \text{ Om}$; $R_2 = R_3 = 4 \text{ Om}$; $R_4 = 20 \text{ Om}$ bo'lsa, qaysi mashinalar energiya beradi, qaysilari energiya sarflaydi?

2.39. Qarshiligi R_{yuk} katta diapazonda o'zgaradigan yuklama (2.20-rasm) parallel manbalarga ulangan. Yuklama qarshiligi qancha bo'lganda unda maksimal quvvat ajraladi? Zanjir elementlarining parametrlari: $E_1 = 200 \text{ V}$; $E_2 = 150 \text{ V}$ va $R_1 = 20 \text{ Om}$; $R_2 = 30 \text{ Om}$ ga teng.

2.40. Ko'priq sxemali elektr zanjirning 2.13-a rasm diagonalidagi tok kuchi topilsin. $E_1 = 75 \text{ V}$ va $R_1 = R_2 = 5 \text{ Om}$; $R_3 = 3 \text{ Om}$; $R_4 = R_5 = 4 \text{ Om}$; $R_6 = 0$, R_7 qarshiligi qancha bo'lganda ko'priq diagonalidagi tok nolga teng bo'ladi?



2.19-rasm



2.20-rasm

2.41. Yelka qarshiliklari $R_1 = R_2 = 4$ Om; $R_3 = 5$ Om; $R_4 = 3$ Om bo‘lgan ko‘prik sxema (2.13-a rasm) EYuK $E = 30$ V, ichki qarshiliqi $R_6 = 1$ Om li manbara ulangan. Ko‘prik diagonali qisqa tutashganda va uzilgandagi manba toki hisoblansin.

2.42. Differensial sxemalni zanjirda (2.13-b rasm) $E_1 = 110$ V; $E_2 = 60$ V; Agar $R_1 = 10$ Om; $R_2 = 5$ Om bo‘lsa, qarshiliqi $R_3 = 5$ Om bo‘lgan shoxobchadagi tok topilsin. R_1 va R_2 ning qanday nisbatida yuklama toki nolga teng bo‘ladi?

2.3. ELEKTR ZANJIRLARDA O‘TISH JARAYONLARI

Elektr zanjirini bir barqaror holatdan boshqa barqaror holatga o‘tishi elektr zanjirdagi *o‘tish jarayoni* deyiladi. O‘tish jarayonining xarakteri berilgan elektr zanjirning induktivlik, sig‘im va qarshiliklari nisbatiga bog‘liq bo‘ladi.

Induktivli shoxobchadagi o‘tish jarayoni *kommutatsiyaning birinchi qonuniga bo‘ysunadi*. Induktivlikda tok keskin sakrab o‘zgara olmaydi. Sig‘imli shoxobchada *kommutatsiyaning ikkinchi qonuni o‘rinlidir*, chunki kondensatordagi kuchlanish keskin sakrab o‘zgara olmaydi.

Induktiv g‘altak o‘zgarmas tok mabaiga ulansa, (2.21-a rasm kalitning 1-holati) undagi tok o‘zgarishi quyidagicha bo‘ladi:

$$i = \frac{E}{R} \left(1 - e^{-\frac{t}{\tau}} \right) \quad (2.21)$$

bunda $\tau = \frac{L}{R}$ vaqt doimiysi, uning o‘lchov birligi quyidagicha:

$$[\tau] = \left[\frac{\text{Om} \cdot \text{s}}{\text{Om}} \right] = [\text{s}].$$

Kalitning 2-holatida g‘altakdagi tok eksponensial o‘zgaradi


$$i = \frac{E}{R} e^{-\frac{t}{\tau}}. \quad (2.22)$$

Kalit 1-holatda bo‘lganda (2.21-b rasm) ya’ni kondensator zaryadlanganda, undagi kuchlanish quyidagicha o‘zgaradi:

$$u_c = E(1 - e^{-\frac{t}{\tau}}); \quad (2.23)$$

tok esa $i = \frac{E}{R} e^{-\frac{t}{\tau}}$ qonun bo‘yicha o‘zgaradi.

Bunda $\tau = RC$ – vaqt doimiysi $[\tau] = \left[\text{Om} \cdot \frac{\text{s}}{\text{Om}} \right] = [\text{s}]$.



2.21-rasm

Kondensatorning zaryadsizlanishi (2.21-b rasm, kalitning 2-holati) ham eksponensial qonun bo'yicha o'zgaradi

$$u_c = E e^{-\frac{t}{\tau}}. \quad (2.24)$$

Tok esa $i_c = \frac{E}{R} \cdot e^{-\frac{t}{\tau}}. \quad (2.25)$

Amalda o'tish jarayoni $t = (3 \div 5)\tau$ vaqt davomida tamom tugaydi.

Masalalar

2.43. Rezistor va kondensatordan iborat zanjir o'zgarmas kuchlanish $U = 24$ V ga ulangan. Agar $R = 1$ kOm, $C = 10$ mкF bo'lsa (2.21-b rasm), $t = 1, 2, 3, 5 \tau$ vaqtlardagi kondensator kuchlanishi u_c va tok i_c aniqlansin. O'tish jarayoni 5 ms bo'lishi uchun kondensatorning sig'imi qancha bo'lishi kerak?

Yechish. Kondensator kuchlanishi va toki eksponensial (2.24) qonunlar bilan o'zgaradi. Vaqt doimisi τ bu holda quyidagicha bo'ladi:

$$\tau = RC = 10^3 \cdot 10^{-5} = 10 \text{ ms}.$$

Masala shartida berilgan vaqtlardagi kuchlanish va toklarni hisoblaymiz:


$$u_c = 24(1 - e^{-\frac{t}{\tau}}); \quad i = \frac{U}{R} \cdot e^{-\frac{t}{\tau}} = \frac{24}{1000} e^{-\frac{t}{\tau}} \text{ A.}$$

t	τ	2τ	3τ	4τ	5τ
u	15,2	20,8	22,8	23,84	23,84
i	8,8	3,2	1,2	0,16	0,04

O'tish jarayoni $t = 5$ ms bo'lishi uchun vaqt doimisi 1 ms deb olish kerak. Bunda kondensatorning sig'imi $C = 1$ mкF bo'ladi.

2.44. Keltirilgan sxemada (2.22-rasm) kondensator necha voltga-chaga zaryadlanadi? Bunda $U = 100$ V; $R_1 = 40$ Om; $R_2 = 60$ Om; $R_C = 26$ Om, $C = 200$ mкF. 10 ms vaqtdan keyingi kondensatordagi kuchlanish topilsin.

Yechish. Kondensatorli shoxob-chadan tashqari bo'lgan sxemani EYuK $E = U_{s,ish}$ va ichki qarshiligi $r_{ich} = R_1 R_2 / (R_1 + R_2)$ ga teng ekvivalent manba sifatida qarash mumkin. Ichki qarshilik $r_{ich} = 40 \cdot 60 / (40 + 60) = 24$ Om; salt ishlash kuchlanishi



$$U_{s,ish} = E \frac{R_2}{R_1 + R_2} = 60 \text{ V.}$$

2.22-rasm

Binobarin vaqt doimiysi $\tau = (R + r_{ich}) C = 10 \text{ ms}$ da kondensator 60 V gacha zaryadlanadi. 10 ms dan keyin uning kuchlanishi $60(1 - e^{-1}) = 37,8 \text{ V}$ bo'ladi.

2.45. Qarshiligi $R = 10 \text{ Om}$ li rezistordan va $L = 10 \text{ mGn}$ induktiv g'altakdan iborat zanjir EYuK $E = 15 \text{ V}$ manbaga ulangan (2.21-a rasm) $t = 0,5; 1; 2; 4 \tau$ vaqt onlarida zanjir toki va g'altakdagagi kuchlanish aniqlansin. O'tish jarayonining vaqt 1 ms bo'lishi uchun g'altak induktivligini tanlang.

Yechish. Masala shartida berilganlarga ko'ra g'altakdagagi tok va kuchlanish mos ravishda teng, ya'ni: $i = 1,5(1 - e^{-t/\tau}) = 0,59; 0,95; 1,3$ va $1,47 \text{ mA}$; $u = 1,5(1 - e^{-t/\tau}) = 9,1; 5,5; 2$ va $0,27 \text{ V}$. O'tish jarayonining vaqt $t = 1 \text{ ms}$ ni ta'minlash uchun vaqt doimiysi $\tau = 0,2 \text{ ms}$ va induktivlik $L = 2 \text{ Gn}$ bo'lishi kerak.


2.46. O'zgarmas tok motori kuchlanishi 110 V li o'zgarmas tok manbaga ulangan. Uning yakori 2000 o'ramdan iborat bo'lib, har bir o'ramning qarshiligi 1 Om, induktivligi 100 mGn. Agar g'altakdan o'tuvchi ishga tushirish toki $I = 50 \text{ A}$ bo'lsa, motor manbaga qo'shilganidan so'ng qancha vaqtдан keyin aylanadi.

2.47. Katta induktivlikka ega qurilmalarni manbadan ajratilganda ular nima uchun qarshilikka ulanishini tushuntiring. G'altak manbadan ajratilganda uning qismalaridagi kuchlanish qanday o'zgaradi?

2.48. Kondensatorli zanjirda o'tish jarayonining vaqt doimiysi: a) qarshilik 2 baravar oshganda; b) sig'im 3 baravar kamayganda; d) qarshilik va sig'im bir yo'la 2,5 baravar kamayganda qanday o'zgaradi?

2.49. Kondensator qarshiligi 1 kOm bo'lgan rezistor orqali zaryadsizlanganda va bunda tok $i = 10e^{-t/\tau} \text{ mA}$ bilan o'zgarsa va $\tau = 1 \text{ ms}$ bo'lsa, rezistordagi kuchlanishning 1, 2 va 5 ms dagi qiymatlari hisoblansin. Qancha vaqtдан keyin rezistordagi kuchlanish 5 V bo'ladi?

2.50. Kondensatordagi kuchlanish $u = 36[1 - e^{-t/\tau}]$ qonuniyat bilan o'zgaryapti. Kondensatorning zaryadlanmasdan oldingi va zaryadlangandan keyingi kuchlanishi topilsin. Agar vaqt doimiysi $\tau = 2 \text{ ms}$ bo'lsa, qancha vaqtдан keyin kondensatordagi kuchlanish 25 V bo'ladi?



3-BOB Magnit zanjirlar

3.1. MAGNIT ZANJIRLARNING XARAKTERISTIKALARI. ELEKTROMAGNITLAR

Magnit maydon kuchlanganlik va magnit induksiya bilan tavsiflanadi. Magnit oqim Φ (Vb), magnit induksiya B va shu magnit oqimni o'tkazadigan muhitning ko'ndalang kesim yuzi S oralarida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$\Phi = BS, \quad (3.1)$$

bunda S – ko'ndalang kesim yuzi, m^2 ; B – magnit induksiya, Tl.

Magnit maydonning kuchlanganligi H (A/m) magnit induksiya B hamda o'tkazuvchi muhitning xossasiga bog'liq:

$$H = B / \mu_a. \quad (3.2)$$

Ferromagnit materiallar uchun absolut (mutlaq) magnit singdiruvchanlik $\mu_a = \mu_r \mu_0$ doimiy kattalik bo'lmagan uchun berilgan kuchlanganlikka mos keladigan induksiyani aniqlash maqsadida magnitlanish egri chizig'idan foydalaniladi (5-ilova). Bunda magnit doimiysi $\mu_0 = 4\pi 10^{-7}$ N/m = $1,256 \cdot 10^{-6}$ Gn/m = $12,56 \cdot 10^{-7}$ Gn/m; μ_r – muhitning nisbiy magnit singdiruvchanligi. Magnit maydonning kuchlanganligi tok kuchiga va magnitlovchi chulg'amning shakliga bog'liq bo'ladi, uzun to'g'ri o'tkazgich uchun quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H = I / 2\pi(l_a), \quad (3.3)$$

bunda, l_a – o'tkazgich o'qidan fazodagi kuchlanganlik H aniqlanayotgan nuqtagacha bo'lgan masofa.

w o'ramli chulg'amdan I tok o'tsa, u Iw magnitlovchi kuch hosil qiladi. Magnit maydonning kuchlanganligi quyidagicha aniqlanadi:

$$H = Iw / l_{o,r} \quad (3.4)$$

bunda, $l_{o,r}$ – magnit kuch chizig'inining o'rta uzunligi.

Bir jinsli chiziqli magnit zanjir uchun Om qonuni quyidagicha:

$$\Phi = Iw/R_\mu, \quad (3.5)$$

bunda $R_\mu = I_{o\cdot r}/\mu_a S$ – zanjirning magnit qarshiligi, $1/Gn$.

Elektromagnit qurilmalarning ishlashi magnit maydon va tokli o'tkazgich yoki ferromagnit materiallarning o'zaro ta'sir etishiga asoslanadi.

Magnit maydon kuch chiziqlariga α burchak ostida joylashgan tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuch quyidagicha topiladi:

$$F = BIl \sin \alpha, \quad (3.6)$$

bunda l – o'tkazgich uzunligi.

I_1 va I_2 tokli o'tkazgichlarning o'zaro ta'sir etuvchi kuchi (Amper qonuni) quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{12} = F_{21} = \mu_a I_1 I_2 l / 2\pi l_a, \quad (3.7)$$

bunda l – o'tkazgichlar orasidagi masofa.

Elektromagnit hosil qiladigan tortish kuchi taqriban quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$F = 4 \cdot 10^5 B^2 S, \quad (3.8)$$

bunda S – elektromagnit qutblarining kesim yuzi, m^2 .

Masalalar

3.1. Ikki parallel cheksiz uzun to'g'ri o'tkazgich vakuum ($\mu_r = 1$) da biridan $l_a = 0,40$ m masofada joylashgan. Agar ularning biridan $I_1 = 12 A$, ikkinchisidan esa $I_2 = 18 A$ tok o'tayotgan bo'lsa, simlarning uzunlik birligiga ta'sir qiluvchi kuch F/l topilsin. Magnit doimiysi $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} Gn/m$.

Yechish. Parallel toklarning o'zaro ta'sir kuchi (Amper) quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{F}{l} = \mu_0 \mu_r \frac{I_1 I_2}{2\pi l_a} = 4 \cdot 3,14 \cdot 10^{-7} ; 1 \cdot \frac{12 \cdot 18}{2 \cdot 3,14 \cdot 0,4} = 1,08 \cdot 10^{-7} N/m.$$

3.2. Yuzasining kesimi kvadrat bo'lgan halqasimon bir jinsli magnit o'tkazgichga o'rmlar soni $w = 150$ ta bo'lgan magnitlash chulg'ami o'ralsan. Halqaning tashqi diametri $D = 140$ mm, ichki diametri $d = 80$ mm. Magnit o'tkazgichdagi oqim $\Phi = 1,53 \cdot 10^{-2}$ Vb bo'lishi uchun chulg'am toki hamda chulg'amning magnit yurituvchi kuchi topilsin.

Agar magnit o'tkazgich 3411 elektrotexnik po'latdan yasalgan bo'lsa, uning magnit qarshiligini toping.

Yechish. Chulg'am toki (3.5) formuladan topiladi $I = \Phi R_\mu / w$. Magnit qarshilik R_μ ni topish uchun induksiya $B = \Phi / S$ ni hisoblaymiz.

Bunda $S = \pi(D - d)^2 / 4 = 9 \cdot 10^{-4} m^2$. Binobarin, induksiya $B = 1,7 T$ bo'lganda 5-ilovadan foydalananib, 3411 po'lat uchun magnit maydonning

Kuchlanganligini topamiz: $H = 3000 \text{ A/m}$. Magnit qarshilik $R_\mu = l/\mu_a S = HI_{o'r}/BS$ ga teng.

Magnit kuch chizig'ining o'rtacha uzunligi bu holda quyidagicha bo'ladi:

$$l_{o'r} = \pi(D + d)/2 = 0,35 \text{ m}.$$

Tokni topib $I = HI/w = 7 \text{ A}$, magnitlash kuchini hisoblaymiz $Iw = 1050 \text{ A}$ va magnit qarshilik $R_\mu = Iw/\Phi = 7 \cdot 10^6 \text{ 1/Gn}$ ni topamiz.

3.3. Magnit kuch chiziqlariga perpendikulyar joylashgan elektr o'tkazgichga 5 N kuch ta'sir qilmoqda. Agar o'tkazgichning uzunligi 1 m, qarshiliqi 1 Om va kuchlanishi 36 V, $r_{ich} = 0$ EYuK manbaiga ulangan bo'lsa, magnit maydon induksiyasini toping.

Yechish. O'tkazgichdan o'tayotgan tokni Om qonunidan topamiz. $r_{ich} = 0$ bo'lgani uchun $I = E/R = 36 \text{ A}$. Magnit maydon induksiyasini (3.6) formuladan topamiz: $B = F/I = 0,14 \text{ Tl}$.

3.4. Ko'ndalang kesim sirti $2 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$, magnit induksiyasi 0,8; 1,2; 1,5 Tl bo'lgan magnit o'tkazgichdagi magnit oqim aniqlansin.

3.5. Magnit induksiyasi bir xil, kesimi doiraviy bo'lgan ikkita magnit o'tkazgichning biridagi magnit oqim ikkinchisidan: a) 5 baravar kam; b) 4 baravar ko'p; d) 8 baravar ko'p bo'lganda ularning diametrlarining nisbati qanday bo'ladi?


3.6. 10 A tok o'tayotgan havo uzatish liniyasidan 0,5 m masofadagi nuqtaning magnit kuchlanganligini va magnit induksiyasini aniqlang.

3.7. Ferromagnit materialning kuchlanganligi 2250 A/m bo'lganda, undagi magnit induksiya 1,5 Tl. Materialning absolut va nisbiy magnit singdiruvchanligi aniqlansin.

3.8. Magnit maydonga kiritilgan ferromagnit tayoqchadagi magnit induksiya xuddi shunday kuchlanganlikdagi havoning magnit induksiyasidan 500 marta ko'p. Ferromagnit tayoqchaning absolut magnit singdiruvchanligini aniqlang.

3.9. Tok o'tayotgan o'tkazgichdan 20 m uzoqdagi havoning magnit induksiyasi $2 \cdot 10^{-7} \text{ Tl}$. Shu nuqtadagi magnit maydon kuchlanganligi va o'tkazgichdan o'tuvchi tokni toping.

3.10. Halqasimon magnit o'tkazgichdagi (3.1-rasm) $w = 250$ o'ramli chulg'amdan 2,5 A tok o'tyapti. Agar magnit o'tkazgichning o'rtacha diametri 0,1 m bo'lib, u har xil: a) 1512 elektrotexnik po'latdan; b) 1410 quyma po'latdan yasalgan bo'lsa, undagi magnit induksiyani aniqlang. Material xarakteristikasi 5-ilovada keltirilgan.



3.1-rasm

3.2. TARMOQLANMAGAN MAGNIT ZANJIRNI HISOBBLASH

Havo tirkishli magnit o'tkazgichni hisoblash eng sodda tarmoqlanmagan (3.2-a, b rasm) magnit zanjirni hisoblashga misol bo'la oladi.

Bunday zanjirlarni hisoblashda magnit zanjirlar uchun Om qonunidan tashqari to'la tok qonunidan ham foydalaniladi, ya'ni:

$$Iw = H_1 l_1 + H_2 l_2 + \dots + H_n l_n, \quad (3.9)$$

bu yerda H_n – uzunligi l_n bo'lgan maydonning n qismidagi magnit kuchlanganlik.

Harakatlanuvchi yakorli qurilmalarning – rele, elektr o'lchov asboblarining magnit sistemalari ham tarmoqlanmagan magnit zanjirlarga misol bo'la oladi. Misol sifatida elektr magnit o'zgartirgichni ko'rsatish mumkin (3.3-rasm). Yakorning va o'zakning ko'ndalang kesimi bir xil bo'lganda zanjir uchun to'la tok qonuni quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



$$Iw = Hl + 2H_0\delta_0 = \frac{B}{\mu_0} \left(\frac{l}{\mu_r} + 2\delta_0 \right) \quad (3.10)$$

Odatda harakatlanuvchi yakor ikki barqaror holatda, ya'ni po'lat o'zakka tutashgan ($\delta_0 = 0$) va ajralgan ($\delta_0 = \delta_{0 \max}$) holatda bo'ladi.


Magnit zanjirlarning asosiy xarakteristikalariga $\Phi(Iw)$ yoki $\Phi(I)$ magnit va $F(I)$ tortuvchi xarakteristikalar kiradi, bularda $\delta_0 = \text{const}$; $I = \text{const}$ bo'lishi kerak. Ular magnit o'tkazgichlarda foydalaniladigan ferromagnit materiallarning magnitlanish egri chiziqlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Masalalar

3.11. Magnit kuch chizig'ining o'rtacha uzunligi 0,4 m va havo tirkishi $\delta_0 = 2$ mm bo'lgan tarmoqlanmagan magnit zanjirda $B = 1,6$ Tl magnit induksiya hosil qilish kerak. Magnit o'tkazgich 1512 elektrotexnik po'latdan yasalgan. Agar o'ramlar soni $w = 300$ bo'lsa, magnit o'tkazgichdagi hamda havo tirkishidagi kuchlanganlik va magnitlovchi tok aniqlansin.



3.2-rasm



3.3-rasm

Magnit o'tkazgichning qarshiligi havo tirkishining magnit qarshiligi dan necha baravar kam?

Yechish. Havo tirkishidagi magrit maydonning kuchlanganligi quyidagicha aniqlanadi:

$$H = B/\mu_0 = 1,6 \cdot 10^7 / 4\pi = 1,27 \cdot 10^6 \text{ A/m}.$$

Magnit o'tkazgichdagi kuchlanganlikni $H = 6000 \text{ A/m}$ ekanligini 5-ilovadan aniqlaymiz. To'la tok qonunidan foydalaniib, chulg'amning magnitlovchi kuchini hisoblaymiz, ya'ni:

$$Iw = Hl + H_0\delta_0 = 2400 + 2540 = 4940 \text{ A}.$$

Chulg'am toki $I = 16,5 \text{ A}$.

Magnit qarshiligi formulasidan $R_\mu = \frac{lR_0}{\mu_r\delta_0}$ yoki $R_0 = \frac{R_\mu\mu_r\delta_0}{l}$, bunda μ_r – po'latning nisbiy magnit singdiruvchanligi 5-ilovaga ko'ra, $\mu_r = B/(H \cdot \mu_0) = 1,6/6000 \cdot 4\pi \cdot 10^{-7} = 213$ ga teng. Niroyat, $R_{\mu_0} = 10,6 R_\mu$ tengligi kelib chiqadi.


3.12. O'rmlar soni $w = 150$ bo'lgan magnitlovchi chulg'amdan $I = 5 \text{ A}$ tok o'tayapti. Bu chulg'am o'rta chizig'i $0,3 \text{ m}$ va ko'ndalang kesim yuzi 10^{-4} m^2 tarmoqlanmagan magnit o'tkazgichga joylashgan. Agar magnit o'tkazgich quyma po'latdan yasalgan va havo tirkishi $\delta_0 = 0,5 \text{ mm}$ bo'lsa, zanjirdagi magnit oqim va induksiya aniqlansin.

Yechish. Bu sharti bo'yicha teskari qo'yilgan masala bo'lib, quyma po'latning magnit qarshiligining nochiziqligi sababli grafo-analitik usulda yechiladi.

5-ilovada keltirilgan magnitlanish egri chizig'idan foydalaniib $\Phi (Iw)$ magnit xarakteristikani quramiz. Buning uchun tanlangan H qiymatlarini l_0 ga ko'paytililadi (3.4-rasm), mos B larning qiymatlari esa S ga ko'paytililadi. Magnit yurituvchi kuchning qiymatini Iw o'q bo'yicha belgilaymiz, ya'ni $Iw = 750 \text{ A}$. Havo tirkishining magnit qarshiligi quyidagicha bo'ladi:

$$R_{\mu_0} = \delta_0/(\mu_0 S) = 0,5 \cdot 10^{-2} / (4\pi \cdot 10^{-7} \cdot 10^{-4}) = 4 \cdot 10^6 \text{ 1/Gn}.$$

Magnit oqim $\Phi = \frac{Iw}{R_\mu} = 1,875 \cdot 10^{-4} \text{ Vb}$ ni belgilaymiz, Iw va $\Phi = IwR_\mu$ kesmalaridan foydalaniib $\Phi = f(Iw)$ grafigini quramiz (3.4-rasm) va uning magnit xarakteristika bilan kesishgan nuqtasini hosil qilamiz. Natijada magnit o'tkazgichning magnit oqimi $\Phi = 1,2 \cdot 10^{-4} \text{ Vb}$ va magnit induksiya $B = 1,2 \text{ Tl}$ ga teng bo'ladi.



3.4-rasm

3.13. O'ramlar soni $w = 100$ bo'lgan chulg'am quyma po'latdan yasal-gan magnit o'tkazgichga o'matilgan (3.3-rasm). Magnit o'tkazgich kuch chiziqlarining o'rtacha uzunligi $l_{o'r} = 0,3$ m, o'zakning ko'ndalang kesimi $S_k = 5 \cdot 10^{-3}$ m²; yakorniki esa $S_{ya} = 2 \cdot 10^{-3}$ m². Agar $2\delta_0 = 0,5$ mm bo'lsa, tortish kuchi 6 kN dan kam bo'lmasligi uchun, chulg'amdan o'tadigan tok kuchi qancha bo'lishi kerak?

Yechish. Magnit zanjir uchun bu holda to'la tok qonunidan (3.10) foydalanish kerak, ya'ni:

$$Iw = \frac{B}{\mu_0} \left(\frac{l}{\mu_r} + 2\delta_0 \frac{S_{ya}}{S_k} \right).$$

Induksiya esa elektromagnit tortish kuchi 3.8 formulasidan aniqlanadi:

$$B = \sqrt{F/4 \cdot 10^5 B^2 S_k} = \sqrt{6000/2000} = \sqrt{3} \text{ Tl} = 1,73 \text{ Tl}.$$

5-ilovadan ma'lumki, quyma po'latda $B = 1,73$ Tl induksiya hosil qilish uchun magnit maydonning kuchlanganligi $H = 8000$ A/m bo'lishi kerak. Bu esa absolut magnit singdiruvchanlik, $\mu_a = B/H = 2,16 \cdot 10^{-4}/4\pi \cdot 10^{-7}$ Gn/m ga to'g'ri keladi. Nisbiy magnit singdiruvchanlik quyida-gicha aniqlanadi:

$$\mu_r = \mu_a/\mu_0 = 2,16 \cdot 10^{-4}/4\pi \cdot 10^{-7} = 2670.$$

Topilgan parametrlarni dastlabki formulaga qo'yib, magnitlash kuchini aniqlaymiz:

$$Iw = \frac{1,73}{4\pi \cdot 10^{-7}} \left(\frac{0,3}{172} + 0,5 \cdot 10^{-3} \cdot \frac{2}{5} \right) = 2670 \text{ A}.$$

O'ramlar soni $w = 100$ ma'lum bo'lgani uchun noma'lum tokni hisoblaymiz: $I = 26,7$ A.

3.14. Toroidal magnit o'tkazgichga (3.2-a rasm) Ø 2 mm sim o'ralgan. Agar uning ichki diametri $d = 0,25$ m, tashqi diametri $D = 0,31$ mm va havo tirqishi $\delta_0 = 2$ mm, sim esa "o'ram yoniga o'ram" usulda o'ralib, undan o'tayotgan tok 5 A bo'lsa, magnit o'tkazgich maydonidagi kuchlanganlikni hisoblang.

Yechish. O'ramlar soni $w = (\pi d - l_0)/d = 391$, kuch chizig'inining o'rtacha uzunligi $l_{o'r} = \pi(d + D)/2 = 0,88$ m; $H = 2220$ A/m ga teng bo'ladi.


3.3. TARMOQLANGAN MAGNIT ZANJIRNI HISOBBLASH

Tarmoqlangan magnit (masalan ko'p o'zakli magnit o'tkazgichlardan tarkib topgan) zanjirlarini hisoblash uchun Kirxgofning birinchi va ikkinchi

qonunlarining tugun va zanjir konturi uchun mos ravishda quyidagi shakllardan foydalilanildi:

$$\sum \Phi = 0; \quad \sum Hl = \sum Iw. \quad (3.11)$$

Tarmoqlangan zanjirlar simmetrik va nosimmetrik bo'lishi mumkin. Birinchi holda (3.5-a rasm) magnit zanjirning simmetriya o'qida u ikkita bir xil qismlarga bo'linadi va hisoblash bitta yarmi uchun tarmoqlanmagan zanjirlar kabi olib boriladi. Ikkinchi holda (3.5-b rasm) zanjir qismlarining magnit xarakteristikalaridan foydalilanildi.



3.5-rasm


Ba'zi bir elektrotexnik qurilmalarda magnit yurituvchi kuch sifatida doimiy magnitlardan foydalilanildi. Eng sodda zanjir sifatida havo tirqishi bo'lgan doimiy magnitdan yasalgan halqasimon o'zakni ko'rsatish mumkin (3.6-a rasm). Bunday materiallarning magnitsizlanish egri chizig'i 3.6-b rasmida keltirilgan.

Doimiy magnit uchun to'la tok qonuni $Iw = 0$ ni hisobga olib, quyida gicha yoziladi:

$$H_m l_m + H_0 l_0 = 0; \quad H_m = -H_0 l_0 / l_m \quad (3.12)$$

Magnit zanjirni hisoblash magnitsizlanish egri chizig'idan olingan xarakteristika bilan havo tirqishi $\Phi = (H_0 l_0)$ to'g'ri chizig'inинг kesishish nuqtasini grafik usulda topishdir.

Odatda doimiy magnitlar magnit zanjirning bir qismini tashkil etadi, boshqa qismlari esa magnit yumshoq materiallardan va havo tirqishidan iborat bo'ladi. Bunday zanjirlarni hisoblash masalasi doimiy magnit bilan magnit zan-



3.6-rasm

jirning boshqa barcha qismini magnit xarakteristikalarining kesishish nuqtasi grafik usulda topish masalasiga keltiriladi.

Doimiy magnitlarning gabarit o'chamlarini kichraytirish uchun ularning havo tirqishida magnit maydonning maksimal qiymatini ta'minlash kerak, bu esa induksiya va kuchlanganlikning eng katta ko'paytmasiga mos keladi.

Masalalar

3.15. Konfiguratsiyasi 3.5-b rasmida keltirilgan magnit o'tkazgichga o'ramlar soni $w_1 = w_2 = 250$ bo'lgan magnitlovchi chulg'amlar o'ralgan. Bu magnit o'tkazgich 1512 elektrotexnik po'latdan yasalgan, havo tirqishlari $\delta_{01} = \delta_{02} = 1$ mm. Shu chulg'amlardan o'tadigan toklar $I_1 = I_2 = 8$ A. O'chamlari $S_1 = S_3 = S_5 = 3 \cdot 10^{-4}$ m²; $S_2 = S_4 = 2 \cdot 10^{-4}$ m²; $l_1 = l_2 = 0,3$ m va $l_3 = l_4 = l_5 = 0,1$ m bo'lgan magnit zanjirning barcha qismlaridagi magnit oqimlar aniqlansin.

Yechish. Magnit zanjirlar uchun Kirxgof qonunlari asosida quyidagi sistemani yozish mumkin, ya'ni:


$$\begin{cases} \Phi_3 = \Phi_1 + \Phi_2 \\ I_1 w_1 = H_3 l_3 + H_1 l_1 + H_4 l_4 + H_{01} \delta_{01} \\ I_2 w_2 = H_3 l_3 + H_2 l_2 + H_5 l_5 + H_{02} \delta_{02}. \end{cases}$$

Tenglamalar sistemasini yechish uchun Φ_1 va Φ_2 oqimlarning magnit xarakteristikalari topilishi kerak. Bu xarakteristikalar asosida natijaviy xarakteristik yasaladi va uni Φ_3 magnit xarakteristikasi bilan kesishish nuqtasi aniqlanadi.


Ikkita birinchi bog'lanish quyidagi ifodalardan topiladi:

$$(Iw)_1 = H_1 l_1 + H_4 l_4 + H_{01} \delta_{01}.$$

Izlanayotgan I qiymatlar esa $Iw - H_3 l_3 = (Iw)_2$ tenglamani 3.7-rasmida ko'rsatilgandek grafik usulda yechib, aniqlanadi. Shu rasmga muvofiq $\Phi_1 = 3,2 \cdot 10^{-4}$ Vb; $\Phi_2 = 2,8 \cdot 10^{-4}$ Vb va $\Phi_3 = 6 \cdot 10^{-4}$ Vb.



3.7-rasm



4.-BOB

O‘zgaruvchan tok elektr zanjirlari

4.1. BIR FAZALI SINUSOIDAL TOK ZANJIRLARINI HISOBBLASH

Sinusoidal o‘zgaruvchan tok zanjiridagi kuchlanish va tok mos ravishda quyidagicha yoziladi:

$$u = U_{\max} \sin (\omega t + \Psi_u); \quad i = I_{\max} \sin (\omega t + \Psi_i), \quad (4.1)$$

bunda U_{\max} , I_{\max} – kuchlanish va tokning maksimal qiymati; Ψ_u va Ψ_i – kuchlanish va tokning boshlang‘ich fazasi.

Rezistorli zanjir uchun tok va kuchlanishning ta’sir etuvchi qiymatlari orasidagi bog‘lanish Om qonuni bilan aniqlanadi, ya’ni:

$$I = U/R \quad (4.2)$$

bunda tok (I) va kuchlanish (U) ning ta’sir etuvchi qiymati quyidagicha bo‘ladi:

$$I = \frac{I_{\max}}{\sqrt{2}} = 0,707 I_{\max}; \quad U = \frac{U_{\max}}{\sqrt{2}} = 0,707 U_{\max}. \quad (4.3)$$

Induktivlik L ning reaktiv qarshiligi tokning siklik chastotasi $\omega = 2\pi f$ (f – chastota, Gs) va induktivlik L ga proporsionaldir, ya’ni:

$$X_L = \omega L \quad [\text{Om}]. \quad (4.4)$$

Induktivlikdagi kuchlanish

$$U_L = I \cdot X_L = L \frac{\Delta I}{\Delta t}. \quad (4.5)$$

G‘altakdagi tok kuchlanishga nisbatan faza jihatdan 90° ga orqada qoladi.

C sig‘imli kondensatorning reaktiv qarshiligi X_C sig‘im qarshilik deb ataladi.

$$X_C = 1/\omega C \quad [\text{Om}]. \quad (4.6)$$

Kondensatordan o‘tuvchi tok quyidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{U}{X_C} = C \frac{\Delta U}{\Delta t} \quad (4.7)$$

Aktiv, induktiv va sig'im o'tkazuvchanliklar mos ravishda:

$$\text{aktiv o'tkazuvchanlik} \quad g = \frac{1}{r}, \text{ Sm}; \quad (4.8)$$

$$\text{induktiv o'tkazuvchanlik} \quad b_L = \frac{1}{X_L}, \text{ Sm}; \quad (4.9)$$

$$\text{sig'im o'tkazuvchanlik} \quad b_C = \omega C, \text{ Sm}; \quad (4.10)$$

$$\text{va to'la o'tkazuvchanlik} \quad Y = \frac{1}{Z} = \frac{1}{\sqrt{r+x^2}}, \text{ Sm.}$$

Quvvatlar quyidagi formulalardan foydalaniб hisoblanadi:

$$\text{aktiv quvvat} \quad P = UI \cos\varphi = rI^2, \text{ Vt}; \quad (4.11)$$

$$\text{reakтив quvvat} \quad Q = UI \sin\varphi = XI^2, \text{ var}; \quad (4.12)$$

$$\text{reakтив induktiv quvvat} \quad Q_L = X_L \cdot I^2, \text{ var}; \quad (4.13)$$

$$\text{reakтив sig'im quvvat} \quad Q_C = X_C I^2, \text{ var}; \quad (4.14)$$


$$\text{to'la quvvat} \quad S = \sqrt{P^2 + Q^2}, \text{ V·A.} \quad (4.15)$$

Masalalar

4.1. Quvvati $P = 100$ Vt li cho'g'lanma lampa $U = 220$ V, $f = 50$ Gs manbaga ulangan (4.1-rasm). Zanjirdan o'tuvchi tokni toping.

Kuchlanish va tok oniy qiymatlari ifodasini yozing, ularning to'lqin grafiklarini va vektorlar diagrammasini quring.

Yechish. $P = UI \cos\varphi$ ifodadan tok $I = \frac{P}{U} = \frac{100}{220} = 0,45$ A, chunki cho'g'lanma lampa aktiv tarkibiligi bo'lgani uchun $\cos\varphi = 1$; $\varphi = 0^\circ$.




4.1-rasm

Kuchlanish va tokning oniy qiymatlari quyidagicha yoziladi: $u = \sqrt{2} \cdot U \sin(\omega t + \psi_u) = U_{\max} \sin\omega t = \sqrt{2} \cdot 220 \sin\omega t = 310,2 \sin\omega t$, $i = \sqrt{2} \cdot I \sin(\omega t + \psi_i) = I_{\max} \sin\omega t = \sqrt{2} \cdot 0,45 \sin\omega t = 0,63 \sin\omega t$, $\varphi = \psi_u - \psi_i = 0^\circ - 0^\circ = 0^\circ$, bunda $U_{\max} = \sqrt{2} \cdot 220 = 310,2$ V, $I_{\max} = \sqrt{2} \cdot 0,45 = 0,63$ A, mos ravishda kuchlanish va tokning maksimal qiymatlari; burchak chastota $\omega = 2\pi f = 2 \cdot 3,14 \cdot 50 = 314$ 1/s; davr $T = \frac{1}{f} = \frac{1}{50} = 0,02$ s; ψ_u va ψ_i – kuchlanish va tokning boshlang'ich fazasi.

Sinusoidal o'zgaruvchan kuchlanish va tok grafiklarini qurish uchun masshtab tanlaymiz. $m_U = 100$ V/sm, $m_I = 0,3$ A/sm, $m_{\omega t} = 60$ grad/sm va quyidagi jadvalni tuzamiz.

Jadvaldagi kattaliklar qiymatlari bo'yicha kuchlanish $u(\omega t)$ va tok $i(\omega t)$ grafiklarini quramiz (4.2-a rasm). 4.2-b rasmida kuchlanish va tok vektorlari diagrammasi keltirilgan.


t, s	$\omega t, \text{grad}$	$\sin \omega t$	$u = 310,2 \sin \omega t, \text{V}$	$i = 0,63 \sin \omega t, \text{A}$
0	0	0	0	0
0,0016	30	0,5	155	0,315
0,0033	60	0,86	266	0,54
0,005	90	1	310	0,63
0,0066	120	0,86	266	0,54
0,0082	150	0,5	155	0,315
0,01	180	0	0	0
0,0116	210	-0,5	-155	-0,315
0,0133	240	-0,86	-266	-0,54
0,015	270	-1	-310	-0,63
0,0166	300	-0,86	-266	-0,54
0,0183	330	-0,5	-155	-0,315
0,02	360	0	0	0



4.2-rasm

4.2. Induktivligi $L = 5 \text{ Gn}$, aktiv qarshiligi $r_g = 500 \text{ Om}$ li induktiv g'altak kuchlanishi $\dot{U} = 220 \text{ V}$, $f = 50 \text{ Gs}$ sinusoidal kuchlanish manbaiga ulangan (4.3-rasm). Zanjirdan o'tuvchi tokni, aktiv, reaktiv, to'la quvvatlarni va quvvat koefitsientini aniqlang.

Kuchlanishlar va tok oniy qiymatlari ifodalarini yozing, ularning grafigi va vektorlar diagrammasini quring.



4.3-rasm

Yechish. Induktiv g'altak parametrlaridan induktiv qarshilik quyidagi-cha aniqlanadi:

$$X_L = \omega L = 2\pi f L = 2 \cdot 3,14 \cdot 50 \cdot 5 = 1570 \text{ Om.}$$

$$\text{G'altakning to'la qarshiligi } Z = \sqrt{r^2 + X_L^2} = \sqrt{500^2 + 1570^2} = 1647,7 \text{ Om.}$$

Zanjirdagi tok $I = \frac{U}{Z} = \frac{220}{1647,7} = 0,133 \text{ A}$. Aktiv qarshilikdagi kuchlanish tushuvi esa: $U_r = r_g I = 500 \cdot 0,133 = 66,7 \text{ V}$ ga teng.

Induktiv qarshilikdagi kuchlanish tushuvi

$$U_L = X_L I = 1570 \cdot 0,133 = 209,9 \text{ V.}$$

G'altak qismalaridagi kuchlanish manba kuchlanishiga teng bo'ladi.

$$U_z = \sqrt{U_r^2 + U_L^2} = \sqrt{(66,7)^2 + (209,9)^2} = 220 \text{ V.}$$

$$\text{Aktiv quvvat } P = r_g I^2 = 500 \cdot (0,133)^2 = 8,85 \text{ Vt.}$$

$$\text{Reaktiv quvvat } Q = X_L I^2 = 1570 \cdot (0,133)^2 = 27,8 \text{ var.}$$

$$\text{To'la quvvat } S = \sqrt{P^2 + Q^2} = \sqrt{(8,85)^2 + (27,8)^2} = 29,2 \text{ V} \cdot \text{A.}$$

Quvvat koeffitsienti

$$\cos \varphi = \frac{P}{S} = \frac{8,85}{27,8} = 0,31 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Faza burchagini siljishi $\varphi = 72^\circ$ demak, induktiv g'altakdan o'tuvchi tok faza bo'yicha kuchlanishdan 72° orqada bo'ladi.

Endi induktiv g'altakdagi kuchlanish va tok ifodalarini yozamiz:

$$u = U_{\max} \sin \omega t = \sqrt{2} \cdot 220 \sin \omega t = 310,2 \sin \omega t, \text{ V; } i = I_{\max} \sin (\omega t - \varphi) = \sqrt{2} \cdot 0,133 \sin (\omega t - 72^\circ) = 0,187 \sin (\omega t - 72^\circ) \text{ A. Induktiv g'altakning } r_g \text{ aktiv qarshiligidagi kuchlanish tushuvi: } u_{rg} = r_g I_{\max} \sin (\omega t - 72^\circ) = \sqrt{2} \cdot 66,7 \sin (\omega t - 72^\circ) = 94,7 \sin (\omega t - 72^\circ), \text{ V.}$$


$$\text{Induktiv } X_L \text{ qarshilikdagi kuchlanish tushuvi: } u_{xg} = X_L I_{\max} \sin (\omega t - 72^\circ + \pi/2) = \sqrt{2} \cdot 209,9 \cdot \sin (\omega t + 18^\circ) = 295,95 \cdot \sin (\omega t + 18^\circ).$$

Sinusoidal o'zgaruvchan tok va kuchlanishlar to'lqin diagrammalarini qurish uchun ularning mashtablarini tanlaymiz:

$$m_u = 62 \text{ V/sm; } m_i = 0,10 \text{ A/sm; } m_{\omega t} = 30 \text{ grad/sm va } u(\omega t), i(\omega t) \text{ grafiklarini quramiz.}$$

Demak, $i(\omega t)$ tok sinusoidasi manba kuchlanishi $u(\omega t)$ dan har onda $\varphi = 72^\circ$ orqada bo'ladi. Endi $u_{rg} = 94,7 \sin \omega t$ va $u_{xg} = 295,95 \sin (\omega t + 18^\circ)$ grafiklarini quramiz (4.4-rasm).

4.3. $C = 4 \text{ mF}$ li kondensator $U = 220 \text{ V}$, $f = 50 \text{ Gs}$ sinusoidal o'zgaruvchan kuchlanish manbaiga ulangan. (4.5-rasm) Zanjirdagi tokni va



4.4-rasm


quvvatlarni hisoblang. Kuchlanish va tokning oniy qiymatlarini ifodalarini yozing, ularning grafiklarini va vektor diogrammasini quring.

Yechish. Kondensatorning sig‘im qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:

$$X_C = \frac{1}{\omega C} = \frac{10^6}{314 \cdot 4} = 796 \text{ Om}.$$

Zanjirdan o‘tuvchi tok:

$$I = \frac{U}{X_C} = \frac{220}{796} = 0,276 \text{ A} \text{ ga teng.}$$



Aktiv quvvat $P = UI \cos\varphi = I^2 r = 0$, chunki $r = 0$.

4.5-rasm

Reaktiv quvvat $Q = UI \sin\varphi(-90^\circ) = -I^2 X_C = 220 \cdot 0,276 = -60,7 \text{ var.}$

To‘la quvvat

$$S = UI = \sqrt{P^2 + Q^2} = 60,7 \text{ V} \cdot \text{A.}$$

Quvvat koeffitsienti:

$$\cos\varphi = \frac{P}{S} = 0; \text{ chunki } \varphi = \psi_u - \psi_i = (0^\circ - 90^\circ) = -90^\circ.$$


Kondensatorli zanjirdagi kuchlanish va tok ifodalarini yozamiz:

$$u = U_{\max} \sin \omega t = \sqrt{2} \cdot 220 \sin \omega t = 310,2 \sin \omega t \text{ V.}$$

$i = I_{\max} \sin(\omega t + \varphi) = \sqrt{2} \cdot 0,276 \sin(\omega t + 90^\circ) = 0,39 \sin(\omega t + 90^\circ)$ A, ya'ni tok kuchlanishdan faza bo'yicha oldinda bo'ladi.

Kondensatordagi kuchlanish tushuvi $U_C = X_C I = 796 \cdot 0,276 = 220$ V, ya'ni manba kuchlanishiga teng bo'ladi. Quyidagi masshtablarda: $m_u = 100$ V/sm; $m_i = 0,2$ A/sm va $m_{\omega t} = 60$ grad/sm; u (ωt) va i (ωt) grafiklarini quramiz. (4.6 a-rasm). Demak, tok i sinusoidasi kuchlanish sinusoidasiga nisbatan faza bo'yicha har onda $\varphi = 90^\circ$ oldinda bo'ladi.

4.6-b rasmida, U kuchlanish va I tok vektorlari diagrammasi keltirilgan. I tok vektori U vektoridan 90° oldindaligi ko'rinish turibdi.



4.6-rasm

4.4. Shoxobchalanmagan elektr zanjiri (4.7-rasm) uchun tok va uning elementlaridagi kuchlanish pasayishlarinini hisoblang. Tok va kuchlanishlar vektor diagrammasini quring.

Berilgan. $L = 0,038$ Gn; $r_g = 5$ Om; $r = 3$ Om; $C = 177$ mkF; $U = 220$ V; $f = 50$ Gs.

Yechish. Qarshiliklar qiymatlarini hisoblaymiz. Induktiv qarshilik $X_L = \omega L = 2 \pi f L = 2 \cdot 3,14 \cdot 50 \cdot 0,038 = 12$ Om. Sig'im qarshiligi:

$$X_C = \frac{1}{\omega C} = \frac{1}{2\pi f C} = \frac{1}{2 \cdot 3,14 \cdot 50 \cdot 177 \cdot 10^{-6}} = 18 \text{ Om.}$$

To'la qarshilik:

$$Z = \sqrt{(r_g + r)^2 + (X_L - X_C)^2} = \sqrt{(5 + 3)^2 + (12 - 18)^2} = 10 \text{ Om.}$$

Zanjirdan o'tuvchi tok $I = U/Z = 220/10 = 22$ A.

Zanjirning ayrim elementlaridagi kuchlanish pasayishlari:

$$U_{ab} = X_L I = 12 \cdot 22 = 264 \text{ V};$$

$$U_{bc} = r_g I = 5 \cdot 22 = 110 \text{ V};$$

$$U_{cd} = rI = 3 \cdot 22 = 66 \text{ V};$$

$$U_{d0} = X_C I = 18 \cdot 22 = 396 \text{ V}.$$

Tok va kuchlanishlar vektor diagrammasini qurish uchun kuchlanish va tok mashtablarini tanlaymiz. Masshtab tanlashda quyidagi qoidaga amal qilish lozim: **fizik kattalik, ya'ni tok va kuchlanishlarning uzunlik birligidagi qiyamatlari butun sonlar 1, 2, 5 birlikka yoki shu sonlarning 10ⁿ ko'paytmasiga teng qilib olinsa, tegishli vektorlarni chizmada joylashtirish qulay bo'ladi.**

Shu qoidadan kelib chiqqan holda masshtab tanlaymiz: Kuchlanish masshtabi $m_U = 88 \text{ V/sm} = 8,8 \text{ V/mm}$; tok masshtabi $m_I = 4,4 \text{ A/sm} = 0,44 \text{ A/mm}$.


Vektorlar diagrammasining I tok vektorini to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasining abssissa o'qi bo'ylab joylashtirishdan boshlaymiz. Tanlab olingen mashtabda tok vektori 5 sm li to'g'ri chiziq bo'ladi, ya'ni $I/m_i = 22/4,4 = 5 \text{ sm}$. $r_g I$ va rI kuchlanish vektorlari tok I vektori bilan bir xil yo'naliishda bo'ladi, ya'ni ustma-ust tushadi.

$U_L = X_L I$ vektori I tok vektoridan 90° oldinda, $U_C = X_C I$ vektori I tok vektoridan 90° orqada bo'ladi. Zanjirga ta'sir etuvchi U kuchlanish vektori hamma elementlardagi kuchlanishlar vektorlarining geometrik yig'indisiga teng (4.8-rasm).


Barcha vektorlar 0 nuqtadan boshlaniadi. Manba kuchlanishi U vektorini tok I vektoriga nisbatan fazal siljish burchagi:

$$\begin{aligned} \varphi &= \operatorname{arctg} \frac{(X_L - X_C)}{(r + r_g')} = \operatorname{arctg} \frac{(12 - 18)}{(3 + 5)} = \\ &= \operatorname{arctg} 0,75, \quad \varphi = -36^{\circ}50'. \end{aligned}$$

«Minus» ishora I tok vektorining U kuchlanish vektoridan oldinda bo'lishini ko'rsatadi.



4.7-rasm



4.8-rasm

G'altakdagagi kuchlanish quyidagicha aniqlanadi:

$$U_g = \sqrt{U_r^2 + U_L^2} = \sqrt{10^2 + 264^2} = 286 \text{ V.}$$

Bu kuchlanishni boshqa formula yordamida ham hisoblash mumkin.

$$U_g = U_r / \cos \varphi = 110 / \cos 67^\circ 20' = 286 \text{ V.}$$

$U_g = U_{ac}$ induktiv g'altakdagagi U_{ac} kuchlanish vektorining I tok vektoriga nisbatan faza siljish burchagi:


$$\varphi = \operatorname{arctg} \frac{X}{r} = \operatorname{arctg} \frac{12}{5} = \operatorname{arctg} 2,4 = 67^\circ 20' \text{ ga teng.}$$

4.5. Elementlari ketma-ket ulagan elektr zanjir (4.9-rasm) uchun tok va elementlardagi kuchlanish qiymatlari ni hisoblang va vektorlar diagrammasini quring.

Berilgan. $r_g = 1 \text{ Om}$; $L = 0,0127 \text{ Gn}$; $C = 800 \text{ mkF}$; $U = 220 \text{ V}$; $f = 50 \text{ Gs}$.

Yechish. Induktiv qarshilik $X_L = \omega L = 2\pi f L = 3,98 \text{ Om}$, sig'im qarshiligi

$$X_C = \frac{1}{\omega C} = \frac{1}{2\pi f C} = 3,98 \text{ Om.}$$



4.9-rasm

$$\text{To'la qarshilik } Z = \sqrt{r_g^2 + (X_L - X_C)^2} = 1 \text{ Om.}$$

Tok kuchi $I = \frac{U}{Z} = \frac{U}{r} = 220 \text{ A}$. Quvvat koeffitsienti $\cos \varphi = \frac{r_g}{Z} = 1$, ya'ni $\varphi = 0^\circ$. Aktiv quvvat $P = UI = 220 \cdot 220 = 48400 \text{ Vt} = 48,4 \text{ kWt}$.

Induktiv qarshilikdagi kuchlanish $U_L = X_L I = 4 \cdot 220 = 880 \text{ V}$.

Sig'im qarshilikdagi kuchlanish:

$$U_C = X_C I = 4 \cdot 220 = 880 \text{ V.}$$

Demak, ushbu holda $U_L = U_C$, ularning yig'indisi nolga teng bo'ladi.

Tok va kuchlanishlar vektorlari diagrammasini qurish uchun quyidagi mashtablarni tanlaymiz: tok mashtabi $m_i = 44 \text{ A/sm}$; kuchlanish mashtabi $m_u = 220 \text{ V/sm}$. Tanlangan mashtablarda I tok va U_L , U_C , U_g kuchlanishlar vektorlarini quramiz (4.10-rasm).

U_g va U_C vektorlarning geometrik yig'indisi natijaviy U manba kuchlanish vektoriga teng bo'ladi. Demak, berilgan qiymatlarda zanjirda kuchlanishlar rezonanssi ($X_L = X_C$) ro'y beradi: U_L va U_C kuchlanishlar vektorlari o'zaro teng va qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.

Rezonans chastotasi:

$$f = 1/2\pi\sqrt{LC} = 10 \cdot 3/2\pi\sqrt{0,0127 \cdot 800} = 50 \text{ Gs},$$

bunda $C = 800 \text{ mkF} = 800 \cdot 10^{-6} \text{ F}$.

4.6. 4.11-rasmida keltirilgan elektr zanjirni hisoblang va vektorlar diagrammasini quring.

Berilgan: $r_g = 11 \text{ Om}$, $X_g = 60 \text{ Om}$, $r_1 = 49 \text{ Om}$, $r_2 = 60 \text{ Om}$, $X_C = 80 \text{ Om}$, $f = 50 \text{ Gs}$, $U = 120 \text{ V}$.

Yechish. Induktiv g'altakning to'la qarshiligi:

$$Z_g = \sqrt{r_g^2 + X_g^2} = \sqrt{11^2 + 60^2} = 61 \text{ Om ga teng.}$$

G'altakdan o'tuvchi tok bilan g'altakdagi kuchlanish o'zaro faza siljish burchagi $\operatorname{tg}\varphi_g = X_L/g$; $\varphi_g = \operatorname{arctg} 60/11 = 79^\circ 35'$ ad shoxobchadagi I_1 tok vektori U_{ad} kuchlanish vektoriga nisbatan φ_1 burchakka surilgan. Uning qiymati $\operatorname{tg}\varphi_1 = X_L/(r_g + r_1) = 60/(11 + 49) = 1$. Demak, $\varphi_1 = 45^\circ$, ad shoxobchaning to'la qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:

$$Z_1 = \sqrt{(r_g + r_1)^2 + X_L^2} = \sqrt{(11 + 49)^2 + 60^2} = \sqrt{2} \cdot 60 \text{ Om.}$$



Tok esa $I_1 = U_{ad}/Z_1 = 120/\sqrt{2} \cdot 60 = 1,41 \text{ A}$ ga teng. I_2 tok U_{ad} kuchlanishga nisbatan φ_2 burchakka suriladi, $\operatorname{tg}\varphi_2 = \frac{X_C}{r_2} = -\frac{80}{60} = -1,33$, ya'ni $\varphi_2 = -53^\circ 10'$ bo'ladi.

Ikkinchi shoxobchaning to'la qarshiligi:


$$Z_2 = \sqrt{r_2^2 + X_C^2} = \sqrt{60^2 + 80^2} = 100 \text{ Om.}$$

Shu shoxobchadan o'tuvchi tok $I_2 = U_{ad}/Z_2 = 120/100 = 1,2 \text{ A}$ ga teng. Umumiy tok:

$$I = U \cdot \sqrt{(g_1 + g_2)^2 + (b_L - b_2)^2} = 120 \cdot \sqrt{\left(\frac{r_2 + r_1}{Z_1^2} + \frac{r_2}{Z_2^2}\right)^2 + \left(\frac{X_L}{Z_1^2} - \frac{X_C}{Z_2^2}\right)^2} = 1,73 \text{ A.}$$



4.10-rasm



4.11-rasm

Bunda g_1 va g_2 – birinchi va unga parallel ikkinchi shoxobchaning aktiv o'tkazuvchanligi $g_1 = \frac{r_{g'} + r_1}{Z_1^2}$ va $g_2 = \frac{r_2}{Z_2^2}$; b_1 va b_2 – shoxobchalarining reaktiv o'tkazuvchanligi $b_1 = \frac{X_{Lg'}}{Z_1^2}$ va $b_2 = \frac{X_C}{Z_2^2}$.

Kuchlanishlar va toklarning vektor diagrammasini quyidagi masshablarda quramiz $m_u = 20$ V/sm; $m_i = 0,346$ A/sm.


Dastlab manba kuchlanishi U vektorini joylashtiramiz. Bu U vektorga nisbatan I_1 va I_2 tok vektorlari φ_1 va φ_2 burchakka siljитib yasaladi.

Natijaviy I tok vektori I_1 va I_2 vektorlar parallelogrammaning diagonali ($I = I_1 + I_2$) dir.

Vektor diagrammadan $I = 1,73$ A va $\varphi = 1^\circ 10'$ ekanligi ko'rinish turibdi (4.12-rasm).

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, vektorlar diagrammasining aniq qurilishi masala yechimining aniqligiga bevosita ta'sir qiladi.

4.7. Kuchlanishlarning oniy qiymati $u = 59 \sin(314t - 45^\circ)$ V ifoda bilan aniqlanadigan uchta bir xil manbalarga rezistor, induktiv g'altak va kondensator ulangan. Agar $R = 10$ Om, $L = 10$ mGn va $C = 1$ mkF bo'lsa, har bir holdagi toklarning oniy qiymat ifodalari yozilsin.



4.12-rasm

Yechish. Rezistordagi tokning oniy qiymati kuchlanish bilan bir xil fazada bo'ladi va Om qonuni bo'yicha $i_R = u/R = 5,9 \sin(314 - 45^\circ)$ A. Ta'sir etuvchi qiymat mos ravishda teng, yani:

$$I = U_{\max} / \sqrt{2} R = 4,2 \text{ A.}$$

Induktiv g'altakdagi tokning fazasi kuchlanishga nisbatan 90° orqada bo'ladi va uning reaktiv qarshiligi $X_L = \omega L = 3,14$ Om, tokning oniy qiymati $i_L = 18,8 \sin(314t - 135^\circ)$ A, ta'sir etuvchi qiymati esa $I = U_{\max} / \sqrt{2} X_L = 13,3$ A.

Kondensatorli zanjirda tokning fazasi kuchlanishga nisbatan 90° ilgarilaydi, uning reaktiv qarshiligi $X_C = 1/\omega C = 3,18$ kOm, tokning oniy qiymati $i = 18,5 \sin(314 + 45^\circ)$ A, effektiv qiymati esa $I = U_{\max} / \sqrt{2} X_C = 13,1$ A.

4.8. Kuchlanishi 220 V bo'lgan sanoat tarmog'iga aktiv qarshiligi 6 Om va induktivligi 50 mGn bo'lgan g'altak ulangan. G'altakdagi tokning

ifodasi yozilsin, g'altakning qarshiliklar uchburchagi va kuchlanishlarning vektor diagrammasi qurilsin.

Yechish. G'altakning induktiv qarshiligi $X_L = \omega L = 314 \cdot 50 \cdot 10^{-3} = 15,7 \text{ Om}$, g'altakning to'la qarshiligi esa:

$$Z = \sqrt{R^2 + X_L^2} = \sqrt{6^2 + 15,7^2} = 16,1 \text{ Om ga teng.}$$

Qarshiliklar uchburchagining katetlari ma'lum masshtabda R va X_L ga mos, gi potenuzasi esa Z ga teng (4.13-a rasm).

Zanjirdagi tok $I = U/Z = 220/16,1 = 13,1 \text{ A}$. G'altakning aktiv qarshiligidagi kuchlanish $U_R = IR = 13,1 \cdot 6 = 68,6 \text{ V}$, induktivligidagi kuchlanish esa $U_L = IX_L = 13,1 \cdot 15,7 = 205 \text{ V}$.

Vektor diagramma qurish uchun kompleks tekislik haqiqiy o'qining musbat yo'nalishi bo'yicha ma'lum masshtabda ($m_u = 6,7 \text{ V/mm}$; $m_i = 3 \text{ A/mm}$) moduli 220 ga teng kuchlanish vektorini quramiz (4.13-b rasm).

Shu vektorning boshlanish nuqtasidan belgilangan masshtabda radiusi 68,6 V bo'lgan yoy o'tkaziladi. Vektorning oxiridagi nuqtasidan esa radiusi 205 V ga mos bo'lgan ikkinchi yogni o'tkazamiz. Ikki yoy A nuqtada kesishadi.

Koordinata boshi va A nuqtani biriktiruvchi kesma U_R vektorini va A nuqta va B nuqtani biriktiruvchi kesma esa U_L vektorini tasvirlaydi. Tok vektori I ni esa U_R vektori bo'yicha yo'naltiramiz, chunki ularning burchak siljishlari bir xil bo'ladi. U va I vektorlar orasidagi burchakni o'chaymiz, $\varphi = -69^\circ$. Shunday qilib, $i = 13,1 \sqrt{2} \sin(314t - 69^\circ)$.


4.9. Kuchlanishi 220 V o'zgaruvchan tok sanoat tarmog'iga sig'imi 10 mF kondensator va uni shuntlovchi 1 kOm qarshilik ulangan. Kondensatordan o'tadigan tokning ifodasi yozilsin, kondensator o'tkazuvchanligining uchburchagi va toklarning vektor diagrammasi qurilsin.

Yechish. Kondensatorning sanoat chastotasi 50 Gs dagi sig'imi o'tkazuvchanligi $b_C = \omega C = 3,14 \cdot 10^{-3} \text{ Sm}$; aktiv o'tkazuvchanligi esa, $g = 10^{-3} \text{ Sm}$.

Kondensatorning to'la o'tkazuvchanligi

$$Y = \sqrt{(10^{-3})^2 + (3,14 \cdot 10^{-3})^2} = 3,3 \text{ mSm},$$

g va b_C o'tkazuvchanliklar uchburchagining katetlarini, gi potenuzasi esa Y ni aniqlaydi (4.14-rasm). Zanjirning to'la qarshiligi $Z = 1/Y = 303 \text{ Om}$. Toklarning vektor diagrammasini 0,15 A/mm masshtabda quramiz. Ideal



4.13-rasm

kondensatordan o'tuvchi tok $I_C = \omega CU = 0,75$ A, qarshilikdagi tok esa $I_R = U/R = 0,22$ A.

To'la tok I va kuchlanish U orasidagi burchakni o'lchaymiz, $\phi = 72^\circ$.

4.10. Tok va kuchlanishning oniy qiymatlari ifodasi $i = 14,2 \sin(\omega t + 45)$ A; $u = 169 \sin(\omega t + 30)$ V. Zanjirga ulangan ampermetr va voltmetr ko'rsatishini hamda zanjir qarshiligini aniqlang.

4.11. Kuchlanishi 6 V, chastotasi 50 Gs va boshlang'ich fazasi $\varphi_u = -45^\circ$ bo'lgan o'zgaruvchan tok manbaiga qarshiliqi 1 kOm rezistor ulangan bo'lsa, tokning oniy qiymat ifodasi yozilsin.

4.12. O'zgaruvchan kuchlanishi 42 V, chastotasi 50 Gs va boshlang'ich fazasi $\Psi = -45^\circ$ li manbaga qarshiliqi 100 Om rezistor ulangan bo'lsa, tokning oniy qiymat ifodasi yozilsin.

4.13. Qarshiliqi 10 Om li rezistordan o'tayotgan tokning oniy qiymat ifodasi $i = 15 \sin(314t - 30^\circ)$ A. Kuchlanishning oniy qiymat ifodasi yozilsin. Tok va kuchlanishning to'lqin diagrammalari qurilsin va ularning ta'sir etuvchi qiymati topilsin.

4.14. Rezistordan iborat zanjirdagi tok va kuchlanishning oniy qiymat ifodalari mos ravishda $i = 14,1 \sin(314t + \pi/3)$ A va $u = 51 \sin(314t + \pi/3)$ V ga teng. Rezistor qarshiliqi, tok va kuchlanishning ta'sir etuvchi qiymatlari aniqlansin.


4.15. To'rtta zanjirning tok va kuchlanislari quyidagi ifodalarga mos keladi: a) $i = 7,07 \sin 314t$, A va $u = 59 \sin 314t$, V; b) $i = 14,1 \sin(314t + \pi/2)$, A va $u = 59 \sin 314t$, V; d) $i = 14,1 \sin(314t - \pi/2)$, A va $u = 59 \sin 314t$, V; e) $i = 7,07 \sin(314t + \pi/2)$, A va $u = 59 \sin(314t + \pi/2)$, V. Har bir zanjirning to'la qarshiliqi aniqlansin va uning xarakteri topilsin.

4.16. Kuchlanishi 220 V ga teng bo'lgan manbaga yuklamani o'zgaruvchan rezistor orqali ulash sxemasini chizing. Yuklamadagi kuchlanish: a) 0 dan 220 V gacha; b) 200 V dan 110 V gacha; d) 0 dan 110 V gacha rostlanadigan bo'lsin.

4.17. Nominal kuchlanishi 110 V va quvvati 50 W li elekrotexnik qurilmani kuchlanishi 220 V, chastotasi 50 Gs bo'lgan o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulash kerak. Shu qurilmaga ortiqcha kuchlanishni kompensatsiya qilish uchun ketma-ket ulanadigan kondensator sig'imi hisoblansin.

4.18. Chastotasi 400 Gs, kuchlanishi 12 V li o'zgaruvchan kuchlanish manbaiga induktivligi 1 mGn bo'lgan g'altak ulangan. Kuchlanishning boshlang'ich fazasi $\psi_u = 0$ deb, tokning oniy qiymat ifodasi yozilsin.

4.19. Induktivligi 1 mGn bo'lgan g'altakka 50 Gs chastotada reaktiv qarshiliqi 1 Om bo'lishi uchun qanday induktiv g'altak ketma-ket ulanishi kerak?




4.14-rasm


4.20. Induktiv g'altakli o'zgaruvchan tok zanjirida: a) agar kuchlanish chastotasi 4 baravar kamaysa; b) induktivlik 2 baravar oshsa, tok qanday o'zgaradi?

4.21. Kuchlanishi 42 V va chastotasi 400 Gs bo'lgan manbaga 4.15-rasmida tasvirlangan zanjir ulagan. Zanjirning ekvivalent qarshiligi aniqlansin. Bunda $L_1 = 2L_2 = L_3/2 = 20 \text{ mGn}$.


4.22. Kuchlanishi 220 V va chastotasi 400 Gs bo'lgan manbaga 4.16-a rasmdagi zanjir ulagan. Agar sig'imir nisbati $C_1 = 2C_2 = C_3/2 = 2 \text{ m}\mu\text{F}$ bo'lsa, zanjirning ekvivalent sig'imi va undagi tok aniqlansin.



4.15-rasm



a)



b)

4.16-rasm

4.23. Agar $C = 1 \text{ m}\mu\text{F}$ bo'lsa, 4.16-b rasmdagi zanjirning ekvivalent sig'imi C_{ekv} aniqlansin. Agar ko'priklarning diagonallari qisqa tutashtirilsa yoki uzilsa, C_{ekv} qanday o'zgaradi?

4.2. SINUSOIDAL O'ZGARUVCHAN TOKDA QUVVAT VA QUVVAT KOEFFITSIENTI

O'zgaruvchan tok zanjirlarida quvvat ham to'la qarshilik kabi yuklama xarakteriga bog'liq bo'lib, shunga ko'ra to'la S , aktiv P va reaktiv Q quvvatlarga bo'linadi:

$$\text{To'la quvvat} \quad S = UI, \quad \text{V} \cdot \text{A}; \quad (4.16)$$

$$\text{Aktiv quvvat} \quad P = UI \cos \varphi, \quad \text{Vt}; \quad (4.17)$$

$$\text{Reaktiv quvvat} \quad Q = UI \sin \varphi, \quad \text{var}. \quad (4.18)$$

Fazalar siljish burchaklarining trigonometrik funksiyalari quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$\cos \varphi = P/S; \quad \sin \varphi = Q/S \quad \text{va} \quad \operatorname{tg} \varphi = Q/P. \quad (4.19)$$


O'zgaruvchan tok elektr energiyasidan foydalanishning muhim xarakteristikalaridan biri — aktiv va to'la quvvatlar nisbatiga teng bo'lgan $\cos \varphi$ quvvat koeffitsientidir. Quvvat koeffitsienti 0 dan 1 gacha o'zgaradi. $\cos \varphi$ ning kichik bo'lishi generator quvvatidan to'la foydalanimaslikka, liniyadagi kuchlanishlar isrofi oshishiga hamda tarmoq transformatorlarining

FIK kamayishiga olib keladi. Yuklama xarakteri yuqori quvvat koeffitsienti $\cos\varphi$ olishga imkon bermasa, yuklamaga parallel ravishda kondensatorlar batareyasi ulash orqali fazalar siljishi kompensatsiyalanadi (4.17-rasm). Bunda kondensatorlarning sig'imi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$C = P (\operatorname{tg}\varphi_1 - \operatorname{tg}\varphi_2) / \omega U^2; \quad (4.20)$$

P – elektr uskunaning aktiv quvvati, Vt ; φ_1 – elektr uskunaning berilgan quvvat koeffitsientidagi siljish faza burchagi; φ_2 – kondensator ulangandan keyingi burchakning qiymati.

Markazlashgan energosistema iste'molchilarga kompensatsiyalash kerak bo'lgan Q quvvatni emas, reaktiv quvvatning koeffitsienti $\operatorname{tg}\varphi$ to'g'risida ko'rsatma beradi. Shunga ko'ra reaktiv quvvatning optimal qiymati $Q_e = P_1 \operatorname{tg}\varphi$ ga teng, bunda P_1 – iste'molchining aktiv quvvati.



4.17-rasm

Masalalar

4.24. O'zgaruvchan 220 V kuchlanishli sanoat tarmog'iga aktiv qarshiligi 6 Om va induktivligi 50 mGn bo'lgan g'altak ulangan. Zanjirdagi tokning aktiv, to'la va reaktiv quvvatlari aniqlansin.

Yechish. Sanoat chastotasida (50 Gs) g'altakning induktiv qarshiligi: $X_L = 314 \cdot 0,05 = 15,7$ Om ga teng.

To'la qarshiligi esa $Z = \sqrt{R^2 + X_L^2} = \sqrt{15,7^2 + 6^2} = 16,8$ Om , siljish burchagi esa $\varphi = \operatorname{arctg} \frac{X_L}{R} = 69^\circ$.

Zanjirdagi tok $I = U/Z = 220/16,8 = 13,1$ A, yuklama aktiv-induktiv xarakterda bo'lgani uchun $\varphi = 69^\circ$. Zanjirning to'la quvvati $S = UI = 220 \cdot 13,1 = 1440$ V · A. Aktiv va reaktiv quvvatlar mos ravishda teng $P = S \cos\varphi = 515$ Vt; $Q = S \sin\varphi = 1355$ var.

4.25. O'zgaruvchan 220 V kuchlanishli sanoat tarmog'iga sig'imi 10 mF, shuntlovchi qarshiligi 1 kOm bo'lgan kondensator ulangan. Tokning ta'sir etuvchi qiymati, to'la, aktiv va reaktiv quvvatlari aniqlansin.

Yechish. 50 Gs chastotada reaktiv o'tkazuvchanlik $b_C = \omega C = 314 \cdot 10 \cdot 10^{-6} = 3,14$ mSm. To'la o'tkazuvchanligi esa $Y = \sqrt{1^2 + 3,14^2} = 3,3$ mSm; $\varphi = \operatorname{arctg} 3,14/1 = -72^\circ$. Zanjirning to'la qarshiligi $Z = 1/Y = 303$ Om. Toki esa $I = U/Z = 0,72$ A. To'la quvvat $S = UI = 69$ V · A. Aktiv va reaktiv quvvatlar esa mos ravishda $P = S \cos\varphi = 24,5$ Vt. $Q = S \cdot \sin\varphi = -75,5$ var.

4.26. O'zgaruvchan 220 V kuchlanishli sanoat tarmog'iga induktivligi $L = 60 \text{ mGn}$, aktiv qarshiligi 6 Om bo'lgan yuklama ulangan. Yuklamaning toki, to'la, aktiv va reaktiv quvvati aniqlansin. Agar yuklamaga parallel ravishda sig'imi $C = 150 \text{ mkF}$ kondensator ulansa, tok va quvvat koefitsienti qanday o'zgaradi?

Yechish. Yuklamaning induktiv qarshiligi $X_L = \omega L = 314 \cdot 0,06 = 18,8 \text{ Om}$; to'la qarshiligi esa $Z = \sqrt{6^2 + 18,8^2} = 19,7 \text{ Om}$.

Yuklamaning toki $I = U/Z = 11,1 \text{ A}$. Quvvat koefitsienti $\cos\varphi = R/Z = 0,304$. To'la quvvat $S = UI = 2,45 \text{ kV} \cdot \text{A}$, aktiv quvvati $P = S \cdot \cos\varphi = 0,745 \text{ kWt}$, reaktiv quvvat $Q = S \sin\varphi = 2,33 \text{ kvar}$. Kondensator ulanganidan so'ng shoxobchalanmangan zanjirdagi tok yuklamadan va kondensatordan o'tadigan toklarning geometrik yig'indisiga teng bo'ladi. Kondensatorning qarshiligi $X_C = 1/\omega C = 21,2 \text{ Om}$; binobarin, kondensatordan o'tadigan tok $I_C = U/X_C = 10,3 \text{ A}$. Zanjirdagi umumiy tok toklarning vektor diagrammasi yordamida aniqlanadi $I_{zan} = 3,4 \text{ A}$. Zanjirning to'la quvvati $S = UI = 0,745 \text{ kV} \cdot \text{A}$, aktiv quvvati $P = S \cos\varphi = 0,745 \text{ kWt}$, reaktiv quvvati $Q = S \sin\varphi = 45,5 \text{ kvar}$. Shunday qilib, kondensator ulanganidan so'ng aktiv quvvat o'zgarmadi, lekin umumiy tok 3 martadan ko'proq kamaydi. Yangi quvvat koefitsienti $\cos\varphi = P/S = 0,998$ ga teng bo'ldi.

4.27. Agar tok va kuchlanishning oniy qiymat ifodalari $i = 35,3 \sin(314t - 70^\circ) \text{ A}$; $u = 155 \sin(314t - 55^\circ) \text{ V}$ bo'lsa, zanjirdagi tok va kuchlanishning ta'sir qiymatlari hamda aktiv, reaktiv va to'la quvvatlar aniqlansin.

4.28. Yuklama o'zgaruvchan kuchlanishi 220 V sanoat tarmog'iga ulangan va $0,3 \text{ A}$ tok qabul qiladi. Tok va kuchlanish fazalari orasidagi burchak siljishi $\varphi = 30^\circ, 45^\circ, 60^\circ$ bo'lsa, aktiv, reaktiv va to'la quvvatlar aniqlansin.

4.29. Bir xil 5 A tok qabul qiladigan ikkita yuklama kuchlanishi 220 V sanoat tarmog'iga ulangan. Birinchi yuklamaning quvvat koefitsienti $\cos\varphi_1 = 0,6$; ikkinchisini $\cos\varphi_2 = 0,9$. Ikkala yuklamaning FIK bir xil $92,5\%$ ga teng bo'lsa, har bir yuklamaning foydali aktiv quvvati aniqlansin.

4.30. Chastotasi 400 Gs li tarmoqqa aslligi $Q_L = 8 \text{ bo'lgan real g'altak ulangan}$. To'la quvvat $100 \text{ V} \cdot \text{A}$. Agar g'altakning aktiv qarshiligi $R_a = 0,5 \text{ Om}$ bo'lsa, chulg'amni qizdirishga ketayotgan quvvat isrofi va g'altakning induktivligi aniqlansin.

4.31. Chastotasi 1 kGs li tarmoqqa aslligi $Q_C = 25 \text{ real kondensator ulanganda, uning to'la quvvati } 55 \text{ V} \cdot \text{A}$. Agar kondensatorning shuntlovchi qarshiligi $R_{sh} = 150 \text{ Om}$ bo'lsa, uning sig'imi hamda sarflanadigan quvvat isrofi aniqlansin.

Ko'rsatma: Real kondensatorning aslligi $Q_C = \omega C R_{sh}$ yoki dielektrik isroflar burchaklarining tangensi $\operatorname{tg}\delta = 1/Q_C$

4.32. O'zgaruvchan kuchlanishi 220 V chastotasi 400 Gs manbaga induktivligi $L_1 = 5 \text{ mGn}$, $L_2 = 10 \text{ mGn}$ va mos ravishda aktiv qarshiliklari $R_1 = 2 \text{ Om}$; $R_2 = 5 \text{ Om}$ bo'lgan ikkita g'altak ketma-ket ulangan. Zanjirning toki, to'la, aktiv va reaktiv quvvati aniqlansin.

4.33. O'zgaruvchan kuchlanishi 220 V, chastotasi 400 Gs bo'lgan manbara induktivligi $L_1 = 5$ mGn, $L_2 = 10$ mGn va aktiv qarshiliklari mos ravishda $R_1 = 2$ Om: $R_2 = 5$ Om bo'lgan ikkita g'altak parallel ulangan. Zanjirning toki, to'la, aktiv va reaktiv quvvati aniqlansin.

4.34. O'zgaruvchan kuchlanishi 220 V, chastotasi 50 Gs bo'lgan manbara ikkita kondensator $C_1 = 15$ mkF, $C_2 = 10$ mkF ketma-ket ulangan. Ularning shuntlovchi qarshiliklari $R_{sh1} = 10$ kOm; va $R_{sh2} = 6$ kOm. Zanjirning toki, to'la, aktiv va reaktiv quvvatlari aniqlansin.

4.35. O'zgaruvchan kuchlanishi 220 V, chastotasi 50 Gs bo'lgan manbara ikkita kondensator parallel ulangan. $C_1 = 5$ mkF, $C_2 = 10$ mkF, shuntlovchi qarshiliklari $R_{sh1} = 10$ kOm va $R_{sh2} = 15$ kOm. Zanjirning toki, to'la, aktiv va reaktiv quvvatlari aniqlansin.

4.3. O'ZGARUVCHAN TOK ELEKTR ZANJIRIDA REZONANS

Tarkibi induktivlik va sig'imdan iborat o'zgaruvchan tok zanjirida shunday holat bo'lishi mumkinki, bunda zanjir kirish qismalaridagi tok va kuchlanishning fazalari bir xil bo'lib, butun zanjir aktiv qarshilik bilan xarakterlanadi. Bu *rezonans holat* deyiladi.

Umuman olganda induktiv g'altaklar va kondensatorlar ketma-ket ulanganda ularning ekvivalent qarshiliqi quyidagicha bo'ladi:

$$X_{ekv} = \omega L_{ekv} - 1/\omega C_{ekv}. \quad (4.21)$$

Induktiv g'altaklar va kondensatorlar parallel ulanganda ularning ekvivalent o'tkazuvchanligi quyidagicha aniqlanadi:

$$b_{ekv} = \omega C_{ekv} - 1/\omega L_{ekv}. \quad (4.22)$$

Ikkala holatda ham umumiyligi qarshilikni musbat qiymati butun zanjirning induktiv xarakteriga va manfiy qiymati — zanjirning sig'im xarakteriga mos keladi.

Aktiv va reaktiv elementlar ketma-ket va parallel ulanganda zanjirning (4.10-rasm va 4.17-rasm) to'la qarshiliqi yoki to'la o'tkazuvchanligi mos ravishda quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$Z = \sqrt{r_g^2 + (X_L - X_C)^2}; \quad Y = \sqrt{g_g^2 + (b_C - b_L)^2} \quad (4.23)$$

Elektr zanjiridagi rezonans holatda kondensator elektr maydonining energiyasi davriy ravishda induktiv g'altakning magnit maydoni energiyasiga aylanadi va aksincha.

Kuchlanishlar rezonansi, ya'ni R , L va C ketma-ket ulanganda elektr zanjirning rezonans xususiy chastotasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$f_{rez} = 1/2\pi\sqrt{LC}. \quad (4.24)$$

Toklar rezonansida, ya'ni elementlar parallel ulanganda zanjirning xususiy rezonans chastotasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$f_{\text{rez}} = \frac{1}{2\pi\sqrt{LC}} \sqrt{\frac{L/C - r_g^2}{L/C - r_C^2}}. \quad (4.25)$$

R , L va C elementlar ketma-ket ulanganda rezonans konturining to'lqin qarshiligi $\rho = \sqrt{L/C}$ va asllik $Q = \rho/R$ bilan xarakterlanadi. R , L va C parallel ulanganda rezonans kontur aslligi $Q = R/\rho$ bilan xarakterlanadi. Fizik nuqtayi nazardan bu parametr konturdagi yig'ilgan energiyani rezistorda sarflanayotgan issiqlik energiyasiga nisbatidir.

Masalalar

4.36. Ketma-ket ulangan R , L va C dan iborat rezonans zanjir o'zgaruvchan $U = 36$ V kuchlanish manbaiga ulangan. Zanjir parametrlari $R = 10$ Om, $L = 10$ mGn, $C = 1$ mkF. Kuchlanish chastotasi 0 dan $5f_{\text{rez}}$ bo'lgan oraliqdagi zanjirning to'la qarshilik rezonans xarakteristikasi hisoblansin. Qarshilik va tokning eng katta va eng kichik qiymatlari aniqlansin.

Yechish. Berilgan zanjir uchun to'la qarshilik:

$$Z = \sqrt{R^2 + (2\pi f L - 1/2\pi f C)^2} \text{ ga teng.}$$

Rezonans zanjirlarni hisoblashda, rezonans chastotasiga karrali bo'lgan chastotalardan foydalanish qulay, ya'ni $k = f/f_{\text{rez}}$. Dastlabki formulaga $f = k/2\pi\sqrt{LC}$ qiymatni qo'yib, quyidagi ifodani yozishimiz mumkin:

$$Z = \sqrt{R^2 + \frac{L}{C} \left(\frac{1}{k} - k \right)^2}.$$

Qarshilikning eng kichik qiymati rezonans chastotada $Z = R = 100$ Om bo'ladi (4.18-rasm).

Tokning chastotaga bog'liqligi teskari ifoda $I = U/Z$ bilan aniqlanadi. Tokning eng katta qiymati $I = U/R = 3,6$ A.

4.37. O'zaro parallel ulangan R , L , C elementli rezonans zanjir o'zgaruvchan $U = 36$ V kuchlanishga ulangan. Zanjir parametrlari $R = 50$ Om, $L = 10$ mGn, $C = 1$ mkF. Kuchlanish chastotasi 0 dan $5f_{\text{rez}}$ bo'lgan oraliqda zanjirning to'la qarshiligi va tokning rezonans xarakteristikasi hisoblansin. Qarshilikning eng katta va eng kichik qiymatlari aniqlansin.

Yechish. Berilgan zanjir uchun to'la o'tkazuvchanlik:

$$Y = \sqrt{\frac{1}{R^2} + \left(2\pi f C - \frac{1}{2\pi f L} \right)^2} \text{ formula bilan aniqlanadi.}$$

Rezonans zanjirlarni hisoblashda rezonans chastotasiga karrali bo'lgan chastotalardan foydalanish qulay bo'ladi, ya'ni $k = f/f_{\text{rez}}$. Dastlabki formulaga

$f = k/2\pi\sqrt{LC}$ qiymatni qo'yib, quyidagi ifodani yozishimiz mumkin:

$$Y = \sqrt{\frac{1}{R^2} + \frac{C}{L} \left(k - \frac{1}{k} \right)^2} \quad \text{yoki} \quad Z = \frac{1}{\sqrt{\frac{1}{R^2} + \frac{C}{L} \left(k - \frac{1}{k} \right)^2}}.$$

$Z(f)$ - grafikni $Z = \frac{1}{\sqrt{\frac{1}{2500} + \left(\frac{k-1/k}{100} \right)^2}}$ ifoda asosida quramiz (4.19-rasm).

Qarshilikning eng katta qiymati $k = 1$ da bo'ladi, ya'ni $Z = R = 50 \text{ Om}$.


Tokning chastotaga bog'lanish grafigi U kuchlanishni o'tkazuvchanlikka ko'paytmasi bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$I = 36 \sqrt{\frac{1}{2500} + \left(\frac{k-1/k}{100} \right)^2}$$


Bu ham 4.19-rasmda tasvirlangan. Tokning eng kiçik qiymati $I = U/R = 0,72 \text{ A}$.

4.38. Sig'imi 10 mF li kondensator va induktivligi 50 mGn bo'lgan g'altakning 1 kGs chastotada ekvivalent qarshiliqi hisoblansin: a) ular ketma-ket ulanganda; b) parallel ulanganda. Manba kuchlanishi 42 V bo'lganda ikkala hol uchun kuchlanishlarning va toklarning vektor diagrammalari qurilsin.

4.39. Agar induktivligi 0,1 mGn bo'lgan g'altak va sig'imi 1 mF li kondensator ketma-ket ulansa, qanday chastotada rezonans sodir bo'ladi? Agar g'altak induktivligi 10 mGn bo'lsa, 100 kGs chastotada kuchlanish rezonansi sodir etish uchun qanday sig'imli kondensator kerak?



4.18-rasm



4.19-rasm

4.40. Ketma-ket ulangan R , L , C zanjir chastotasi 400 Gs manbaga ulangan. Rezonans holatida sig‘imi 10 mkF li kondensatordagи kuchlanish pasayishi 60 V. Agar $R = 10$ Om bo‘lsa, g‘altak induktivligi aniqlansin.

4.41. Induktivlik 0,1 mGn bo‘lganda ketma-ket ulangan L , C zanjirning rezonans chastotasi 10 kGs. Induktivlik 0,2; 0,4; 0,01 mGn ga teng bo‘lganda rezonans chastotasi qancha bo‘ladi?

4.42. Ketma-ket ulangan $R = 100$ Om, $L = 3$ mGn va $C = 0,5$ mkF elementlar kuchlanishi 110 V bo‘lgan manbaga ulangan. Manba chastotasi $f_{rez}/2$ va $2f_{rez}$ bo‘lganda aktiv, reaktiv va to‘la quvvatlar aniqlansin.

4.43. Ketma-ket ulangan rezonansli zanjirning parametrlari $R = 10$ Om; $L = 10$ mGn; $C = 1$ mkF ga teng. Agar manba kuchlanishi $U = 42$ V bo‘lsa, $f = 3f_{rez}$ chastotada zanjirning to‘la qarshiligi aniqlansin. Rezonans holatda U_R , U_L va U_C lar aniqlansin.


4.44. Parametrlari $R = 5$ Om, $L = 50$ mGn; $C = 10$ mkF ketma-ket ulangan rezonansli zanjir o‘zgaruvchan $U = 220$ V kuchlanishga ulangan.

Rezonansdagi tokka nisbatan ikki baravar kam tok o‘tkazadigan chastotalar diapazonini, ya’ni o‘tkazish diapazonini toping.

4.45. 1 kGs chastotada rezonans hosil qilishi uchun sig‘imi 10 mkF li kondensatorga qanday induktivlik parallel ulanishi kerak? Agar induktivlik 10 mGn bo‘lsa, qanday chastotada rezonans sodir bo‘ladi?

4.46. Parametrlari $R = 500$ Om, $L = 10$ mGn, $C = 1$ mkF, $R_1 = 50$ Om, $R_C = 100$ Om parallel rezonans zanjir kuchlanishi $U = 36$ V bo‘lgan o‘zgaruvchan tok manbaiga ulangan. Rezonans holatdagи zanjirning to‘la qarshiligi, toki va to‘la quvvati aniqlansin.

4.47. O‘zgaruvchan tokli parallel rezonans zanjir uchun induktivligi $L = 1$ mGn $\pm 10\%$ bo‘lgan g‘altak va sig‘imi $C = 1$ mkF $\pm 5\%$ bo‘lgan kondensator olingan, shu bilan birga $R_C = R_L = 0,5$ Om. L va C qiymatlar o‘zgarishi oqibatida rezonans chastotaning o‘zgarish diapazoni aniqlansin.



5-BOB

Uch fazali o‘zgaruvchan tok zanjirlari

5.1. UCH FAZALI O‘ZGARUVCHAN TOK ZANJIRLARINI HISOBLASH USULLARI

Uch fazali EYuK larning oniy qiymatlari mos ravishda quyidagicha ifodalanadi:

$$e_A = E_{\max} \sin \omega t; e_B = E_{\max} \sin(\omega t - 2\pi/3); e_C = E_{\max} \sin(\omega t + 2\pi/3)$$


Amalda uch fazali sistemada ulashning ikki xil *yulduz* va *uchburchak* usuli mavjud (5.1-rasm). Agar uchta EYuK va yuklamalar mos ravishda teng bo‘lsa, uch fazali sistema *simmetrik sistema (rejim)* deyiladi.

Uch fazali simmetrik elektr zanjiri yulduz usulda ulansa (5.1-a rasm), liniya toklari I_{lin} faza toklariga I_f teng, U_{lin} liniya kuchlanishi esa U_f faza kuchlanishidan $\sqrt{3}$ baravar katta bo‘ladi, ya’ni:

$$I_{\text{lin}} = I_f, \quad U_{\text{lin}} = \sqrt{3}U_f. \quad (5.1)$$

Simmetrik rejimda neytral simdan o‘tuvchi tok $I_N = 0$, nosimmetrik rejimda esa liniya toklarining vektor yig‘indisiga teng:

$$I_N = I_A + I_B + I_C \quad (5.2.)$$



5.1-rasm

Simmetrik uch fazali EYuK manbalariga uchburchak usulda ulangan simmetrik yuklamada (5.1-b rasm) liniya kuchlanishlari fazalar kuchlanishi shiga teng, liniya toklari I_{lin} esa faza toklaridan $I_f \sqrt{3}$ marta katta bo'ladi:

$$U_{\text{lin}} = U_f; I_{\text{lin}} = \sqrt{3} I_f. \quad (5.3.)$$

Liniya toklari fazalar toklarining geometrik ayirmasiga teng, ya'ni:

$$I_a = I_{ab} - I_{ca}; \quad I_b = I_{bc} - I_{ab}; \quad I_c = I_{ca} - I_{bc}. \quad (5.4)$$

Uch fazali tarmoqda simmetrik yuklama quvvatlari, ulanish usulidan qat'iy nazar, quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$P = \sqrt{3} U_{\text{lin}} I_{\text{lin}} \cos \varphi = 3 U_f I_f \cos \varphi, \text{ Vt.}$$

$$Q = \sqrt{3} U_{\text{lin}} I_{\text{lin}} \sin \varphi = 3 U_f I_f \sin \varphi, \text{ var.}$$

$$S = \sqrt{3} U_{\text{lin}} I_{\text{lin}} = 3 U_f I_f, \text{ V} \cdot \text{A}. \quad (5.5)$$

Nosimmetrik yuklamalarda esa quvvatlar quyidagicha aniqlanadi:

$$P = P_a + P_b + P_c, \text{ Vt, arifmetik yig'indi.}$$

$$Q = Q_a + Q_b + Q_c, \text{ var, algebraik yig'indi.} \quad (5.6)$$

$$S = S_a + S_b + S_c, \text{ V} \cdot \text{A, arifmetik yig'indi.}$$

Masalalar

5.1. Neytral simli uch fazali tarmoqqa nosimmetrik yuklama yulduz usulda (5.2-a rasm) ulangan, ularning fazalarini quyidagi parametrlarga ega: $R_a = 0,8 \text{ Om}$ va $X_{La} = 1,2 \text{ Om}$; $R_b = 0,4 \text{ Om}$ va $X_{cb} = -2 \text{ Om}$; $R_c = 1 \text{ Om}$; va $X_{Lc} = 1,8 \text{ Om}$. Fazalar va liniyalar toklari, neytral simdagi tok hamda har bir fazaning quvvat koeffitsienti aniqlansin. Tarmoqning liniya kuchlanishi $U_{\text{lin}} = 380 \text{ V}$.

Yechish. Simmetriyalovchi neytral sim bo'lganda faza kuchlanishlari $U_a = U_{\text{lin}} / \sqrt{3} = 220 \text{ V}$; $U_b = 220 \text{ V}$; $U_c = 220 \text{ V}$.


Faza qarshiliklari esa quyidagicha aniqlanadi:

$$Z_a = \sqrt{0,8^2 + 1,2^2} = 1,44 \text{ Om}; Z_b = \sqrt{0,4^2 + 2^2} = 2,05 \text{ Om};$$

$$Z_c = \sqrt{1^2 + 1,8^2} = 2 \text{ Om.}$$

Fazalar toklarini aniqlaymiz: $I_a = U_a / Z_a = 220 / 1,44 = 153 \text{ A}$; $I_b = U_b / Z_b = 220 / 2,05 = 110 \text{ A}$; $I_c = 110 \text{ A}$.

Hisoblangan toklarning masshtabini e'tiborga olib, vektorlar topografik diagrammasini chizamiz. (5.2-b rasm). Bu sxemada liniya toklari faza toklari-



5.2-rasm


ga teng, nol simdagи tok esa faza toklarining vektor yig‘indisiga tengdir, ya’ni:

$$\underline{I}_N = \underline{I}_a + \underline{I}_b + \underline{I}_c = 248 \angle 41^\circ \text{ A.}$$

Quvvat koeffitsientlari esa tok va kuchlanishlarning vektor diagrammasidan aniqlangan faza siljish burchaklari bo‘yicha hisoblanadi, ya’ni $\cos\varphi_a = 0,555$; $\cos\varphi_b = 0,196$; $\cos\varphi_c = 0,485$.

5.2. Liniya kuchlanishlari 220 V bo‘lgan uch fazali tarmoqqa nosimmetrik yuklama uchburchak usulda ulangan (5.3-rasm). Yuklamaning parametrlari; $R_{ab} = 2,3 \text{ Om}$ va $X_{Cab} = -1,5 \text{ Om}$; $R_{bc} = 1,8 \text{ Om}$ va $X_{Lbc} = 3,1 \text{ Om}$; $R_{ca} = 1,3 \text{ Om}$ va $X_{Cca} = -2,7 \text{ Om}$. Faza va liniya toklari, har bir fazaning quvvat koeffitsienti aniqlansin.

Yechish. Yuklama uchburchak usulda ulanganda fazalar va liniya kuchlanishlari o‘zaro teng bo‘ladi.



5.3-rasm

$$U_{ab} = U_{AB} = 220 \text{ V}; U_{bc} = U_{BC} = 220 \text{ V}; U_{ca} = U_{CA} = 220 \text{ V}.$$

Berilganlarga ko‘ra faza qarshiliklari: $Z_{ab} = \sqrt{2,3^2 + (-1,5)^2} = 2,7 \text{ Om}$;


$Z_{bc} = \sqrt{1,8^2 + 3,1^2} = 3,6 \text{ Om}$; $Z_{ca} = \sqrt{1,3^2 + (-2,7)^2} = 3 \text{ Om}$ ga teng bo‘ladi. Faza toklarini aniqlaymiz: $I_{ab} = \frac{U_{ab}}{Z_{ab}} = \frac{220}{2,7} = 81,5 \text{ A}$; $I_{bc} = \frac{U_{bc}}{Z_{bc}} = \frac{220}{3,6} = 61,1 \text{ A}$; $I_{ca} = \frac{U_{ca}}{Z_{ca}} = \frac{220}{3} = 73,3 \text{ A}$.

Shu faza toklarining vektor diagrammasini belgilangan masshtabda chizamiz (5.4-rasm). I_A , I_B va I_C liniya toklarining faza toklari vektorini chizamiz, bunda:

$$I_A = I_{ab} - I_{ca} = 149 \angle -135^\circ \text{ A};$$

$$I_B = I_{bc} - I_{ab} = 137 \angle -50^\circ \text{ A};$$

$$I_C = I_{ca} - I_{bc} = 11,2 \angle -40^\circ \text{ A}.$$



5.4-rasm

Quvvat koefitsientlari tegishli faza toklari va kuchlanishlarining Q_{ab} , Q_{bc} , Q_{ca} faza siljish bur-chaklari bilan aniqlanadi:

$$\cos\varphi_{ab} = \frac{2,3}{2,7} = 0,84; \quad \cos\varphi_{bc} = \frac{1,8}{3,6} = 0,5; \quad \cos\varphi_{ca} = \frac{1,3}{3} = 0,44.$$

5.3. Liniya kuchlanishi 220 V, chastotasi 50 Gs bo‘lgan uch fazali tarmoqqa nosimmetrik uch fazali yuklama avval yulduz, keyin esa uchbur-chak usulda ulangan (5.5-rasm). Agar $R = 10 \text{ Om}$, $R_L = 5 \text{ Om}$; $L = 60 \text{ mGn}$; $C = 100 \text{ mkF}$ bo‘lsa, yuklamaning aktiv va reaktiv quvvati aniqlansin.


Yechish. Yuklama fazalarini yulduz usulda ulansa (5.6-a rasm), ularning to‘la qarshiligi mos ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$Z_a = \sqrt{R_L^2 + (\omega L)^2} = \sqrt{5^2 + 18,8^2} = 19,5 \text{ Om}; \quad Z_b = X_C = 1/\omega C = 20 \text{ Om}; \\ Z_c = 10 \text{ Om}.$$


Faza kuchlanishlari $U_f = 220/\sqrt{3} = 127 \text{ V}$ va faza toklari mos ravishda $I_a = \frac{U_a}{Z_a} = \frac{127}{19,5} = 6,5 \text{ A}$; $I_b = \frac{127}{20} = 6,35 \text{ A}$; $I_c = \frac{127}{10} = 12,7 \text{ A}$ ga teng.


Fazalarning aktiv va reaktiv quvvatlarini aniqlaymiz:

$$P_a = U_a I_a \cos \varphi = 214 \text{ Vt} \text{ va } Q_a = U_a I_a \sin \varphi = 797 \text{ var};$$



5.5-rasm





5.6-rasm

$$P_b = U_b I_b \cos\varphi = 0 \text{ Vt} \text{ va } Q_b = -806 \text{ var};$$

$$P_c = U_c I_c \cos\varphi = 1613 \text{ Vt} \text{ va } Q_c = 0 \text{ var}.$$

Umumiyl aktiv quvvat $P = P_a + P_b + P_c = 214 + 1613 = 1827 \text{ Vt}$.

Umumiyl reaktiv quvvat $Q = Q_a - Q_b + Q_c = 797 - 806 = -9 \text{ var}$.

Yuklamalar uchburchak usulda ulanganda (5.6-b rasm):

$$Z_{ab} = -1/\omega C = 20 \text{ Om}; Z_{ca} = \sqrt{R^2 + (\omega L)^2} = \sqrt{5^2 + 18,8^2} = 19,5 \text{ Om}; \\ Z_{bc} = 10 \text{ Om}.$$

Liniya kuchlanishlari fazalar kuchlanishlariga teng, ya'ni $U_f = U_{lin} = 220 \text{ V}$ va fazalar toklari mos ravishda: $I_{ca} = 220/19,5 = 13 \text{ A}$; $I_{ab} = 220/20 = 11 \text{ A}$; $I_{bc} = 220/10 = 22 \text{ A}$ ga teng bo'ladi.

Avval keltirilgan ifodalardan fazalarning aktiv va reaktiv quvvatlarini aniqlaymiz: $P_{ab} = 0 \text{ Vt}$; $Q_{ab} = -1612 \text{ var}$; $P_{bc} = 2,226 \text{ Vt}$ va $Q_{bc} = 0 \text{ var}$; $P_{ca} = 418 \text{ Vt}$ va $Q_{ca} = 1594 \text{ var}$.


Uch fazali yuklamaning umumiyl aktiv quvvati $P = 3654 \text{ Vt}$ va umumiyl reaktiv quvvati $Q = -18 \text{ var}$.

5.4. Yulduz usulida neytral simsiz ulangan zanjirda faza uzilganda va qisqa tutashganda kuchlanishlarning o'zgarishini tahlil eting (5.7-rasm).

Yechish. *a* faza uzilganda (5.7-a rasmida SA kalit ajralganda) *b* va *c* fazalarning $Z_b = Z_c$ qarshiliklari ketma-ket ravishda U_{bc} liniya kuchlanishiga ulanadi (5.7-d rasm).

Binobarin *b* va *c* fazalardagi kuchlanishlar liniya kuchlanishining yarmiga teng bo'ladi.

a faza qisqa tutashganda (5.7-b rasm) (SA kalit ulangan) vektor diagrammadagi nuqta *a* nuqtaganacha siljiydi (5.7-e rasm). Binobarin *b* va *c* fazalardagi kuchlanishlar liniya kuchlanishigacha ko'payadi, ya'ni $\sqrt{3}$ marta ko'payadi.



5.7-rasm

5.5. Uch fazali o‘zgaruvchan tokda a faza EYuK ning oniy qiymat ifodasi $e = 310 \sin(314t - \frac{\pi}{2})$. Boshqa fazalar oniy qiymat ifodalarini yozing va ularning ta’sir etuvchi qiymatini toping.

5.6. Liniya kuchlanishi 380 V bo‘lgan uch fazali tarmoqqa simmetrik yuklama yulduz usulda ulangan. Agar bir fazaning aktiv qarshiligi 5 Om va induktiv qarshiligi 2 Om bo‘lsa, yuklamaning faza va liniya kuchlanishlari hisoblansin.

5.7. Uch fazali yuklama yulduz usulda ulangan, induktivliklari $L_1 = L_2 = L_3 = 11 \text{ mGn}$ bo‘lgan uchta g‘altakdan iborat. Agar faza toklari 5 A va chastotasi 400 Gs bo‘lsa, yuklamaning faza va liniya kuchlanishlari aniqlansin. G‘altaklarning aktiv qarshiligi hisobga olinmasin.


5.8. Uch fazali yuklama yulduz usulda ulangan sig‘imlari $C_1 = C_2 = C_3 = 50 \text{ mkF}$ bo‘lgan uchta kondensatordan iborat. Agar liniya EYuK 380 V va chastota 50 Gs bo‘lsa, tok va faza kuchlanishlari aniqlansin.

5.9. Uch simli uch fazali tarmoqning har bir fazasiga quvvati 75 Vt li 50 tadan cho‘g‘lanma lampa ulandi (5.8-rasm). Agar liniya kuchlanishi 220 V bo‘lsa, har bir fazadagi tok va kuchlanishlari aniqlansin.

5.10. Neytral simli liniya kuchlanishi 220 V bo‘lgan uch fazali elektr tarmog‘iga uchta bir xil kondensatorlar $C_a = C_b = C_c = 100 \text{ mkF}$, mos ravishda $R_a = 25 \text{ Om}$; $R_b = 33 \text{ Om}$; $R_c = 10 \text{ Om}$ rezistorlar bilan ketma-ket yulduz usulda ulangan. Yuklamaning faza toklari va neytral simdagi tok aniqlansin. Vektor diagrammasi qurilsin.

5.11. Neytral simli liniya kuchlanishi 380 V bo‘lgan uch fazali elektr tarmog‘iga aktiv qarshiliklari $R_a = R_b = R_c = 15 \text{ Om}$ va quvvat koefitsienti $\cos\varphi_a = 0,7$; $\cos\varphi_b = 0,81$; $\cos\varphi_c = 0,67$ bo‘lgan yuklama yulduz usulda ulangan. Fazalardan va neytral simdan o‘tuvchi toklar aniqlansin.

5.12. Neytral simli liniya kuchlanishi 380 V li uch fazali tarmoqqa rezistor $R = 13 \text{ Om}$, aktiv qarshiligi $R_g = 1,5 \text{ Om}$,



5.8-rasm

induktivligi $L = 20 \text{ mGn}$ bo'lgan real g'altak va sig'imi $C = 150 \text{ mkF}$ li kondensator yulduz usulda ulangan (5.9-rasm). Fazalardan va neytral simdan o'tuvchi toklar aniqlansin.

5.13. Uch fazali to'rt simli sistemaga yuklama yulduz usulda ulangan bo'lsa, simmetrik yuklamada, nosimmetrik yuklamada va neytral sim uzilganda yuklama fazalaridagi kuchlanish qanday o'zgaradi?

5.14. To'rt simli tarmoqda neytral simni qanday ajratsa bo'ladi?

5.15. Liniya kuchlanishi 220 V bo'lgan uch fazali tarmoqning liniyalari orasiga ketma-ket ulangan $R = 6 \text{ Om}$ li aktiv qarshiliklar va sig'imi qarshiliqi $X_C = 4 \text{ Om}$ li kondensatorlar uchburchak usulda ulangan. Faza toklari aniqlansin.

5.16. Induktivliklari $L_1 = L_2 = L_3 = 0,2 \text{ Gn}$ bo'lgan g'altaklardan iborat uch fazali yuklama uchburchak usulda ulangan. Agar faza toklari 2 A va chastota 50 Gs bo'lsa, faza kuchlanishlari va liniya toklari aniqlansin.

5.17. Elektr uskunaning quvvat koeffitsientini oshirish maqsadida si-g'imi $C_1 = C_2 = C_3 = 100 \text{ mkF}$ bo'lgan kondensatorlar uch fazali tarmoqqa uchburchak usulda ulandi. Agar liniyaning EYuKi 220 V , chastota 50 Gs bo'lsa, kondensatorlardan o'tayotgan toklar aniqlansin.


5.18. Liniya kuchlanishi 220 V li uch simli uch fazali tarmoqning liniya simlari orasiga har biri 100 Vt li $40 \text{ ta cho'g'lanma}$ lampa ulangan (5.10-rasm). Faza toklari aniqlansin.

5.19. Liniya kuchlanishi 380 V li uch fazali elektr tarmog'iga uchta bir xil $L_1 = L_2 = L_3 = 50 \text{ mGn}$ induktiv g'altaklarga ketma-ket $R_a = 33 \text{ Om}$, $R_b = 19 \text{ Om}$, $R_c = 27 \text{ Om}$ li rezistorlar uchburchak usulda ulangan. Liniya toklari aniqlansin.


5.20. Liniya kuchlanishi 220 V uch fazali elektr tarmog'iga aktiv qarshiliklari $R_a = R_b = R_c = 33 \text{ Om}$ va quvvat koeffitsienti $\cos \varphi_a = 0,93$, $\cos \varphi_b = 0,85$, $\cos \varphi_c = 0,9$ bo'lgan yuklama uchburchak usulda ulangan. Vektor diagrammalar qurish yordamida liniya toklari aniqlansin.

5.21. Liniya kuchlanishi 220 V li uch fazali tarmoqqa nominal quvvati $11,3 \text{ kVt}$ bo'lgan aktiv simmetrik yuklama uchburchak usulda ulangan. Agar a) bitta faza qarshiliqi 2 baravar kamaysa; b) A fazadagi saqlagich uzilsa, yuklama toklari aniqlansin.

5.22. Aktiv quvvati $P_1 = 11 \text{ kVt}$ bo'lgan elektr motor uchburchak usulda liniya kuchlanishi 220 V bo'lgan uch fazali tarmoqqa ulangan. Agar elektr motoring quvvat koeffitsienti $\cos \varphi = 0,82$ bo'lsa, uning to'la quvvati, liniya va faza toklari aniqlansin.




5.9-rasm



5.10-rasm

5.23. Simmetrik aktiv-induktiv xarakterli iste'molchilar $R_L = 5 \text{ Om}$ va $X_L = 15 \text{ Om}$ hamda aktiv $R = 20 \text{ Om}$ qarshilikli uch fazali tarmoqqa ulangan (5.11-rasm). Agar liniya kuchlanishini 220 V , chastotani 50 Gs va quvvat koeffitsientini $0,97$ gacha oshirish lozim bo'lsa, ulanadigan C kondensatorlarning si-g'imi topilsin.



5.11-rasm

5.24. Liniya kuchlanishi 220 V , chastotasi 50 Gs bo'lgan uch fazali tarmoqqa parametrlari $R = 10 \text{ Om}$, $R_L = 8 \text{ Om}$ va $X_L = 17 \text{ Om}$ bo'lgan ikkita simmetrik yuklama hamda sig'imi $C = 150 \text{ m}\mu\text{F}$ li kondensatorlar batareyasi ulangan (5.11-rasm). Kondensatorlar ulanishidan avvalgi va ulanishidan keyingi hollar uchun liniya toklari aniqlansin.

5.25. Uch fazali tarmoqqa ulangan yuklama yulduz usuldan uchburchak usulga qayta ulanganda uning quvvati qanday o'zgaradi?


5.26. Liniyaga kuchlanishi $U_{lin} = 380 \text{ V}$ bo'lgan uch fazali tarmoqqa induksion qo'ra (pech) ulangan. Uning quvvat koeffitsienti $\cos \varphi = 0,8$ va quvvati $P = 5 \text{ kVt}$. Qo'raning qizdirish elementlari yulduz usulda ulangan. Har bir fazaning qarshiligi aniqlansin.

5.27. Liniya kuchlanishi $U_{lin} = 380 \text{ V}$ bo'lgan uch fazali tarmoqqa aktiv-induktiv xarakterdagi iste'molchilar to'rt simli yulduz usulda ulangan. Har bir fazaning aktiv quvvatlari: $P_a = 3,0 \text{ kVt}$, $P_b = 3,6 \text{ kVt}$, $P_c = 4,4 \text{ kVt}$, quvvat koeffitsientlari esa tegishlichcha $\cos \varphi_a = 0,8$; $\cos \varphi_b = 0,86$; $\cos \varphi_c = 0,9$ ni tashkil etadi. Fazalardagi va nol simdagisi toklari hamda uch fazali zanjirning reaktiv va to'la quvvatlari aniqlansin. Tok va kuchlanishlarning vektor diagrammasi qurilsin.

5.28. Quvvatlari $P_a = 2,2 \text{ kVt}$, $P_b = 4,4 \text{ kVt}$ bo'lgan ikkita cho'g'lanma lampalar guruhi liniya kuchlanishi $U_{lin} = 380 \text{ V}$ neytral simli uch fazali manbaga ulangan. Fazalardagi toklarning qiymatlari va neytral sim uzilganda har bir guruh qismalaridagi kuchlanish aniqlansin. Tok va kuchlanishlarning vektor diagrammasi qurilsin.

5.29. Liniya kuchlanishi $U_{lin} = 380 \text{ V}$ bo'lgan uch fazali tarmoqqa elektr qo'ra ulangan. Qo'raning qizdirish elementlari yulduz usulda ulansa, tarmoqdan iste'mol qiladigan quvvat $P = 5 \text{ kVt}$ bo'ladi. Agar qo'raning qizdirish elementlari uchburchak usulda ulansa, faza toklari va tarmoqdan iste'mol qilinadigan quvvat qanday o'zgaradi?

5.30. Liniya kuchlanishi $U_{lin} = 380 \text{ V}$ bo'lgan uch fazali manbaga induksion qo'ra ulangan. Qo'raning qizdirish elementlari yulduz usulda ulanganda, tarmoqdan iste'mol qiladigan quvvati $P = 7 \text{ kVt}$ ga teng; $\cos \varphi = -0,8$. Agar qizdirish elementlari uchburchak usulda ulansa, qo'raning tarmoqdan iste'mol qiladigan aktiv, reaktiv va to'la quvvatlari qanday o'zgaradi?



6-BOB

Elektr o'lhash asboblari va ularning qo'llanilishi

6.1. ELEKTR O'LHASH ASBOBLARINING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI VA O'LHASH XATOLIKLARI

Elektr o'lhash asboblari birinchi navbatda *o'lhash xatoliklari* bilan tavsiflanadi.

O'chanayotgan kattalikni o'lchangان $A_{\text{o'lch}}$ va haqiqiy A_{haq} qiymatlari orasidagi ayirmasi o'lhashning *absolut xatoligi* deyiladi.

$$\Delta A = A_{\text{o'lch}} - A_{\text{haq}}, \quad (6.1)$$

bunda, $A_{\text{o'lch}}$ – o'lchangان qiymat, A_{haq} – o'chanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati.

Nisbiy xatolik deb absolut xatolikni o'chanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati nisbatiga aytildi:

$$\gamma = \frac{\Delta A}{A_{\text{haq}}} \cdot 100\% = \frac{A_{\text{o'lch}} - A_{\text{haq}}}{A_{\text{haq}}} \cdot 100\%. \quad (6.2)$$

Asosiy keltirilgan xatolik quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\gamma_{\text{kel}} = \frac{\Delta A_{\text{max}}}{A_{\text{nom}}} \cdot 100\%, \quad (6.3)$$

bunda ΔA_{max} – normal ish sharoitda (shkalaning belgilangan ishchi holati, 0 °C harorat, magnit maydon va asbob yaqinida ferromagnit massalarning yo'qligi) o'lhashning mumkin bo'lgan eng katta absolut xatoligi; A_{nom} – asbob shkalasining nominal kattaligi.

Asbobning aniqlik klassi deb, aniqliq klassining standart qatoriga mos keladigan γ_{kel} keltirilgan xatolikni yaxlitlangandagi eng yaqin songa aytildi.

Asboblarning ko'rsatishi ularning turiga ko'ra *chiziqli* va *logarifmik*

shkalalilarga bo'linadi. *Asbobning o'zgarmas doimiysi* (asbobning bo'linma qiymati) C_x shunday kattalikki, unga bo'linmalarda olingen natijani ko'paytirilganda asbobning ko'rsatishi hosil bo'laci, ya'ni:

$$C_x = \frac{\Delta x}{\Delta \alpha} \quad (6.4)$$

bunda Δx – o'lchanayotgan kattalik qiymatining o'zgarishi; $\Delta \alpha$ – shkalaga nisbatan ko'rsatgich (strelka)ning chiziqli (yoki burchak) siljishi.

Asbob doimiysining teskari qiymati asbobning *sezgirligi* deyiladi va quyidagicha yoziladi:

$$S_x = \frac{1}{C_x} = \frac{\Delta \alpha}{\Delta x}.$$

O'lhash asboblarining ko'pchiligi konstruktiv tuzilishi bo'yicha elektromekanik o'zgartirgichlar turkumiga kirib, g'altaklar va magnitlarining o'zaro ta'siri asosida ishlaydi. Bunda aks ta'sir etuvchining prujina yoki logometr sxemasidan foydalanish mumkin, ular uchun mos ravishda:

$$\Delta \alpha = k \Delta I / G, \quad S_x = \Delta \alpha / \Delta x, \quad (6.5.)$$

bunda G – prujina bikrili, ($N \cdot m/\text{grad}$); $k = BS w$ (Gn) proporsionallik koefitsienti; B – induksiya; S – ko'ndalang kesim yuzi va w – o'ramlar soni.

Aks ta'sir etuvchi prujinali o'lhash mexanizmi strelkasining burchak siljishi quyidagi formuladan topiladi:

$$\alpha = BSwI / G. \quad (6.6.)$$

Masalalar

6.1. Aniqlik klassi 2 va o'lhash diapazoni 15 A bo'lgan ampermetrning ko'rsatishi $11,5 \text{ A}$ bo'lsa, o'lchanayotgan tokning haqiqiy qiymat diapazoni toping.

Yechish. Nisbiy xatolikning mumkin bo'lgan eng katta qiymati keltirilgan xatolik bilan quyidagicha bog'langan:

$$\gamma_n = \gamma_{\text{kel}} A_{\text{haq}} / A_{\text{o'lch}}.$$

$$\text{Shu bilan birga nisbiy xatolik } \gamma_n = \frac{A_{\text{o'lch}} - A_{\text{haq}}}{A_{\text{haq}}} \cdot 100\%.$$

$$\text{Yuqoridagi formulalardan } A_{\text{haq}} = A_{\text{nom}} \left(1 \pm \frac{\gamma_{\text{kel}}}{100} \cdot \frac{A_{\text{nom}}}{A_{\text{o'lch}}} \right)$$

Tegishli qiymatlarni qo'ysak, $A_{\text{haq}} = 11,5 \pm 0,3 \text{ A}$ bo'ladi.

6.2. O'lchanayotgan tok $0,5 \text{ A}$ ga o'zgarganda ampermetrning strelkasi 100 bo'linmaga ega bo'lgan chiziqli shkalaning yarmigacha siljidi. Amper-

metrning yuqori va pastki o'lhash chegaralarini, bo'linma qiymatini va sezgirligini aniqlang.

Yechish. Ampermetrning yuqori o'lhash chegarasi strelkasing maksimal og'ishiga to'g'ri keladi, shkala chiziqli bo'lgani uchun $I_{\max} = 2I_{o'lch} = 1 \text{ A}$. Asbobning bo'linma qiymati maksimal o'lchanayotgan tok va shkala bo'linmalari nisbatidan topiladi.

$$C_x = \Delta I / \Delta \alpha = 1000 / 100 = 10 \text{ mA/bo'l.}$$

Shkala doimiysining teskari qiymati uning sezgirligiga teng, ya'ni $S_x = \Delta \alpha / \Delta I = 0,1$ bo'l/mA. O'lhash texnikasida asbob strelkasini yarim bo'linmaga siljitadigan kattalik *minimal o'lchanadigan kattalik* deyiladi. Bu holda $I_{\min} = C_x / 2 = 5 \text{ mA}$.

6.3. O'lhash chegarasi 100 V bo'lgan elektromagnit sistemali voltmetr chulg'amida ajralayotgan aktiv quvvat aniqlansin. Chulg'amning aktiv qarshiligi 1 kOm, induktivligi 0,3 Gn. Voltmetr o'zgarmas va o'zgaruvchan tokda o'lhash uchun mo'ljallangan.

Yechish. Quvvatni aniqlash uchun asbobdan o'tadigan tokni topamiz. O'zgarmas tok zanjirida $I = 0,1 \text{ A}$ va $P = U^2 / R = 100^2 / 1000 = 10 \text{ Vt}$, O'zgaruvchan tok zanjirida $I = U / \sqrt{R^2 + (2\pi fL)^2} = 92 \text{ mA}$ va aktiv quvvat

$$P = UI \cos \varphi = UIR/Z = 8,5 \text{ Vt}.$$

Yechimlardan ko'rinish turibdiki, elektromagnit sistemali asbobning o'lhash zanjirida ajralayotgan quvvat nisbatan katta bo'lib, bu sistemaning kamchiligidir.

6.4. O'lhashda eng katta xatoligi 0,12 A va o'lhashning yuqori chegarasi 5 A bo'lgan asbobning asosiy keltirilgan xatoligini aniqlang.

6.5. Yuqori o'lhash chegarasi 10 A bo'lgan ampermetr shkalasining 2, 4, 6, 8, 10 A nuqtalariga mos ravishda 2,041; 3,973; 6,015; 8,026; 9,976 A to'g'ri kelsa, asbobning aniqlik klassini toping.

6.6. Qaysi sistemadagi asboblardan magnitoelektrik, elektromagnit yoki elektrodinamik, o'zgarmas va o'zgaruvchan tok zanjirlarida foydalanish mumkin?


6.7. Milliampermetr 200 mA tok o'lhashga mo'ljallangan va sezgirligi 0,5 bo'l/mA. Asbob shkalasining bo'linmalari nechta, bo'linma qiymati qancha va strelka 30 bo'linmaga og'gan bo'lsa, ampermetr qanday tokni ko'rsatadi?

6.8. O'lhash asbobining shkalasi kvadratik qonuniyat bilan o'zgaradi. Agar o'lhashning yuqori chegarasi 10 A bo'lsa, asbob strelkasi: a) yarim shkalaga; b) shkalaning 2/3 qismiga; d) chorak shkalaga siljisa, u qanday tokni ko'rsatgan bo'ladi?

6.9. Aniqlik klassi 1,5 va eng katta o'lhash chegarasi 5 A bo'lgan ampermetrning ta'mirlashdan keyingi eng katta absolut xatoligi 30 mA tashkil qiladi. Ta'mirlashdan keyin ampermetr o'z aniqlik klassini saqlab qoladimi?

6.2. TOK, KUCHLANISH, QUVVAT VA ENERGIYANI O'LCHASH

Tok va kuchlanishni o'lhash uchun *ampermetr* va *voltmetrdan* foydalaniladi. Tokni o'lhash uchun ampermetr zanjirga *ketma-ket* (6.1-a rasm), voltmetr esa *parallel ravishda* ulanadi (6.1-b rasm). O'zgarmas tok va kuchlanishni o'lhash uchun odatda magnitoelektrik sistemali, o'zgaruvchan tok va kuchlanishni o'lhash uchun elektromagnit sistemali asboblaridan foydalaniladi.




6.1-rasm

Ampermetr va voltmetr elektr zanjirga ulanganda elektr zanjir rejimi o'zgaradi. Natijada, tok va kuchlanishni o'lhashda mos ravishda *o'lhash xatoligi* paydo bo'ladi, ya'ni:

$$\delta_I = -\frac{1}{1+R_{\text{kir}}/R_{\text{pA}}} ; \quad \delta_U = -\frac{1}{1+R_{\text{pV}}/R_{\text{kir}}} \quad (6.7)$$

bunda R_{pA} , R_{pV} – asboblarning ichki qarshiligi; R_{kir} – zanjirming ampermetr va voltmetr ulanadigan qismalarga nisbatan kirish qarshiligi.

Yuqoridagi (6.7) ifodalardan kelib chiqadiki, o'lhash asboblari o'lchanayotgan tok yoki kuchlanishni katta miqdorda o'zgartirmasligi uchun $R_{\text{pA}} \leq R_{\text{kir}}$ va $R_{\text{pV}} \geq R_{\text{kir}}$ shart bajarilishi kerak. O'lchanayotgan zanjirga ampermetr va voltmetri har doim bevosita ulash mumkin emas, chunki o'lchanayotgan tok va kuchlanish asboblarning yuqori chegarasidan katta bo'lishi mumkin. O'lhash chegarasini kengaytirish uchun ampermetrga parallel ravishda *shunt* (6.2-a rasm), voltmetrga esa ketma-ket *qo'shimcha qarshilik* ulanadi (6.2-b rasm). Ularning qarshiligi quyidagi ifodalardan topiladi:



6.2-rasm


$$R_{sh} = R_{pA}/(k_A - 1); R_{qo'sh} = R_{pV}(k_V - 1) \quad (6.8)$$

bunda k_{pA} , k_{pV} — mos ravishda ampermetr va voltmetrning o'lhash chegarasini kengayish koefitsienti.

O'zgarmas tok zanjirlarida quvvatni o'lhash uchun elektrodinamik vattmetrlardan foydalaniлади.

O'garuvchan tok zanjirlarida aktiv quvvatni o'lhash uchun esa *elektrodinamik* yoki *ferrodinamik* vattmetrlardan foydalaniлади. Reaktiv quvvatni odatda parallel zanjir ulanganda kuchlanish va tok orasida $\pi/2$ burchak siliishi hosil bo'ladi va u *varmetr* asbobi bilan o'lchanadi.

O'zgarmas tok zanjirlarida quvvatni bilvosita o'lhash usuli ham qo'llanishi mumkin. Bunda 6.3-rasm bo'yicha qayta ulagichning



6.3-rasm


$$1\text{-holati uchun } P = UI - I^2 R_{pA}; 2\text{-holati uchun } P = UI - U^2 / R_{pV}. \quad (6.9)$$

O'zgaruvchan tok zanjirlarida ampermetr, voltmetr va vattmetr yordamida zanjirning to'la, aktiv va reaktiv quvvatlarini hamda quvvat koefitsientini aniqlash mumkin.

$$Q = \sqrt{(UI)^2 - P^2}; \cos\phi = P/UI \quad (6.10)$$

bunda U , I va P — asboblarning ko'rsatishi.

Symmetrik yuklamalari *uch fazali zanjirda quvvatni o'lhash uchun ikki yoki uch elementli vattmetrlar* qo'llaniladi. Aktiv quvvatni o'lhash uchun 6.4-a rasmdagi sxema, reaktiv quvvatni o'lhash uchun esa 6.4-b rasmdagi sxema qo'llaniladi.



6.4-rasm

Natijaviy quvvat quyidagi ifodadan topiladi:

$$P = 3P_f = 3U_f I_f \cos\phi, \quad (6.11)$$


bunda P_f — vattmetrning ko'rsatishi.

Nosimmetrik yuklamal uch fazali zanjirda natijaviy quvvatni o'lchanash uchun kamida ikkita vattmetr qo'llaniladi (Aron sxemasi 6.5-rasm). $P = P_1 + P_2$. Reaktiv quvvat esa quyidagi formula bilan o'lchanadi:


$$Q = \sqrt{3}(P_1 - P_2), \quad (6.12)$$

P_1, P_2 – vattmetrlarning ko'rsatishi.


O'zgaruvchan tok zanjirlarida energiya *hisoblagich* (schetchik) lar yordamida o'lchanadi. Ularni bir va uch fazali zanjirlarga ulanishi 6.6-rasmida keltirilgan.



6.6-rasm



6.5-rasm



Hisoblagichning aylanish tezligi n_h ma'lum vaqt intervalida sarf bo'la-yotgan energiyaga proporsionaldir, ya'ni:

$$n_h = Pt/C = W/C \quad (6.13)$$


bunda C – hisoblagichning doimiysi $Vt \cdot s/ayl$.

Hisoblagichning shkalasi kilovatt-soatlarda darajalanadi (graduirov-kalanadi).

Masalalar

6.10. Ampermetr elektr zanjirning shoxobchalanmagan qismiga ulangan (6.7-rasm). Rezistorlar qarshiliklari $R_1 = 2 \text{ Om}$; $R_2 = R_3 = 4 \text{ Om}$; o'zgaruvchan rezistorning to'la qarshiligi $R_4 = 10 \text{ Om}$. Manba kuchlanishi 15 V , ichki qarshiligi esa $r_{ich} = 0,5 \text{ Om}$.

Pezistorning ikki chegarawiy holatidagi ampermetr ko'rsatishini toping.



6.7-rasm

Ampermetr kiritadigan o'lchash xatoligi 1% dan oshmasligi uchun uning ichki qarshiligi qancha bo'lishi kerak?

Yechish. Zanjirning ekvivalent qarshiligi $R_{ekv} = R_1 + R_4 + r_{ich} + R_2 R_3 / (R_2 + R_3)$ ga teng.

Ampermetr ulanadigan qismalarga nisbatan zanjirning qarshiligi $R_{kir,pA} = R_1 + R_4 + r_{ich} + R_2 R_3 / (R_2 + R_3)$. Ma'lumki, eng kichik qarshilik R_4 o'zgaruvchan rezistor chiqarilgan holatda bo'ladi, ya'ni: $R_{kir,pA} = R_1 + R_4 + r_{ich} + R_2 R_3 / (R_2 + R_3) = 4,5 \text{ Om}$.

6.7 formuladan foydalanib, $R_{pA} \leq R_{kir}/100 = 0,045 \text{ Om}$, ekvivalent qarshilik R_4 rezistorning ikki chetki holatlarida $R_{ekv,max} = 4,5 \text{ Om}$ va $R_{ekv,min} = 14,5 \text{ Om}$ ekanligini aniqlaymiz.

Ampermetr ko'rsatishlari mos ravishda $I_1 = 3,3 \text{ A}$ va $I_2 = 1,03 \text{ A}$ bo'ladi. Binobarin, ampermetrning eng yuqori chegarasi 5 A dan kam bo'imasligi kerak.

6.11. Voltmetrga ulanishi kerak bo'lgan kuchlanish ko'p chegarali bo'lginining parametrlarini aniqlang (6.8-rasm). Voltmetrning ichki qarshiligi $R_{pv} = 4 \text{ kOm}$.

O'lchashning har bir diapazonidagi asbob quvvatini toping.

Yechish. Qo'shimcha rezistorlarning qarshiligini (6.8) formuladan topish mumkin: $R_1 = R_{pv} \left(\frac{U}{U_{nom}} - 1 \right) = 16 \text{ kOm}$; $R_1 + R_2 = 96 \text{ kOm}$, ya'ni $R_2 = 80 \text{ kOm}$.


Zanjir toki har bir o'lchash diapazonida mos ravishda 0,75 mA, quvvat esa $P_{pv} = 3; 15 \text{ Va } 75 \text{ mVt}$.

6.12. Voltmetrning o'lchash chegarasini 10 V dan 100 V gacha kengaytiradigan qo'shimcha rezistor diametri $\varnothing 0,05 \text{ mm}$ bo'lgan managanindan yasalgan. Voltmetrning ichki qarshiligi 10 kOm. Shu simning uzunligi va unda ajraladigan quvvat aniqlansin.


6.13. Universal testerda o'lchash chegarasi 50 mKA va ichki qarshiligi 500 Om bo'lgan mikroampermetrdan foydalanilgan tokni to'rt chegarada: 1 mA, 100 mA; 1 A, 10 A o'lchash uchun shuntlarni va kuchlanishni to'rt chegarada: 100 mV; 3 V, 30 va 150 V o'lchash uchun qo'shimcha qarshiliklarni aniqlang.

6.14. Ulanishi 6.9-rasmda keltirilgan asboblarining ko'rsatishi mos ravishda 4 A; 80 V va 200 Vt. To'la va reaktiv quvvatlar hamda yuklamaning quvvat koefitsienti aniqlansin, o'lchash asboblarining quvvat sarfi hisobga olinmasin.


6.15. Quvvatni o'lchash uchun vattmetr 150/5 A li tok transformatori va 6000/100 V li kuchlanish transformatori orqali ulangan (6.10-rasm).



6.8-rasm



6.9-rasm



6.10-rasm

Agar vattmetrning ko'rsatishi 280 Vt bo'lsa, yuklamaning quvvati qancha? Vattmetrning aniqlik klassi 1,5. O'lchashning mumkin bo'lgan eng katta absolut xatoligi qancha?

6.16. Zamonaviy o'lchash texnikasida ampermetr va voltmetrlarni o'lchash chegarasini kengaytirish uchun shunt va qo'shimcha qarshiliklar manganindan yasaladi. Manganinning tanlanishi uning qaysi xususiyatlariga bog'liq?

6.17. Simmetrik aktiv yuklama ulanganга to'rt simli, uch fazali zanjirning faza toki 5 A va kuchlanishi 220 V. Vattmetr ko'rsatishini va yuklamaning aktiv quvvatini aniqlang.

6.18. Energiya hisoblagichi yordamida o'lchangan energiyaning sarfi 800 kVt soat bo'lgan. Hisoblagich haqiqiy sarfining oshirilgan qiymati tomoniga bo'lgan nisbiy xatoligi 1,8%. Haqiqiy energiya sarfi topilsin.

6.3. REZISTOR VA REAKTIV ELEMENTLARNING PARAMETRLARINI O'LCHASH

Qarshiliklarni o'lchash uchun *ommestr yoki megaommestr dan* foydalaniadi. Ular logometr asosida tuzilgan magnitoelektrik asboblardir (6.11-rasm).


Bu asboblar ko'rsatkichining burchak siljishi logometr g'altaklaridan o'tadigan toklar nisbatiga yoki o'lchanayotgan R_x qarshilikning qiymatiga bog'liq, ya'ni:

$$\alpha = k \left(\frac{I_2 - 1}{I_1} \right) = k \left(\frac{\frac{R_x + R_{p1}}{R_{cheg} + R_{p2}} - 1}{\frac{R_x + R_{p1}}{R_{cheg} + R_{p2}}} \right) \quad (6.14)$$


Bunda R_{p1} va R_{p2} – ramka qarshiliqi; R_{cheg} – chegaralovchi qarshilik; k – o'lchov chegarasi bilan belgilanadigan proporsionallik koeffitsienti.

Qarshiliklarni o'lchash usullari orasida *ko'prikl (sxema) usuli* keng tarqalgan (6.12-rasm). Ko'prikl usuli katta aniqlikka ega bo'lib, unda sxemani muvozanatga keltirish uchun rezistor qarshiliqi o'zgartiriladi, ya'ni:

$$R_x = R_3 \frac{R_2}{R_4}. \quad (6.15)$$



6.11-rasm



6.12-rasm

Rezistor R_3 sifatida odatda 0,01 dan 9999,99 Om gacha o'zgaradigan qarshiliklar magazini qo'llaniladi.

Qarshiliklarni aniqlashning *bilvosita* usullariga ampermetr va voltmetr usuli kiradi (6.3-rasm). Qayta ulagichning holatiga qarab o'lchanayotgan qarshilik quyidagi ifodalardan topiladi:

$$R_x = U/I - R_{pA}; \quad R_x = UR_{pV}/(IR_{pV} - U) \quad (6.16)$$

Qarshilikni bilvosita o'lhash usullariga faqat bitta o'lchov asbobi – *voltmetr* (6.13-a rasm) yoki *ampermetr* (6.13-b rasm) bilan o'lhash ham kiradi.

Voltmetr avval manbaga bevosita ulanadi (1-holat), keyin esa R_x o'lchanayotgan qarshilik orqali ulanadi (2-holat). Natijalarga ko'ra rezistorning qarshiligi hisoblanadi:


$$R_x = R_{pV}(U_1/U_2 - 1), \quad (6.17)$$

bunda U_1 va U_2 qayta ulagichning mos ravishda 1- va 2-holatlaridagi voltmetring ko'rsatishi; R_{pV} – voltmetrning ichki qarshiligi.


Qarshiliklarni bitta ampermetr bilan o'lhashda (6.13-b rasm) quyidagi ifodadan foydalanamiz:

$$R_x = \frac{I_2}{I_1} (R_0 + R_{pA}) - R_{pA}, \quad (6.18)$$

bunda I_1 va I_2 – qayta ulagichning mos ravishda 1- va 2-holatlaridagi



6.13-rasm




ampermetrning ko'rsatishi; R_0 – namunaviy qarshilik; R_{PA} – ampermetrning ichki qarshiligi.

Yuqoridagi sxemalar bilan o'zgarmas tok zanjirlaridagi qarshiliklar aniqlanadi. *O'zgaruvchan tok zanjirlarida esa to'la va reaktiv qarshiliklar ham inobatga olinadi.*

Induktivlik, sig'im (6.14-b rasm) va *chastotani o'lhash* elektromagnit va elektrodinamik sistemali *logometrlar yordamida bajariladi*. Kondensatorlar *sig'imi* va g'altaklar *induktivligini* o'lhash uchun elektrodinamik logometr sxemasi keltirilgan (6.14-a rasm). Bunda o'lhash zanjirining parametrlari shunday olinadiki, ko'rsatgich (strelka) siljishi o'lchanayotgan va namunaviy elementlarning sig'imi yoki induktivliklari nisbatiga proporsional bo'ladi.

$$\alpha = kC_x/C_0; \quad \alpha = kL_x/L_0, \quad (6.19)$$

bunda k – shkala darajalanishini (graduirovkasini) aniqlaydigan koeffitsient.



6.14-rasm

Reaktiv elementlarning parametrlarini muvozanatlangan ko'priq sxemasi bilan ham o'lhash mumkin, bunda muvozanat sharti quyidagicha ifodalaniladi:

$$L = L_0 \cdot R_2/R_4; \quad C_x = C_0 \cdot R_4/R_2, \quad (6.20)$$

bu ifodada L_0 – namunaviy g'altak induktivligi va C_0 – namunaviy kondensator *sig'imi*.

Amaliyatda reaktiv va aktiv qarshiliklarni o'lhash kerak bo'lganda maxsus o'lhash sxemalari qo'llaniladi. Ko'priq sxemasi (6.15-rasm) ikkita muvozanat sharti bilan tavsiflanadi:

$$R_1 = R_2 R_3 / R_4; \\ L = C [R_1 R_4 + R_5 (R_1 + R_2)], \quad (6.21)$$


bunda birinchi shart o'zgarmas tokka, ikkinchisi esa o'zgaruvchan tokka mos keladi.

Qarshiliklarni sanoat chastotasida o'lhash uchun avtotransformatorli differentsiyal sxemalar ham qo'llaniladi. O'lhash asbobi, odatda milliampermetr, induktivlik yoki sig' im birliklarida darajalanadi (graduirovkalanadi):

$$I = \frac{(E_1 Z_0 - E_2 Z_x)}{(Z_0 Z_x + Z_0 Z + Z Z_x)}, \quad (6.22)$$

yoki muvozanat sxemasi qo'llanilganda:

$$Z_x = Z_0 E_1 / E_2 \quad (6.23)$$



6.15-rasm

Elementlarning aktiv, reaktiv va to'la qarshiliklarini bilvosita usulda ampermetr, voltmetr va vattmetr bilan o'lhash mumkin (3.9-rasm):

$$\begin{aligned} Z &= U/I; R = P/I^2; X_L = \sqrt{(UI)^2 - P^2}/I^2; \\ X_C &= \sqrt{(UI)^2 - P^2}/I^2 \end{aligned} \quad (6.24)$$

Bunda P , U va I – asboblarning ko'rsatishi. Bu usulda o'zgaruvchan tokning chastotasi ma'lum bo'imasligi ham mumkin. Bu xususiyat usulning afzalligidir.

Masalalar

6.19. Qarshiliklarni o'lhashda ishlataladigan logometr (6.11-rasm) shkalasining uzunligi $\alpha_{max} = 100$ mm bo'lib, u 0 dan $R_{x max} = 1000$ Om gacha darajalangan. Qarshiliklar $R_{p2} = 50$ Om va $R_{cheg} = 100$ Om. Qarshilik R_{pl} va shkala koefitsienti aniqlansin. Agar asbobning aniqlik klassi 1 bo'lsa, o'lhashning eng katta absolut xatoligi topilsin.

Yechish. Shkalaning boshi qisqa tutashtirilgan $R_x = 0$ qarshilikka to'g'ri keladi, binobarin, birinchi ramkaning qarshiligi $R_{pl} = R_{p2} + R_{cheg} = 150$ Om. Shkala koefitsienti k uning yuqori chegarasidan tanlanadi va α_{max} , $R_{x max}$ qiymatlariga qo'yib topiladi:

$$k = \alpha_{max} / \left(\frac{R_{x max} + R_{pl}}{R_{cheg} + R_{p2}} - 1 \right) = \alpha_{max} R_{pl} / R_{x max} = 15 \text{ mm.}$$

Eng katta absolut xatolikni aniqlik klassi formulasidan topish mumkin: $\Delta R = 10$ Om.

6.20. O'zgaruvchan tok motori yakorining qarshiligini ampermetr va voltmetr usuli bilan (6.3-rasm) o'lchanganda, asboblarning ko'rsatishi 10 A va 30 V bo'lgan. Ampermetrning ichki qarshiligi $R_{pA} = 0,1$ Om,

voltmetrning ichki qarshiligi $R_{pV} = 5 \text{ kOm}$. Sxemadagi kalitning 1- va 2-holatlarida asboblarning ichki qarshiliklari tufayli paydo bo'ladigan qo'shimcha nisbiy xatolik nimaga teng?

Yechish. O'lhash asboblarning qarshiliklarini hisobga olmasa, yakor zanjirining qarshiligi $R_x = U/I = 3 \text{ Om}$. Kalitning 1-holatida ampermetrning ichki qarshiligidini hisobga olish kerak, ya'ni $R_x = U/I - R_{pA} = 2,9 \text{ Om}$. Binobarin, bu holda qo'shimcha nisbiy xatolik $\gamma = \Delta R/R_x \cdot 100\% = 3,3\%$. Kalitning 2-holatida voltmetrning ichki qarshiligidini hisobga olish kerak:

$$R_{pA} = U_{pV}(R_x + R_{pV})/R_x R_{pV}$$

yoki $R_x = \frac{U_{pV}}{I - U_{pV}/R_{pV}} = 30/(10 - 0,06) = 3,0018 \text{ Om}$.


Bu holda qo'shimcha nisbiy xatolik $\gamma = \Delta R/R_x \cdot 100\% = 0,06\%$. Yechimlardan ko'rinish turibdiki, ikkinchi holatda o'lhash xatoligi ancha kichik.

6.21. Qarshiliklarni aniq o'lhash uchun 6.16-rasmida keltirilgan o'lhash ko'prigidan foydalaniladi. Agar yelka qarshiliklari $R_1 = 1 \text{ kOm}$; $R_2 = 0,5 \text{ kOm}$ va $R_4 = 18 \text{ kOm}$ va o'zgaruvchan rezistorning to'la qarshiligi $R = 2 \text{ kOm}$ bo'lsa, R_x qarshilik aniqlansin. Qo'zg'aluvchan kontakt o'zgaruvchan qarshilikning o'rtasida bo'lganda sxema muvozanatlanadi.

6.22. Logometr bilan o'lchang'an rezistorning qarshiligi 500 Om. Agar rezistor qarshiligining haqiqiy qiymati 501 Om bo'lsa, o'lhashning absolut va nisbiy xatoligi topilsin.

6.23. Muvozanatlangan ko'priking yelka qarshiliklari $R_2 = 100 \text{ Om}$, $R_3 = 200 \text{ Om}$, $R_4 = 50 \text{ Om}$ ga teng bo'lganda ko'priq diagonalidagi tok nolga teng. Qarshilik R_x ni aniqlang.

6.24. Rezistor qarshilagini ampermetr va voltmetr usulida o'lchanganda 6.3-rasmida asboblarning ko'rsatishi 11 mA va 10 V bo'lgan. Agar voltmetrning ichki qarshiligi $R_{pV} = 100 \text{ kOm}$ bo'lsa, rezistor qarshiligi aniqlansin.




6.16-rasm

6.25. Ko'priq sxemasidagi (6.12-rasm) namunaviy kondensatorning sig'imi $5 \text{ m}\mu\text{F}$. Agar ko'priknинг muvozanati $R_2 = 3,5 \text{ k}\Omega\text{m}$ va $R_4 = 1 \text{ k}\Omega\text{m}$ da o'rnatilsa, noma'lum kondensatorning sig'imi topilsin.

6.26. Ko'priq sxemada (6.15-rasm) o'zgarmas rezistorlar $R_1 = 1 \text{ k}\Omega\text{m}$, $R_2 = 2 \text{ k}\Omega\text{m}$, $R_3 = 2 \text{ k}\Omega\text{m}$, $R_4 = 4 \text{ k}\Omega\text{m}$ va o'zgaruvchan qarshiliklar $R_5 = 1+10 \text{ k}\Omega\text{m}$; $R_6 = 1+10 \text{ k}\Omega\text{m}$. Agar namunaviy kondensator $C = 10 \text{ pF}$ bo'lsa, induktivlikni qaysi diapazonda o'lchash mumkin?

6.27. Induktivlik g'altagi avval o'zgarmas kuchlanishga, keyin chastotasi 50 Gs li o'zgaruvchan kuchlanishga ulandi. Birinchi holda ampermetr 15 A , ikkinchi holda esa 3 A ko'rsatgan. Agar kuchlanish ikkala holda ham 15 V ga teng bo'lsa, g'altakning aktiv qarshiliqi va induktivligi topilsin.

6.28. Aktiv qarshiliqi 2 Om bo'lgan induktiv g'altak kuchlanishi $u = 59 \sin 314t \text{ V}$ manbaga ulangan. G'altakka ketma-ket ulangan ampermetr $0,5 \text{ A}$ ko'rsatsa, g'altakning induktivligi va aslligi aniqlansin.



7-BOB

Transformatorlar

7.1. TRANSFORMATORLARNING XARAKTERISTIKALARI VA ISH REJIMLARI

Transformatorlarning birlamchi chulg'amida elektr energiya elektromagnit energiyaga va ikkilamchi chulg'amda elektromagnit energiya qayta elektr energiyaga aylanadi (7.1-rasm). Birlamchi va ikkilamchi chulg'amda induksiyalangan EYuKlar quyidagicha ifodalanadi:

$$E_1 = 4,44 f w_1 \Phi_{\max} ; \quad E_2 = 4,44 f w_2 \Phi_{\max}, \quad (7.1.)$$

bunda f – transformatsiyalananayotgan o'zgaruvchan tokning chastotasi, Gs, w_1 va w_2 – birlamchi va ikkilamchi chulg'amlarning o'ramlari soni; Φ_{\max} – magnit oqimning maksimal qiymati, Vb.


Birlamchi chulg'am kuchlanishini ikkilamchi chulg'amdagи kuchlanishga nisbati *transformatsiya koeffitsienti* deyiladi, yani:

$$k = w_1/w_2 = E_1/E_2 = U_{10}/U_{20}, \quad (7.2)$$

bunda U_{10} va U_{20} – salt ishslashda birlamchi va ikkilamchi chulg'amlardagi kuchlanishlar.

Transformatorlarning barcha parametrlarini qisqa tutashish va salt ishslash tajribalaridan aniqlash mumkin.

Transformatorning salt ishslashdagi almashlash sxemasi 7.2-rasmida keltililgan. Uning asosida:



7.1-rasm

$$\begin{aligned} U_1 &= \sqrt{(I_0 Z_1)^2 - E_1^2}; \\ U_{20} &= E_2; \\ I_0 &= 0. \end{aligned} \quad (7.3)$$

Salt ishslashda transformatorning quvvati asosan po'latdagi isroflarga sarf bo'ladi ($P_{s.ish} = \Delta P_{po,l}$). Almashlash sxemasining parametrlari quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

$$Z_\mu = \frac{U_{1\text{nom}}}{I_{10}}; R_\mu = \frac{P_{\text{s.ish}}}{I_0^2};$$

$$X_\mu = \sqrt{\left(\frac{U_{1\text{nom}}}{I_0}\right)^2 - \left(\frac{P_{\text{s.ish}}}{I_0^2}\right)^2}, \quad (7.4)$$

bunda $U_{1\text{nom}}$, va I_{10} – birlamchi chulg‘amga ulangan voltmetr va ampermetr ko‘rsatishi; $Z_\mu = \sqrt{R_\mu^2 + X_\mu^2}$ – almashlash sxemasi magnitlovchi shoxobchasingin to‘la qarshiligi.

Transformatorda qisqa tutashish tajribasidagi kuchlanishning qiymati juda kichik bo‘ladi va u keng qo‘llaniladigan kuch transformatorlarida birlamchi kuchlanishning 4–11% ni tashkil qiladi $u_{q.t} = (U_{q.t}/U_{1\text{nom}}) \cdot 100\%$. Qisqa tutashish tajribasidan qisqa tutashish kuchlanishi $U_{q.t}$ aniqlanadi. Qisqa tutashish quvvati vattmetr yordamida o‘lchanadi. Bu quvvat ($P_{q.t}$) chulg‘amlarning qizishiga sarflanadi. Shuning uchun bu quvvatni transformatorning mis simlarida isrof bo‘ladigan quvvat ($P_{q.t} = \Delta P_{\text{mis}}$) deyiladi. Qisqa tutashish tajribasining almashlash sxemasi 7.2-b rasmda keltirilgan. Bu sxema asosida:


$$U_1 = \sqrt{(I_1 Z_1)^2 - E_1^2}; U_2 = 0; I_2 = E_2/Z_2. \quad (7.5)$$

Almashlash sxemasining parametrlari quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$Z_{q.t} = \frac{U_{q.t}}{I_{1\text{nom}}}; R_{q.t} = \frac{P_{q.t}}{I_{q.t}^2}; X_{q.t} = \sqrt{\left(\frac{U_{q.t}}{I_{q.t}}\right)^2 - \left(\frac{P_{q.t}}{I_{q.t}^2}\right)^2}, \quad (7.6)$$

bunda $U_{q.t} = (4 \div 11)\% U_{1\text{nom}}$ va $I_{q.t} = I_{1\text{nom}}$ – mos ravishda birlamchi chulg‘amda kuchlanish va tok. $Z_{q.t} = \sqrt{R_{q.t}^2 + X_{q.t}^2}$ – transformator qisqa tutashishining to‘la qarshiligi.

Transformatorning qisqa tutashish tajribasidagi aktiv va reaktiv qarshiliklari birlamchi chulg‘amning hamda ikkilamchi chulg‘amning keltiril-



7.2-rasm


gan mos qarshiliklari yig'indisidan iborat, ya'ni $R_{q.t} = R_1 + R_2 k^2$ va $X_{q.t} = X_1 + X_2 k^2$.

Yuklama rejimi uchun transformatorning almashlash sxemasi (7.3-rasm) asosida quyidagini yozish mumkin:

$$P_2 = \beta S_{\text{nom}} \cos \varphi_2 = \beta U_{2\text{nom}} I_{2\text{nom}} \cos \varphi_2, \quad (7.7)$$

bunda Z_{yuk} – yuklananining to'la qarshiligi; $\beta = \frac{I_2}{I_{2\text{nom}}}$ – transformatorning yuklanish koefitsienti; $\cos \varphi_2$ – yuklananining quvvat koefitsienti.

Agar transformatorning quvvat va yuklama koefitsientlari ma'lum bo'lsa, FIKni quyidagi formuladan aniqlaymiz:



$$\eta = \beta S_{\text{nom}} \cos \varphi_2 / (\beta S_{\text{nom}} \cos \varphi_2 + P_{\text{s.ish}} + \beta^2 P_{\text{q.t}}), \quad (7.8)$$

bunda $P_{\text{s.ish}}$ va $P_{\text{q.t}}$ quvvat isroflari tajribadan yoki ma'lumotnomalardan olinadi.

Transformatorning maksimal FIK quyidagi ifodadan olingan β yuklama koefitsientiga mos keladi:

$$\beta = \sqrt{P_{\text{s.ish}}/P_{\text{q.t}}} = \sqrt{\Delta P_{\text{po'i}}/\Delta P_{\text{mis}}}. \quad (7.9)$$

Yuklangan transformatorning ikkilamchi chulg'amidagi kuchlanish o'zgarishining nisbiy qiymati $\Delta u = (U_{20} - U_2)/U_{20}$. Bu qiymat qisqa tutashish kuchlanishining $U_{\text{q.t.a}}$ aktiv va $U_{\text{q.t.r}}$ reaktiv tashkil etuvchilari bilan quyidagicha bog'langan:

$$\Delta u = U_{\text{q.t.a}} \cos \varphi_2 + U_{\text{q.t.r}} \sin \varphi_2, \quad (7.10)$$

bunda $\cos \varphi_2 = P_{\text{q.t.}}/S_{\text{nom}}$ va $U_{\text{q.t.r}} = \sqrt{U_{\text{q.t.}}^2 - U_{\text{q.t.a}}^2}$; $U_{\text{q.t.}} = I_{\text{q.t.}} Z_{\text{q.t.}}$. Ikkilamchi kuchlanishning o'zgarishini hisoblash transformatorning tashqi xarakteristikasi $U_2 = f(I_2)$ ni qurish uchun zarurdir.

Masalalar

7.1. Bir fazali transformator magnit o'tkazgichining ko'ndalang aktiv kesimining yuzi 20 sm^2 va nominal rejimda magnit induksiyasi $B_{\max} = 1,2 \text{ Tl}$. Chulg'am o'ramlarining soni $w_1 = 400$ va $w_2 = 50$, chastota $f = 50 \text{ Gs}$.

Transformer bir o‘ramining EYuKi, birlamchi va ikkilamchi chulg‘am-larning EYuKi hamda transformatsiya koeffitsienti aniqlansin.

Yechish. Magnit o‘kazgichdagi magnit oqimning maksimal qiymati $\Phi_{\max} = BS = 1,2 \cdot 20 \cdot 10^{-4} = 2,4 \cdot 10^{-3}$ Vb. Ikkala chulg‘amning har bir o‘ramidagi EYuKning ta’sir etuvchi qiymati bir xil $E_0 = 4,44 f \Phi_{\max} = 4,44 \cdot 50 \cdot 2,4 \cdot 10^{-3} = 0,53$ V. Chulg‘am qismalaridagi EYuK o‘ramlar soniga proporsional, ya’ni $E_1 = w_1 E_0 = 212$ V va $E_2 = w_2 E_0 = 265$ V. Transformatsiya koeffitsienti $k = w_1/w_2 = E_1/E_2 = 0,8$.

7.2. Transformer salt ishlashi va qisqa tutashish tajribalarining almashlash sxemalari parametrlari topilsin (7.2-rasm). Tajribadan quyidagi parametrlar olingan: $S_{\text{nom}} = 20000 \text{ kV}\cdot\text{A}$; $U_{1\text{nom}} = 110 \text{ kV}$; $U_{2\text{nom}} = 6,1 \text{ kV}$; $u_{q,t} = 10,5\% U_{1\text{nom}}$; $I_0 = 2,85\% I_{1\text{nom}}$, po‘latdagi isroflar $\Delta P_{\text{po'l}} = 47 \text{ kVt}$, misdagli isroflar $\Delta P_{\text{mis}} = 129 \text{ kVt}$. Ikkala tajribadan transformatorning quvvat koeffitsienti topilsin.

Yechish. Transformatorning birlamchi chulg‘amidagi nominal tok $I_{1\text{nom}} = S_{\text{nom}}/U_{1\text{nom}} = \frac{20000}{110} = 182 \text{ A}$, salt ishlash toki $I_{10} = 0,0255 \text{ A}$, $I_{1\text{nom}} = 5,2 \text{ A}$.

Transformatorning qisqa tutashish tajribasidagi magnitlash shoxobchasi to‘la qarshiligining aktiv tashkil etuvchisi:

$$R_\mu = \Delta P_{\text{po'l}}/I_{10}^2 = 47 \cdot 10^3 / 5,2^2 = 1,74 \text{ kOm},$$

$$\text{bu rejimdagi to‘la qarshilik } Z_\mu = U_{1\text{nom}}/I_{10} = 110 \cdot 10^3 / 5,2 = 21,15 \text{ kOm}.$$

Magnitlash shoxobchasi to‘la qarshiligining reaktiv tashkil etuvchisi $X_\mu = \sqrt{Z_\mu^2 - R_\mu^2} = 21,1 \text{ kOm}$.

Transformatorning qisqa tutashishdagi to‘la qarshiliqi $Z_{q,t} = U_{q,t}/I_{1\text{nom}} = 0,105 \cdot 110 \cdot 10^3 / 182 = 63,5 \text{ Om}$. Shu to‘la qarshilikning aktiv va reaktiv tashkil etuvchilari mos ravishda:

$$R_{q,t} = \Delta P_{\text{mis}}/I_{\text{nom}}^2 = 129 \cdot 10^3 / 182^2 = 3,9 \text{ Om};$$

$$X_{q,t} = \sqrt{Z_{q,t}^2 - R_{q,t}^2} = 63,4 \text{ Om}.$$

Ikkala tajribadagi quvvat koeffitsientlari mos ravishda $\cos\varphi_{s,\text{ish}} = R_\mu/Z_\mu = 0,082$ va $\cos\varphi_{q,t} = 0,061$, ya’ni nihoyatda kichik hisoblanadi.

7.3. Transformatorning qisqa tutashish tajribasida ampermetr va voltmetr ko‘rsatishlari $U_1 = 190 \text{ V}$; $I_1 = 5 \text{ A}$. Misdagi quvvat isrofi $\Delta P_{\text{mis}} = 400 \text{ Vt}$. Agar $k = 4$, birlamchi chulg‘amning aktiv va reaktiv qarshiliqi $R_1 = 2 \text{ Om}$ va $X_1 = 15,7 \text{ Om}$ bo‘lsa, transformator almashlash sxemasining parametrlari topilsin (7.2-b rasm). Transformatorning quvvat koeffitsientini hisoblang.

Yechish. Qisqa tutashishdagi aktiv qarshilik $R_{q,t} = \Delta P_{mis}/I_{1nom}^2 = 400/5^2 = 16$ Om, to‘la qarshilik $Z_{q,t} = U_{1nom}/I_{1nom} = 190/5 = 35$ Om. Binobarin, qisqa tutashishning reaktiv qarshiligi:

$$X_{q,t} = \sqrt{Z_{q,t}^2 - R_{q,t}^2} = 34,5 \text{ Om} .$$

Ikkilamchi chulg‘amning aktiv va reaktiv qarshiliklarini birlamchi chulg‘amga keltirilgan qiymatlari $R_1^1 = R_{q,t} - R_l = 16 - 2 = 14$ Om; $X_2' = X_{q,t} - X_l = 34,5 - 15,7 = 18,8$ Om.

Ikkilamchi chulg‘amning aktiv va reaktiv qarshiliklari $R_2 = R_2^1/k^2 = 14/4^2 = 0,875$ Om; $X_2 = X_2'/k^2 = 18,8/4^2 = 1,18$ Om.

Qisqa tutashishda quvvat koefitsienti $\cos\varphi = 0,423$.

7.4. Transformatordaning nominal parametrlari: $S_{nom} = 400 \text{ kV} \cdot \text{A}$; $U_{1nom} = 6 \text{ kV}$; $U_{2nom} = 400 \text{ V}$. Salt ishslash va qisqa tutashish isroflari mos ravishda $P_{s-ish} = 1200 \text{ Vt}$ va $P_{q,t} = 4000 \text{ Vt}$, salt ishslash toki $I_0 = 2,5 \% I_{1nom}$ bo‘lsa, birlamchi zanjirning to‘la qarshiligi, salt ishslashda quvvat koefitsienti hamda $\beta = 0,8$ va $\cos\varphi_2 = 0,95$ bo‘lganda FIK aniqlansin. Transformatordaning maksimal FIK topilsin.

Yechish. Transformatordaning nominal parametrlari: $S_{nom} = 400 \text{ kV} \cdot \text{A}$; $U_{1nom} = 6 \text{ kV}$; $U_{2nom} = 400 \text{ V}$. Salt ishslash va qisqa tutashish isroflari mos ravishda $P_{s-ish} = 1200 \text{ Vt}$ va $P_{q,t} = 4000 \text{ Vt}$, salt ishslash toki $I_0 = 2,5 \% I_{1nom}$ bo‘lsa, birlamchi zanjirning to‘la qarshiligi, salt ishslashda quvvat koefitsienti hamda $\beta = 0,8$ va $\cos\varphi_2 = 0,95$ bo‘lganda FIK aniqlansin. Transformatordaning maksimal FIK topilsin.

Salt ishslashda ikkilamchi chulg‘amning to‘la qarshiligi:

$$Z_\mu^2 = U_{1nom}/I_{10} = 6000/1,7 = 3,5 \text{ kOm} .$$

To‘la qarshilikning aktiv tashkil etuvchisi:

$$R_\mu = P_{s-ish}/I_{10}^2 = 1200/1,7^2 = 415 \text{ Om} .$$

Salt ish rejimidagi quvvat koefitsienti:

$$\cos\varphi_2 = R_\mu/Z_\mu = 415/3530 = 0,117 .$$

Masala shartida berilgan yuklama va quvvat koefitsientlari uchun transformatordaning FIK:

$$\eta = \frac{\beta S_{nom} \cos\varphi_2}{\beta S_{nom} \cos\varphi_2 + P_{s-ish} + \beta^2 P_{q,t}} = \frac{0,8 \cdot 400 \cdot 0,95}{0,8 \cdot 400 \cdot 0,95 + 1,2 + 0,8^2 \cdot 4} = 0,98$$

Yuklama koefitsienti $\beta = \sqrt{P_{s-ish}/P_{q,t}} = \sqrt{1200/1400} = 0,55$ bo‘lganda maksimal FIK:

$$\eta_{max} = \frac{0,55 \cdot 400 \cdot 0,95}{0,55 \cdot 400 \cdot 0,95 + 1,2 + 0,55^2 \cdot 4} = 0,989 .$$

7.5. Agar transformatordaning ikkilamchi chulg‘amning o‘ramlar soni birinchinikidan: a) 10 baravar kam; b) 5 baravar ko‘p bo‘lsa, transformatsiya koefitsienti qancha bo‘ladi?

7.6. Bir fazali transformator o'zgaruvchan 220 V kuchlanishga ulangan. Agar salt ish rejimida ikkilamchi chulg'amdag'i kuchlanish 20; 110; 330 va 1100 V bo'lsa, transformatsiya koefitsienti topilsin.

7.7. Birlamchi chulg'amning o'ramlar soni $w_1 = 100$ bo'lgan transformator chastotasi 400 Gs li manbaga ulanganda magnit o'tkazgichda $\Phi_{\max} = 1,25 \cdot 10^{-4}$ Vs magnit oqim hosil bo'ladi. Transformatorning birlamchi chulg'amidagi EYU_K aniqlansin.

7.8. Transformatorning uchta chulg'ami ketma-ket ulanib, kuchlanishi $U = 380$ V o'zgaruvchan tokli tarmoqqa qo'shilgan (7.4-rasm). Voltmetrlarning ko'rsatishi $U_1 = 95$ V, $U_2 = 190$ V, $U_3 = 95$ V. Agar $w_1 = 100$ bo'lsa, w_2 , w_3 chulg'amlarning o'ramlari soni aniqlansin.

7.9. Transformator kuchlanishi 220 V, chastotasi 50 Gs li tarmoqqa ulangan. Agar magnit o'tkazgichning aktiv kesim yuzi $4,4 \cdot 10^{-3}$ m², undagi magnit induksiya $B = 1,5$ Tl va ikkilamchi chulg'amning o'ramlari soni 50 bo'lsa, transformatsiya koefitsienti aniqlansin.


7.10. Transformatorning salt ishlashida ikkilamchi va birlamchi chulg'amlardagi kuchlanishlar mos ravishda $55 \text{ V} \pm 1,5\%$ va $220 \text{ V} \pm 1,5\%$ ga teng. Transformatsiya koefitsienti va uning nisbiy xatoligi aniqlansin.

7.11. Yuklamalarning turli xarakterida transformatorning tashqi xarakteristikalari 7.5-rasmda keltirilgan. Qaysi xarakteristika: a) quvvatning maksimal koefitsientiga; b) yuklamaning induktiv xarakteriga; d) yuklamaning sig'im xarakteriga to'g'ri keladi?


7.12. Elektrlashtirilgan temir yo'llarda foydalananiladigan VL-80 eleketrovozga o'rnatilgan nominal quvvati 4485 kV·A bir fazali ОДЦЭ 5000/25V transformatorning salt ish rejimida birlamchi chulg'amidagi kuchlanish 25000 V, ikkilamchi chulg'amidagi kuchlanish 1218 V. Transformatsiya koefitsienti aniqlansin.

7.13. Kuchlanishi 220 V, chastotasi 50 Gs bo'lgan tarmoqqa transformator ulangan. Agar salt ishlash tajribasida ikkilamchi chulg'amdag'i kuchlanish 110 V, magnit o'tkazgichdagi magnit oqim $\Phi_{\max} = 2 \cdot 10^{-3}$ Vs bo'lsa, birlamchi va ikkilamchi chulg'amlarning o'ramlari soni topilsin.

7.14. Bir fazali transformatorning qisqa tutashish kuchlanishi 5% ni tashkil etadi. Agar tarmoqning nominal kuchlanishi 220 V bo'lsa, birlamchi chulg'amga qanday kuchlanish berish mumkin?



7.4-rasm



7.5-rasm

7.15. Nominal quvvati $S_{\text{nom}} = 6,3 \text{ kV} \cdot \text{A}$ bo'lgan transformatorning ikkilamchi chulg'amidagi kuchlanish 380 V; quvvat koeffitsienti 0,8; yuklama quvvati 4 kVt bo'lsa, ikkilamchi chulg'amning toki va transformatorning yuklama koeffitsienti aniqlansin.

7.16. Transformatorning birlamchi chulg'ami kuchlanishi 220 V o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulangan. Ikkilamchi chulg'amiga qarshiligi 10 Om bo'lgan bir xil uchta yuklama ulangan. Yuklama toklari 5,5; 11; 15,4 A. Har bir holatda ikkilamchi chulg'amning transformatsiya koeffitsienti topilsin.

7.17. Transformator $S_{\text{nom}} = 10 \text{ kV} \cdot \text{A}$; $U_{2\text{nom}} = 220 \text{ V}$ nominal parametrlarga ega. Po'lat o'zakdag'i va chulg'amlardagi quvvat isroflari mos ravishda 600 va 190 Vt ga teng. Nominal aktiv yuklamada tok zichligi 4 A/mm^2 dan oshmasligi uchun simning ko'ndalang kesim yuzi aniqlansin. Yuklanish koeffitsienti $\beta = 1$ va $\cos\varphi_2 = 0,8$ da transformatorning FIK topilsin.

7.18. Agar: a) yuklama qarshiligi ikki baravar kamaysa; b) yuklama qarshiligi o'zgarmas bo'lib, transformatsiya koeffitsienti ikki baravar oshirilsa, transformatorning birlamchi chulg'amidagi tok qanday o'zgaradi? Transformatordag'i isroflar hisobga olinmasin.

7.2. AVTOTRANSFORMATORLAR. MAXSUS TRANSFORMATORLAR


Avtotransformatorlarda birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar umumiyl elektr zanjirni tashkil qiladi (7.6-rasm). Ikkilamchi chulg'am toki ikkita tashkil etuvchidan iborat bo'ladi:

$$I_2 = I_1 + I_3, \quad (7.11)$$

bunda I_3 – birlamchi va ikkilamchi chulg'amlarning umumiy qismidagi tok.

Pasaytiruvchi avtotransformatorda I_2 tokning yo'naliishi I_3 tok bilan bir xil bo'ladi, kuchaytiruvchida esa bu tok I_2 ga teskari yo'naliadi. Avtotransformatorning transformatsiya koeffitsienti oddiy transformatorning koeffitsientini aniqlash usuli kabi hisoblanadi.

Ikkilamchi chulg'amning quvvati ikki tashkil etuvchidan iborat:



7.6-rasm

$$S_{\text{nom}} = S_e + S_{\text{em}} = U_2 I_1 + U_2 I_3, \quad (7.12)$$

bunda S_{em} – avtotransformatorda elektromagnit, ya'ni odatdag'i usul bilan uzatiladigan quvvat; S_e – elektr usul bilan uzatiladigan quvvat.

Elektromagnit usul bilan uzatiladigan quvvat nominal quvvat bilan quyidagicha bog'lanadi:

$$S_{\text{em}} = S_{\text{nom}} (1 - 1/k) = S_{\text{nom}} k_{\text{at}} \quad (7.13)$$

bunda k_{at} — avtotransformatorning samara koefitsienti. Samara koefitsienti qancha kam bo'lsa, chulg'amlarga sarflanadigan mis va magnit, o'tkazgichga ketadigan po'lat shuncha iqtisod bo'ladi. Shu sababli, transformatsiya koefitsienti 1 ga yaqin transformatorlar avtotransformator ko'rinishida yasaladi.

Maxsus transformatorlarga *o'lchash, payvandlash* transformatorlari hamda *moslovchi* va elektron bloklarning *impulsi transformatorlari* kiradi.

Masalalar

7.19. Bir fazali transformator avtotransformator bilan almashtirildi. Bunda birlamchi va ikkilamchi chulg'amlarning nominal kuchlanishi va birlamchi chulg'amidiagi tok ikkala holda ham bir xil bo'lgan: $U_{1\text{nom}} = 220 \text{ V}$, $U_{2\text{nom}} = 110 \text{ V}$, $I_{1\text{nom}} = 10 \text{ A}$. Agar chulg'amlardagi mumkin bo'lgan maksimal tok zichligi 2 A/mm^2 bo'lsa, chulg'amlarning umumiy qismidagi simning aktiv ko'ndalang kesim yuzi qanchaga kamayadi?

Yechish. Transformatordagi isroflarni hisobga olmay, ikkinchi chulg'amidiagi tokni topish mumkin $I_2 = kI_1 = 20 \text{ A}$. Berilgan tok zichligi $\gamma_{\text{max}} = 2 \text{ A/mm}^2$ ni hisobga olib chulg'amlar mis simining kesim yuzini aniqlaymiz: $S_{\text{mis}} = I_2 / j_{\text{max}} = 10 \text{ mm}^2$. Avtotransformatorning ikkilamchi chulg'amidiagi tok $I_2 = I_1 + I_3$, ya'ni chulg'amlarning umumiy qismidagi tok $I_3 = 10 \text{ A}$, chulg'amlarning ko'ndalang kesim yuzi $S_{\text{mis}} = 10 / j_{\text{max}} = 5 \text{ mm}^2$.

Shunday qilib, misning aktiv kesim yuzi ikki baravar, ya'ni $1(1-1/k)$ ga kamayadi. Foydalanish koefitsienti qancha kam bo'lsa, shuncha mis iqtisod bo'ladi va avtotransformatorning o'lchamlari kichrayadi.

7.20. Avtotransformatorning yuklama toki 5 A va birlamchi chulg'amning o'rmlar soni ikkinchisidan ikki baravar ko'p. Uning birlamchi va ikkilamchi chulg'amlaridagi I_1 , I_2 , I_3 , toklar aniqlansin.

7.21. Avtotransformatorning birlamchi chulg'ami $1000 \text{ o'ramdan iborat}$ va $220 \text{ V o'zgaruvchan kuchlanishga ulangan}$. Agar ikkilamchi chulg'amining o'rmlari soni $10; 100; 500$ bo'lsa, undan qanday kuchlanish olish mumkin?

7.22. Kuchlanishni rostlash uchun o'zgaruvchan rezistor-reostat yoki avtotransformatordan foydalanish mumkin. Agar $U_1 = 220 \text{ V}$ va $U_2 = 100 \text{ V}$, yuklama toki 5 A va avtotransformator FIK 90% bo'lsa, rezistor va avtotransformatordagi quvvat isroflari aniqlansin.

7.23. Kuchlanishni bir tejis o'zgartirish uchun harakatlanuvchi cho'tkali kontakti bo'lgan avtotransformatordan foydalaniladi. Cho'tka bir vaqtning o'zida ikkilamchi chulg'amning ikkita o'ramini tutashtiradi. Bunday qisqa tutashtirilgan o'ramdan o'tayotgan tok $0,1 \text{ A}$ dan oshmasligi uchun cho'tkali

kontaktning qarshiligi qancha bo'lishi kerak? Ikkilamchi chulg'amning o'ramlari soni 100, ulardag'i umumiy kuchlanish 1100 V.

7.24. Agar 6000/100 V li kuchlanishni pasaytiruvchi o'lhash transformatori ikkilamchi chulg'amining o'ramlari soni $w_2=150$ bo'lsa, birlamchi chulg'amining o'ramlari soni aniqlansin.

7.25. Tok o'lchovchi kleshli (ombursimon) transformatorning birlamchi chulg'ami sifatida yuklama tokini o'tkazuvchi simdan foydalaniadi, simdan o'tadigan tok 500 A. Yuqori chegarisi 5 A li ampermetrni transformatorning ikkilamchi chulg'amiga ulash uchun o'ramlar soni qancha bo'lishi kerak?

7.3. UCH FAZALI TRANSFORMATORLAR

Parallel ulangan transformatorlar orasida yuklama quyidagicha taqsimlanadi:

$$\frac{S_I}{S_{II}} = \frac{u_{q,II}}{u_{q,I}} \cdot \frac{S_{nom\ I}}{S_{nom\ II}}, \quad (7.14)$$

bunda $u_{q,I}$ va $u_{q,II}$ – birinchi va ikkinchi transformatorlar qisqa tutashishdagi nisbiy kuchlanishlari.

Masalalar

7.26. Uch fazali transformator quyidagi nominal parametrlarga ega $S_{nom} = 25 \text{ kV} \cdot \text{A}$, $U_{1nom} = 660 \text{ V}$, $U_{2nom} = 220/380 \text{ V}$; $U_{2s.ish} = 230/400 \text{ V}$, salt ishlashdagi quvvat isrofi $P_{s.ish} = 180 \text{ W}$, qisqa tutashishdagi isrof $P_{q.t.} = 260 \text{ W}$, qisqa tutashishdagi nisbiy kuchlanish $U_{q.t.} = 4\% U_{1nom}$. Chulg'amlar yulduz va uchburchak usulda ulanganda faza va liniya transformatsiya koefitsientlarini toping. Yuklanish koefitsienti $\beta = 0,8$ va aktiv yuklama bo'lganda ikkilamchi kuchlanishning maksimal o'zgarishini aniqlang.

Yechish. Uch fazali sanoat transformatorlarining yuqori kuchlanish chulg'amlari yulduz usulda ulanadi, ya'ni transformator kirishida faza kuchlanishi $U_{1f} = U_{1nom}/\sqrt{3} = 380 \text{ V}$. Binobarin faza kuchlanishlarining transformatsiya koefitsienti $k = U_{1f}/U_{2f} = 1,73$.

Transformatorning ikkilamchi chulg'amlari yulduz usulda ulanganda chiqishidagi liniya kuchlanishi $U_2 = 400 \text{ V}$ va liniya kuchlanishlarining transformatsiya koefitsienti $k = U_{1lin}/U_{2lin} = 1,73$. Ikkilamchi chulg'amlar uchburchak usulda ulanganda liniya kuchlanishi faza kuchlanishiga teng, shuning uchun $k = U_1/U_2 = 2,9$.

Ikkilamchi kuchlanishni aktiv yuklamada maksimal o'zgarishi (7.10) formula bo'yicha $\Delta u = \beta U_{q.t.} 0,8 \cdot U_{2nom} = 3,2\% U_{2nom}$. Yulduz usulda $\Delta u = 12,75 \text{ V}$, uchburchak usulda esa $\Delta u = 7,34 \text{ V}$.

Transformatorning FIK ni (7.9) formula yordamida aniqlaymiz.
 $\eta = 97,9\%$.

7.27. Chulg‘amlarning ularish guruhlari yulduz-yulduz Y/Y – 12 bo‘lgan uch fazali transformatorning quyida keltirilgan qiymatlardan foydalanib, birlamchi va ikkilamchi chulg‘am toklari, salt ishslash toki, nominal yuklamadagi ikkilamchi kuchlanish, sxema qarshiliklari aniqlansin hamda $\beta = 0,2; 0,4; 0,6; 0,8; 1,0; \cos\varphi_0 = 0,8$ bo‘lganda foydali ish koefitsientining transformator yuklanish darajasiga bog‘lanish grafigi qurilsin.

Berilgan: $S = 2500 \text{ kV} \cdot \text{A}$; $U_1/U_2 = 10/6,3 \text{ kV}$; $U_{q,t} = 0,055 U_{nom}$; $P_{s-ish} = 3,9 \text{ kWt}$. $P_{q,t} = 23,6 \text{ kWt}$; $I_{1s-ish} = 0,01 I_{1nom}$.

Yechish. Birlamchi va ikkilamchi chulg‘amdagagi faza kuchlanishlari

$$U_{1f.nom} = \frac{U_{1nom}}{\sqrt{3}} = \frac{10}{\sqrt{3}} = 5,8 \text{ kV}; U_{2f.nom} = \frac{U_{2nom}}{\sqrt{3}} = \frac{6,3}{\sqrt{3}} = 3,6 \text{ kV}.$$

Transformatsiyalash koefitsienti $k = \frac{U_{1f}}{U_{2f}} = \frac{U_{1nom}}{U_{2nom}} = \frac{5,8}{3,6} = 1,6 > 1$ demak, pasaytiruvchi transformator ekan. Birlamchi chulg‘amning nominal toki:

$$I_{1nom} = \frac{S_{nom}}{\sqrt{3} \cdot U_{14}} = \frac{2500}{\sqrt{3} \cdot 10} = 144,5 \text{ A}.$$

Salt ishslash toki $I_{1k} = 0,01 I_{1nom}$, ya’ni $I_0 = 0,01 \cdot 144,5 = 1,445 \text{ A}$. Salt ishslashdagi quvvat koefitsienti:

$$\cos\varphi_0 = \frac{P_0}{\sqrt{3} \cdot U_{1nom} \cdot I_0} = \frac{3,9}{\sqrt{3} \cdot 10 \cdot 1,445} = 0,16; \varphi_0 = \arccos 0,16 = 81^\circ;$$

magnit isrof burchagi $\delta = 90^\circ - \varphi_0 = 90^\circ - 81^\circ = 9^\circ$; qisqa tutashish qar-

$$\text{shiliklari } Z_{q,t} = \frac{U_{q,t}}{I_{q,t}} = \frac{0,055 \cdot 10 \text{ kV}}{\sqrt{3} \cdot 144,5} = 2,2 \text{ Om};$$

$$R_{q,t} = \frac{P_{q,t}}{3I_{1nom}^2} = \frac{23,5}{3 \cdot (144,5)^2} = 0,4 \text{ Om};$$

$$X_{q,t} = \sqrt{Z_{q,t}^2 - R_{q,t}^2} = \sqrt{(2,2)^2 - (0,4)^2} = 2,16 \text{ Om}$$

$$\cos\varphi_{q,t} = \frac{R_{q,t}^2}{Z_{q,t}^2} = \frac{0,4}{2,2} = 0,18, \text{ bunda } \varphi_{q,t} = \arccos 0,18 = 80^\circ;$$

1- va 2-chulg‘amlarning keltirilgan qarshiliklari:

$$R_1 = R_2^1 = \frac{Z_{q,t}}{2} = \frac{0,4}{2} = 0,2 \text{ Om}; X_1 = X_2^1 = \frac{X_{q,t}}{2} = \frac{2,16}{2} = 1,08 \text{ Om};$$

2-chulg‘amning qarshiliklari:

$$R_2 = R_2^1 \cdot \frac{1}{k^2} = 0,2 \cdot \frac{1}{(1,6)^2} = 0,078 \text{ Om};$$

$$X_2 = X_2^1 \cdot \frac{1}{k^2} = 1,08 \cdot \frac{1}{(1,6)^2} = 0,422 \text{ Om.}$$

Magnitlovchi shoxobchaning qarshiliklari:

$$Z_0 = \frac{U_{1\text{nom},f}}{I_0} = \frac{10 \text{ kV}}{\sqrt{3} \cdot 1,445} = 4000 \text{ Om};$$

$X_0 = \sqrt{Z_0^2 - R_0^2} = \sqrt{(4000)^2 - (622,6)^2} = 3951,2 \text{ Om}$. Transformatorning tashqi xarakteristikasi $U_2 = f(I_2)$ ni yasaymiz:

$$\Delta U_{2\text{nom}} \% = \beta(U_{1q,t} \% \cdot \cos\varphi_{2\text{nom}} + U_{q,t} \% \cdot \sin\varphi_{2\text{nom}});$$

$$U_{q,t,a} \% = U_{1q,t} \% \cos\varphi_{q,t} = 5,5 \% \cdot 0,18 = 0,99 \%;$$

$$U_{q,t,r} \% = U_{q,t} \% \cdot \sin\varphi_{q,t} = 5,5 \% \cdot 0,98 = 5,4 \%.$$

2-chulg‘amdag'i tok:

$$I_{2\text{nom}} = \frac{S_{\text{nom}}}{\sqrt{3} \cdot U_{2\text{nom}}} = \frac{2500}{\sqrt{3} \cdot 6,3} = 230 \text{ A}$$

$\beta = \frac{I_2}{I_{2\text{nom}}}$ – yuklanish koefitsienti, bundan: $I_2 = \beta I_{2\text{nom}}$; $\cos\varphi_{2\text{nom}} = 0,8$; $\sin\varphi_{2\text{nom}} = 0,6$.

$U_2 = f(I_2)$ xarakteristikakaning $\beta = 0; 0,1; 0,2; 0,4; 0,6; 0,8; 1$ qiymatlari uchun $\Delta U_2 \%$ larni hisoblaymiz va quyidagi jadvalga yozamiz.


β	-	0	0,1	0,2	0,4	0,6	0,8	1
I_2	A	0	23	46	92	138	184	230
$U_2, \%$	%	0	0,4	0,8	1,6	2,4	3,2	4
U_2	V	3600	3586,4	3571,8	3542,4	3513,6	3484,8	3456

Transformatorning 2-chulg‘amidagi kuchlanishning o‘zgarishini hisoblab: $U_2 = U_{2f} - \frac{\Delta U_2 \% \cdot U_{2f}}{100}$; $U_2 = f(I_2)$ grafigini yasaymiz (7.7-a rasm).

Transformatorning FIK $\eta = f(\beta)$ bog‘lanish grafigini yasash uchun quyidagi formuladan foydalanib,

$$\eta = \frac{\beta S_{\text{nom}} \cdot \cos\varphi_{2\text{nom}}}{\beta S_{\text{nom}} \cdot \cos\varphi_{2\text{nom}} + P_0 + \beta^2 P_{q,t}}$$

hisoblanganlarni jadvalga yozamiz, $\eta = f(\beta)$ grafigi 7.7-b rasmida keltirilgan.




7.7-rasm

β	-	0	0,1	0,2	0,4	0,6	0,8	1
η	%	0	97,8	98,8	99,1	98,9	98,8	98,6

7.28. Liniya kuchlanishi 6000 V li uch fazali tarmoqqa faza koefitsienti $k_f=26$ ga teng bo'lgan uch fazali transformatorning chulg'amlari qanday usulda ulanganda ikkilamchi liniya kuchlanishi 230 V bo'ladi?

7.29. Nominal quvvati $160 \text{ kV} \cdot \text{A}$ li uch fazali transformatorning po'lat va misdag'i quvvat isroflari $P_{s,ish} = 510 \text{ Vt}$ va $P_{q,t} = 2650 \text{ Vt}$ va har bir fazaning quvvat koefitsienti $\cos\varphi_2 = 0,8$ bo'lsa, uning maksimal FIK va yuklamaning aktiv quvvati aniqlansin.

7.30. Faza chulg'amlari $w_1 = 1200$ va $w_2 = 80$ bo'lgan uch fazali transformator liniya kuchlanishi 6 kV bo'lgan uch fazali tarmoqqa Y/Y - 12 va Y/Δ - 11 bo'yicha ulangan. Ikkilamchi liniya kuchlanishlarini aniqlang.



8-BOB Elektr mashinalar

8.1. O'ZGARMAS VA O'ZGARUVCHAN TOK GENERATORLARI

O'zgarmas tok generatorlarini aylantirish uchun zarur bo'lgan *mechanik quvvat* $P_1 = \frac{2\pi}{60} Mn = Mn/9,55$ elektromagnit quvvatga o'zgartiriladi, ya'ni

$$P_{em} = EI_{ya}, \quad (8.1)$$

bunda M — yakorni aylantiruvchi momenti, N · m; n — aylanish chastotasi, ayl/min; E — yakor chulg'amining EYuKi, V; I_{ya} — yakor chulg'a-midagi tok, A.

Generatorning natijaviy quvvat isroflari ΔP bo'lsa, uning FIK

$$\eta = \frac{P_2}{P_2 + \Delta P} \cdot 100\%, \quad (8.2)$$

bunda $R_2 = UI$ — yuklamadagi elektromagnit quvvat.

Statorda o'rnatilgan qo'zg'atish chulg'amilarining ularish usuliga ko'ra o'zgarmas tok generatorlari *mustaqil, parallel, ketma-ket* va *aralash qo'zg'atishli* bo'ladi (8.1-rasm).

O'zgarmas tok generatorining EYuKi


$$E = \frac{pN}{60a} n\Phi = C_E \cdot n\Phi, \quad (8.3.)$$

bunda N — yakor chulg'amining aktiv o'tkazgichlarining soni; a — chulg'amning parallel shoxobchalarini soni; p — juft qutblar soni; n — rotoring aylanish chastotasi, ayl/min; Φ — bir qutbning magnit oqimi, Vb; C_E — mashina konstruksiyasiga bog'liq bo'lgan o'zgarmas elektr koeffitsient.

Generator qismalaridagi kuchlanish

$$U = E - I_{ya} R_{ya}, \quad (8.4)$$

bunda R_{ya} — yakor zanjiridagi ishchi temperatura $t = 75^{\circ}\text{C}$ ga keltirilgan-dagi qarshilik.



O'zgarmas tok mashinalari xarakteristikalarini hisoblash ularning magnit xarakteristikasiga asoslanadi $\Phi = f(I_{qo'z})$ (5-ilova).

O'zgarmas tok generatorlarining asosiy xarakteristikasiga quyidagilar kiradi: *salt ishlash xarakteristikasi* $E = f(I_{qo'z})$ bunda $n = \text{const}$ va $I_{yuk} = 0$ bo'lishi zarur.


Tashqi xarakteristika $U = f(I_{ya})$, bunda $n = \text{const}$ va $I_{qo'z} = \text{const}$ bo'lishi kerak.

Rostish xarakteristikasi $I_{qo'z} = f(I_{ya})$, bunda $U = \text{const}$ va $n = \text{const}$ bo'lishi zarur.

O'zgaruvchan tok generatorlarida mexanik energiya elektromagnit energiyaga aylanadi. Ularni FIK (8.2) bilan aniqlanadi, bunda $P_2 = UI \cos\phi$.

Bu generatorlarda yakor chulg'ami (YaCh) statorda joylashadi. Qo'zg'atish chulg'ami (LG) esa rotorda joylashadi (8.2-rasm).

Generator bir fazasining o'zgaruvchan EYuKi va chastotasi quyidagi formulalardan aniqlanadi:



8.2-rasm

$$E = 4,44 f w_1 k_{w1} \Phi_{\max}; \quad (8.5)$$

$$f = \frac{pn_1}{60}, \quad (8.6)$$

bunda w — stator fazasi chulg'amining o'ramlari soni; k_{w1} — chulg'am koefitsienti; p — rotoring just qutblari soni; n_1 — rotoring aylanish chastotasi, ayl/min.

Masalalar

8.1. Mustaqil qo‘zg‘atishli generator quyidagi nominal ko‘rsatkichlarga ega: $P_{\text{nom}} = 10 \text{ kVt}$; $U_{\text{nom}} = 115 \text{ V}$; $n_{\text{nom}} = 150 \text{ ayl/min}$.

Yakor zanjirining qarshiligi $R_{ya} = 0,52 \text{ Om}$. Qo‘zg‘atish zanjirining qarshiligi $R_{qo'z} = 120 \text{ Om}$. Agar mexanik va magnit isroflar $\Delta P_{\text{nom}} = 5\%P_{\text{nom}}$ va qo‘zg‘atish toki $I_{qo'z} = 3\% I_{ya,\text{nom}}$ bo‘lsa, generatorning isroflari, FIK va yuritma motoring aylantiruvchi momenti aniqlansin.

Yechish. Yakorning nominal toki quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{ya} = I_{ya,\text{nom}} = \frac{P_{\text{nom}}}{U_{\text{nom}}} = \frac{10\,000}{115} = 87 \text{ A.}$$

Natijaviy isroflar:

$$\begin{aligned}\Delta P &= \Delta P_e + \Delta P_m + \Delta P_{qo'z} = 0,05P_{\text{nom}} + 0,03I_{ya,\text{nom}}^2 R_{qo'z} + I_{ya}^2 R_{ya} = \\ &= 0,05 \cdot 10\,000 + (0,03 \cdot 87)^2 \cdot 120 + 87^2 \cdot 0,052 = 1705 \text{ kVt}.\end{aligned}$$

Generatorni harakatlantiruvchi mexanik quvvat:

$$P_1 = P_{\text{nom}} + \Delta P = 10 + 1,7 = 11,7 \text{ kVt.}$$

Generatorning FIK $\eta_g = P_{\text{nom}}/P_1 = 10/11,7 = 0,854$. Elektr motor momenti $M = 9,55 \frac{P_1}{n} = 9,55 \frac{11700}{1450} = 70,5 \text{ N} \cdot \text{m}$.

8.2. Mustaqil qo‘zg‘atishli o‘zgarmas tok motori quyidagi ko‘rsatkichlarga ega: $P_{\text{nom}} = 10 \text{ kVt}$; $U_{\text{nom}} = 110 \text{ V}$; $n_{\text{nom}} = 1450 \text{ ayl/min}$. Yakor qarshiligi $R_{ya} = 0,05 \text{ Om}$. Agar $I_{qo'z,\text{nom}} = 5\% I_{ya,\text{nom}}$ bo‘lsa, yuklamaning nominal va qo‘zg‘atish toklari aniqlansin. Nominal ish rejimidagi EYuK va generatorning elektromagnit momentini toping.

Yechish. Yuklamaning nominal toki:

$$I_{\text{nom}} = P_{\text{nom}}/U_{\text{nom}} = 10\,000/110 = 91 \text{ A},$$

qo‘zg‘atish toki $I_{qo'z,\text{nom}} = 4,55 \text{ A}$. Generatorning EYuKi:

$$E = U_{\text{nom}} + I_{\text{nom}} R_{ya} = 110 + 91 \cdot 0,05 = 114,55 \text{ V.}$$

Motoring elektromagnit momenti:

$$M = 9,55E \cdot I_{\text{nom}}/n_{\text{nom}} = 68,2 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

8.3. Uch fazali sinxron generatorning parametrlari $P_{\text{nom}} = 100 \text{ MVt}$; $U_{\text{nom}} = 16 \text{ kV}$; $X = 2,8 \text{ Om}$; $\cos\varphi = 0,93$; $n_{\text{nom}} = 3000 \text{ ayl/min}$. Agar $\eta_{\text{nom}} = 0,98$ bo‘lsa, yuklama toki, to‘la va reaktiv quvvat hamda birlamchi motoring momenti hisoblansin.

Yechish. Yuklama tokini aktiv quvvat ifodasidan topamiz:

$$I_{\text{nom}} = P_{\text{nom}} / \sqrt{3} U_{\text{nom}} \cdot \cos\varphi = 100 \cdot 10^6 / \sqrt{3} \cdot 16 \cdot 10^3 \cdot 0,93 = 3880 \text{ A.}$$

To'la quvvat $S_{\text{nom}} = P_{\text{nom}} / \cos\varphi = 107,5 \text{ MV}\cdot\text{A}$, reaktiv quvvat $Q = S_{\text{nom}} / \sin\varphi = 39,5 \text{ Mvar}$.

Birlamchi motor validagi aylantiruvchi moment $M_1 = 9,55 P_1 / n_{\text{nom}}$, bunda $P_1 = P_{\text{nom}} / \eta_{\text{nom}}$,

$$M_1 = 9,55 \frac{100 \cdot 10^3}{0,98 \cdot 3000} = 325 \text{ kN}\cdot\text{m.}$$

8.4. O'zgarmas tok generatorining foydali quvvati 5 kVt, yakor chulg'amidagi quvvat isrofi 100 Vt. Agar EYuK 238 V bo'lsa, yakor zanjiridagi tok aniqlansin.

8.5. Parallel qo'zg'atishli generatordaning EYuKi 238 V, qo'zg'atish toki 3 A va yuklama toki 80 A bo'lsa, yakor zanjiri, qo'zg'atish chulg'ami va yuklamadagi natijaviy quvvat topilsin.

8.6. Aralash qo'zg'atishli generatordaning yakor toki 25 A, foydali quvvati 10 kVt, elektromagnit quvvati 11 kVt, qo'zg'atish zanjiridagi quvvat isrofi 0,5 kVt bo'lsa, yakor zanjirining qarshiligi topilsin.

8.7. Mustaqil qo'zgatishli o'zgarmas tok generatori chiqish qismalari-dagi kuchlanish topilsin. Generator EYuKi 240 V, yakor toki 40, 80 va 120 A, yakor zanjirining qarshiligi $R_ya = 0,075 \text{ Om}$.

8.8. Parallel qo'zg'atishli generatordaning chiqish kuchlanishi $U = 230 \text{ V}$, qo'zg'atish zanjiridagi qarshilik 20 Om va yuklanish toki 180 A bo'lsa, qo'zg'atish toki va yakor toki topilsin.

8.9. Generator yurituvchi valining aylanish chastotasi 1,5 baravar oshirilganda EYuK 120 V oshgan. Magnit oqim o'zgarmas bo'lsa, ikkala rejimdagi EYuK aniqlansin.

8.10. Aralash qo'zg'atishli o'zgarmas tok generatordaning yuklama qarshiligi 2 baravar oshirilganda, yakor toki 10 A ga kamaydi. Agar yakor zanjirining qarshiligi $R_ya + R_{\text{qo'z.ketma-ket}} = 0,1 R_{\text{nom}}$ bo'lsa, ikkala rejimda yakor toki aniqlansin.

8.11. Quvvatlari $P_{\text{nom1}} = P_{\text{nom2}} = 45 \text{ kVt}$ bo'lgan ikkita parallel qo'zg'atishli generator nominal kuchlanishi 230 V, quvvati 80 kVt li yuklamaga ulangan. Agar yakor zanjirlarining qarshiligi $R_{ya1} = 0,1 \text{ Om}$ va $R_{ya2} = 0,07 \text{ Om}$ bo'lsa, generatorlar toki aniqlansin.

8.12. Sinxron generator quyidagi nominal parametrleriga ega: $S_{\text{nom}} = 500 \text{ kV}\cdot\text{A}$; $U_{\text{nom}} = 380 \text{ V}$; $\cos\varphi = 0,909$; $\eta_{\text{nom}} = 93,4\%$. Generatordaning aktiv quvvati, natijaviy isroflar va nominal yuklamadagi tok topilsin.

8.13. Sinxron mashinaning yerga ulanmagan korpusining yerga nisbatan kuchlanishi 150 V. Motor korpusiga tekkan ishchi orqali qanday tok o'tishini aniqlang. Ishchi tanasining qarshiligi 50 kOm, motor chulg'a-mining korpusga nisbatan izolyatsiya qarshiligi 10 kOm.

8.14. Nima uchun o‘zgaruvchan tok generatorining statori bir-biridan alohida izolyatsiyalangan po‘lat plastinalardan yig‘iladi, o‘zgarmas tok generatorining statori esa yaxlit po‘lat quymadan iborat?

8.2. O‘ZGARMAS TOK MOTORLARI

O‘zgarmas tok motorida elektr quvvat avval elektromagnit, keyin esa aylanuvchi yakorning mexanik quvvatiga aylanadi, ya’ni:

$$P_{\text{em}} = EI_{\text{ya}}; P_2 = Mn/9,55. \quad (8.7)$$

Motordagi isroflar hisobga olinsa, uning FIK

$$\eta = \frac{P_2}{P_1} \cdot 100\% = \frac{P_1 - \sum P}{P_1} \cdot 100\%, \quad (8.8)$$

bunda $\sum P$ – motordagi barcha isroflar yig‘indisi.

Qo‘zg‘atish chulg‘amining ularish usuli bo‘yicha elektr motorlar parallel, ketma-ket va aralash qo‘zg‘atishli bo‘ladi (8.3-rasm).

Motoring aylantiruvchi (elektromagnit) momenti va aylanish chastotasi quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$M = \frac{pN}{2\pi a} \cdot I_{\text{ya}} \Phi n = C_m I_{\text{ya}} \Phi; \quad E = C_E \Phi n \quad (8.9)$$

bunda $C_m = 9,55 C_E$ – motoring konstruksiyasiga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarmas koefitsient.

Motor qismalaridagi kuchlanish:

$$U = E + I_{\text{ya}} (R_{\text{ya}} + R_{\text{ish.t}}) \quad (8.10)$$

bu $R_{\text{ish.t}}$ – ishga tushirish qarshiligi.

O‘zgarmas tok motorini hisoblash generator kabi universal magnit xarakteristika asosida (8-ilova) olib boriladi. Elektr motorlarning asosiy tafsiflariga ishchi $M, n, I, P, \eta = f(I_{\text{ya}})$ va mexanik $n = f(M)$, $U = \text{const}$ va $I_{\text{go'z}} = \text{const}$ xarakteristikalar kiradi. Elektr motoring aylanish chastotasini rostlash, tormozlash va reverslash (aylanish yo‘nalishini o‘zgartirish) ish rejimlari bo‘lishi ma’lum.


Motoring yakor zanjiriga ulangan reostat $R_{\text{ish.t}}$ orqali ishga tushiriladi (8.3-rasm). Bunda ishga tushirish toki keskin chegaralanadi.

Aylanish chastotasini uch xil usulda rostlash mumkin:

- 1) yakor zanjirining kuchlanishini o‘zgartirish usuli;
- 2) qo‘zg‘atish tokini o‘zgartirish usuli;
- 3) yakor zanjiriga qo‘shimcha qarshilik ulash usuli.

O‘zgarmas tok motorlarini uch xil usulda tormozlash mumkin:

- 1) rekuperativ (energiyani tarmoqqa qaytarish);
- 2) dinamik;
- 3) teskari ulash.



8.3-rasm

Masalalar

8.15. Mustaqil qo‘zg‘atishli elektr motor quyidagi nominal parametrleriga ega: $P_{\text{nom}} = 130 \text{ kVt}$, $U_{\text{nom}} = 220 \text{ V}$, $n_{\text{nom}} = 600 \text{ ayl/min}$; $\eta = 92\%$; $R_{ya} = 0,01 \text{ Om}$; $C_m = 65$. Yakorning nominal toki, EYuK va motorning aylantirish momenti, bir qutbning magnit oqimi va elektromagnit quvvat aniqlansin.

Yechish. Motoring pasportida uning validagi nominal mexanik quvvati P_2 ko‘rsatiladi, demak, motor manbadan qabul qiladigan quvvat $P_1 = P_2/\eta = 141 \text{ kVt}$. Yakor toki (parallel qo‘zg‘atishda) $I_{\text{nom}} = P_{1\text{nom}} / U_{\text{nom}} = 0,64 \text{ A}$.

EYuK ni $U = E + I_{ya}(R_{ya} + R_{\text{nom}})$ formuladan aniqlaymiz: $E = 220 - 0,64(0,01 + 0,34) = 220 - 0,22 = 219,78 \text{ V}$. Elektromagnit quvvat $P_{\text{em}} = EI_{ya} = 137 \text{ kVt}$. Motorni aylantiruvchi moment $M = C_m I_{ya} \Phi$, magnit oqimi esa $\Phi = E/nC_E = 9,55 E/nC_m$ (8.9) formuladan foydalanib hisoblanadi. Qiymatlarni o‘rniga qo‘yib, $\Phi = 0,054 \text{ Vb}$ va $M = 2,1 \text{ kN} \cdot \text{m}$ topiladi.

8.16. Parallel qo‘zg‘atishli motoring nominal parametrleri $U_{\text{nom}} = 110 \text{ V}$, $R_{ya} = 0,012 \text{ Om}$; $n_{\text{nom}} = 60 \text{ ayl/min}$; $I_{ya\text{.nom}} = 500 \text{ A}$. Yakor toki $I_{ya} = 300 \text{ A}$ va $U = 100 \text{ V}$ bo‘lganda motoring aylantiruvchi momenti aniqlansin. Yakor toki 0 dan 1,5 I_{nom} gacha o‘zgargandagi motoring $M = f(I)$ ish xarakteristikasini quring.

Yechish. Ish xarakteristikasini qurish uchun (8.9) formuladan foydalanamiz:

$$M = \frac{C_M}{C_E} \cdot \frac{I_{ya} E}{n} = 9,55 \frac{I_{ya} E}{n}$$

Aylanish chastotasi yakor tokiga bog‘liq, ya’ni:

$$n = n_{\text{nom}}(U - I_{ya}R_{ya})/(U_{\text{nom}} - I_{ya,\text{nom}} \cdot R_{ya}) = n_{\text{nom}}(U - I_{ya}R_{ya})/E$$

$$\text{demak, } M = \frac{9,55E^2}{n_{\text{nom}}} \cdot \frac{I_{ya}}{U - I_{ya}R_{ya}} = \frac{9,55(U_{\text{nom}} - I_{ya,\text{nom}} \cdot R_{ya})^2}{n_{\text{nom}}} \cdot \frac{I_{ya}}{U - I_{ya}R_{ya}}.$$

Bu formulaga masala shartida berilganlarni qo'yib, hisoblash tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$M = 168 \frac{I_{ya}}{100 - I_{ya} \cdot 0,012}.$$


Masala shartida berilgan $I_{ya} = 300$ A bo'lganda,

$$M = 168 \frac{300}{100 - 300 \cdot 0,012} = 526 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

$M = f(I_{ya})$ grafigi 8.4-rasmda keltirilgan, bunda tok masala shartiga ko'ra 0 dan $1,5 I_{\text{nom}}$ gacha o'zgaradi.

8.17. ВЛ-80 elektrovozning yuritmasida o'zgarmas tok НБ-418К6 rusumli motori qo'llanilgan. U quyidagi parametrlarga ega: $U_{\text{nom}} = 950$ V, $I_{ya,\text{nom}} = 880$ A, $R_{ya} = 0,011$ Om, qo'zg'atish chulg'aming qarshiligi $R_{qo'z,\text{nom}} = 0,0079$ Om. Motoring istemol quvvati, elektromagnit quvvat va EYuKi aniqlansin.

$M, \text{N} \cdot \text{m}$



8.4-rasm


8.3. O'ZGARUVCHAN TOK MOTORLARI

O'zgaruvchan tok asinxron motori elektr energiya manbaining $P_1 = 3U_1I_1\cos\phi_1$ elektr quvvatini aylanuvchi elektromagnit maydon $P_{\text{em}} = 3E_{1s}I_2\cos\phi_2$ quvvatiga va nihoyat aylanuvchi rotoring *mekanik quvvatiga* aylantirish uchun qo'llaniladi.

Motordagi isroflar hisobga olin ganda, uning FIK (8.8) formuladan topiladi.

Rotor konstruksiyasi bo'yicha asinxron motorlar *qisqa tutashtirilgan* (8.5-a rasm) va *fazali (kontakt halqali) motorlarga* (8.5-b rasm) bo'linadi.

Asinxron motor rotorining ayanish chastotasi, ayl/min.



8.5-rasm

$$n_2 = n_1(1-s), n_1 = 60f_1/p \quad (8.11)$$

bunda s — sirpanish, n_1 — magnit maydon aylanish chastotasi, p — juft qutblar soni, f_1 — o'zgaruvchan tok tarmog'ining chastotasi, Gs.

Aylanuvchi magnit maydon stator va rotor chulg'amlarini kesib o'tib, ularda EYuKni induksiyalaydi:

$$E_1 = 4,44w_1k_{w1}f_1\Phi_{\max}; \quad E_2 = 4,44w_2k_{w2}f_1\Phi_{\max}, \quad (8.12)$$

bunda Φ_{\max} — magnit oqimining amplituda qiymati, Vb; w_1 va w_2 stator va rotor chulg'amlarining ketma-ket ulangan o'ramlari soni; k_{w1} va k_{w2} — chulg'am koeffitsientlari.

Aylanuvchi rotorning EYuKi va toki

$$E_{2s} = 4,44w_2k_{w2}f_{1s}\Phi_{\max}; \quad I_{2s} = E_{2s}/\sqrt{R_2^2 + (X_2s)^2}, \quad (8.13)$$

bunda R_2 va X_2 — qo'zg'almas rotorning aktiv va induktiv qarshiligi. Asinxron motorning aylantiruvchi momenti:

$$M = Pm_2k_{w2}w_2\Phi_{\max}I_{2s}\cos\varphi\sqrt{2} = k_d\Phi_{\max}I_{2s}\cos\varphi, \quad (8.14)$$

bunda w_2 — rotorning fazalari soni.

Moment bilan sirpanish orasidagi bog'lanish quyidagi soddalashtirilgan Kloss formulasi bilan ifodalanadi:

$$M = 2M_{kr}/(s/s_{kr} + s_{kr}/s) \quad (8.15)$$

bunda s_{kr} — sirpanishning chegaraviy qiymati, $M_{kr} = \lambda M_{nom}$ — aylantiruvchi momentning maksimal qiymati.

Asinxron motorning asosiy xarakteristikasi — bu mexanik xarakteristikadir $n_2 = f(M)$, bunda $U = \text{const}$ va $f_1 = \text{const}$.

Nominal sirpanish ma'lum bo'lganda s_{kr} chegaraviy sirpanish quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$s_{kr} = s_{nom}\left(\frac{M_{\max}}{M_{nom}} + \sqrt{\left(\frac{M_{\max}}{M_{nom}}\right)^2 - 1}\right) \quad (8.16)$$

bunda $\lambda = \frac{M_{\max}}{M_{nom}}$ motorning o'ta yuklanish koeffitsienti deb ataladi.

$M_{nom} = 9550 \frac{P_{2nom}}{n_{nom}} \left[\frac{\text{kVt}}{\text{ayl/min}} = \text{N} \cdot \text{m} \right]$ motorning nominal aylantiruvchi momenti.

Motorning aylanish chastotasini rostlash uchun quyidagi usullar qo'liniladi: 1) magnit maydon aylanish tezligini o'zgartirish; 2) juft qutblar soni — p ni o'zgartirish; 3) uch fazali reostat yordamida fazali rotorning aktiv qarshiligini o'zgartirish. Motorni tormozlash dinamik va teskari ularash usuli bilan bajariladi.

Sinxron motorning aylanish chastotasi asinxron motordan farqli o'larq magnit maydonning aylanish chastotasiga teng, ya'ni $n_2 = n_1 = 60f_1/p$.

Sinxron motorning ishga tushirish sxemasi 8.6-rasmda keltirilgan.


Sinxron motorning asosiy xarakteristikalariga *burchak*, *mekanik* va *rostlash xarakteristikalarini* kiradi.

Burchak $M = f(\theta)$ xarakteristikasi, quyidagicha ifodalanadi:

$$M = 3E_0 I \cos\theta \cdot 9,55/n_2 = 3E_0 U \sin\theta \cdot 9,55/n_2 X_2, \quad (8.17)$$

bunda θ – EYuK va kuchlanish fazalarining orasidagi siljish burchagi, ya'ni $\cos\theta = E/U$; X_2 – motorning induktiv qarshiligi.

Sinxron motorning $n = f(M)$ *mekanik xarakteristikasi* $M = M_{\max}$ yuklanishgacha absolut qattiqlikka egadir, ya'ni $\theta = 90^\circ$ gacha. *Rostlash xarakteristikasi* $I = f(I_{qo\cdot z})$ *U shaklli xarakteristika* deb atalib, yuklanishdagi reaktiv quvvatning xarakterini va tokni katta oraliqda o'zgartirishga imkon beradi.



8.6-rasm

Masalalar

8.18. Faza rotorli uch fazali asinxron motorning stator chulg'amlari yulduz va uchburchak usulda ulanganda quvvat hamda tokni aniqlang. Motorning nominal foydali quvvati $P_{2nom} = 30$ kWt, statordagi kuchlanish $U_{Y/\Delta} = 380/220$ V; $\eta = 88\%$; $\cos\phi = 0,85$.

Yechish. Manbadan motor iste'mol qilayotgan aktiv quvvat

$$P_1 = P_{2nom}/\eta = 30/0,88 = 34,1 \text{ kWt},$$

to'la quvvat

$$S = P_1/\cos\phi = 34,1/0,85 = 40,1 \text{ kV} \cdot \text{A}.$$

Stator chulg'amlari yulduz usulda ulangandagi tok $I = S/\sqrt{3}U_Y = 40,1 \cdot 10^3 / \sqrt{3} \cdot 380 = 61 \text{ A}$, uchburchak usulda ulanganda esa $I = S/3U_\Delta = 40,1 \cdot 10^3 / 3 \cdot 220 = 61 \text{ A}$ bo'ladi.

8.19. Rotori qisqa tutashirilgan uch fazali asinxron motor quyidagi pasport ko'rsatkichlariga ega: $U_{Y/\Delta} = 380/220$ V; $P_{2nom} = 40$ kWt; $n_2 = 980$ ayl/min; $\eta = 91,5\%$; $\cos\phi = 0,91$. Motorni ishga tushirish tokining $I_{ish.t}$ nominal tok I_{1nom} ga nisbati $k_{lin} = 5$, chastota $f_1 = 50$ Gs. Stator chulg'amlari yulduz va uchburchak usullarda ulangandagi juft qutblar soni, nominal va ishga tushirish toki aniqlansin.

Yechish. Eng yaqin standart sinxron chastota $n_1 = 1000$ ayl/min binobarin, juft qutblar soni $p = 60f/n_1 = 3$, ya'ni mashina olti qutbli ekan.

Sirpanish $s = (n_1 - n_2)/n_1 \cdot 100\% = 2\%$. Motor qabul qiladigan quvvat $P_1 = P_2/\eta = 43,7$ kWt. Nominal moment:

$$M_{\text{nom}} = 9,55 P_2 / n_2 = 389,8 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Chulg‘amlar uchburchak usulda ulanganda ulardag'i nominal tok

$$I_{f,\text{nom}} = P_1 / \sqrt{3} U_f \cos\varphi = 126,3 \text{ A}.$$

Ishga tushirish toki $I_{\text{ish.t}} = 5 I_{f,\text{nom}} = 5 \cdot 126,3 = 629,5 \text{ A}$.

Chulg‘amlar yulduz usulda ulanganda

$$I_f = P_1 / \sqrt{3} U_{\text{nom}} \cos\varphi = 43,7 \cdot 10^3 / \sqrt{3} \cdot 220 \cdot 0,91 = 73 \text{ A}.$$

Ishga tushirish toki $I_{\text{ish.t}} = k_1 I_f = 5 \cdot 73 = 365 \text{ A}$, ya’ni bu holda $\sqrt{3}$ marta kam.

8.20. Olti qutbli sinxron motor quyidagi nominal ko‘rsatkichlarga ega: $P_{\text{nom}} = 73 \text{ kWt}$; $n_{\text{nom}} = 1000 \text{ ayl/min}$; $U_{\text{nom}} = 660 \text{ V}$; $I_{\text{nom}} = 125 \text{ A}$; $X = 1 \text{ Om}$. Motorning EYuKi 670 V. Motorning nominal va maksimal momentlari aniqlansin. Motorning burchak xarakteristikasini quring.

Yechish. Nominal moment $M_{\text{nom}} = 9550 P_{\text{nom}} / n_{\text{nom}} = 6,97 \text{ kN} \cdot \text{m}$.

Maksimal moment esa $\sin\theta = 1$ qiymatda bo‘ladi, $M_{\text{max}} = 3 \cdot 9550 E_0 U / n_2$. Bu formulaga berilgan parametrlarni qo‘yib, $M_{\text{max}} = 3 \cdot 670 \cdot 660 \cdot 9550 / 1000 \cdot 1 = 12700 \text{ N} \cdot \text{m}$ ni topamiz. Burchak xarakteristikasi $M = 12,7 \sin\theta$ ko‘rinishga ega. Masalan, nominal momentda $M = M_{\text{nom}}$ bo‘lganda $\sin\theta = 0,55$ va $0 = 33,3^\circ$.

8.21. Rotori qisqa tutashtirilgan va kuchlanishi 380/220 V bo‘lgan 4 A tipli asinxron motor uchun jadvalda berilganlardan foydalanib, quyidagilarni bajaring:

1) manbaning kuchlanishi $U_{\text{nom}} = 220 \text{ V}$ bo‘lganda motor chulg‘amlarini ularash sxemasini tanlang va uni chizing;

2) magnit maydonining aylanish tezligi, sirpanish, nominal va ishga tushirish toki, juft qutblar soni hamda statordagi g‘altaklar sonini toping;

3) nominal, ishga tushirish va maksimal momentlarni hisoblang hamda mexanik xarakteristikani quring.

$P_{\text{nom}}, \text{kVt}$	$n_{\text{nom}}, \text{ayl/min}$	η	$\cos\varphi_{\text{nom}}$	k_1	$\mu_{\text{ish.t}}$	λ
4,0	960	0,82	0,81	6,0	2,0	2,5

Yechish. Manbaning kuchlanishi 220 V bo‘lgani uchun motor chulg‘amlari Δ usulda ulanadi.

Magnit maydonining aylanish tezligi rotoring nominal tezligi $n_{\text{nom}} = 960 \text{ ayl/min}$ dan katta bo‘ishi kerak. Shuning uchun $n_1 > n_{\text{nom}}$ ni tanlab olamiz, demak, $n_1 = 1000 \text{ ayl/min}$ bo‘ladi.

Qutblar soni $p = \frac{60f}{n_1} = \frac{60 \cdot 50}{1000} = 3$; g'altaklar soni $N = p \cdot 3 = 3 \cdot 3 = 9$ ta;
sirpanish va sirpanishning o'zgarishi:

$$s_{\text{nom}} = \frac{n_1 - n_{\text{nom}}}{n_1} = \frac{1000 - 960}{1000} = 0,04;$$

$$s_{\text{nom}} \% = s_{\text{nom}} \cdot 100 \% = 0,04 \cdot 100 \% = 4 \% ;$$

$$n_s = n_1 - n_{\text{nom}} = 1000 - 960 = 40 \text{ ayl/min.}$$

Nominal tok:

$$I_{\text{nom}} = \frac{P_{\text{nom}} \cdot 1000}{\sqrt{3} \cdot U_{\text{nom}} \cdot \cos \varphi_{\text{nom}} \cdot \eta_{\text{nom}}} = \frac{4 \cdot 1000}{\sqrt{3} \cdot 220 \cdot 0,81 \cdot 0,82} = 15,8 \text{ A.}$$

Ishga tushirish toki $I_{\text{ish.t}} = I_{\text{nom}} \cdot k_1 = 15,8 \cdot 6 = 94,8 \text{ A.}$

Motoring nominal momenti:

$$M_{\text{nom}} = 9550 \frac{P_{\text{nom}}}{n_{\text{nom}}} = 9550 \frac{4}{1000} = 38,2 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

Maksimal moment

$$M_{\text{max}} = \lambda \cdot M_{\text{nom}} = 2,5 \cdot 38,2 = 95,5 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

Ishga tushirish momenti

$$M_{\text{ish.t}} = \mu_{\text{ish.t}} \cdot M_{\text{nom}} = 2 \cdot 38,2 = 76,4 \text{ N} \cdot \text{m.}$$



Sirpanishning kritik qiymati:

$$s_{\text{kr}} = s_{\text{nom}} (\lambda + \sqrt{\lambda^2 - 1}) = 0,04 (2,5 + \sqrt{(2,5)^2 - 1}) = 0,2.$$

Motoring mexanik xarakteristikasini quyidagi formula yordamida quramiz: $M = \frac{2 \cdot M_{\text{max}}}{s/s_{\text{kr}} + s_{\text{kr}}/s}$; $n_2 = n_1(1 - s)$. $M = (s)$ va $n_2 = f(M)$ grafiklarini quramiz (8.7-rasm va 8.8-rasm).

s	0	0,1	0,2	0,4	0,6	0,8	1
M	0	76,4	95,5	76,4	57,3	44,9	36,7
n_2	1000	900	800	600	400	200	0

8.22. Massasi $m = 3000 \text{ kg}$ bo'lgan transport lifti $U_l = 380 \text{ V}$ li tarmoqqa ulangan. FIK $\eta = 60\%$ bo'lgan elektr motor yordamida harakatga keltiriladi. Agar lift $t = 49 \text{ s}$ davomida $h = 50 \text{ m}$ balandlikka ko'tarilsa,



bajarilgan foydali A_f ish, motor validagi P_2 , iste'mol P_1 quvvatlari, sarf qilingan W elektr energiya, motorning iste'mol toki I topilsin. Agar elektr energiyaning narxi $B = 15 \frac{\text{so}'\text{m}}{\text{kVt}\cdot\text{soat}}$ bo'lsa, liftni bir marta ko'tariliishi uchun sarf qilingan elektr energiya necha so'm turadi?

Yechish. Liftni h balandlikka ko'tarishda bajarilgan foydali ish uning olgan $W_h = mgh$ potensial enerqiyasiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$A_f = mgh = 3 \cdot 10^3 \cdot 9,8 \cdot 50 = 1,47 \cdot 10^6 \text{ J} = 1,47 \text{ mJ}.$$

Motor validagi foydali quvvat:

$$P_2 = \frac{A_f}{t} = \frac{147 \cdot 10^4}{49} = 30 \cdot 10^3 \text{ Vt} = 30 \text{ kVt}.$$

Elektr motorning iste'mol quvvati esa:

$$P_1 = \frac{P_2}{\eta} = \frac{30 \cdot 10^3}{0,6} = 50 \cdot 10^4 \text{ Vt} = 50 \text{ kVt}.$$

Sarf bo'lgan elektr energiya:

$$W = Pt = 50 \text{ kVt} \cdot 49 \text{ s} = 2450 \text{ kVt} \cdot \text{soat} = \frac{2450}{3600} \text{ kVt} \cdot \text{soat} = 0,68 \text{ kVt} \cdot \text{soat}.$$

Liftning bir chiqishida sarf bo'lgan elektr energiyaning narxi $B \cdot W = 15 \cdot 0,68 = 10,2 \text{ so}'\text{m}$ bo'ladi.

8.23. Uch fazali asinxron motorning ta'mirlashdan keyin rotor va statori orasidagi havo tirqishi kengaysa, uning salt ishlash toki I_0 va quvvat koefitsienti cosq qanday o'zgaradi?

Yechish. Motor ta'mirlanganda rotoring sirti tokarlik stanogida silliqlanadi (shlifovkalanadi), shuning oqibatida rotor va stator orasidagi havo tirqishi kengayadi. Agar stator chulg'amining aktiv va induktiv qarshiliklari hisobga olinmasa, quyidagicha yozish mumkin:

$$U = E = 4,44 w f B S k_{01},$$

bunda w — stator chulg'amining o'ramlar soni; f — chastota; B — havo

tirqishidagi magnit induksiya; S – havo tirqishining yuzi; k_0 – tirqish kengligini hisobga olish koefitsienti.

Ifodadan ko‘rinib turibdiki, magnit induksiya tirqish kengligiga bog‘liq emas.

Motorning magnitlanish toki to‘liq tok qonuni asosida aniqlanadi:

$$H_{po'l} I_{po'l} + H_0 l_0 = I_\mu w_1.$$

Bundan:

$$I_\mu = \frac{H_{po'l} l_{po'l} + H_0 l_0}{w_1}.$$

Bu ifodadan ko‘rinib turibdiki, l_0 havo tirqishi kengaysa, motorning magnitlanish toki ko‘payadi.

Binobarin, $I_0 = \sqrt{I_\mu^2 + I_a^2}$ salt ishlash toki ham ko‘payadi.

Motorning quvvat koefitsienti va reaktiv quvvati:

$$\cos\phi = \frac{P}{S} = \frac{P}{\sqrt{P^2+Q^2}}; \quad Q = I_\mu U.$$

Salt ishlash toki ko‘paygani uchun, reaktiv quvvat ham ko‘payadi, motorning quvvat koefitsienti esa kamayadi. Havo tirqishi kengaysa, magnit oqimining sochilishi ko‘payadi, bu esa motorning quvvat koefitsientini kamaytiradi.

8.24. Asinxron motorning aylantirish momenti 500 N·m. Rotorning aylanish chastotasi 1440 ayl/min bo‘lsa, motor validagi quvvat aniqlansin.

8.25. Asinxron motorning rotori 1440 ayl/min chastota bilan aylanadi. Tarmoqdan olinayotgan quvvat 55 kVt. Agar motordagi quvvat isrofi 5 kVt bo‘lsa, uning validagi quvvatni va aylantirish momentini aniqlang.


8.26. Faza rotorli uch fazali asinxron motor tarmoqdan $P_1 = 28$ kVt quvvat oladi, tok $I_1 = 140$ A, kuchlanish 220 V. Agar motor validagi quvvat $P_2 = 23,4$ kVt bo‘lsa, uning FIK va quvvat koefitsienti $\cos\phi$ ni aniqlang.

8.27. Asinxron motor rotorining aylanish chistotasi 980 ayl/min. Motorning iste’mol quvvati 20 kVt, yalpi isrof esa 1,5 kVt. Agar juft qutblar soni $p = 3$ va kuchlanish chistotasi $f_1 = 50$ Gs bo‘lsa, motor sirpanishini va FIK ni toping.

8.28. Rotorning aylanish chistotasi 2800 ayl/min, sinxron aylanish chistotasi 3000 ayl/min ga teng bo‘lgan motor sirpanishini aniqlang.

8.29. Motorning mexanik xarakteristikasida A va B nuqtalarga mos keladigan ikkita rejim uchun sirpanishlar aniqlansin. (8.9-rasm).

8.30. O‘rta quvvatlari qisqa tutashtirilgan



8.9-rasm

rotorli asinxron motorni ishga tushirish vaqtida uning stator chulg'amini yulduz usuldan uchburchak usulga o'zgartirildi (8.10-rasm). Ishga tushirish toki va ishga tushirish momenti necha barobar o'zgariishi topilsin.

8.31. Asinxron motoring shchitida nominal aylanish chastotasi 730 ayl/min ko'rsatilgan. Kuchlanish chastotasi 50 Gs bo'lса, rotor sirpanishi va statorning juft qutblar soni aniqlansin.

8.32. Asinxron motor statorining faza o'ramlari soni $w_1 = 70$, rotorniki esa $w_2 = 40$. Chulg'am koeffitsientlari mos ravishda $k_{w1} = 0,95$ va $k_{w2} = 0,97$.

a) rotorni qo'zg'almas holida; b) rotor sirpanishi 2,2% bo'lganda motoring stator va rotor fazalari chulg'amlaridagi EYuK hisoblansin. Magnit oqimi 0,015 Vb, tarmoq chastotasi 50 Gs.

8.33. Faza kuchlanishi 220 V va chulg'amlari uchburchak usulda ulangan asinxron uch fazali motorni liniya kuchlanishi 380 V bo'lgan tarmoqqa ulash kerak. Bunday ulashning eng sodda amaliy usuli topilsin.


8.34. Agar asinxron motoring maksimal va nominal momentlari nisbati $M_{\max}/M_{\text{nom}} = 1,7$, nominal sirpanishi 3,3% bo'lса, kritik sirpanish s_{kr} aniqlansin.

8.35. Rekuperativ tormozlashda motor valiga $M_r = -150 \text{ N} \cdot \text{m}$ moment qo'yilgan va u $n_2 = 750$ ayl/min chastota bilan aylanyapti. Agar generator rejimida FIK $\eta = 85\%$ bo'lса, motor validagi quvvat va tarmoqqa qayta berilayotgan quvvat aniqlansin.


8.36. Chulg'amlari yulduz usulda ulangan sinxron motoring nominal toki 150 A, kuchlanishi 660 V va valdag'i quvvati 130 kWt. Agar FIK $\eta = 94\%$ bo'lса, motoring tarmoqdan olayotgan quvvat va quvvat koeffitsienti aniqlansin.

8.37. Sinxron motorni asinxron motor kabi ishga tushirishda uning qo'zg'atish chulg'ami nima uchun R_{yur} rezistorga (8.6-rasm) ulanadi?

8.38. Sinxron motoring mis simli stator chulg'ami xuddi shunday ko'ndalang kesimli va uzunlikdagi alumin sim bilan almashtirilsa, undagi elektr quvvat isrofi necha barobar ortadi?



8.10-rasm



9.-BOB


Elektr apparatlar

9.1. DASTAKI VA AVTOMATIK BOSHQARILADIGAN APPARATLAR


Toki 10 A dan oshmaydigan kichik quvvatli zanjirlarda *dastaki apparatlardan* foydaliladi. Quvvati kattaroq iste'molchilarни ulab uzish uchun esa (pichoq soniga qarab) bir, ikki, uch qutbli *rubilniklar* qo'llaniladi.

Quvvatli qurilmalar va elektr motorlarni kommutatsiya qilish uchun kontaktorlar (9.1-a rasm) va *magnitli ishga tushirgichlar* ishlataladi (9.1-b rasm). Kontaktorlarda ishga tushiradigan *knopka* SB1 qo'l bilan bosilganda rele qo'shimcha kontaktlari tutashib, blokirovkalanadi va uni qo'yib yuborgandan keyin zanjir ulanib turaveradi. Zanjirni uzish uchun knopka (tugma) SB2 bosiladi (9.1-a, rasm).

Magnit ishga tushirgichning KM chulg‘ami bosh kontaktga uchta: KM:1; KM:2 va KM:3 hamda qo’shish knopkasini blokirovka qiladigan KM:4 qo’shimcha kontaktga ega. Motorni himoyalash uchun *issiglik relelari* KK1 va KK2 o’rnatalidi. Ularning KK1 va KK2 kontaktlari magnit ishga tushirgichning KM chulg‘amini ajratadigan qilib ulanadi (9.1-b rasm). Elektr qurilmalarni qisqa tutashish toklaridan himoya qilish uchun odatta *eruvchan saqlagichlardan* (FU) foydalaniladi, uzoq davom etadigan o’ta yuklanishlarda avtomatik uzgichlar (*avtomatlar*) o’rnatalidi. Avtomatlar qo’llanishiga qarab ularga zanjirni uzuvchi turli ajratgichlar (*rassepitellar*)




a)



9 1-rasm

o'matilishi mumkin. Masalan, 9.2-a rasmida tok belgilangan qiymatdan oshib ketganda ishga tu-shadigan *maksimal tok avtomati*, va 9.2-b rasmida *minimal kuchlanishli avtomat* keltirilgan. Bu avtomat kuchlanish belgilanganidan kichik bo'lganda qurilma elektr zanjirini uzadi.



9.2-rasm

9.2. ELEKTR ZANJIRNI UZUVCHI AVTOMATLAR

Eruvchan saqlagichning nominal toki quyidagi tengsizlikka ko'ra olinadi:

$$I_{er.s} \geq I/\alpha, \quad (9.1)$$

bunda I – yuklamaning maksimal toki, ya'ni motorning ishga tushirish toki; α – yuklamaning ishlatish sharoitiga bog'liq koeffitsient.

Yakka motor uchun tok uning ishga tushirish tokiga teng, bir necha motorni ta'minlaydigan liniya uchun tok quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$I_{ish.t} = I_{ish.t \ max} + \sum I_{nom}, \quad (9.2)$$

bunda $I_{ish.t \ max}$ – quvvati eng katta motorning ishga tushirish toki; $\sum I_{nom}$ – qolgan motorlar nominal toklarining yig'indisi. Motorning ishga tushirish davomiyligi 8 s gacha bo'lsa, α , koeffitsient qiymatini 2,5; agar davomiylik ko'proq bo'lsa, $\alpha_t = 1,6 \div 2$ olinadi.

Eruvchan saqlagichning ishlash vaqtini quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$t \leq \alpha_t S^2 / I_{q.t}^2, \quad (9.3)$$

bunda S – simning ko'ndalang kesim yuzi, mm^2 ; $I_{q.t}$ – qisqa tutashish tok kattaligi, A ; α_t – o'zgarmas koeffitsient, mis uchun $140 \text{ s} \cdot \text{A}^2/\text{mm}^4$ va alumin uchun $\alpha_t = 95 \text{ s} \cdot \text{A}^2/\text{mm}^4$.

Eruvchan saqlagich toki bilan ruxsat etiladigan tok orasida quyidagi munosabat bo'lishi shart:

$$I_{er.s} \leq 3 I_{rux.et}.$$

Issiqlik uzgich ajratgichi (rassepitel)ning nominal $I_{nom \ u.}$ tokini liniyaning hisoblangan davomiy toki $I_{dav.t}$ bo'yicha tanlab olinadi:

$$I_{nom \ u.} \leq I_{dav.t}.$$

Masalalar

9.1 Kontaktorning yakori va o'zagi orasidagi havo tirqishi 4 mm bo'lganda uning ishlashi uchun 50 N kuch kerak. Agar qutblar yuzi $S = 2 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$,

chulg‘amning o‘ramlari soni $w = 500$ bo‘lsa va magnit o‘tkazgich qarshiligi hisobga olinmasa, chulg‘amdan o‘tishi kerak bo‘lgan tok aniqlansin.

Yechish. Elektromagnit hosil qiladigan kuch $F = 4 \cdot 10^5 \cdot B^2 S$ yoki $F = 4 \cdot 10^5 w^2 I^2 / R_\mu^2 S$ formula bo‘yicha aniqlanadi. Havo tirkishi nisbatan katta bo‘lganda butun zanjirning magnit qarshiligi sifatida faqat havo tirkishining qarshiligini hisobga olish yetarli, ya’ni $R_\mu = 2d_0/\mu_0 S$.

Magnit qarshilikni dastlabki formulaga qo‘yib, magnit zanjir uzuq bo‘lgan holat uchun elektromagnit kuchni hisoblaymiz:

$$F = 4 \cdot 10^5 (4\pi \cdot 10^{-7})^2 \mu_r^2 S w^2 I^2 / (2\delta_0)^2 = 1,6 \cdot 10^{-7} wI / \delta_0^2.$$

Bu formuladan kerakli tok topiladi.

$$I = \frac{\delta_0}{w} \sqrt{\frac{f}{1,6 \cdot 10^{-7} \cdot S}} = \frac{0,02}{500} \sqrt{\frac{50}{1,6 \cdot 10^{-7} \cdot 2 \cdot 10^{-4}}} = 10 \text{ A.}$$

9.2. Uzgich kontaktlari oksidlanganda kontakt qarshilik 0,01 dan 0,2 Om gacha o‘zgardi. Elektr zanjir 6 A tok bilan kommutasiyalanayotgan bo‘lsa, kontaktlarda ajralayotgan quvvat aniqlansin.

9.3. Kontaktor qo‘shilganidan so‘ng uning toki yakorni ushlab turadigan darajadagi tok bilan chegaralanadi (9.1-a rasm). Agar ushlab turish toki I_{ush} va ishga tushirish toki $I_{ish.t}$ nisbatlari $I_{ush}/I_{ish.t} = 0,5$ bo‘lsa, g‘altakdagi quvvat isroflari necha baravar kamayadi?

9.4. Uch fazali asinxron qisqa tutashtirilgan rotorli motorni boshqarish sxemasi qanday ishlashini tushuntirib bering (9.1-b rasm). SB1 va SB2 knopkalar bosilgandagi holatlар uchun sxemaning ishlashini bayon eting.


9.5. Eruvchan saqlagichdan 20 A tok o‘tganda zanjir 2 s da uziladi. Qanday toklarda saqlagich 0,1; 0,5 va 1 s da erib ketadi?

9.6. Hisoblangan toklari 11,5; 21 va 30 A bo‘lgan avtomat issiqlik uzgichining belgilangan tok qiymatlarini aniqlang.

9.3. ELEKTROMAGNIT VA ELEKTRON RELELAR


Relening eng sodda ulanish sxemasi va uning xarakteristikasi 9.3-rasmida keltirilgan. Rele qaytarish k_{qayt} va quvvatni boshqarish $k_{quv.b}$ koeffitsientlari bilan xarakterlanadi.

$$k_{qayt} = I_{q.yub} / I_{ish.t}; \quad k_{quv.b} = R_{bosh} / R_{ish.t}, \quad (9.4)$$



bunda $I_{q,yub}$, $I_{ish,t}$ – chulg‘amdagи qо‘yib yuborish va ishga tushirish toklari; R_{bosh} , $R_{ish,t}$ – relening boshqarish va ishga tushirish quvvatlari.

Yarim o‘tkazgichli kalit turlari 9.4-rasmda keltirilgan.



9.4-rasm

Elektron relelar elektrotexnik qurilmalarining mantiqiy sxemalarida ham qo‘llaniladi.

Masalalar

9.7. Elektromagnit rele magnit o‘tkazgichining magnit singdiruvchanligi $\mu_r = 100$ bo‘lgan materialdan yasalgan. Rele g‘altagi $w = 250$ o‘ramga ega, magnit o‘zagining o‘rtacha uzunligi $l = 0,05$ m va aktiv yuzi $S = 2 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$. Agar relening ishga tushirish toki $I_{ish,t} = 0,5 \text{ A}$ bo‘lsa, releni ushlab turish kuchi va havo tirqishi $\delta = 1 \text{ mm}$ bo‘lganda yakorning minimal tortish kuchini aniqlang.

Yechish. Elektromagnit hosil qiladigan kuch quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$F = 4 \cdot 10^5 w^2 P / R_\mu^2 S.$$


Rele berk bo‘lganda magnit qarshilik R_μ magnit sistemaning magnit singdiruvchanligi bilan aniqlanadi, ya’ni $R_\mu = l/\mu_r \mu_0 S$. Bu ifodani dastlabki formulaga qo‘yamiz: $F = 6,4 \cdot 10^{-6} \mu_r^2 S w^2 I^2 / l^2 = 6,4 \cdot 10^{-6} \cdot 100^2 \cdot 2 \cdot 10^{-4} \times 250^2 \cdot 0,25 / 2,5 \cdot 10^{-4} = 80 \text{ N}$.

Rele ochiq bo‘lgan holatda magnit qarshilik asosan havo tirqishi bilan aniqlanadi: $R_\mu = 2\delta_0/\mu_0 S$. Bu ifodani dastlabki formulaga qo‘yamiz:

$$F = 1,6 \cdot 10^{-7} S w^2 P / \delta_0^2 = 1,6 \cdot 10^{-7} \cdot 2 \cdot 10^{-4} \cdot 250^2 \cdot 0,25 / 10^{-6} = 0,52 \text{ N}.$$

Demak, havo tirqishi kattalashgan sari relening tortish kuchi keskin kamayar ekan.

9.8. O‘zgarmas tok elektromagnit relesi g‘altagini aktiv qarshiligi 100 Om, induktivligi $L = 1 \text{ Gn}$. Agar ishga tushirish kuchlanishi 24 V bo‘lsa, g‘altakning toki va aktiv quvvati aniqlansin. Elektromagnit relening ishga tushirish vaqt topilsin.



10.-BOB Elektr yuritma va elektroavtomatika

10.1. ELEKTR YURITMA VA UNING ISH REJIMLARI

Elektr yuritmada motor validagi M_m aylantirish momenti statik M_{st} , ishga tushirish va tormozlashda paydo bo'ladigan dinamik moment M_{din} dan iborat

$$M_m = M_{st} \pm M_{din} = M_{st} \pm J\Delta\omega/\Delta t, \quad (10.1)$$

bunda J – massa va aylanuvchi detallarning inersiya radiusiga bog'liq *inersiya momenti*, $\text{kg} \cdot \text{m}^2$; $\Delta\omega/\Delta t$ – elektr motor valining *burchak tezlanishi*, rad/s^2 . Mexanik sistemadagi barcha harakatlanuvchi qismlarning motor o'qiga keltirilgan inersiya momenti:

$$J = mr_{in}^2 = GD^2/4g, \quad (10.2)$$

bunda G – jismning og'irligi; $D = 2r_{in}$ (r_{in} – inersiya radiusi); $g = 9,81 \text{ m/s}^2$ – erkin tushish tezlanishi.

10.2-formuladagi $GD^2 = 4gJ$ – kattalik *siltash momenti* deb ataladi. Uning qiymati har bir motor qo'zg'aluvchi qismi uchun ma'lumotnomalarda keltiriladi va bu kattalik o'zgarmas bo'ladi,

$$M_m = M_{st} \pm \frac{GD^2}{375} \cdot \frac{\Delta n}{\Delta t}, \quad (10.3)$$

bunda $\Delta n = 9,55\Delta\omega$ – elektr motor vali aylanish chastotasining o'zgarishi, ayl/min .

Aylanma harakatda mexanizmning M_{mex} qarshilik momentini elektr motor validagi qarshilik momentiga keltirish quyidagi formula bilan bajariladi:

$$M_{q.m} = \frac{M_{mex}}{i\eta}, \quad (10.4)$$

bunda $M_{q.m}$ – mexanizm validagi qarshilik momenti, $\text{N} \cdot \text{m}$; $i = \omega_m/\omega_{mex}$ – mexanik uzatma (reduktor) ning uzatish soni; η – mexanik uzatmaning FIK. Ilgarilama harakatda motor valiga keltirilgan mexanizmning qarshilik momenti esa:

$$M_{q.m} = F v / \omega_m \cdot \eta,$$

bunda F – mexanizm kuchi, N; v – ilgarilama harakatning tezligi, m/s, ω_m – motor valining burchak tezligi.

Masalalar

10.1. 4A132M6 rusumli asinxron motorli elektr yuritmaning ishga tushirish vaqtini aniqlansin. $P_{nom} = 7,5 \text{ kW}$, $n_{nom} = 970 \text{ ayl/min}$, $M_{ish.t} = 1,2 M_{nom}$; $M_{max} = 2 M_{nom}$. Motorni ishga tushirishda valdag'i qarshilik momenti $M_{q.m} = 60 \text{ N} \cdot \text{m}$, motor valiga keltirilgan inersiya momenti $J = 0,058 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. Ishga tushirishdagi o'rtacha moment $M_{o.r} = (M_{ish.t} + M_{q.m})/2$.

Yechish. Motoring nominal, ishga tushirish va maksimal momentlari:

$$M_{nom} = 9,55 \frac{P_{nom}}{n_{nom}} = 9,55 \frac{7500}{970} = 73,5 \text{ N} \cdot \text{m}; M_{ish.t} = 1,2 M_{nom} = 89 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

$$M_{max} = 2 M_{nom} = 147 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Motoring ishga tushirishdagi o'rtacha momenti

$$M_{o.r} = \frac{89+147}{2} = 118 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Elektr yuritmaning ishga tushirish vaqtini

$$t_{ish.t} = \frac{J \omega_{nom}}{M_{o.r} - M_{qm}} = \frac{0,058 \cdot 970}{9,55(118-60)} = 0,1 \text{ s}.$$

10.2. Elektr yuritma motori validagi o'zgarmas qarshilik momenti $13 \text{ N} \cdot \text{m}$ ga teng, aylanuvchi massalarning inersiya momenti $J = 0,22 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. Agar $\Delta t = 1 \text{ s}$ vaqtida aylanish chastotasining maksimal qiymati 100 ayl/min dan oshmasa, motor rotorini qanday moment hosil qilishi kerak?

10.3. Massasi 45 kg li mexanizmning inersiya radiusi $0,25 \text{ m}$. Agar $\Delta t = 1 \text{ s}$ vaqtida aylanishlar chastotasi 100 ayl/min dan oshmasa, motoring ishga tushirishdagi qarshilik momentining eng katta o'zgarishi aniqlansin. O'zgarmas qarshilik momenti $15 \text{ N} \cdot \text{m}$.

10.4. Elektr motor valida nominal quvvat $1,1 \text{ kW}$, nominal aylanish chastotasi $n_{nom} = 950 \text{ ayl/min}$. Agar yuklamaning o'zgarmas qarshilik momenti $23; 34,5; 46 \text{ N} \cdot \text{m}$ bo'lsa, reduktor (uzatgich) qanday uzatish koeffitsientiga ega bo'lishi kerak? Reduktoring FIK 0,96. Har bir holda aylanish chastotasi aniqlansin.

10.5. Massasi 1000 kg bo'lgan yukni ko'tarish uchun elektr motor validagi statik moment aniqlansin. Ko'tarish tezligi 1 m/s , mexanizm FIK $\eta = 0,85$, motoring nominal aylanish chastotasi $n_{nom} = 960 \text{ ayl/min}$.

10.2. ELEKTR YURITMA UCHUN ELEKTR MOTOR TANLASH

Elektr motor tanlash faqat $P_m = M_m n / 9,55$ formulaga emas, balki ishlash rejimining xarakteri (ko'p hollarda davomli, qisqa muddatli va qisqa muddatli takrorlanuvchi rejimlar) ga ham bog'liq bo'ladi. Elektr motorning ishlash rejimi o'zgaruvchan yuklamada davomli bo'lsa, uning quvvati quyidagi shart bo'yicha tanlanadi:

$$P_m = P_{o'r} \geq \sqrt{\sum_{i=1}^n P_i^2 t_i} / \sqrt{\sum_{i=1}^n t_i}, \quad (10.5)$$

bunda t_i – motorning P_i quvvat bilan ishlash vaqt; $P_{o'r}$ – o'tacha quvvat.

Qisqa muddatli takrorlanuvchi rejimda motorning quvvati quyidagi ifodadan topiladi:

$$P_m \geq P_{o'r} \sqrt{ID/SD}. \quad (10.6)$$

Bunda $ID = t_{ish}/t_{sikl}$ – motorning haqiqiy ishlash davomiyligi, SD – standart davomiylilik bo'lib, u 15; 25; 40 va 60% ga teng.

Keng tarqalgan *texnologik uskunalar* uchun elektr motor quvvati quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

1. Ish xarakteri aylanuvchi bo'lgan *metall kesish stanoklari* uchun motor quvvati:

$$P_m = M n / 9,55 i \eta, \quad (10.7)$$

bunda M – stanok shpindelidagi aylantiruvchi moment; n – shpindelning aylanish chastotasi; i – uzatish koefitsienti; η – mexanik uzatishning FIK.

2. Ishlash harakati ilgarilama bo'lgan *randalovchi stanoklar* uchun motor quvvati:

$$P_m = F_{o'r} S v / \eta. \quad (10.8)$$

Bunda $F_{o'r}$ – randalashdagi solishtirma qarshilik, N/m; S – qirindining ko'ndalang kesim yuzi, v – randalash tezligi; η – mexanik uzatgichning FIK.

3. *Markazdan qochma ventilyator* yuritmasi uchun motor quvvati:

$$P_m = Q p / \eta. \quad (10.9)$$

Bunda Q – havoning hajmi, m^3/s ; p – bosim, Pa ; η – yuritmaning FIK.

4. *Nasos yuritmasining* quvvati:

$$P_m = \rho g Q (H + \Delta H) / \eta, \quad (10.10.)$$

bunda Q – nasosning ish unumdotligi m^3/s ; ρ – havo yoki suyuqlikning solishtirma massasi, kg/m^3 ; H – bosim balandligi, m; ΔH – magistralda bosim pasayishi; $g = 9,81 \text{ m/s}^2$ – erkin tushish tezlanishi.

5. Ko'taruvchi uskunalar va kranlar yuritmasining quvvati:

$$P_m = v(G_{yuk} + G_{k.m} - G_{bost.})/\eta = v \cdot G/\eta \quad (10.11)$$

bunda v — yuk ko'tarish tezligi, m/s; G_{yuk} , $G_{k.m}$, G_{bost} — mos ravishda foydali yuk, ko'tarish mexanizmi va bostirma massalari, kg.

6. Transportyor va konveyer yuritmalarining quvvati:

$$P_m = Fv/\eta$$

Bunda F — tortish kuchi, N; v — lentalarning yoki telejkalarning tezligi, m/s.

Masalalar

10.6. Qisqa muddatli takrorlanuvchi rejim bilan o'zgaradigan yuklama uchun asinxron motorning kerakli quvvati aniqlansin. Rejim quyida- gi kattaliklar bilan tavsiflanadi: $t_1 = 4$ s; $t_2 = 18$ s; $t_3 = 13$ s; $t_0 = 85$ s; $M_1 = 600$ N · m; $M_2 = 250$ N · m; $M_3 = 150$ N · m. Elektr motorning aylanish chastotasi $n_{nom} = 730$ ayl/min.

Yechish. Ekvivalent momentni quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$M_{ekv} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^3 M_i^2 \cdot t_i}{\sum_{i=1}^3 t_i}} = \sqrt{\frac{600^2 \cdot 4 + 250^2 \cdot 18 + 150^2 \cdot 13}{4+18+13}} = 300 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

Yuklanish diagrammasidan motorning ishlash davomiyligini topamiz:

$$ID = \frac{\sum t_i}{\sum t_i + t_0} = \frac{4+18+13}{4+18+13+85} \cdot 100 = 29\%.$$

Yuklanish diagrammasining ekvivalent quvvatini topamiz:

$$P_{ekv} = \frac{M_{ekv} \cdot n_{nom}}{9,55} = \frac{300 \cdot 730}{9,55} \cdot 10^{-3} = 23 \text{ kWt}.$$

Ekvivalent quvvatni eng yaqin standart qiymatga keltiramiz. Ish davomiyligi $ID = 25\%$ bo'lganini hisobga olsak:

$$P = P_{ekv} \sqrt{\frac{ID}{SD}} = 23 \cdot \sqrt{\frac{29}{25}} = 25 \text{ kWt}.$$

10.7. Davomli o'zgaruvchan yuklanish rejimida ishlaydigan mexanizm uchun qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron motorning ekvivalent quvvati aniqlansin va mexanizm uchun elektr motor tanlansin. Yuklanish diagrammasida $P_1 = 40$ kWt, $t_1 = 15$ s; $P_2 = 20$ kWt, $t_2 = 10$ s; $P_3 = 30$ kWt, $t_3 = 15$ s; $P_4 = 10$ kWt, $t_4 = 10$ s; $P_5 = 25$ kWt, $t_5 = 15$ s. Elektr motor aylanish chastotasi $n_{nom} = 960$ ayl/min bo'lishi lozim.

Yechish. Ekvivalent quvvatni aniqlaymiz:

$$P_{ekv} = \sqrt{\frac{P_1^2 t_1 + P_2^2 t_2 + P_3^2 t_3 + P_4^2 t_4 + P_5^2 t_5}{t_1 + t_2 + t_3 + t_4 + t_5}} \approx 29,2 \text{ kVt.}$$

Bir sikl davomida ishlash vaqtı $t_s = t_1 + t_2 + t_3 + t_4 + t_5 = 65$ s.

Katalogdan ushbu mexanizm uchun AO2-816 markali quvvati 30 kVt bo'lgan elektr motor tanlanadi. Bu motor uchun: $\eta_{nom} = 0,9$; $\cos\varphi_{nom} = 0,9$; $n_{nom} = 960$ ayl/min; o'ta yuklanish qobiliyati $\lambda = M_m/M_{nom} = 2,0$; $M_{ish.t.}/M_{nom} = 1,2$; $I_{ish.}/I_{nom} = 7$.

Motoring nominal aylantiruvchi momenti:

$$M_{nom} = 9,550 \cdot \frac{P_{nom}}{n_{nom}} = 9,550 \cdot \frac{30 \cdot 10^3}{960} = 298,4 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

Maksimal momenti: $M_m = 2,0 M_{nom} = 596,8 \text{ N} \cdot \text{m}$.

Maksimal statik momenti:

$$M_{st} = 9,55 \frac{P_{1k}}{n_k} = 9,55 \frac{33 \cdot 10^3}{960} = 328 \text{ N} \cdot \text{m.}$$

O'ta yuklanish qobiliyati bo'yicha berilgan mexanizm uchun elektr motor to'g'ri tanlanganligini tekshiramiz: $0,9 M_{max} = 0,9 \cdot 596,8 = 537 > M_{st} = 328 \text{ N} \cdot \text{m}$. Demak, elektr motor to'g'ri tanlangan.

10.8. Gaz bosimini $H = 70 \text{ N/m}^2$ va uning sarfmi $Q = 18 \text{ m}^3/\text{s}$ ta'minlovchi ventilyator elektr yuritmasi uchun asinxron elektr motor tanlang. Ventilyatorning FIK $\eta = 0,52$.

Yechish. Elektr motor quvvatini hisoblaymiz:

$$P = Q H / \eta = 18 \cdot 70 / 0,62 = 2030 \text{ Vt.}$$

Ventilyator uzlusiz ish rejimida ishlagani uchun, elektr motor quvvatini $P_{em} \geq P$ shart bo'yicha tanlab olamiz. Asinxron elektr motorlar ma'lumotnomasi (katalog) dan nominal quvvati $P_{nom} = 2,2 \text{ kVt}$, 4A90L4Y3 rusumli qisqa tutashtirilgan rotorh uch fazali asinxron elektr motorni tanlab olamiz.

10.9. Suv sarfi $Q = 0,6 \text{ m}^3/\text{s}$, ko'tarish balandligi $H = 8,2 \text{ m}$, aylanish chastotasi $n = 970$ ayl/min, FIK $\eta = 0,67$ bo'lgan nasos uchun elektr motor tanlang.

Yechish. Berilgan pasport kattaliklarida nasos quvvati:

$$P = \frac{\gamma \cdot QH}{\eta} = \frac{1000 \cdot 0,5 \cdot 8,2}{0,67} = 6833,3 \text{ Vt.}$$

Bunda $\gamma = 1000 \text{ N/m}^3$ – suvning solishtirma og'irligi. Elektr motor quvvatini $P_{em} \geq P$ shartdan foydalanib, 4A132M6Y3 rusumli $P = 7,5 \text{ kVt}$, $n_{nom} = 970$ ayl/min uch fazali asinxron motor tanlaymiz.

10.10. Aylanish chastotasi $n = 625$ ayl/min bo'lganda, ventilyatorning aylantiruvchi momenti $M_1 = 10 \text{ N} \cdot \text{m}$ bo'lishi kerak.

Agar ventilyator valining nominal aylanish chastotasi $n_{nom} = 950$ ayl/min

bo'lsa, shu ventilyator uchun elektr motor tanlang. Ventilyator qarshilik momentining aylanish chastotasi bilan bog'liqligi $M_2 = M_1 (n_2/n_1)^2$.

Yechish. Ma'lumki, ventilyator, nasos mexanizmlarining qarshilik momenti aylanish chastotasining kvadratiga proporsional bo'ladi.

Demak, $M_2 = M_1 (n_2/n_1)^2 = 10 \cdot (950/625)^2 = 23 \text{ N} \cdot \text{m}$.

Elektr motor quvvati $P = \frac{Mn}{9,55} = \frac{23 \cdot 950}{9,55} = 2300 \text{ Vt} = 2,3 \text{ kVt}$. Kato-

logdan 4A112MV6 Y3 rusumli $P_{\text{nom}} = 2,5 \text{ kVt}$, $n_{\text{nom}} = 950 \text{ ayl/min}$, FIK = = 82%, $\cos\varphi = 0,81$ ga teng bo'lgan uch fazali asinxron elektr motor tanlab olamiz.

10.11. Toshkent viloyati "Ramadon" nasos stansiyasida $P = 630 \text{ kVt}$ quvvatli, $n_{\text{nom}} = 950 \text{ ayl/min}$, FIK $\eta = 0,9$ asinxron motor kanalidagi suvni 20 m ga ko'tarib, shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklarining yerlarini sug'oradi. Nasos 1 sekundda qancha suv yetkazib beradi? 1 soatda, 1 sutkada bu suv qancha bo'ladi?

Yechish. $P_{\text{nom}} = \frac{\gamma QH}{\eta_{\text{nom}}}$ formuladan $Q = \frac{P_{\text{nom}} \cdot \eta_{\text{nom}}}{\gamma H} = \frac{630 \cdot 10^3 \cdot 0,9}{10^3 \cdot 20} =$

= 28,35 m^3/s . 1 soatda suv miqdori $Q = 28,35 \cdot 3600 = 102060,0 \text{ m}^3$; 1 sutkada esa $102060 \cdot 24 = 2449440 \text{ m}^3$.

10.12. Samarqand shahrida ommaviy ishlab chiqarilgan "Sino" rusumli muzlatgich elektr motorining pasport ko'rsatkichlari: $U_{\text{nom}} = 220 \text{ V}$; $I_{\text{nom}} = 1,3 \text{ A}$; $\cos\varphi = 0,6$; $\eta = 0,7$.

Motor o'rta hisobda bir soatda 15 minut manbagaga ulanadi. Yillik elektr energiya iste'molini aniqlang, 1 kVt · soat elektr energiyaning narxi 15 so'm tursa, yillik to'lov necha so'm bo'ladi?

Yechish. To'la quvvat:

$$S = U_{\text{nom}} I_{\text{nom}} = 220 \cdot 1,3 = 286 \text{ V} \cdot \text{A}$$

Aktiv quvvat:

$$P = S \cos\varphi = 286 \cdot 0,6 = 171,6 \text{ Vt}$$

Motor 1 soat davomida 15 minut ishlashini hisobga olib, bir soatdagi elektr energiya iste'molini hisoblaymiz, $W = Pt = 171,6 \cdot 0,25 = 42,9 \text{ Vt} \cdot \text{soat} = 0,0429 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$. 1 yil 8760 soatga tengligini inobatga olsak, muzlatgichning bir yilda iste'mol qiladigan elektr energiyasi $W_{\text{yil}} = 0,0429 \cdot 8760 = 368,000 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$ ekanligi ma'lum bo'ladi. Yillik to'lovni hisoblaymiz: $15 \cdot 368 = 5520 \text{ so'm}$.

10.13. Elektr yuritmaning motori 10 minut davomida $P = 7,5 \text{ kVt}$ quvvat bilan, 35 minut davotida 2,5 kVt quvvat bilan ishladi. Davomli ish rejimi uchun motorning ekvivalent quvvati aniqlansin.

10.14. Elektr yuritmaning motori 10 minut davomida $P = 15 \text{ kVt}$, 1 minut davomida 40 kVt, 5 minut davomida 20 kVt va 4 minut davomida 10 kVt quvvat bilan ishlaydi. Agar sikl 30 minut davom etsa, qisqa muddatli

takrorlanuvchi rejimda ishlaydigan elektr motorning ekvivalent quvvati aniqlansin.

10.15. Elektr motorning nominal parametrlari: $n_{\text{nom}} = 950$ ayl/min; $\eta = 0,95$; $U_{\text{nom}} = 220$ V. U davomli rejimda ishlaydigan elektr yuritmaga o'matilgan. Ish rejimi davomiyligi 2 minut bo'lgan 5 sikldan iborat. Yakor toki mos ravishda $I_{ya} = 40; 30; 20; 30; 40$ A ga teng bo'lganda elektr motorning ekvivalent quvvati topilsin.

10.16. Aylanish chastotasi $n = 1440$ ayl/min, qisqa muddatli takrorlanuvchi rejimda ishlaydigan motorning quvvati aniqlansin. Sikl davomiyligi 30 minut, ish vaqtি har birining davomiyligi 5 minutdan bo'lgan 5 bosqichdan iborat va har bir bosqichdagi aylanuvchi moment mos ravishda $M = 50; 20; 30$ va $45 \text{ N} \cdot \text{m}$ ga teng.

10.17. Mexanizm davomli rejimda ishlaydi va ishlash sikli quyidagi parametrlarga ega: $\sum t_i = 30$ s, $t_1 = 4$ s, $t_2 = 20$ s, $t_3 = 6$ s, $M_1 = 250 \text{ N} \cdot \text{m}$, $M_2 = 95 \text{ N} \cdot \text{m}$, $M_3 = 125 \text{ N} \cdot \text{m}$.

Nominal kattaliklari $P_{\text{nom}} = 15$ kWt, $n_{\text{nom}} = 970$ ayl/min, $M_{\text{max}} = 2M_{\text{max}}$ bo'lgan 4A160M6 rusumli faza rotorh asinxron motor quvvati va momenti bo'yicha shu mexanizmga to'g'ri keladimi?

10.18. Kesish kuchi $F = 2000$ N, arraning o'rtacha tezligi $v = 3$ m/s va FIK $\eta = 0,8$ bo'lgan pilorama uchun elektr motor quvvatini aniqlang.

10.19. Elektr kranning yuk ko'tarishi $G = 1,5$ t, yuk ko'tarish tezligi $v = 0,4$ m/s, $\eta = 0,75$. Kran uchun elektr motor tanlansin.


10.20. Parmalovchi stanok shpindelini aylantiruvchi momenti $M_{\text{par}} = 300 \text{ N} \cdot \text{m}$, tezlik qutisi (korobkasi)ning uzatish soni $i = 6$, $n = 40$ ayl/min, $\eta = 0,7$. Stanok uchun elektr motor tanlansin.

10.21. Havo sarfi $Q = 3 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $p = 560 \text{ Pa}$ va FIK $\eta = 0,64$ bo'lgan ventilyator uchiun asinxron motorning quvvati tanlansin. Zaxira koefitsenti $k_z = 1,1$ deb olinsin.

10.22. Ish unumdorligi $Q = 55 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lgan va suvni $H = 60$ m ga ko'taradigan nasos uchun quvur suv bosimi aniqlansin. Nasos FIK – 81%.

10.23. Ish unumdorligi $Q = 0,1 \text{ m}^3/\text{s}$, ko'tarish balandligi (napor) $H = 12$ m; $\eta = 0,7$. Nasos uchun elektr motor quvvati aniqlansin. Ko'tarilayotgan suyuqlikning solishtirma massasi $\rho = 1000 \text{ kg/m}^3$.

10.24. Massasi 550 kg yukni ko'taradigan ko'taruvchi qurilma elektr motorining quvvati 4 kWt. Agar uzatish moslamalarining FIK lari $\eta_1 = 0,96$ va $\eta_2 = 0,96$ bo'lsa, yuk ko'tarish tezligi aniqlansin.



11-BOB

Elektr energiya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish

11.1 ELEKTR ENERGIYANING TAQSIMLANISHI

Kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan uzatish liniyalari (11.1-rasm) ruxsat etilgan iste'mol tok bo'yicha quyidagi ifodadan foydalanib hisoblanadi:


$$k_1 k_2 I_r \geq I_h \quad (11.1)$$

bunda k_1 — havo haroratiga qarab ma'lumotnomalardan olinadigan tuzatma koefitsient; k_2 — kabel liniyalar uchun kiritiladigan tuzatma koefitsient, yonma-yon joylashtirilgan kabellarning o'zaro qizishiga qarab olinadi; I_r , I_h — berilgan kesim yuzi uchun mos ravishda ruxsat etilgan va hisoblangan tok. Bundan tashqari, o'tkazgich simining ko'ndalang kesimi *himoyalashni shartini* hisobga olgan holda quyidagi ifodadan foydalanib tanlanadi:

$$k_1 k_2 I_r \geq k_3 I_e, \quad (11.2)$$

bunda k_3 — avtomat yoki eruvchan saqlagich turiga bog'liq himoyalash koefitsienti, I_e — eruvchan saqlagich yoki avtomat ajratgich toki.

Shu tarzda tanlab olingan ko'ndalang kesim yuzi kuchlanish isrofi (5–6,5)% va mexanik mustahkamlik bo'yicha ham tekshiriladi. Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo'lgan uzatish liniyalari *tok yuklamasi* (11.1) formula asosida hamda *kuchlanish isrofi* (havodagi uzatish liniyalari uchun 8% gacha, kabel liniyalari uchun 6% gacha) va mexanik mustahkamligi bo'yicha hisoblanadi (alumin sim-



11.1-rasm

lar uchun minimal ko'ndalang kesim yuzi $S = 35 \text{ mm}^2$, po'lat-alumin simlar uchun $- 25 \text{ mm}^2$).

Yuqori kuchlanishli liniyalardan o'tadigan tokning iqtisodiy zichligi va ish toki ta'sirida qizishi, ya'ni termik mustahkamlik bo'yicha hisoblanadi.

Birinchi holda simlarning ko'ndalang kesim yuzi:

$$S = I_{\text{ish}} / \gamma \quad (11.3)$$

bunda I_{ish} — magistral liniyadagi ish toki, γ — ma'lumotnomalardan olinadigan tokning iqtisodiy zichligi, A/mm^2 . Ikkinci holda simning ko'ndalang kesimi 9-ilovada keltirilgan ma'lumotlardan olinadi.

Qisqa tutashish toklariga bardosh bera oladigan simning ko'ndalang kesim yuzi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S = I_{q,t} \sqrt{t} / k_s . \quad (11.4)$$

Bunda t — rassepitel (ajratgich)ning ajratish vaqt, s; k_s — qisqa tutashish toki bo'yicha himoyalash koeffitsienti (mis uchun $140 \text{ A} \cdot \text{s}^{1/2}/\text{mm}^2$ va alumin uchun $95 \text{ A} \cdot \text{s}^{1/2}/\text{mm}^2$).

Uch simli liniyalar uchun kuchlanish isrofi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta U = \sqrt{3} I_{\text{ish}} l (R_0 \cos\varphi + X_0 \sin\varphi) . \quad (11.5)$$

Bunda l — aktiv R_0 va reaktiv X_0 (Om/km) tashkil etuvchilar bo'lgan liniyaning uzunligi; I_{ish} — ish toki; $\cos\varphi$ — yuklamaning quvvat koeffitsienti.

Illi simli yoritish yuklamaga mo'ljallangan uzatish liniya uchun kuchlanish isrofi (nominal kuchlanishning foizida) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Delta U = \frac{2Pl\rho}{U^2 S} \cdot 100\% , \quad (11.6)$$

bunda P — yuklamaning hisoblangan quvvati, Vt ; l — liniyaning uzunligi, m; U — liniyaning kuchlanishi, V; ρ — simning solishtirma qarshiligi, $\text{Om} \cdot \text{m}/\text{mm}^2$; S — simning ko'ndalang kesim yuzi, mm^2 .

To'rt simli yoritish yuklamaga mo'ljallangan uzatish liniya uchun kuchlanish isrofi:

$$\Delta U = \frac{Pl\rho}{U^2 S} \cdot 100\% . \quad (11.7)$$

Tanlab olingan simlarning ko'ndalang kesim yuzi hisoblanganidan katta bo'lishi kerak.

Masalalar

11.1. Nominal kuchlanishi 10 kV va quvvati $1600 \text{ kV} \cdot \text{A}$ bo'lgan uch fazali transformator havo uzatish liniyasiga ulangan. Shu liniyadagi kuchlanish isrofi 8% dan oshmasligi kerak.

Zanjirda ishlash vaqtı 0,5 s va qisqa tutashish tokı $160I_{\text{nom}}$ gacılık bo'lgan himoyalash uskunasi o'matilgan. Agar tokning iqtisodiy zichligi $\gamma = 1,2 \text{ A/mm}^2$ bo'lsa, uzunligi 1 km qog'oz izolyatsiyali o'tkazgich simlari — aluminiyli kabelning ko'ndalang kesim yuzi tanlansin. Quvvat koefitsienti $\cos\varphi = 1$ va temperatura bo'yicha tuzatma koefitsienti $k_t = 1$.

Yechish. Uzatish liniya simlarining ko'ndalang kesim yuzi tokning iqtisodiy zichligi talablariga javob berishi kerak:

$$S = P/U_{\text{nom}}\gamma = 1600/10 \cdot 1,2 = 133 \text{ mm}^2.$$

Qisqa tutashish toklariga bardosh bera oladigan kesim yuzini 11.4. formula bo'yicha hisoblaymiz:

$$S = 160 I_{\text{nom}} \sqrt{t}/95 = 160 \cdot 100 \sqrt{0,5}/95 = 117 \text{ mm}^2.$$

Masala shartiga ko'ra $\cos\varphi = 1$ bo'lgani uchun $P = S \cos\varphi$ simning ishchi tok $I_{\text{ish}} = P/U_1 = 1600/10 = 160 \text{ A}$ bilan qizishini hisobga ohb, uning ko'ndalang kesim yuzini 9-ilovadan foydalanib tanlaysiz: $S = 120 \text{ mm}^2$.

Ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha ko'ndalang kesimni hisoblaymiz: $S = 2Pl\rho/U^2\Delta U = 2 \cdot 1600 \cdot 10^3 \cdot 10^3 \cdot 0,0312/10^8 \cdot 0,08 = 12 \text{ mm}^2$

Qo'yilgan barcha talablarga javob berish uchun hisoblangan kesimlarning eng kattasini tanlash kerak. Eng yaqin standart ko'ndalang kesim yuzi $S = 155 \text{ mm}^2$.

11.2. Umumiyligi 24 m li liniyaga har birining quvvati 160 Vt li yettiha lyuminessent yoritgichlar bir-biridan bir xil masofada ulangan. Shu liniya umumiyligi quvvati 16 kVt li yoritish shchiti (YoSh) orqali transformator podstansiysi (TP) ga ulangan. Simlarning kesimi va uzunligi sxemada keltirilgan (11.2-rasm). Yoritgichlarni manbag'a ulash uchun ishlatiladigan apparatlardagi quvvat isrofi 25% deb olinsin. Transformator podstansiysidan eng so'nggi yoritgichgacha bo'lgan masofada kuchlanish isrofi aniqlansin.

Yechish. Ulab-uzgich apparatlaridagi quvvat isrofini hisobga olib, yoritgichlarning quvvatini aniqlaymiz:

$$P = nP_{\text{yor}} \cdot 1,25 = 7 \cdot 0,16 \cdot 1,25 = 1,4 \text{ kVt}.$$

Yoritish shchitidan yoritgich yuklama markazigacha bo'lgan masofa

$$l = l + \frac{l_3}{2} = 5 + \frac{24}{2} = 17 \text{ m}.$$

Shchitdan eng uzoqdagi yoritgichgacha (liniya ikki simli, kesim yuzi $S = 2,5 \text{ mm}^2$) masofada kuchlanish isrofi

$$\Delta U_1 = \frac{2P_l \rho \cdot 100\%}{U_f^2 \cdot S} = \frac{2 \cdot 1400 \cdot 17 \cdot 0,0312 \cdot 100\%}{220^2 \cdot 2,5} = 1,25\%.$$

TP dan YoSh gacha uchastkadagi kuchlanish isrofi (kesim yuzi $S = 6 \text{ mm}^2$):

$$\Delta U_2 = \frac{P_l l \rho \cdot 100\%}{U_{lin}^2 \cdot S} = \frac{1600 \cdot 30 \cdot 0,0312 \cdot 100\%}{380^2 \cdot 6} = 0,41\%.$$

Natijaviy kuchlanish isrofi $\Delta U = \Delta U_1 + \Delta U_2 = (1,25 + 0,41)\% = 1,46\%$.

11.3. Quvvati 210 kV · A bo'lgan qurilish maydonchasi kuchlanishi 380 V li uch fazali havo liniyasidan ta'minlanadi. Agar harorat bo'yicha tuzatma koefitsienti $k_t = 1$ bo'lsa, qizishga bardosh bera oladigan simning ko'ndalang kesim yuzi aniqlansin.

11.4. Hisoblangan 34, 85, 25, 10, 140 A toklar uchun plastmassa trubalardagi to'rt simli liniya o'tkazgich simlarining kesim yuzi tanlansin.

11.5. Ishlab chiqarish korxonasining liniyalaridagi qisqa tutashish toki 15000 A gacha oshishi mumkin. Agar himoya uskunasining ishga tushish vaqtisi 0,5 s bo'lsa, bu tokka bardosh bera oladigan alumin simning kesim yuzi topilsin.

11.6. Quvvati 150 kVt li yuklama uzunligi 2 km bo'lgan ikki simli liniya orqali kuchlanishi 1 kV li manbaga ulangan. Kuchlanish isrofi 8% dan oshmasligi uchun alumin simning ko'ndalang kesim yuzi aniqlansin.

11.7. Aktiv va reaktiv quvvatlari mos ravishda $P = 40 \text{ kVt}$ va $Q = 30 \text{ kvar}$ bo'lgan yuklama pol osti kanaliga joylashtirilgan to'rt simli alumin kabel orqali kuchlanishi 380 V bo'lgan manbaga ulangan. Kabelning ko'ndalang kesim yuzi va ruxsat etilgan tok aniqlansin.

11.8. Suvni ko'tarib beruvchi elektr nasosning elektr motori (quvvati 100 kVt va $\cos\phi=0,8$) aktiv qarshiligi $R_0 = 0,92 \text{ Om/km}$ va reaktiv qarshiligi $X_0 = 0,4 \text{ Om/km}$, uzunligi $l = 1,5 \text{ km}$ alumin havo liniya orqali ikkilamchi nominal kuchlanishi $U_{nom} = 6 \text{ kV}$ bo'lgan transformatorga ulangan. Nominal kuchlanishga nisbatan kuchlanish isrofi foizlarda aniqlansin.

11.9. Liniyadagi kuchlanishni o'zgartirish uchun uning boshi va oxiriga transformatsiya koefitsienti $k = 30$ bo'lgan transformatorlar ulangan. Transformatsiya koefitsienti $k = 50$ bo'lgan transformatorlar o'rnatilsa, liniyadagi isroflar necha marta kamayadi?

11.2. KORXONALAR VA TURAR JOYLARNING ELEKTR TA'MINOTI

Elektr ta'minotdagi asosiy bosqich – bu elektr yuklamalarni hisoblashdir. Iste'molchilar guruholarining aktiv va reaktiv quvvatlari quyidagi ifodalar bo'yicha aniqlanadi:

$$P = \sum k_t P_{o,r}, \quad Q = \sum P_{o,r} \operatorname{tg}\phi. \quad (11.8)$$

bunda $P_{o,r}$ – o'rnatilgan quvvat, kVt , $\operatorname{tg}\varphi$ – reaktiv quvvatning koeffitsienti, k_t – iste'molchilarning ish rejimiga, quvvatiga va guruhdagi soniga bog'liq bo'lgan talab koeffitsienti.

Masalalar

11.10. Iste'molchining quvvat koeffitsienti $\cos\varphi_1 = 0,75$ bo'lganda liniyadagi quvvat isrofi iste'molchi quvvatining 8%ini tashkil etadi. Liniyadagi quvvat isrofini saqlagan holda quvvat koeffitsientini $\cos\varphi_2 = 0,95$ gacha ko'tarilsa, tarmoqning aktiv quvvatini qanchaga oshirish mumkin?

Yechish. Liniyadagi quvvat isrofi $\Delta P = 2 RI^2$ ifoda bo'yicha aniqlanadi. Agar shu isrof saqlanib qolsa, liniyadagi toklar qiymati ham o'zgarmaydi, ya'ni:

$$I = P_1/U \cos\varphi_1 \text{ va } I = P_2/U \cos\varphi_2,$$

bunda P_1 va P_2 mos ravishda $\cos\varphi_1 = 0,75$ va $\cos\varphi_2 = 0,95$ dagi quvvatlar. Binobarin $P_2 = P_1 \cos\varphi_2 / \cos\varphi_1 = 1,27$, P_1 ya'ni quvvatni 27% ga oshirish mumkin. Bunda liniyadagi tok kamayadi:

$$I_2 = I_1 \cos\varphi_1 / \cos\varphi_2 = 0,79 I_1.$$

Quvvat isrofi tokning kvadratiga proporsional, ya'ni $\Delta P_2 / \Delta P_1 = 0,623$, $\Delta P_2 = 5\%$ va $1 : 0,623 = 1,6$. Shunday qilib, quvvat isrofi 1,6 marta kamayadi.

11.11. Sex elektr tarmog'iga $P_{1as,nom} = 30 \text{ kVt}$, $\eta_{nom} = 0,9$, $\cos\varphi_{nom} = 0,87$ bo'lgan 10 ta asinxron motor va o'ta qo'zg'atilgan sinxron motor ($P_{2sin,nom} = 220 \text{ kVt}$, $\eta_{nom} = 0,9$, $\cos\varphi_{nom} = 0,85$) ulangan. Sex tarmog'i qanday quvvat koeffitsienti $\cos\varphi$ bilan ishlaydi?

Yechish. Asinxron motorlar reaktiv quvvatni iste'mol qiladi, o'ta qo'zg'atilgan sinxron motor esa reaktiv quvvatni ishlab chiqaradi.

Foydali ish koeffitsientlarini hisobga olgan holda motorlarning umumiy aktiv quvvati:

$$\begin{aligned} P_{um} &= \frac{P_{1as,nom} n}{\eta_{nom}} + \frac{P_{2sin,nom}}{\eta_{nom}} = P_{1as,nom} + P_{2sin,nom} = \\ &= \frac{30 \cdot 10}{0,9} + \frac{220}{0,9} = 333 + 244 = 577 \text{ kVt}. \end{aligned}$$

Motorlarning umumiy reaktiv quvvati $Q = Q_1 - Q_2 = P'_{1as,nom} \operatorname{tg}\varphi_1 - P'_{2sin,nom} \operatorname{tg}\varphi_2 = 333 \cdot 0,55 - 244 \cdot 0,62 = 32 \text{ kvar}$.

Quvvatdan foydalanish koeffitsienti $\operatorname{tg}\varphi = Q/P_{um} = 32/577 = 0,055$ va quvvat koeffitsienti $\cos\varphi \approx 1$.

Shunday qilib, o'ta qo'zg'atilgan sinxron motorni asinxron motorlar bilan birga ulab ishlatalish yuklama va umuman elektr tarmog'inining quvvat koeffitsientini oshiradi.

Masalalar

11.12. Kuchlanishi 220 V li o'zgarmas tok elektr tarmog'iga ulangan elektr motor 15 minut davomida 10 A tok olgan. Motoring qabul qilgan energiyasi aniqlansin.

11.13. Quvvati 2,4 MVt va $\cos\phi = 0,75$ bo'lgan sanoat korxonasi uzunligi 4 km li uch fazali liniya orqali transformatsiya koeffitsienti $k = 3$ bo'lgan transformator podstansiyasiga ulangan. Agar quvvat koeffitsienti $\cos\phi = -0,92$ gacha ko'tarilsa, liniyaning o'tkazish qobiliyati qanchaga ortadi?

11.14. Uzunligi 4,5 km, qarshiligi $R_0 = 0,45 \text{ Om/km}$ va toki $I_{\text{nom}} = 95 \text{ A}$ uch fazali kabel liniya kuchlanishi 10 kV li manbaga ulangan. Agar shu liniya $t = 3300$ soat ishlagan bo'lsa, kabelda shu vaqt davomidagi energiya isrofi topilsin. $7800 \cdot 10^3 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$ elektr energiyani uzatishda liniyadagi isrof necha foizni tashkil etadi?


11.15. Elektr uzatish liniyasining kuchlanishi 6 kV dan 10 kV ga o'tkazilganda uning o'tkazish qobiliyati qanchaga oshadi? Yuklamaning quvvati va o'tkazigichlarning ko'ndalang kesim yuzi o'zgarmaydi deb qabul qiling.

11.16. Chorvoq GES idagi elektr generatorlarning umumiy quvvati 620,5 MVt. Agar 1 kVt · soat elektr energiya tannarxi 3,5 so'm bo'lsa, o'n oy davomida gidroelektrostansiya necha so'mlik ish bajaradi?


11.17. 11.3-rasmida elektr uskunaning korpusida 36 V dan katta kuchlanish paydo bo'lгanda ishlaydigan himoyalash ajratgichining sxemasi keltirilgan. Elektr motor kuchlanishi 380 V li manbaga ulangan. Agar yerga ulash qarshiligi $R_{\text{chiq}} = 500 \text{ Om}$ bo'lsa, KV1 va KV2 retelelarni ishslash toki qanday bo'lishi kerak?

11.18. Liniya kuchlanishi 220 V, izolyatisiyasining qarshiligi $R_1 = 80 \text{ kOm}$ bo'lgan o'tkazgichga elektr montyor tegib ketganda (11.4-rasm) (tana qarshiligini $R_3 = 1 \text{ kOm}$ deb qabul qiling) undan qanday tok o'tadi?

11.19. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qanday turdag'i elektr stansiyalar ekologik jihatdan sof hisoblanadi?



11.3-rasm



11.4-rasm

11.3. ELEKTR ISITISH QURILMALARI. ELEKTR PAYVANDLASH

Bevosita isitish uchun xromnikel va xromalumin qotishmalaridan tayyorlangan simlar va lentalar qo'llaniladi.

Isitgichni hisoblash – berilgan quvvat P , kuchlanish U va rusat etilgan solishtirma sirt quvvati W bo'yicha ularning uzunligi va ko'ndalang kesimi yuzini aniqlashdan iborat.

Simli isitgich uchun sim diametri d va uzunligi l quyidagi formulalar dan aniqlanadi:

$$d = \sqrt[3]{\frac{4P_{\text{nom}}^2 \rho}{\pi U^2 W_p}}; \quad l = \frac{\pi U^2 d^2}{4P_{\text{nom}} \rho} \quad (11.9)$$

lentasimon isitgichning qalinligi a va uzunligi l quyidagi formuladan topiladi:

$$\alpha = \sqrt[3]{\frac{P_{\text{nom}}^2 \rho}{2m(m+1)U^2 W_p}}; \quad l = \frac{U^2 m d}{P_{\text{nom}} \rho}. \quad (11.10)$$

Keltirilgan formulalarda P_{nom} – isitgichning nominal quvvati, Vt ; U – tarmoq kuchlanishi, V ; ρ – sim yoki lentaning solishtirma qarshiligi, $\text{Om} \cdot \text{m}$ ($\text{Om} \cdot \text{mm}^2/\text{m}$); W – yuzanining solishtirma quvvati, Vt/m^2 ; $m = \frac{b}{a}$; bunda lentaning eni b va qalinligi a ; d – simning diametri, m .

Induksion qo'ra induktori to'g'ridan-to'g'ri o'zgaruvchan tok tarmoqiga yoki yuqori chastotali manbaga ulanishi mumkin. Chastota qizitiladigan material va qo'raning sig'imi bilan aniqlanadi:

$$f = \frac{25 \cdot 10^6 \rho}{\mu_r \mu_0 D^2}, \quad (11.11)$$

bunda ρ , μ_r – metallning nisbiy qarshiligi va nisbiy singdiruvchanligi; μ_0 – magnit doimiysi; D – qo'ra silindrsimon tigelining diametri.

Induksion qo'raning assosiy kamchiligi – uning quvvat koefitsientini kichik bo'lishidir. Quvvat koefitsientini oshirish uchun qo'raning induktoriga kompensatsion kondensator batareyasi parallel ulanadi.

Payvandlash generatorlari va transformatorlarining samaradorligi unumdonlik koefitsienti k_{un} bilan tavsiflanadi:

$$k_{\text{un}} = t_{\text{pay}} / (t_{\text{pay}} + t_{\text{op}}). \quad (11.12)$$

Bunda t_{pay} va t_{op} – payvandlash operatsiyasi va operatsiyalar orasidagi vaqt davomiyligi.

k_{un} ni hisobga olganda payvandlash apparatlarining maksimal toki:

$$I_{\text{max}} = I_{\text{nom}} \sqrt{k_{\text{un}}}, \quad (11.13)$$

bunda I_{nom} — generator yoki transformatorning davomli yuklanishdagi nominal toki.

Yarim o'tkazgichli asboblarni va mikrosxemalarni payvandlash uchun elektron-nur va lazer qizitish qurilmalari qo'llaniladi.

Masalalar

11.20. Elektr qaynatgich (kipyatilnik) 20 l suvni isitish uchun qo'llanilgan. Agar idishdagi suv 10 minutda qaynasa va uning FIK $\eta = 70\%$ bo'ssa, qaynatgich toki va quvvati aniqlansin. Tarmoq kuchlanishi 220 V, suvning boshlang'ich harorati $T_1 = 20^\circ\text{C}$.

Yechish. Suvning qaynashi uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdori

$$Q = sm(t_2 - t_1) = 4,19 \cdot 20 \cdot 80 = 6700 \text{ kJ},$$

bunda $s = 4,19 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$ suvning solishtirma issiqlik sig'imi, m — suv massasi, kg.

Qaynatgichning quvvati $P = W/(t\eta)$ yoki berilganlarni qo'yib, $P = 6,7 \text{ MJ}/(600 \cdot 0,7) = 16 \text{ kW}$ topiladi.

$$\text{Qaynatgich toki } I = \frac{P}{U} = \frac{16 \cdot 10^3}{220} = 72,5 \text{ A}.$$

11.21. O'zgarmas tok generatoridan ta'minlanadigan payvandlash apparatining $U = 25 \text{ V}$ kuchlanishdagi yoy quvvati topilsin. Generator vali 1450 ayl/min chastota bilan aylanadi, yakor zanjirining qarshiligi $R_{ya} = 0,03 \text{ Om}$, ketma-ket ulangan qo'zg'atish chulg'ami qarshiligi $R_{qo'z} = 0,05 \text{ Om}$. Bir qutbning magnit oqimi $\Phi = 3 \cdot 10^{-3} \text{ Vs}$, o'zgarmas koefitsient $C_E = 8,5$.

Yechish. O'zgarmas tok generatorining EYuKi:

$$E = C_E n \Phi = 8,5 \cdot 1450 \cdot 3 \cdot 10^{-3} = 37 \text{ V}.$$


11.5-rasmida keltirilgan elektr zanjir uchun kuchlanish:

$$U = I_{ya} R_{yuk} = \frac{ER_{yuk}}{R_{ya} + R_{yuk} + R_{qo'z}},$$

bundan $R_{yuk} = (R_{ya} + R_{qo'z}) U / (E - U) = 0,08 \cdot 25 / 12 = 0,167 \text{ Om}$.

Yoy paydo bo'ladigan tok, $I = U/R_{yuk} = 25 / 0,167 = 150 \text{ A}$. Yoy quvvati $P = UI = 25 \cdot 150 = 3,75 \text{ kW}$.

11.22. Elektr qo'raning nixrom simdan yasalgan isitgichi diametri va uzunligi aniqlansin. Isitgichning quvvati $P_{\text{nom}} = 22 \text{ kW}$, kuchlanish $U_{\text{nom}} = 220 \text{ V}$, solishtirma yuza quvvati $W = 2,2 \cdot 10^4 \text{ Vt/m}^2$, solishtirma qarshilik $\rho = 1,2 \cdot 10^{-6} \text{ Om} \cdot \text{m}$.



11.5-rasm

11.23. Elektr qo‘ra uchun nixrom lentadan yasalgan isitgichning o‘lchamlari aniqlansin. Isitgichning quvvati $P_{\text{nom}} = 22 \text{ kVt}$, kuchlanish $U_{\text{nom}} = 220 \text{ V}$; solishtirma yuza quvvati $W = 1,5 \cdot 10^4 \text{ Vt/m}^2$, solishtirma qarshilik $\rho = 1,2 \cdot 10^{-6} \text{ Om} \cdot \text{m}$. Lentaning eni $b = 10 \text{ a}$, bunda a – lenta qaliligi.

11.24. FIK 40% bo‘lgan elektr isituvchi qo‘ra massasi 15 kg bo‘lgan latun qotishmani 100°C gacha isitish uchun 15 minut davomida manbaga ulangan. Agar tarmoq kuchlanishi 220 V bo‘lsa, pechning toki va quvvati aniqlansin.

11.25. Induksion qo‘ra liniya kuchlanishi 380 V bo‘lgan uch fazali elektr tarmog‘iga ulangan bo‘lib, uning quvvati $50 \text{ kV} \cdot \text{A}$, quvvat koefitsienti esa $\cos\varphi = 0,08$. Quvvat koefitsientini $\cos\varphi = 0,95$ gacha oshirish uchun ulanadigan kondensatorning sig‘imi va reaktiv quvvati aniqlansin. Yuklamaning faza chulg‘amlari va kondensator batareyalari manbaga yulduz usulda ulangan.

11.26. Nima uchun elektr isitgich asboblarida ishlatilgan fexral va xromel qotishmalardan yasalgan spirallar sovuq holatda ta’mirlanganda deformatsiya qilinishi mumkin emas?

11.27. Agar elektropayalnik 220 V kuchlanishga ulanganda nominal quvvati 150 Vt bo‘lsa, spiralning maksimal qarshiligi va toki aniqlansin. Payalnik bir soat ichida qancha issiqlik ajratadi?


11.4. ELEKTR YORITISH

Yoritish manbalari sifatida issiqlik va gazorazryad lampalardan foydalaniлади. Issiqlik lampalariga *cho‘g‘lanma lampalar*, *grafit yoyli* va *infragizil yoritgichlar* kiradi. *Gazorazryad yoritgichlarga yoy razryadli* va *lyuminessent lampalar* kiradi.

Cho‘g‘lanma lampalar bevosita elektr tarmog‘iga ulanadi (11.6- a rasm). Gazorazryad lampalar *cho‘g‘lanma lampalarga qaraganda qator afzallik-larga ega* va shu sababli ularni ishlab chiqarish hamda qo‘llash ko‘payib bormoqda.

Gazorazryad lampalarni yondirish kuchlanishi ishchi kuchlanishdan katta bo‘lgani uchun ular tarmoqqa maxsus moslama orqali ulanadi (11.6-b rasm).

Yoritish manbalarini asosiy parametrlariga nominal kuchlanish va quvvat, yoritish kuchi, *yoritilganlik* va *yoritish ogimi* kiradi. Ular o‘zaro quyidagicha bog‘langan:



11.6-rasm

$$E = \Phi/S; \quad \Phi = I_\alpha \alpha_E, \quad (11.14)$$

bunda E – yoritilganlik, lk (lyuks); Φ – yoritish oqimi, lm (lyumen), I_α – yoritish kuchi, kd (kandela); S – sirt yuzi, m^2 ; α_E – fazoviy burchak (steradian). Yorug'likni sferik tarqalishida $\alpha_E = 4\pi$. Bitta yoritish manbai-dan hosil bo'ladigan sirt yoritilganligi:

$$E = I_\alpha \cos^3 \alpha / h^2 k_{zax}. \quad (11.15)$$

Bunda h – yoritilayotgan yuzadan yoritish lampasigacha bo'lgan balandlik; α – yoritish nurining tushish burchagi; k_{zax} – zaxira koefitsienti.

Hisoblashlarda lampalar soni ish joyining har bir lampadan yoritilganligi bo'yicha aniqlanadi, ya'ni

$$E = \sum_{i=1}^n E_i / n.$$

Xonaning o'lchamlari, lampalarning quvvati va yoritish solishtirma quvvati berilgan bo'lsa, lampalarning soni quyidagi formuladan topiladi:

$$n = \frac{WS}{P_{lin}}, \quad (11.16)$$

bunda S – xona yuzi, m^2 ; W – yoritilganlikning sohshtirma quvvati, Vt/m^2 ; P_{lin} – bir lampaning quvvati. Yoritilganlikning solishtirma quvvati W – xona yoritilganligiga, uning o'lchamlariga va yoritgichning texnik xarakteristikalariga bog'liq bo'lib, ular ma'lumotnomalarda keltiriladi.


Masalalar

11.28. Xonada lampalarni joylashtirish sxemasi 11.7-rasmida keltirilgan. Lampalar orasidagi masofa $a = 2$ m; $b = 4$ m. Agar 2-, 3-, 5-, 6-lampalarning yorug'lik kuchi 1500 kd; 1-, 4-, 8-, 9-lampalarniki 1000 kd; 7-lampaniki – 500 kd va yoritilayotgan yuzaga nisbatan lampalar $h = 2$ m balandlikka o'rnatilgan bo'lsa, A nuqtadagi o'rtacha yoritilganlik aniqlansin.

Zaxira koefitsienti $k_{zax} = 1,3$ deb olinsin.

Yechish. Har bir lampadan hosil bo'lgan yoritilganlik (11.15) formula bo'yicha aniqlanadi.

$E_1 = 0,2 I_\alpha \cos^3 \alpha$ lk. Rasmida keltirilgan A nuqta 2-, 3-, 5- va 6-yoritgichlardan bir xil masofada joylashgan $l_{1A} = \sqrt{1^2 + 2^2} = 2,24$ m. Binobarin, $\operatorname{tg} \alpha = l_{1A}/h = 1,12$ va $\cos \alpha = 0,667$. Qayd etilgan lampalardan hosil bo'lgan yoritilganlik $E_2 = E_3 = E_5 = E_6 = 0,2 \cdot 1500 \cos^3 \alpha = 85,5$ lk. Xuddi shunday tartibda A nuqtadan 1-va 4-lampalargacha bo'lgan masofa aniqlanadi:



11.7-rasm

$l_{2A} = \sqrt{3^2 + 2^2} = 3,6$ m. Bu holda $\operatorname{tg}\alpha = l_{2A}/h = 1,8$ va $\cos\alpha = 0,485$. Yoritilganlik $E_1 = E_4 = 0,2 \cdot 1000 \cdot \cos^3\alpha = 23$ lk.

Anuqtadan 8- va 9-lampalargacha bo'lgan masofa $l_{3A} = \sqrt{1^2 + 6^2} = 5,1$ m, $\operatorname{tg}\alpha = 2,55$. Bu lampalar uchun $E_8 = E_9 = 0,2 \cdot 1000 \cdot \cos^3\alpha = 10$ lk. Yettinchi lampa uchun $l_{7A} = \sqrt{3^2 + 6^2} = 6,71$ m; $\operatorname{tg}\alpha = 3,36$ va $E_7 = 0,2 \cdot 500 \cdot \cos^3\alpha = 2,5$ lk.

Umumiy yoritilganlik $E = (4 \cdot 85,5 + 2 \cdot 23 + 2 \cdot 10 + 2,5)/9 = 45,6$ lk.

11.29. Quvvati 60 Vt li cho'g'lanma lampaning nur berish qobiliyati 10 lm/Vt. Lampaning nurlanish oqimini aniqlang. Agar stolga lampa nurlanish oqimining 33% i tushisa, $0,25 \text{ m}^2$ yuzining yoritilganligi topilsin.

11.30. Yuzi $S = 6 \times 12 \text{ m}^2$ xonani yoritish uchun lyuminessent yoritgichlar sonini toping. Har bir yoritgichda ikkitadan quvvati $P_1 = 40$ Vt bo'lgan lampalar o'rnatilgan. Xona uchun yoritish solishtirma quvvati $W = 6,5 \text{ Vt/m}^2$.

11.31. Yuzi $S = 6 \times 6 \text{ m}^2$ bo'lgan xonani yoritish uchun to'rtta bir lampali yoritgichlar o'rnatish mo'ljallangan. Agar shu xonaning norma bo'yicha yoritish solishtirma quvvati 16 Vt/m^2 bo'lsa, har bir lampaning quvvati hisoblansin.


11.32. Yuzi $0,5 \text{ m}^2$ bo'lgan ish joyini yoritilganligi norma bo'yicha $E = 300$ lk bo'lishi kerak. Agar yoritgichning 40% yoritish oqimi ish joyi yuziga tushsa va uning FIK 50% bo'lsa, minimal yoritish oqimini toping.

11.33. Yoritish tarmog'ining uchta shoxobchasi har birining quvvati 60 Vt li 15 ta lampadan iborat bo'lib, liniya kuchlanishi 380 V li sanoat tarmog'iga yulduz usulda ulangan. Agar bir sutkada o'rta hisobda lampalar 5 soat yoqilsa, bir oyda sarf bo'ladigan energiya miqdori topilsin. 1 kVt · soat energiyaning narxi 15 so'm bo'lsa, har oyda elektr energiya uchun qancha pul to'lanadi?

11.34. Elektr lyustra beshta lampadan iborat. Ikkita, uchta va beshta lampani ajratgich yordamida alohida ulanishi prinsipial elektr sxemasini chizing.

11.35. Nima sababdan cho'g'lanma lampalarda ko'p o'ramli spiral qo'llaniladi? Spirallarni volframdan va ushlagichlarni molibdenden yasalishi sababi qanday tushuntiriladi?

11.36. Indikator sifatida qo'llaniladigan tiratron kuchlanishi 220 V li manbaga ulangan. Anod toki 0,1 A va tiratronni barqaror yonishi uchun zarur kuchlanish 50 V bo'lsa, yuklamaga ulanadigan qo'shimcha rezistor qarshiligi qancha bo'lishi kerak?



12-BOB Elektron asboblar va qurilmalar

12.1. ELEKTRON ASBOBLARNING PARAMETRLARI VA XARAKTERISTIKALARI

Eng keng tarqalgan elektr vakuum asbob – *elektron-nur trubkasining* (12.1-rasm) nur dastasi siljishining va og‘ishining sezgirligi trubkaning parametrlari bilan quyidagicha bog‘langan:


$$S_e = h/U_e = IL/2dU, \quad (12.1)$$

bunda h – trubka ekranida elektron dastasining siljishi; l – siljitish sistemasining uzunligi; L – uning markazidan ekrangacha bo‘lgan masofasi; d – plastinalar orasidagi masofa; U – trubkaning anod kuchlanishi.

Diod – bitta p-n o ‘tishli yarim o ‘tkazich asbob bo‘lib, uning qarshiligi berilayotgan kuchlanishning qutbiga nisbatan keskin o‘zgaradi. (12.2-a, b, d rasm).


Ikkita p-n o ‘tishli asboblar tranzistorlar deyiladi. Ko‘p hollarda *umumiylitterli sxema* (12.3-a rasm) yoki *umumiylitter bazali* (12.3-b rasm) sxemada ulanadigan *bipolar tranzistorlardan* foydalilanildi.

Kollektor toki I_k ning *boshqaruvchi baza* I_b yoki *emitter* toki I_e ga bog‘liqligi mos ravishda quyidagi ifodalardan aniqlanadi:



12.1-rasm

1 – shisha balloon; 2 – elektron projektor (pushka); 3 – elektron dastani boshqarish bloki; 4 – magnit sistema; 5 – maxsus qoplama; 6 – ekran



12.2-rasm

$$I_k = \beta(I_b + I_{k0}) \quad I_k = 2I_e + I_{k0}, \quad (12.2)$$

bunda $\beta = h_{21e}$ va $\alpha = h_{21b}$ – tok uzatish koeffitsientlari; I_{k0} – baza kollektor $p-n$ o‘tishining teskari toki, bunda $I_e = 0$.

Umumiy emitterli va umumiy bazali sxemalarning *uzatish koeffitsientlari* orasida quyidagi o‘zaro bog‘lanish mavjud:


$$\alpha = \beta / (1 + \beta). \quad (12.3)$$

Kalit rejimlari esa ikki holat – ochiq (to‘yinish) va berk (uzilish) rejimida bo‘ladi. Bu rejim *umumiy emitterli* sxema uchun quyidagi shartlarda bajariladi:


$$U_{\text{kir}} \leq R_b I_{k0}; \quad R_b \leq \beta R_k, \quad (12.4)$$

bunda R_b va R_k – baza va kollektor zanjirlarining qarshiligi.

Bi polyar tranzistorlardan tashqari chastotaviy, kuchaytirish va boshqa xossalari yaxshilangan maxsus turdag'i tranzistorlardan foydalaniadi. Ularga maydon (12.4-a rasm), *bir o‘tishli* (12.4-b rasm) va *zatvori izolyatsiyalangan* (12.4-d rasm) tranzistorlar kiradi.




12.3-rasm



12.4-rasm

Impulsli elektron qurilmalarda va quvvat zanjirlarining kontaktsiz kommutatorlarida to‘rtta p-n o‘tishli yarim o‘tkazgichli asboblar – tiristorlar (12.5-rasm) qo‘llaniladi. Bunday asboblarda yopiq holatdan ochiq holatga o‘tuvchi yoki aksincha, anod va katoddan tashqari boshqaruvchi elektrod mavjud. Alovida chiqarilgan boshqaruvchi elektrodsiz tiristor *dinistor* deb ataladi.



12.5-rasm


Yarim o‘tkazgichli asboblar ma’lum konstruktiv tuzilishda p-n o‘tishga yorug‘lik tushganda o‘z xarakteristikalarini o‘zgartiradilar (12.6-rasm). Bunday asboblar *fotoelementlar* deyiladi va volt-amper xarakteristikadan tashqari yorug‘lik va spektral xarakteristikaga ega. *Fotoelementning yorug‘lik xarakteristikasi deb, o‘zgarmas kuchlanishda asbob tokining yorug‘lik oqimiga bog‘lanishiga aytiladi.* Bu egri chiziq urinmasining og‘ishi *fotosezgirlik* deyiladi.

$$S_f = \Delta I_f / \Delta \Phi \quad (12.5)$$



bunda ΔI_f – yorug‘lik oqimining o‘zgarishi $\Delta \Phi$ ga mos bo‘lgan *fotoelement tokining o‘zgarishi*.

Spektral xarakteristika – bu, asbob tokini tushayotgan yorug‘lik to‘lqiniga, ya‘ni nurlanish spektriga bog‘liqligidir.

Svetodiод (yorug‘lik diodi) va fotodiодларни битта корпусга joylashtirib *optron* asbob hosil qilinadi. Bunda svetodiоднинг kirish tokini fotodiод chiqish tokiga aylantirish mumkin. Optronlarda kirish va chiqish zanjirlari elektr jihatdan bir-biridan to‘la ajratiladi. Optoelektronikada *fotodiодлар*, *fototranzistorлар* va *fototiristorлар* qo‘llaniladi (12.6-a, b rasm; 12.7-rasm).



12.6-rasm



12.7-rasm

Masalalar

12.1. Elektron-nur trubkaning vertikal og'ish plastinalariga berilayotgan kuchlanishni 5 V ga oshirilganda, nur doiraviy ekranning 2/3 radiusigacha og'adi, kuchlanish 3 V ga oshirilganda esa 1/2 radiusgacha og'adi. Agar ekranning diametri 130 mm bo'lsa, trubkaning kuchlanishi va sezgirligi qancha?

Yechish. 12.1 ifodaga asosan berilgan rejimlar uchun kuchlanishga tegishli ikkita tenglama tuzish mumkin.

$$(U + 5)S_e = \frac{2}{3}R \text{ va } (U + 3)S_e = \frac{R}{2},$$

bunda R – ekran radiusi.

Birinchi tenglamani ikkinchisiga bo'lib, quyidagi ifodani hosil qilamiz:


$$\frac{U+5}{U+3} = \frac{4}{3} \text{ yoki } 3U + 15 = 4U + 12, \text{ bundan kuchlanish } U = 3 \text{ V bo'ladi.}$$

Sezgirlikni dastlabki tenglamalardan aniqlash mumkin:

$$S_e = (U + 3) \cdot 2/R = (U + 3) \cdot 4n/D = 6 \cdot 4/130 = 0,185 \text{ V/mm.}$$

12.2. Volt-amper xarakteristikalari 12.8-rasmida keltirilgan yarim o'tkazgichli diod qarshiligi $R_{yuk} = 100 \text{ Om}$ li rezistor orqali o'zgaruvchan kuchlanishi $U = 3,5 \text{ V}$ li manbaga ulangan. Tokning to'g'ri va teskari yo'nalishlarida yuklamadagi kuchlanish amplitudalari nisbati aniqlansin.

Yechish. Diodli zanjir kirishida-
gi kuchlanishning amplitudasi
 $U_{max} = \sqrt{2} \cdot 3,5 = 5 \text{ V}$. Sinusoidal
kuchlanishning musbat yarim dav-
ridda yuklamadagi kuchlanishni topish
uchun VAX ning yarmida yuklama
to'g'ri chizig'ini quramiz. Tok o'qida
 $I = U_{max}/R_{yuk} = 5/100 = 50 \text{ mA}$
tokni belgilaymiz va undan boshlab
qiyaligi 1 V ga 10 mA bo'lgan yukla-
ma to'g'ri chizig'ini o'tkazamiz
(12.8-rasm). Bu yuklama chizig'i VAX
ni 1-nuqtada kesib o'tadi. Shunday



12.8-rasm

qilib, diodli zanjirdagi to‘g‘ri tok qiymati 45 mA ga teng va yuklama kuchlanishi $U_{yuk} = 4,5$ V. Manba kuchlanishining o‘ziga teskari yarim davrida yuklama qarshiligi diod qarshiligidan ancha kam va natijada teskari tok diodning 5 V li kuchlanishga to‘g‘ri keladigan teskari tokiga teng bo‘ladi, ya’ni $I_{tes} = 2$ mKA va yuklama kuchlanishi $U_{yuk} = 0,2$ mV ga teng. Demak, diodning to‘g‘ri va teskari yo‘nalishlari uchun yuklama kuchlanishlarining nisbati:

$$n = \frac{4,5}{0,2 \cdot 10^{-3}} = 22500.$$

12.3. Tranzistorning uzatish koeffitsienti $\beta = 50$, kollektor-baza o‘tishning teskari toki $I_{k0} = 10$ mKA . Agar umumiyl baza va umumiyl emitterli sxemalar ulanishida kollektor toki bir xil va boshqarish toklari $I_e = 55I_b$ bo‘lsa, I_k, I_e, I_b toklar aniqlansin. Baza toki 50 mKA ga o‘zgarса, tranzistor umumiyl emitterli sxemada ulanganda emitter toki qanday o‘zgaradi?

Yechish. Umumiyl emitterli va umumiyl bazali sxemalardagi toklar 12.2 formula bilan ifodalanadi. Masala shartiga ko‘ra quyidagilarni yozishimiz mumkin: $I_k = 50(I_b + 10)$; $I_k = 0,98 \cdot 55I_b + 10$ yoki $I_b = 50I_b + 500$ va $I_k = 54I_b + 10$.

Bu tenglamani baza tokiga nisbatan yechib, $4I_b = 490$ mKA yoki $I_b = 0,122$ mA ni topamiz. Umumiyl bazali sxemada emitter toki $I_e = 55I_b = 6,7$ mA. Kollektor tokini birinchi yoki ikkinchi tenglamalar bo‘yicha topish mumkin, ya’ni $I_k = 50 \cdot 0,122 + 0,5 = 6,6$ mA. Bazaning boshqaruvchi toki $\Delta I_b = 50$ mKA ga o‘zgarganda kollektor toki $\Delta I_k = \Delta I_b \beta = 2,5$ mA va emitter toki o‘zgarishi shu toklarning yig‘indisiga teng, ya’ni $\Delta I_e = 2,55$ mA .

12.4. Elektron-nur trubkaning gorizontal va vertikal plastinalariga o‘zgarmas 5 V kuchlanish berilgan. Agar plastinalarning sezgirligi mos ravishda 3 va 5 mm/V bo‘lsa, ekran markazidan yoritilgan nuqtagacha bo‘lgan masofa aniqlansin.

12.5. Elektron-nur trubkaning vertikal og‘ishi plastinalariga ta’sir etuvchi qiymati 15 V o‘zgaruvchan kuchlanish berilgan. Nurni xuddi shunday og‘ishi uchun qanday o‘zgarmas kuchlanish berish kerak? Agar gorizontal va vertikal plastinalarga bitta elektr signal berilsa, ekranda yoritilgan chiziq og‘ishi qanday bo‘ladi?

12.6. Elektron-nur trubkaning ekranida: a) aylana; b) ellips; d) sinusoida hosil qilish uchun og‘uvchi plastinalariga qanday shakldagi signal berish kerak?

12.7. Yarim o‘tkazgichli diod va tranzistorni volt-amper xarakteristikini ossillograf ekranida kuzatish prinsipial elektr sxemasini tuzing.

12.8. Qarshiligi $R_{yuk} = 10$ MΩ rezistor orqali teskari ulangan dioddagi kuchlanish aniqlansin. Zanjirdagi tok 1 mKA, manbaning kuchlanishi 110 V.

12.9. Kuchlanishi 5 V li manbaga to‘g‘ri yo‘nalishda ulangan dioddagi kuchlanish pasayishi 0,6 V va o‘tayotgan tok 110 mA dan oshmasligi uchun zanjirdagi yuklama qarshiligi qanday bo‘lishi kerak (12.2-rasm).

12.10. Qarshiligi $R_{yuk} = 50$ Om bo‘lgan yuklama to‘g‘ri yo‘nalishda ulangan va volt-amper xarakteristikasi 12.2-b rasmida keltirilgan diod orqali kuchlanishi 1,5 V li manbaga ulangan. Zanjirdagi tok aniqlansin.

12.11. Kuchlanishi 100 V li manbaga volt-amper xarakteristikating teskari qismi 12.2-d rasmida keltirilgan dioddagi kuchlanish aniqlansin. Yuklama qarshiligi $R_{yuk} = 5$ M Ω .

12.12. Bir turdag'i uchta diod to‘g‘ri yo‘nalishda parallel ulangan. Har biridagi kuchlanish pasayishi 1,5 V va diodlarning shu kuchlanishdagi qarshiligi 1,8; 2,5; 2,2 Om. Zanjirdagi umumiy tok va har bir dioddagi tok aniqlansin.

12.13. Bir nechta diod elektr zanjirlarda: a) zanjirdagi tok har bir dioddan o‘tadigan tokdan katta bo‘lishi uchun; b) zanjirdagi kuchlanish har bir diodning teskari kuchlanishidan katta bo‘lishi uchun qanday ulanishi kerak?

12.14. Agar baza toki $I_b = 50$ m kA , kollektoring teskari toki 10 m kA va kollektor toki 3,6 mA bo‘lsa, umumiy emitterli sxema bo‘yicha ulangan tranzistorning uzatish koeffitsienti β nechaga teng?

12.15. Umumiy bazali sxema bo‘yicha ulangan tranzistorning uzatish koeffitsienti α aniqlansin. Agar $I_e = 5$ mA, $I_{k0} = 20$ m kA bo‘lganda kollektor toki $I_k = 4,9$ mA ga teng bo‘lsa, shu tranzistor umumiy emitterli sxema bo‘yicha ulanganda uzatish koeffitsienti qancha bo‘ladi?

12.16. Umumiy bazali sxema bo‘yicha ulangan tranzistorning kollektor toki 50 mA. Agar uzatish koeffitsienti $\alpha = 0,987$; $I_{k0} = 50$ m kA bo‘lsa, emitterning boshqarish toki aniqlansin. $R_e = 100$ Om va $R_k = 500$ Om li rezistorlardagi kuchlanish topilsin.

12.17. Tranzistor umumiy emitterli sxema bilan ulanganda baza toklariga $I_{b1} = 25$ m kA va $I_{b2} = 75$ m kA mos ravishda kollektor toklari $I_{k1} = 1,8$ mA va $I_{k2} = 4,8$ mA ga to‘g‘ri keladi. Teskari tok $I_{k,tesk}$ hamda tranzistorning h_{21e} va h_{21b} uzatish koeffitsientlari aniqlansin.

12.18. Umumiy emitterli sxema bo‘yicha ulangan tranzistorning kuchaytirish koeffitsienti $\beta = 250$. Tranzistorlar partiyasidagi shu koeffitsientning qiymati $\pm 10\%$ ga o‘zgaradi. Tranzistorlarning umumiy bazali sxemasidagi α kuchaytirish koeffitsienti va uni chegaradan chiqishi aniqlansin.

12.19. Yarim o‘tkazgichli diod va tranzistorlarning qaysi turi (germaniylis yoki kremniyli) sanoat elektronikasida ko‘proq qo‘llaniladi? Ularning xarakteristikalarini qiyoslang.

12.20. Tranzistorlarning qanday sxemalarida umumiy baza yoki umumiy emitter usulda ulanganda: a) kirish signali invertorlanadi (shakli teskari bo‘ladi); b) kattaroq kirish qarshilikka ega boladi; d) chastotaviy xarakteristikalarini afzalroq bo‘ladi?

12.21. Tiristorning VAXi 12.5-b rasmida keltirilgan. Manba kuchlanishi $U_{\text{man}} = 200 \text{ V}$ va $R_{\text{yuk}} = 10 \text{ k}\Omega$ bo'lsa, tiristorning qayta ulanishi qanday eng kichik tok impulsida ro'y beradi? Tiristorning ishga tushgandan keyingi toki topilsin.

12.22. Tiristorning qayta ulash kuchlanishi boshqaruvchi tokka teskari proporsional $U_{\text{qay}} = k/I$. Agar tok I ikki baravar oshganda U_{qay} kuchlanishi 50 V ga kamaygan bo'lsa, qayta ulash kuchlanishining va boshqarish tokining dastlabki qiymatlari aniqlansin.

12.23. Qanday aralashmalar (fosfor, aluminiy, mishyak, surma, galliy, bor, kreminiy, uglerod) aralashtirilganda germaniy yarim o'tkazgichga elektron va kovak o'tkazuvchanlik sifatini beradi?

12.24. Nima uchun yarim o'tkazgich asboblarni masalan, tranzistorlarni kavsharlashda ularni pinset yoki ombur bilan qisib turish kerak?

12.25. Fotoelementning foto sezgirligi 10 mA/lm ga, uning 10^{-5} m^2 aktiv yuzidagi yorug'lik 200 lk ga teng. Fotoelementning toki quyidagi shartlarda aniqlansin: a) shartda berilgan parametrlarda; b) aktiv yuzi 2 baravar oshganda; d) yorug'lik 4 marta kamayganda.

12.26. Quyosh batareyasi sifatida ichki qarshiligi $10 \text{ k}\Omega$ va foto EYuK $0,7 \text{ V}$ bo'lган fotodiordan foydalanilyapti. Shu manbara $5 \text{ k}\Omega$ li yuklama ulanganda undan o'tadigan tok topilsin. Yuklama toki $0,1 \text{ mA}$ dan kichik bo'lmasligi uchun nechta fotodiод ulanishi kerak?

12.2. TO'G'RILAGICH QURILMALAR

To'g'rilaqichlar manbaning o'zgaruvchan kuchlanishini yuklamaning o'zgarmas kuchlanishiga aylantiradi. To'g'rilaqich qurilmasiga (12.9-rasm) transformator, yarim o'tkazgichli to'g'rilaqich, silliqlovchi filtr va kuchlanish stabilizatori kiradi. To'g'rilaqichlarda odatda tokni bir tomoniga o'tkazuvchi yarim o'tkazgich dioddardan foydalaniлади. Keng qo'llaniladigan to'g'rilaqich sxemalari 12.10-rasmida keltirilgan, ular *to'g'rilaqish* $k_{\text{to}'g'}$ va *pulsatsiya* k_p , *koeffitsienti* bilan tavsiflanadi.

$$k_{\text{to}'g'} = R_{\text{tes}}/R_{\text{to}'g'}; \quad k_{p0} = U_{\text{lmax}}/U_{\text{to}'g'} \quad (12.6)$$

bunda R_{tes} va $R_{\text{to}'g'}$ – diodning teskari va to'g'ri qarshiligi; U_{lmax} – birinchi garmonikaning amplitudasi; $U_{\text{to}'g'}$ – to'g'rilaqan kuchlanishning o'zgarmas tashkil etuvchisi.

To'g'rilaqich parametrlari 7-ilovada keltirilgan. Chiqishdagi pulsatsiyani kamaytirish maqsadida o'zgarmas tashkil etuvchisiga kichik va yuqori garmonikalarga katta qarshilik ko'rsatadigan silliqlovchi filtrlardan foydalaniлади.

Silliqlovchi filtrlarning asosiy parametri – bu *silliglash koeffitsienti* (k_s). U kirish pulsatsiya koeffitsienti $k_{p,kir}$ ning chiqishdagi pulsatsiya koeffitsienti $k_{p,chiq}$ ga nisbatiga tengdir: $k_s = k_{p,kir}/k_{p,chiq}$. Sxemalari 12.11-

rasmida keltirilgan filtrlar uchun *silliqlash koeffitsienti* quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$k_{sRC} = 2\pi f_p RC; \quad k_{sLR} = \sqrt{1 + (2\pi f_p L / R_{yuk})^2}; \\ k_{SLC} = k_{sRC} \cdot k_{sLR}, \quad (12.7)$$

bunda f_p – filtr kirishidagi pulsatsiyalarning chastotasi, Gs.

Filtrlarning chiqishidagi kuchlanish shakli o‘zgarmas kuchlanishga yaqin.

Stabil kuchlanish olish uchun stabilizatorlar qo‘llaniladi. Stabilizatorlarning sifati *stabilizatsiya koeffitsienti* k_{st} bilan baliolanadi:

$$\frac{\Delta U_{yuk}}{U_{yuk}} = \frac{1}{k_{st}} \cdot \frac{\Delta U_{kir}}{U_{kir}}; \quad k_{st} = \frac{\Delta U_{kir} U_{yuk}}{\Delta U_{yuk} U_{kir}}. \quad (12.8)$$

Parametrik stabilizatorlarda (12.12-a rasm) volt-amper xarakteristikalarida ideal kuchlanish va tok manbalarining VAX siga yaqin bo‘lgan elementlar ishlataladi.

Stabilitron va *baretter* ulangan sxemalar (12.12-a, b rasm) uchun stabilizatsiya koeffitsienti quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$k_{st-U} = \frac{R_{bal} U_{st}}{R_d U_{kir}}; \quad k_{st-I} = \frac{R_d I_{st}}{U_{kir}}, \quad (12.9)$$

bunda $R_d = \Delta U_{st} / \Delta I_{st}$ – dinamik qarshilik.


Tok va kuchlanishi stabilizatsiyalash uchun tranzistorli kompensatsion stabilizatorlar sxemasi qo‘llaniladi.

Masalalar


12.27. 12.10-a, b, d rasmda keltirilgan to‘g‘rilagich sxemalarida agar hamma hollarda $R_{yuk} = 30$ Ohm bo‘lsa, tanlangan diodlarning eng katta teskari kuchlanishi va to‘g‘ri yo‘nalishdagi tok qiymatlari qanday bo‘lishi kerak? To‘g‘rilagich transformatorining transformatsiyalash koeffitsienti $k = 1/5$ bo‘lib, u kuchlanishi $U = 220$ V li sanoat tarmog‘iga ulangan. Agar diodlarning to‘g‘ri va teskari ularshdagi qarshiligi hisobga olinsa, diodlar to‘g‘ri tanlanganmi?

Yechish. 7-ilovadan foydalaniib, diodlarning parametrlarini tanlaymiz. Kirish kuchlanishi $U_{kir} = 220/5 = 44$ V. Yarim davrli to‘g‘rilagich uchun $U_{tes} = 3,14 U_{0to‘g‘} = 1,4 U_{kir} = 62,2$ V. Yuklama tokining doimiy tashkil etuvchisi $I_{0to‘g‘} = U_{0to‘g‘} / R_{yuk} = 0,66$ A, va $I_{max-to‘g‘} = 1,5 I_{0to‘g‘} = 1,03$ A, bunda $U_{0to‘g‘}$ – to‘g‘rilangan kuchlanishning doimiy tashkil etuvchisi. $I_{max to‘g‘} =$ to‘g‘ri yo‘nalishdagi maksimal tok.


To‘g‘rilagichlarning boshqa sxemalari uchun diodlarning eng katta to‘g‘ri toklari bir xil $I_{max to‘g‘} = 0,78 U_{tes} / R_{yuk} = 1,03$ A.




12.9-rasm



12.10-rasm



12.11-rasm



12.12-rasm

Differensial sxemalardagi diodlarning teskari kuchlanishi $U_{\text{tes}} = 3,14 U_{0,\text{to'g'}} = 2,83 U_{\text{kir}} = 124,4 \text{ V}$; ko'priq sxemasida esa 2 baravar kam, ya'ni $U_{\text{tes}} = 62,2 \text{ V}$.

Diodning $R_{\text{to'g'}}$ va R_{tes} qarshiliklarini hisobga olganda uning tok va kuchlanishi kamayadi, binobarin, bu holda ham diod to'g'ri tanlangan.

12.28. Bir yarim davrh to'g'rilagichda diod orqali o'tadigan to'g'rilangan tok $I_0 = 75 \text{ mA}$. Agar transformatorning ikkilamchi chulg'ammlaridagi kuchlanish $U_{2\text{max}} = 200 \text{ V}$ bo'lsa, yuklama qarshiligi aniqlansin.

Yechish. Yuklamada to'g'rilangan kuchlanish $U_0 = U_{2\text{max}}/\pi$. Yuklaming qarshiligi:

$$R_{\text{yuk}} = U_0/I_0 = U_{2\text{max}}/(\pi I_0) = 200/3,14 \cdot 75 \cdot 10^{-3} = 850 \text{ Om.}$$

12.29. Ikki yarim davrli to'g'rilagich transformatorining ikkilamchi chulg'am kuchlanishining amplitudasi $U_{2\text{max}} = 210 \text{ V}$. Agar yuklama qarshiligi $R_{\text{yuk}} = 510 \text{ Om}$ bo'lsa, har bir dioddan o'tadigan tok aniqlansin.

Yechish. To'g'rilangan kuchlanish $U_0 = 2U_{2\text{max}}/\pi$. Dioddan o'tadigan tok $I_0 = U_0/(2R_{\text{yuk}}) = U_{2\text{m}}/(\pi R_{\text{yuk}}) = 210/3,14 \cdot 510 = 131 \text{ mA}$.

12.30. Ikki yarim davrli to'g'rilagich sxemasi yuklamaga silliqlovchi filtr orqali ulangan. Agar transformatorning ikkilamchi chulg'amidagi kuchlanishi $U_{2\text{max}} = 300 \text{ V}$, yuklamadan o'tadigan tok $I_0 = 200 \text{ mA}$, drossel induktivligi $L = 10 \text{ Gn}$, $f = 50 \text{ Gs}$ bo'lsa, silliqlash koeffitsienti aniqlansin.

Yechish. To'g'rilangan kuchlanish:

$$U_0 = 2U_{2\text{max}}/\pi = 2 \cdot 300/3,14 = 191 \text{ V.}$$

$$\text{Yuklamaning qarshiligi } R_{\text{yuk}} = U_0/I_0 = 191/(200 \cdot 10^{-3}) = 955 \text{ Om.}$$

Silliqlash koeffitsienti:

$$k_{\text{sil}} = k_{n,\text{kir}}/k_{n,\text{chiq}} = X_{\text{lf}}/R_{\text{yuk}} = 2\pi fL/R_{\text{yuk}} = 2 \cdot 3,14 \cdot 2 \cdot 50 \cdot 10/955 = 6,6.$$

12.31. Ikki yarim davrli to'g'rilagich chiqishiga ulangan RL -filtrning silliqlash koeffitsienti aniqlansin. Qarshiligi $R_{\text{yuk}} = 15 \text{ Om}$ bo'lgan yuklamadan $1,5 \text{ A}$ tok o'tishi kerak. Drossel chulg'ami $w = 300 \text{ o'ramli}$, $d = 0,6 \text{ mm}$, uzunligi $l = 50 \text{ m}$ li simdan iborat bo'lib, ko'ndalang kesim yuzi $S = 4 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$ va uzunligi $l = 0,1 \text{ m}$ li quyma po'lat magnit o'tkazgichga o'ralgan.

Yechish. Silliqlash koeffitsienti (12.7) formulaga ko'ra:

$$k_{\text{SLR}} = \sqrt{1 + (628L/R_{\text{yuk}})^2}.$$

Drosselning aktiv qarshiligi:

$$R_{\text{dr}} = \rho l/S = \rho 4l/\pi d^2 = 0,0188 \cdot 50 \cdot 4/\pi \cdot 0,36 = 3,3 \text{ Om,}$$

zanjirning aktiv qarshiligi $R = R_{dr} + R_{yuk} = 3,3 + 15 = 18,3$ Om, g'altak induktivligi $L = w^2/R_\mu = w^2\mu_a S/l_{o.r}$. Absolut magnit singdiruvchanlikni 5-ilovadan topamiz. Maydon kuchlanganligi $H = w/l_{o.r} = 300/0,1 = 3000$ A/m, bu holda maydon induksiyasi $B = 1,45$ Tl, chunki $\mu_a = 1,45/3000 = 4,5 \cdot 10^{-4}$ Gn/m. Shunday qilib, $L = 300^2 \cdot 4,5 \cdot 10^{-4} \cdot 4 \cdot 10^{-4}/0,1 = 0,16$ Gn. Hisoblangan R_{yuk} va L larni dastlabki formulaga qo'yib, $k_{sLR} = 5,7$ ni topamiz.

12.32. 12.12-a rasmdagi stabilizatorga ketma-ket ulanadigan ballast qarshilik, stabilizatsiya koefitsienti va stabilizatorning FIK aniqlansin. Stabilitronning differensial qarshiligi $R_d = 12$ Om, uning toki $I_{st} = I_{yuk} = 5$ mA va kuchlanishlar $U_{st} = 10$ V, $U_{kir} = 15$ V.

Yechish. Zanjirning kirish qarshiligi $U_{kir} = U_{chiq} + I_{bal}R_{bal}$ va zanjirning umumiy toki $I_{bal} = I_{st} + I_{yuk}$, chunki, ballast qarshilik $R_{bal} = (U_{kir} + U_{st})/(I_{st} + I_{yuk}) = 5/10^{-2} = 500$ Om.

Stabilizatsiya koefitsientini aniqlaymiz:

$$k_{st} = R_{bal}U_{st}/R_dU_{kir} = 5000/(12 \cdot 15) = 28.$$

Stabilizatorning FIK yuklamadagi quvvatni manbaning quvvatiga nisbati bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$\eta = I_{yuk}U_0/I_{kir}U_{kir} = 50/150 = 0,33.$$

12.33. Ikkilamchi manbalarda to'g'rilash koefitsientlari $k_{to'g'1} = 10^5$ va $k_{to'g'2} = 10^4$ bo'lgan ikkita to'g'rilagich o'rnatilgan. Agar to'g'ri qarshilik 10 Om bo'lsa, to'g'rilagichlarning teskari qarshiliklari hisoblansin. Qaysi to'g'rilagichda FIK kattaroq bo'ladi?

12.34. To'g'rilagichning chiqishidagi kuchlanish birinchi garmonikasining amplitudasi $U_{1max} = 100$ V, o'zgarmas tashkil etuvchisi $U_{0to'g'} = 70$ V bo'lsa, to'g'rilagichning pulsatsiya koefitsienti aniqlansin. Agar o'zgarmas tashkil etuvchisi 2 baravar ko'paysa, pulsatsiya koefitsienti qanday o'zgaradi?

12.35. Ikki yarim davrli to'g'rilagich ish rejimida $U_{0to'g'} = 100$ V va $I_{0to'g'} = 1,5$ A bo'lgan yuklamaning manbai sifatida ishlataligan. To'g'rila-

gichning kirish kuchlanishi va toki aniqlansin.

Ko'rsatma: 7-ilovadan foydalaniladi.

12.36. Ikki yarim davrli to'g'rilagich (12.10-b rasm) ish rejimida $U_{0to'g'} = 100$ V va $I_{0to'g'} = 1$ A bo'lgan yuklamani ta'minlash uchun foydalanilgan. To'g'rilagichning kirish kuchlanishi va toki aniqlansin.

12.37. Ko'prik sxemali ikki yarim davrli to'g'rilagich (12.10-d rasm) ish rejimida $U_{0to'g'} = 36$ V va $I_{0to'g'} = 1$ A bo'lgan yuklamani ta'minlash uchun ishlataligan. To'g'rilagichning kirish kuchlanishi va toki aniqlansin. Kirish kuchlanishining musbat va manfiy yarim davlarida tok qaysi diodlardan o'tishi ko'rsatilsin.

12.38. Agar LC filtrning (12.11-d rasm) parametrlari: $K_{sLC} = 1,5$; $f = 100$ Gs; $R = 1$ kOm va $C = 10$ mkF bo'lsa, uning silliqlash koeffitsienti qancha?

12.39. Bir yarim davrli to'g'rilaqich chiqishiga $R = 1$ kOm bo'lgan RC filtr ulangan. Silliqlash koeffitsienti 5 bo'lishi uchun filtrga qanday sig'imi kondensator ulanishi kerak? Agar filtr kondensatoriga yana bitta sig'imi 100 mkF li kondensator ulansa, silliqlash koeffitsienti qancha bo'ladi?

12.40. Uch fazali ikki yarim davrli to'g'rilaqich chiqishiga ulangan LC filtrning (12.11-d rasm) silliqlash koeffitsienti topilsin. Filtrning parametrlari: $R_L = 4$ Om; $R_{yuk} = 50$ Om; $C = 25$ mkF; $L = 0,1$ Gn; $R = 100$ Om. To'g'rilaqich uch fazali sanoat tarmog'iga qo'shilgan.

12.3. ELEKTRON KUCHAYTIRGICHLAR

Kuchlanish k_u va tok kuchaytirish k_i koeffitsientlari kirish va chiqish signalari orttirmalarining nisbati bo'yicha aniqlanadi.

$k_i = \Delta I_{\text{chiq}} / \Delta I_{\text{kir}}$; $k_u = \Delta U_{\text{chiq}} / \Delta U_{\text{kir}}$. Quvvat bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti esa:

$$k_r = k_u k_i \text{ bo'ladi.} \quad (12.10)$$

Detsibellarda ifodalanganda:

$$k_{\text{dB}} = 20 \lg k_u . \quad (12.11)$$

Ko'p kaskadli kuchaytirgichning kuchaytirish koeffitsienti:

$$k = k_1 k_2 \dots k_n \text{ yoki } k_{\text{dB}} = k_{1\text{dB}} + k_{2\text{dB}} + \dots + k_{n\text{dB}}, \quad (12.12)$$

bunda k_1, k_2, \dots, k_n – alohida kaskadlarning kuchaytirish koeffitsientlari.

Kuchaytirish kaskadining *chastotaviy buzilish koeffitsienti*:

$$M = k_0 / k ,$$

bunda k_0 – o'rta chastotalardagi kuchaytirish koeffitsienti; k – ish diapazonidagi ma'lum bir chastotadagi kuchaytirish koeffitsienti.

Detsibellarda ifodalangan chastotaviy buzilish koeffitsienti:

$$M_{\text{dB}} = 20 \lg M . \quad (12.13)$$

Ko'p kaskadli kuchaytirgichning natijaviy chastotaviy buzilish koeffitsienti:

$$M_{\text{nat}} = M_1 \cdot M_2 \dots M_n ;$$

$$M_{\text{nat,dB}} = M_{1\text{dB}} + M_{2\text{dB}} + \dots + M_{n\text{dB}} . \quad (12.14)$$

O'rta chastotalarda tranzistorli (12.13-rasm) kaskadning kuchaytirish koeffitsienti:

$$k_0 = h_{21e} R_{yuk} / R_{\text{kir}} , \quad (12.15)$$

bunda h_{21e} – umumiy emitterli sxemadagi baza tokining *statik kuchaytirish koeffitsienti*; R_{yuk} – kollektor yuklamasining qarshiligi, Om; R_{kir} – tranzistorning kirish qarshiligi, Om; C_{ajr} – ajratish kondensatori. Tranzistorli kaskadning emitter zanjirida *harorat bo'yicha stabillash* sxemasi (12.14-rasm) qo'llanilganda, baza-emitter kuchlanishi:

$$U_{b.e.} = I_{bo'1} R_2 - I_{e0} R_e, \quad (12.16)$$

bunda, $I_{bo'1} = E_k / (R_1 + R_2)$ – tranzistorning baza zanjiridagi bo'lgichning o'zgarmas toki; $I_{bo'1} = E_k / (R_1 + R_2)$ – emitter tokining o'zgarmas tashkil etuvchisi, A; emitter zanjiridagi *blokirovka etuvchi kondensatorning* C_e sig'imi, $C_e \geq 10 / (2\pi f_q R_e) f_q$ – kuchaytiriluvchi signalning quyi chastotasi, Gs; R_e – emitter zanjiridagi rezistor qarshiligi, Om.

Kuchaytirgichning FIK

$$\eta = P_{chiq} / P_0, \quad (12.17)$$

bunda P_{chiq} – kuchaytirgichning chiqish quvvati; P_0 – manbaning sarflayotgan quvvati.

Yuklama quvvati, $P_{yuk} = \eta P_{chiq}$. Bunda, η – chiqish transformatorining FIK; P_{chiq} – tranzistorda ajralayotgan quvvat.

Chiqish transformatorining (12.15-rasm) birlamchi chulg'amiga keltirilgan R_{kel}^1 yuklama qarshiligi:

$$R_{kel}^1 = R_{yuk} / k^2,$$

bunda k – chiqish transformatorining transformasiya koeffitsienti.

Manfiy teskari bog'lanishli kuchaytirgich kaskadning kuchaytirish koeffitsienti:


$$k_0 = k_0 / (1 + k_{tb} k_0), \quad (12.18)$$

bunda k_0 – manfiy teskari bog'lanish kiritishdan avval kaskadning kuchaytirish koeffitsienti; k_{tb} – teskari bog'lanish koeffitsienti.


Tebranish konturining *asligi*:

$$Q = Z_{to'1} / r_{isr}, \quad (12.19.)$$


bunda $Z_{to'1}$ – konturning to'lqin qarshiligi, Om; r_{isr} – isrof qarshiligi, Om.



12.13-rasm



12.14-rasm



12.15-rasm

Masalalar

12.41. Ichki qarshiligi $r_{\text{ich}} = 50 \Omega$ va kuchlanishi 25 mV li manba kuchaytirish koeffitsienti $k_u = 10$ bo'lgan kuchaytirgich orqali qarshiligi $R_{\text{yuk}} = 10 \text{ k}\Omega$ li yuklamaga ulangan. Kuchaytirgich ulanganligi sababli xatolik $0,5\%$ dan katta bo'lmasligi uchun uning kirish va chiqish qarshiligi aniqlansin. Kuchaytirgichning tok bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti hisoblansin.

Yechish. Kuchaytirgichning kirishidagi kuchlanish:

$$U_{\text{kir}} = ER_{\text{kir}} / (R_{\text{kirp}} + R_{\text{yuk}}).$$

Kuchaytirgichning ulanishi sababli kirishdagi xatolik $0,5\%$ dan katta bo'lmasligi uchun $U_{\text{kir}} \geq 0,995 E$ va $R_{\text{kir}} \geq R_{\text{yuk}} / 5 \cdot 10^{-3} \geq 10 \text{ k}\Omega$ bo'lishi kerak. Kuchaytirgich yuklamasining kuchlanishi $U_{\text{yuk}} = U_{\text{chiq}} R_{\text{yuk}} / (R_{\text{kir}} + R_{\text{yuk}})$. Kuchaytirgichning ulanishi sababli uning chiqishidagi xatolik $0,5\%$ dan katta bo'lmasligi uchun $U_{\text{yuk}} \leq 0,995 U_{\text{chiq}}$ yoki $R_{\text{chiq}} \leq R_{\text{yuk}} \cdot 5 \cdot 10^{-3} \leq 50 \Omega$ bo'lishi kerak. Tok bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti $k_i = k_u R_{\text{chiq}} / R_{\text{kir}} = 2000$.


12.42. Sxemasi 12.17-rasmida keltirilgan kuchaytirgich IT308A tranzistorda yig'ilgan. Shu tranzistorning kirish va chiqish xarakteristikalaridan (12.16-a, b rasm) foydalanib va $R_k = 240 \Omega$, $R_1 = 3 \text{ k}\Omega$, $R_2 = 100 \Omega$, $E_k = 10 \text{ V}$ ligini hisobga olib, ishchi A nuqta holatini aniqlang.

Yechish. Baza kuchlanishining siljishini hisoblaymiz:

$$U_{\text{be}} = E_k R_2 / (R_1 + R_2) = 10 \cdot 100 / (3000 + 100) = 0,32 \text{ V}.$$

Tranzistorning kirish xarakteristikasidagi $U_k = 2,5 \text{ V}$ li egri chiziqdandan ishchi nuqta uchun baza tokini topamiz $I_{b0} = 0,6 \text{ mA}$.

Tranzistorning chiqish xarakteristikalaridan yuklama to'g'ri chizig'ini o'tkazamiz: birinchi nuqtaning koordinatalari $I_k = 0$; $U_k = E_k = 10 \text{ V}$. Ikkinci nuqtaning koordinatalari $I_k = E_k / R_k = 10 / 240 = 42 \text{ mA}$; $E_k = 0$.



12.16-rasm

Shu yuklama chizig'i bilan $I_{b0} = 600 \text{ mA}$ bo'lganda chiqish xarakteristikasining kesishgan nuqtasi A ishchi nuqtadir.

12.43. Kuchaytirgichning kirish toki $\pm 5 \text{ mA}$ ga o'zgaradi. Agar tok bo'yicha kuchaytirish koefitsienti 40 dB va yuklama $R_{yuk} = 50 \Omega$ bo'lsa, yuklamadan o'tuvchi tok va kuchlanish aniqlansin. Agar $R_{kir} = 1 \text{ k}\Omega$ va $R_{chiq} = 5 \text{ Om}$ bo'lsa, kuchlanish va quvvat bo'yicha kuchaytirish koefitsientlari topilsin.

Yechish. Tok bo'yicha kuchaytirish koefitsienti nisbiy birliklarda:

$$\lg k_i = k_{\text{dB}}/20 = 40/20 = 2, \text{ ya'ni } k_i = 100.$$

Kuchaytirgich chiqishidagi signaling amplitudasini tok bo'yicha kuchaytirish koefitsienti $\Delta I_{chiq} = \Delta I_{kir} k_i = 5 \text{ mA} \cdot 100 = 0,5 \text{ A}$ va kuchlanish $k_u = \Delta I_{chiq} R_{yuk} / \Delta I_{kir} R_{kir} = 0,5 \cdot 50 / 5 \cdot 10^{-3} \cdot 10^3 = 5$ va quvvat bo'yicha kuchaytirish koefitsienti


$$k_p = k_i k_u = 500.$$

12.44. Kuchaytirish koefitsienti $k = 100$ va nochiziq buzilish koefitsienti $k_{n.b.} = 5\%$ ga ega kuchaytirgich teskari bog'lanish koefitsienti $k_{t.b.} = 0,04$ o'rnatilgan. Kuchaytirish va nochiziq buzilish koefitsientlari qanday o'zgaradi? Nochiziq buzilishlar $k_{n.b.} = 0,1\%$ teng bo'lishi uchun teskari bog'lanish koefitsienti qancha bo'lishi kerak?

Yechish. Teskari bog'lanishli kuchaytirgichning kuchaytirish koefitsienti $k_{kuch} = k/1 + k k_{t.b.} = 100/(1 + 100 \cdot 0,04) = 20$, ya'ni 5 baravar kamayadi. Xuddi shunday nochiziq buzilish koefitsienti ham kamayadi, ya'ni $k_{n.b.2} = k_{n.b.1}/(1 + k_{t.b.} k) = 1\%$. Nochiziq buzilish koefitsientini $0,1\%$ gacha kamaytirish uchun teskari bog'lanish koefitsienti $k_{t.b.} = \frac{1}{k} \left(\frac{k_{n.b.1}}{k_{n.b.2}} - 1 \right) = 0,49$ bo'lishi kerak, lekin bu holda kuchaytirish koefitsienti ham kamayadi va $k_{kuch} = 2$ bo'ladi.

12.45. Agar kuchaytirgichning kirishida $I_{kir} = 1 \text{ mA}$, $P_{kir} = 10 \text{ mVt}$ va chiqishida $U_{chiq} = 25 \text{ V}$, $P_{chiq} = 25 \text{ Vt}$ bo'lsa, uning tok, kuchlanish va quvvat bo'yicha kuchaytirish koefitsientlarini aniqlang.

12.46. Agar kuchaytirgichning kuchaytirish koefitsienti $k_p = 40$, kirish signaling quvvati 10 mVt va manbadan olayotgan quvvat $0,48 \text{ Vt}$ bo'lsa, uning FIKni aniqlang. Agar yuklama toki 50 mA bo'lsa, yuklamaning qarshiligi topilsin.



12.17-rasm


12.47. To'rt kaskadli kuchaytirgichning kuchaytirish koefitsientini aniqlang. Har bir kaskadning kuchaytirish koefitsienti 5 ga teng.

12.48. To'rt kaskadli kuchaytirgichning umumiy koefitsientini aniqlang. Kaskadlarning kuchaytirish koefitsientlari $k_1 = 20$ dB, $k_2 = k_3 = 40$ dB va $k_4 = 20$ dB. Kirish toki 0,2 mA bo'lsa, chiqish toki qancha bo'ladi?

12.49. Ikki kaskadli kuchaytirgich sxemasi (12.17-rasm) elementlari ning vazifasini tushuntirib bering. Qaysi elementlar birinchi va ikkinchi kaskadlarning kuchaytirish, chastotaviy buzilishlar va teskari bog'lanish koefitsientlarini o'zgartiradi?

12.50. Kuchaytirgichda (12.17-rasm):
a) C_{e1} – kondensator uzilganda; b)
 R_{yuk} – zanjiri uzilganda; d) R_s – rezistor uzilganda uning chiqish signali qanday o'zgaradi?

12.51. Kuchaytirgichning statik xarakteristikasi 12.18-rasmida keltirilgan. Uning sezmaslik chegarasi, to'ynish zonasi va ish uchastkasida kuchaytirish koefitsienti belgilansin. Kirish signali $U_{kir} = 113 \sin \omega t$ da kuchaytirgich chiqishidagi kuchlanishning oniy qiymat grafigini quring.



12.18-rasm


12.4. YUQORI CHASTOTALI TEBRANISHLAR GENERATORLARI

Eng sodda *generator RC* sifatida to'g'ri kuchaytirish k va teskari bog'lanish koefitsientlari $k_{t,b}$ ko'paytmasi $kk_{t,b} = 1$ ga teng bo'lgan musbat teskari bog'lanishli kuchaytirgich xizmat qiladi (12.19- rasm). Bunda natijaviy faza siljishi nolga yoki 2π ga karrali, ya'ni $\Phi_{kuch} + \Phi_{t,b} = 2\pi n$. Bunda n – butun son bo'ladi. Bunday *RC* generatorning tebranishlar chastotasi quyidagicha ifodalanadi:


$$f = 1/2\pi\sqrt{6} \cdot RC. \quad (12.20)$$

Generator chiqishidagi signal shakli filtrlovchi zanjirlarning chastotaviy xarakteristikasiga bog'liq. *LC* generatorning chiqishidagi kuchlanish sinusoidal tebranishga yaqin bo'ladi, chunki bunda rezonans konturining chastotaviy xossalardan foydalaniladi. Sinusoidal tebranishlar generatorlarida *transformatorli* (12.20-a rasm), *kondensatorli* (12.20-b rasm) *teskari bog'lanishli sxemalar* qo'llaniladi. Bu turdag'i generatorlarning rezonans (f_{rez}) *tebranish chastotasi*, (ρ) *to'lqin qarshiligi*, (Q) *aslilik* va (f_d) *o'tkazish kengligi* (polosasi) quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:


$$f_{rez} = 1/2\pi\sqrt{LC}; \quad \rho = \sqrt{L/C}; \quad Q = \rho/R_L; \quad f_d = f_{rez}/Q. \quad (12.21)$$



12.19-rasm



12.20-rasm



12.21-rasm

Amaliyotda sinusoidal tebranishlar generatorlari bilan bir qatorda *impulslari* generatorlar ham keng tarqalgan. Impulslar (T) tebranishlari davri, (f) chastotasi va (γ) oraliq'i bilan xarakterlanadi

$$T = \tau_p + \tau_{i.d}; \quad f = 1/T; \quad \gamma_{i.d.} = T/\tau_{i.d.} \quad (12.22)$$

bunda τ_p va $\tau_{i.d.}$ — pauza va impulsning davomiyligi; $\gamma_{i.d.}$ — davr mobaynidiagi impuls davomiyligi ko'rsatkichi. To'g'ri burchakli impulsarning eng sodda generatori sifatida *simmetrik multivibratori* ko'rsatishi mumkin (12.21-a rasm). Uning tebranishlar davri:

$$T = 0,7(C_{b1}R_{b1} + C_{b2}R_{b2}). \quad (12.23)$$

Sinxronizatsiyalovchi uskunalarida ishlatiladigan quvvati katta va davomiyligi kichik bo'lgan impulslarni olish uchun qisqa impulsli generatorlar yoki *bloking-generatorlar* qo'llaniladi. Tiristor asosida yasalgan eng sodda bloking-generator sxemasi 12.21-b rasmida keltirilgan.

Zamonaviy yuqori chastotali generatorlar kuchaytirgichlar kabi operatsion kuchaytirgichlar va mikrosxemalar asosida yasaladi.

Masalalar

12.52. Sig'im bog'lanishli *LC* generatorda (12.20-b rasm) generasiyalangan tebranishlar 200 kGs ga teng. Agar $L_1 = 1 \text{ mGn}$ va $L_2 = 1,6 \text{ mGn}$ va ular orasidagi bog'lanish koeffitsienti $k_{\text{bog}'} = 0,85$ bo'lsa, kondensator sig'imi topilsin. Agar ish rejimida kontur toki 10 mA bo'lsa, konturning kuchlanishi va reaktiv quvvati aniqlansin.

Yechish. Konturning natijaviy induktivligi:

$$L_{\text{ekv}} = L_1 + L_2 + 2k_{\text{bog}'}\sqrt{L_1 L_2} = 4,75 \text{ mGn} ,$$

generatsiyalanayotgan chastota ma'lum bo'lgani uchun $C = 1/L(2\pi f_{\text{rez}})^2 = 133 \text{ pF}$. Konturning kuchlanishi va quvvatini aniqlash uchun uning reaktiv qarshiligi hisoblanadi, ya'ni:

$$X_L - X_C = 2\pi f_{\text{rez}} \cdot L_{\text{ekv}} = 5,97 \text{ kOm} .$$

Binobarin, konturning kuchlanishi $U_K = 59,7 \text{ V}$, reaktiv quvvat esa $Q = 0,597$ var.

12.53. Agar tranzistorli multivibratoroda (12.21-a rasm) $R_{b1} = R_{b2} = 15 \text{ kOm}$; $C_{b1} = 10 \text{ pF}$; $C_{b2} = 50 \text{ pF}$ bo'lsa, baza zanjiri kondensatorlarining zaryadlanish vaqt doimiysini, U_{chiq1} va U_{chiq2} chiqish impulslarining davomiyligini aniqlang. Ikkala chiqish impuls signallarining oralig'ini toping.

Yechish. Kondensator sig'imi rezistor qarshiligiga ko'paytmasi kondensatorning vaqt doimiysini ko'rsatadi. Birinchi zanjir uchun $\tau_1 = R_1 C_{b1} = 15 \cdot 10^3 \cdot 10^{-8} = 0,15 \text{ ms}$, ikkinchi zanjir uchun $\tau_2 = R_2 C_{b2} = 15 \cdot 10^3 \cdot 5 \cdot 10^{-8} = 0,75 \text{ ms}$. Impulslar davomiyligi (12.22) formula bilan aniqlanadi, ya'ni $\tau_{i1} = 0,7\tau_1 = 0,105 \text{ ms}$ va $\tau_{i2} = 0,7\tau_2 = 0,525 \text{ ms}$. Shu formulaga muvofiq tebranishlar davri $T_i = 0,63 \text{ ms}$, impulslar oralig'i $\gamma_{p1} = T/\tau_{i1} = 6$ va $\gamma_{p2} = T/\tau_{i2} = 1,2$.

12.54. Operatsion kuchaytirgich asosida yig'ilgan multivibratorning (12.22-rasm) chiqishidagi impulslar va pauzalar davomiyligi quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:


$$\tau_u = R_1 C \ln A ; \quad \tau_p = R_2 C \ln A ,$$

bunda $A = [1 + R_4/(R_3 + R_4)] / [1 - R_4/(R_3 + R_4)]$.

Agar multivibrator parametrlari
 $R_1 = R_2 = 2R_3 = 0,5R_4$ kOm ; $C = 100$ pF
 bo'lsa, multivibrator impulslarining davri
 va chastotasini aniqlang.

12.55. Rezonans konturidagi kondensator sig'imi 1 mкF. Konturning chastotasi 10 kGs bo'lishi uchun qanday induktivlik olish kerak?


12.56. Kontur aslligi 100 dan kam bo'lmasligi kerak. Drosselning aktiv qarshiligi 50 Om, rezonans chastotasi 5 kGs bo'lishi uchun kondensator sig'imiini aniqlang.



12.22-rasm

12.5. ENG SODDA MANTIQIY SXEMALAR. MIKROSXEMALAR

Ikkilik sanoq sistemasi ning texnik yechimlari mantiqiy sxemalar asosida ikkita barqaror holatga ega bo'lgan elektron bloklar yordamida bajarishga asoslangan. Bunday sxemalarga triggerlar kiradi. Ular musbat teskari bog'lanishli tranzistorli sxemalardir. Simmetrik trigger (12.23-rasm) boshqaruvchi impuls berilganda bir barqaror holatdan ya'ni tranzistorlardan biri berk, ikkinchisi ochiq bo'lgan boshqa barqaror holatga o'tadi.



12.23-rasm

Tranzistorlarning barqaror holatini ta'minlaydigan shartlar tranzistor kirish qarshiligi va baza tokining quyidagi nisbati bo'yicha aniqlanadi:

$$R_b \leq E_b / I_{k0}; I_b \geq E_k / \beta R_k. \quad (12.24)$$

Trigger mantiqiy amallar (operatsiyalar) blokida hamda xotira elementlarda qo'llaniladi. Raqamli hisoblash mashinalarida raqamli informatsiyani ma'lum qoidalar bo'yicha o'zgartiradigan mantiqiy blocklardan foydalananiladi. Har qanday murakkab mantiqiy amallarni bajarish uchun uchta «YO'Q» (inkor etish), «VA» (konyuksiya), «YOKI» (dizyunsiya) bloklari bo'lishi yetarli (12.24-rasm).

Mantiqiy amallarni bajaradigan bloklar hisoblash mashinalarida, mikroprotsessorlarda, mikroprotessorlar (summator, shiffrator va deshifratorlar) da qo'llaniladi.

Masalalar

12.57. Simmetrik triggerdan (12.23-rasm) impulslarni shakllantiruvchi sxema sifatida foydalanilgan. Uning kirishiga chastotasi o'chanayotgan va amplitudasi $U_{\max} = 3 \text{ V}$ bo'lgan kuchlanish berilgan.

O'chanayotgan chastotaga triggerning chiqishidagi τ_u impulsarning davomiyligi qanday bog'langanligi aniqlansin. Chastota $f = 3, 15, 30 \text{ kGs}$ ga teng bo'lganda, τ_u qiymatlari topilsin. Triggerning ishga tushish kuchlanishi $U_{\text{ish.t.}} = 1,5 \text{ V}$.

Yechish. Triggerning ishga tushish vaqt $t_{\text{ish.t.}} = T/12$ va qayta ulanish vaqt $t_{\text{q.ul}} = 5T/12$. Impulsning davomiyligi $\tau_u = t_{\text{q.ul}} - t_{\text{ish.t.}} = T/3$ yoki $1/3f$. Shu ifodaga masala shartida berilgan chastota qiymatlarini qo'yib, $\tau_u = 110, 22$ va 11 mks ni topamiz.


12.58. «YO'Q» mantiqiy amalini bajaruvchi blokda (12.24-a rasm) manba kuchlanishi 15 V . Rezistorlarning qarshiligi $R_1 = 1 \text{ kOm}$, $R_2 = 100 \text{ Om}$. Agar $\beta = 50$ bo'lsa, tranzistorning berk va ochiq holatiga mos keladigan kirish kuchlanishi qiymatini toping.

Yechish. Tranzistorning ochiq holatiga mos keladigan baza toki

$$I_b = \frac{U}{\beta R_2} = \frac{15}{50 \cdot 100} = 3 \text{ mA}, U_{h.e} \text{ ni kuchlanish kichik bo'lgani uchun hisobga olmasak, tranzistorning ochiq holatiga mos keladigan kirish kuchlanishi } U_{\text{kir}} = I_b R_1 = 3 \cdot 1 = 3 \text{ V.}$$

Binobarin, tranzistorning ochiq holati uchun kuchlanish $U_{\text{kir}} \geq 3,0 \text{ V}$ ga va berk holati esa kichikroq kuchlanishga to'g'ri keladi.

12.59. Simmetrik triggerda (12.23-rasm) tranzistorlarning parametrlari $\beta = 60$ va $I_{k0} = 1 \text{ mA}$. Kollektor va baza zanjirlarining manba kuchlanishi mos ravishda 15 va $1,5 \text{ V}$. Agar kollektor zanjiridagi $R_k = 10 \text{ kOm}$ bo'lsa, triggerning ishonchli ishlashi uchun baza zanjiridagi R_b qarshilik va I_b tok topilsin.



12.24-rasm

12.60. Triggerning ochiq va berk holatlarida uning tranzistorida ajralayotgan quvvat topilsin. Manba kuchlanishi 5 V, tranzistorning to‘yin-gan holatida kollektor-emitteridagi $U_{ke} = 0,2$ V. Kollektoring teskari toki $I_{k0\ tes} = 2,5$ mKA, kollektor rezistorining qarshiligi $R_k = 1,5$ kOm.

12.61. Mantiqiy “VA” amalni bajaruvchi blokning sxemasi 12.24-b rasmida keltirilgan. Kuchlanish bo‘lgichiga ($R_2/R_1 = 5$) $U = 15$ V kuchlanish berilayotgan bo‘lsa, chiqish qismalaridagi kuchlanishning ishorasini o‘zgartira oladigan kirish qismalariga beriladigan minimal kuchlanish topilsin.

12.62. Mantiqiy “YOKI” amalini bajaradigan blokning sxemasi 12.24-d rasmida keltirilgan. Uning tayanch manbaining EYuKi $E = -5$ V. Agar $R = 100$ Om bo‘lsa va har bir diodga $U_{kir} = 1,5$ V kuchlanish berilsa, blokning chiqishidagi kuchlanish topilsin. Agar dioddagi kuchlanish pasayishi hisobga olinmasa, R rezistordagi tok aniqlansin.

12.63. Yarim o‘tkazgichli va gibrid integral sxemalarning konstruktiv xususiyatlarni bayon eting. Raqamli va analog integral sxemalarning asosiy farqi nimadan iborat?

12.64. Mikrosxemalarning korpusini va diskret yarim o‘tkazgich asboblar korpuslarining asosiy farqlarini va integral mikrosxemalarni statik elektrlikdan himoya qilish usullarini izohlab bering. Mikrosxemalarning issiqlik rejimlari qanday ta’minlanadi?

1-i lova

**Xalqaro sistemada (SI) elektr, magnit va mexanik kattaliklar,
parametrlar va ularning o'chov birliklari**

Kattaliklar nomi	(SI) Xalqaro sistemadagi birliklar			
	Nomi	O'chov birligi	Belgisi	
Uzunlik	metr	m	<i>l</i>	
Yuza, sirt	kv. metr	m^2	<i>S</i>	
Hajm	kub. metr	m^3	<i>V</i>	
Massa	kilogramm	kg	<i>m</i>	
Vaqt	sekund	s	<i>t</i>	
Tezlik	metrning sekundga nisbati	m/s	<i>v</i>	
Kuch	nyuton	N	<i>F</i>	
Ish	joul (vatt sekund)	J	<i>W</i>	
Issiqqlik miqdori	joul	J	<i>Q</i>	
Harorat	kelvin	K	<i>T</i>	
Burchak tezligi, burchak chastotasi	radianning sekundga nisbati	rad/s	ω	
Yassi burchak	radian	rad	α, ϕ, ψ	
Kuch momenti	nyuton · metr	N·m	<i>M</i>	
Aktiv quvvat	vatt	Vt	<i>P</i>	
Reaktiv quvvat	volt-amper reaktiv	var	<i>Q</i>	
To'la quvvat	volt-amper	V·A	<i>S</i>	
Kuchlanish, EYuK	volt	V	<i>U, E</i>	
Tok	amper	A	<i>I</i>	
Tok zichligi	ampernerin kv. metrga nisbati	A/m^2	<i>d</i>	
Zaryad, elektr miqdori	kulon	Kl	<i>Q, q</i>	
Elektr maydon kuchlanganligi	voltning metrga nisbati	V/m	<i>E_n</i>	
Sig'im	farada	F	<i>S</i>	
Absolut dielektrik singdiruvchanlik	faradaning metrga nisbati	F/m	Σ_0	
Qarshilik	om	Om	<i>R</i>	
Solishtirma qarshilik	om metr	Om · m	ρ	
O'tkazuvchanlik	simens	Sm	<i>g</i>	
Solishtirma o'tkazuvchanlik	simensning metrga nisbati	Sm/m	γ	
Magnit oqim	veber	Vb	Φ	
Magnit induksiya	tesla (veberning kv. metrga nisbati)	Tl	<i>B</i>	
Magnit maydon kuchlanganligi	ampernerin metrga nisbati	A/m	<i>H</i>	
Absolut magnit singdiruvchanlik	genrinining metrga nisbati	Gn/m	μ_0	
Induktivlik	genri	Gn	<i>L</i>	
Reaktiv qarshilik	om	Om	<i>X</i>	
To'la qarshilik	om	Om	<i>Z</i>	
Chastota	gers	Gs	<i>f</i>	

2-i lova

O'nga karrali va bo'lakli birliklar

Bog'lovchining nomi	Bog'lovchining belgisi		Asosiy birlik ko'paytmasi
	o'zbekcha	xalqaro	
deka	da	<i>da</i>	10^1
gekto	g	<i>h</i>	10^2
kilo	k	<i>k</i>	10^3
mega	M	<i>M</i>	10^6
giga	G	<i>G</i>	10^9
detsi	d	<i>d</i>	10^{-1}
santi	s	<i>c</i>	10^{-2}
milli	m	<i>m</i>	10^{-3}
mikro	mk	μ	10^{-6}
nano	n	<i>n</i>	10^{-9}
piko	p	\circ	10^{-12}

3-i lova

Elektr o'tkazgich materiallarning asosiy xarakteristikalari

Material	Zichlik, kg/m ³	Solishtirma qarshilik, 10^{-6} , Om·m	Solishtirma o'tkazuvchilik, 10^6 , Sm/m	Qarshilikning temperatura koefitsienti, 10^{-6} , 1/K
Mis	8900	0,0176	57	4,11–4,20
Alumin	2700	0,0278	35	4,31–4,39
Latun	8500	0,04	25	2,70–2,80
Volfram	19100	0,0612	16,34	4,1–5,0
Po'lat sim	7900	0,13	7,6	5,7–6,2
Qalay	7300	0,143	7	4,4
Qo'rg'oshin	11400	0,221	4,52	3,8–4,1
Nixrom	8200	0,98	1,02	0,15
Konstantan	8800	0,4–0,51	2,5–1,98	0,005
Fexral	7600	1,4	0,7	0,28
Manganin	8100	0,42	2,38	0,06

4-i lova

Dielektriklarning asosiy xarakteristikalari


Material	Nisbiy dielektrik singdiruvchanlik	Elektr mustahkamlik, MV/m
Havo (293K va bosim 100 kPa)	1*	3,3**
Qog'oz	1,8–2,6	10
Parafin	2–2,3	40
Pohetilen	2,4	40
Polistirol	2,4	50
Karton	4,8	15
Lakotkan	5–6	100
Mineral yog'	2,2–2,5	20
Ebonit	3–3,5	20

Material	Nisbiy dielektrik singdiruvchanlik	Elektr mustahkamlik, MV/m
Kvars, shisha, slyuda	5–10	25
Farfor (chinni)	4,5–6	15
Alumin oksidi	—	100
Bary titanat	800–2200	—


* – dielektrik singdiruvchanlikning o'rtacha qiymatlari ko'rsatilgan;

** – dielektrikning 1 mm qaliligi uchun.

5-i lova

Elektrotexnik materiallarning magnitlanish egri chizig'i

a)



b)

d)

I z o h. 1 – quyma po'lat, 2 – elektrotexnik po'lat 1512 (issiq holatda yoyilgan); 3 – sovuq holatda yoyilgan elektrotexnik po'lat tunuka 3411; 4 – issiq holatda yoyilgan elektrotexnik po'lat tunuka 1212; 5 – issiq holatda yoyilgan elektrotexnik po'lat tunuka 1410

O'zgarmas tok mashinalari

Elektr motor turi	Nominal quvvat P_{nom} kVt	Maksimal aylanish chastotasi, ayl/min				Siltash momenti, kg·m ²	Massasi, kg
		110	220	340	440		
$n_{nom} = 1000$ ayl/min							
2ΠB132M	1,6	4000	3000	2500	2500	0,15	86
2ΠB132L	1,9	4000	3000	2500	2500	0,187	96
2ΠB160M	2,5	4000	3000	2500	2500	0,334	141
2ΠB160L	3,2	4000	3000	2500	2500	0,416	152
2ΠB180M	4,5	3500	3000	2500	2500	0,8	213
2IIH180L	10,0	3500	3000	2500	2500	0,916	234
$n_{nom} = 750$ ayl/min							
2IIH132M	1,6	3000	2500	2000	1850	0,15	86
2IIH132L	1,9	3000	2500	2000	1850	0,187	96
2IIH160M	3,0	3000	2500	2000	1850	0,334	141
2IIH160L	4,0	3000	2500	2000	1850	0,416	159
2IIH180M	5,6	3000	2500	2000	1850	0,8	213

Qisqa tutashtirilgan rotorli 4A seriyali asinxron elektr motorlarning texnik xarakteristikalari

Motor turi	P_{nom} , kVt	Nominal yuklanishda			$\frac{M_{max}}{M_{nom}}$	$\frac{M_{ish.t}}{M_{nom}}$	$\frac{M_{min}}{M_{nom}}$	$\frac{I_{ish.t}}{I_{nom}}$	j, kg·m ²
		n, ayl/min	η , %	cos φ					
$n = 3000$ ayl/min (sinxron)									
4AA50A2Y3	0,09	2740	60,0	0,70	2,2	2,0	1,8	4,0	$0,245 \cdot 10^{-4}$
4AA50B2Y3	0,12	2710	63,0	0,70	2,2	2,0	1,8	4,0	$0,268 \cdot 10^{-4}$
4AA56A2Y3	0,18	2800	66,0	0,76	2,2	2,0	1,5	4,0	$4,14 \cdot 10^{-4}$
4AA56B2Y3	0,25	2770	68,0	0,77	2,2	2,0	1,5	4,0	$4,65 \cdot 10^{-4}$
4AA63A2Y3	0,37	2750	70,0	0,86	2,2	2,0	1,5	4,5	$7,63 \cdot 10^{-4}$
$n = 1500$ ayl/min (sinxron)									
4AA50A4Y3	0,06	1380	50,0	0,60	2,2	2,0	1,7	2,5	$0,29 \cdot 10^{-4}$
4AA50B43Y3	0,09	1370	55,0	0,60	2,2	2,0	1,7	2,5	$0,325 \cdot 10^{-4}$
4AA56A4Y3	0,12	1375	63,0	0,66	2,2	2,1	1,5	3,5	$7,0 \cdot 10^{-4}$
4AA56B4Y3	0,18	1365	64,0	0,64	2,2	2,1	1,5	3,5	$7,88 \cdot 10^{-4}$
4AA63A4Y3	0,25	1380	68,0	0,65	2,2	2,0	1,5	4,0	$12,4 \cdot 10^{-4}$
4AA63B4Y3	0,37	1365	68,0	0,69	2,2	2,0	1,5	4,0	$13 \cdot 10^{-4}$
4A71A4Y3	0,55	1390	70,5	0,70	2,2	2,0	1,8	4,5	$13,8 \cdot 10^{-4}$
$n = 1000$ ayl/min (sinxron)									
4AA63A6Y3	0,18	885	56,0	0,62	2,2	2,2	1,5	3,0	$2 \cdot 10^{-3}$
4AA63B6Y3	0,25	890	59,0	0,62	2,2	2,2	1,5	3,0	$22 \cdot 10^{-4}$
4A71A6Y3	0,37	910	64,5	0,69	2,2	2,0	1,8	4,0	$17 \cdot 10^{-4}$
4A71B6Y3	0,55	900	67,5	0,71	2,2	2,0	1,8	4,0	$2 \cdot 10^{-3}$
4A80A6Y3	0,75	915	69,0	0,74	2,2	2,0"	1,6	4,0	$3 \cdot 10^{-4}$

Motor turi	P_{nom} , kVt	Nominal yuklanishda			$\frac{M_{max}}{M_{nom}}$	$\frac{M_{ish.t}}{M_{nom}}$	$\frac{M_{min}}{M_{nom}}$	$\frac{I_{ish.t}}{I_{nom}}$	j, kg·m ²
		n, ayl/min	n, %	cos φ					
$n = 750$ ayl/min (sinxron)									
4A71B8Y3	0,25	680	56,0	0,65	1,7	1,6	1,2	3,0	$18,5 \cdot 10^{-4}$
4A80A8Y3	0,37	675	61,5	0,65	1,7	1,6	1,2	3,5	$33,8 \cdot 10^{-4}$
4A90LB8Y3	1,10	700	70,0	0,68	1,9	1,6	1,2	3,5	$86,3 \cdot 10^{-4}$
4A100L8Y3	1,50	700	74,0	0,65	1,9	1,6	1,2	4,0	$1,3 \cdot 10^2$

7-i lova

To'g'rilaqichlarning asosiy parametrlari

To'g'rilaqich parametrlari	To'g'rilaqichlarning turlari			
	bir yarim davrli	bir fazali ikki yarim davrli		uch fazali ikki yarim davrli
		o'rta nuqta	ko'priklı	
To'g'rilaqan kuchlanishning o'zgarmas tashkil etuvchisi (nolinchi garmonika), $U_{to'g'}$	0,45* _{kir}	0,9 U_{kir}	0,9 U_{kir}	1,35 U_{kir}
To'g'rilaqan tokning o'zgarmas tashkil etuvchisi (nolinchi garmonika) $I_{to'g'}$	0,637 I^*_{kir}	1,27 I_{kir}	0,9 I_{kir}	0,95 I_{kir}
To'g'rilaqichning toki	1,57 $I_{to'g'}$	0,78 $I_{to'g'}$	0,78 $I_{to'g'}$	0,58 $I_{to'g'}$
Pulsatsiya k_{n0} koefitsienti	1,57	0,78	0,78	0,26
To'g'rilaqichning teskari yo'nalishdagi kuchlanishi U_{tesk}	3,14 $U_{0to'g'}$	3,14 $U_{0to'g'}$	1,57 $U_{0to'g'}$	1,05 $U_{0to'g'}$
Pulsatsiya chastotasi f_p	f_s^{**}	$2 f_s$	$2 f_s$	$6 f_s$

* U_{kir} va I_{kir} – kirish kuchlanishi va tokning ta'sir etuvchi qiymati.** f – manba kuchlanishi chastotasi.

8-i lova

PN va MN tipli o'zgarmas tok mashinalarining universal magnit xarakteristikaları

$I_{qo'z}/I_{qo'z,nom}$	Φ/Φ_{nom}	$I_{qo'z}/I_{qo'z,nom}$	Φ/Φ_{nom}	$I_{qo'z}/I_{qo'z,nom}$	Φ/Φ_{nom}
0,00	0,05	0,55	0,75	1,10	1,04
0,05	0,10	0,60	0,80	1,15	1,06
0,10	0,20	0,65	0,84	1,20	1,08
0,15	0,30	0,70	0,88	1,25	1,10
0,20	0,40	0,75	0,91	1,30	1,12
0,25	0,45	0,80	0,93	1,35	1,14

**Ba'zi bir izolyatsiyalangan o'tkazgich (simlar) va kabellar uchun davomli
tok yuklamasi**

Ko'ndalang kesim yuzi, mm ²	Kuchlanish kabellari uchun yuklama toki, A			
	ikki simli kuchlanish 1kV gacha	uch simli		to'rt simli 1 kV gacha
		6 kV gacha	10 kV gacha	
Yer ostida				
6	80/60	—	—	—
10	105/80	80/60	—	85/65
16	140/110	105/80	95/75	115/90
25	185/140	135/105	120/90	150/115
35	225/175	160/125	150/115	175/135
50	270/210	200/155	180/140	215/165
70	325/250	245/190	215/165	265/200
95	380/290	295/225	265/205	310/240
120	435/335	140/260	310/240	350/270
150	500/385	390/300	355/270	395/305
185	—	440/340	400/310	450/345
240	—	510/390	460/355	—
Havoda				
6	55/42	—	—	—
10	75/55	55/42	—	60/45
16	95/75	65/60	60/46	80/60
25	130/100	90/70	85/65	100/75
35	150/115	110/85	105/80	120/95
50	185/140	145/110	135/105	145/110
70	225/175	175/135	165/130	185/140
95	275/210	215/165	200/155	215/165
120	320/245	250/190	240/185	260/200
150	375/290	290/225	270/210	300/230
185	—	325/250	305/235	340/260
140	—	375/290	350/270	—

I z o h l a r: 1. Suratda mis simlar uchun maxrajda alumin simlar uchun yuklama berilgan.

2. Kabellar yuklamalari (ularning chuqurligi 0,7 m transheyalarga bittadan ortiq ko'milmagan) yer osti temperaturasi 15 °C li sharoitga to'g'ri keladi.

3. Sun'iy ventilyatsiyasi bo'limgan yer ostiga ko'milgan trubalardan o'tkazilgan bitta kabelga yuklama havodan o'tkazilgan kabel yuklamalari kabi olinadi.

4. Agar aralash uchastkadan o'tkaziladigan kabelning uzunligi 10 m dan uzun bo'lsa, uning yuklamasi eng og'ir issiqlik shartlaridan kelib chiqqan holda olinadi. Bu hollarda ko'ndalang kesimi kattaroq kabel vstavkalar olish tavsija etiladi.

5. Transheyaga bir necha kabel yotqizilganda (quvurlardan o'tkazilganda ham) yuklamalar kamaytirilishi lozim.

6. Transheyaga yotqiziladigan kabellarning orasi 100 mm dan kam bo'lmasligi shart.

JAVOBLAR

I BOB

1.4. 2. **1.5.** 3,33 N. **1.6.** $3,3 \cdot 10^{-8}$ Kl. **1.7.** Kichik zaryaddan 33 mm. **1.8.** $6,6 \cdot 10^{-4}$ Kl. **1.9.** 2,53 N; 0,85 N; 0,45 N. **1.10.** $0,08 \text{ Kl/m}^2$. **1.14.** $5 \cdot 10^{-5}$ Kl. **1.15.** 0,62 nF. **1.17.** $4,5 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$. **1.18.** 0,557 nF. **1.19.** 56,5. **1.20.** $5 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2$. **1.21.** $7,25 \div 38,25 \text{ pF}$. **1.22.** 1,65; 1,28; 1,11. **1.23.** $23 \div 180 \text{ pF}$. **1.24.** 9,5 mm; 9,7 mm; 9,8 mm. **1.25.** 50 mJ. **1.26.** 31,2 mJ; 125 mJ; 281 mJ. **1.27.** 11. **1.28.** 60 mkF. **1.29.** 80 pF. **1.30.** 0,48 m. **1.31.** 6 mkF.

II BOB

2.13. 1,5 mm; 0,09 Om. **2.14.** 78 Om; 65 mm^2 . **2.15.** $3,14 \cdot 10^{-8} \text{ Om} \cdot \text{m}$. **2.16.** 3,8 mm. **2.17.** 8 m. **2.18.** 50 m. **2.19.** 1,41; 0,5; 0,315. **2.21.** 0,625; 2,1 marta. **2.22.** 11 kOm. **2.23.** 10^{-3} K^{-1} . **2.25.** $6,17 \cdot 10^{-4} \text{ K}^{-1}$; 265 Om. **2.27.** 20 mA; 40 mA; 25 mA; 100 mA. **2.29.** 10 V; 5 V; 2,5 V. **2.31.** 200 V. **2.34.** 6,6 va 0 A. **2.36.** 5 A; 4,5 A; 4,4 A; 18 A va 22 A. **2.37.** 7 V. **2.40.** 1,875 A; 10 Om. **2.41.** 6,2 A; 5,9 A. **2.42.** 0,141 A; 11/6. **2.46.** 0,16 s. **2.49.** 0,69 ms. **2.50.** 0,73 ms.

III BOB

3.7. 0,67 mGn/m. **3.8.** 0,628 mGn/m. **3.9.** 0,16 A/m; 20 A.

IV BOB

4.10. 10 A; 120 V; 12 Om. **4.11.** $i = 8,5 \sin(314t - 45^\circ)$ mA. **4.13.** 12,7 A va 127 V. **4.14.** 4,2 Om; 10 A; 42 V. **4.15.** a) 8,4 Om, aktiv, b) 4,2 Om, sig'im, c) 4,2 Om, induktiv, d) 8,4 Om, aktiv. **4.17.** 7,6 mkF. **4.19.** $i = 6,8 \sin(2500t - \pi/2)$ A. **4.21.** 70,3 Om. **4.23.** 2,2 mkF, diagonallar uzilganda $C_{ekv} = 1,66$ mkF; qisqa tutashirilganda $C_{ekv} = 0,33$. **4.29.** 627 Vt; 940,5 Vt. **4.30.** 5 Vt; 4 mGn. **4.31.** 2,2 Vt; 26,5 mkF. **4.32.** 13,1 A, $\angle 85^\circ$; 2,88 kV · A; 251 Vt; 2,87 kvar. **4.33.** 5,7 A, $\angle 79^\circ$; 1,25 kV · A; 228 Vt; 1,23 kvar. **4.34.** 0,235 A, $\angle -83^\circ$; 51,8 V · A; 4,5 Vt; 51,6 var. **4.35.** 36,7 mA; A 2°; 8 V · A; 8 Vt; 0,3 var. **4.41.** chastota ifodasidan $f = f_0 \sqrt{L_0/L} = 7,1$; 5 va 31,6 kGs. **4.42.** $Z_1 = Z_2 = 153$ Om; $S = 80$ V · A; $P = 51,5$ Vt; $Q = \pm 60$ var. **4.44.** $\Delta f = 225$ Gs $\pm 6\%$. **4.47.** $(4,68 \div 5,44)$ kGs.

V BOB

5.7. 127 V; 220 V. **5.8.** 3,5 A; 220 V. **5.9.** 30 A; 127 V. **5.10.** 3,1 A; 2,8 A; 3,8 A; $I_0 = 1,5$ A. **5.11.** $I_{fa} = 10,3$ A; $I_{fb} = 12$ A; $I_{fc} = 9,8$ A; $I_0 = 3$ A. **5.12.** $I_{fa} = 15,25$ A; $I_{fb} = 21,2$ A; $I_{fc} = 16,9$ A; $I_0 = 12$ A. **5.16.** 127 V va 3,5 A. **5.17.** 7 A. **5.18.** 18,2 A. **5.19.** $11,0\sqrt{3}$ A; $13,7\sqrt{3}$ A va $13\sqrt{3}$ A. **5.20.** 5,8 A, $\angle 82^\circ$; 9,2 A, $\angle -120^\circ$; 15,8 A, $\angle 125^\circ$. **5.21.** a) $I_{fb} = I_{fc} = 51,4$ A; $I_{fa} = 10,3$ A; b) $I_{fc} = 25,7$ A; $I_{fa} = 51,4$ A. **5.22.** $13,4 \text{ kV} \cdot \text{A}$; 20 va 35 A. **5.23.** 132 mkF. **5.24.** 28,3 A; 21,4 A.

VI BOB

6.5. 0,5. **6.7.** 100 bo'linma; 2 mA/bo'l va 60 mA. **6.8.** Shkala tenglamasi $y = 10\sqrt{x}$ bundan a) 7,1 A; b) 5 A; d) 8,7 A. **6.12.** 440 m; 90 mVt. **6.14.** 320 $\text{V} \cdot \text{A}$; 250 var; 0,625. **6.15.** 504 kVt; 7,6 kVt · soat. **6.17.** 1100 Vt; 3300 Vt. **6.18.** 786 kVt · soat. **6.21.** Ko'priknning balans tenglamasi $(R_x + R/2)R_l = (R_4 + R_2/2)R_2$ bundan $R_x = 400$ Om. **6.24.** $R_x = R_y U / (IR_y - U) = 917$ Om. **6.25.** 1,45 mkF. **6.26.** $(0,4 \div 40)$ mGn. **6.27.** 1 Om; 15,6 mGn. **6.28.** 26 mGn va 4.

VII BOB

7.7. 222 V. **7.8.** 800 va 200. **7.9.** 3. **7.10.** $4 \pm 0,03$. **7.13.** 500 va 250. **7.15.** 1. **7.16.** 4,2 va 1,3. **7.17.** 11,4 mm^2 . **7.22.** 600; 55 Vt. **7.23.** O'ramlar orasidagi kuchlanish 11 V; kontakt qarshilik 110 Om. **7.25.** 100. **7.30.** Y/Y - 12 da $U_{lin2} = 400$ V va Y/ Δ - 11 da $U_{lin2} = 230$ V.

VIII BOB

8.6. 0,8 Om. **8.8.** 11,5 A va 191,5 A. **8.9.** Dastlabki tenglamalar sistemasi $E = C_E n\Phi$ va $E + 120 = C_E 1,5 n\Phi$, bundan $E_1 = 120$ V; $E_2 = 240$ V. **8.10.** Dastlabki tenglamalar sistemasi $I = E/(R_{yuk} + R_{ya})$ va $1 - 10 = E/(2R_{yuk} + R_{ya})$; bundan $I_1 = 21$ A va $I_2 = 11$ A. **8.11.** Yakor chulg'aamlarini tok bo'lgichi sifatida qarash mumkin va shuning uchun

$$I_{yal} = \frac{I_{ya} R_{ya}}{R_{yal} + R_{ya2}} = 143 \text{ A} \text{ va } I_{ya2} = I_{nom} \frac{R_{ya2}}{R_{yal} + R_{ya2}} = 205 \text{ A.}$$

8.12. 550 va 60,5 kVt; 1,32 kA. **8.13.** 2,5 mA. **8.26.** 83,6% va 0,91. **8.27.** 2% va 92,5%. **8.29.** 5 va 35%. **8.31.** 2,66% va 4. **8.32.** a) 129 V; b) 2,8 V. **8.35.** 11,78 kVt; 13,86 kVt. **8.36.** 138 kVt va 0,9.

IX BOB

9.6. 13 A ($I_{nom} = 16$ A); 24 A ($I_{nom} = 25$ A); 30 A ($I_{nom} = 40$ A).

X BOB

10.4. Motor validagi moment $M_m = 9,55P/\eta n = 11,6 \text{ N} \cdot \text{m}$; uzatish koeffitsientlari 2; 3 va 4; Aylanish chastotasi 1900; 2850 va 3800 ayl/min.

10.16. 6,86 kVt. **10.17.** 14,1 kVt va 295 N · m. **10.19.** $P_m = vG/\eta$.

10.20. 10,8 kVt ($P_{st} = 11 \text{ kVt}$). **10.21.** 2,9 kVt ($P_{st} = 3 \text{ kVt}$). **10.22.** 14 kVt ($P_{st} = 15 \text{ kVt}$). **10.23.** 20,2 kVt ($P_{st} = 22 \text{ kVt}$). **10.24.** 0,68 m/s.

XI BOB

11.5. 113 mm². **11.6.** 217 mm² ($S_{nom} = 240 \text{ mm}^2$). **11.7.** I_x 76 A; $S_{nom} = 10 \text{ mm}^2$. **11.8.** 4%. **11.9.** 2,8 marta. **11.13.** 1,22 marta. **11.14.**

$\Delta W = 3I^2Rt = 180 \cdot 10^3 \text{ kVt} \cdot \text{soat yoki } 2,3\%$. **11.17.** 760 va 72 mA. **11.18.**

1,5 mA. **11.22.** 6 mm; 52 m. **11.23.** 1,5 mm va 41 m. **11.24.** 1,6 kVt; 7,3 A.

11.25. 643 mkF; 49,8 kvar. **11.30.** $n = WS/2 P_i = 6$. **11.31.** 144 Vt ($P_{nom} = 150 \text{ Vt}$).

XII BOB

12.10. 0,5V va 20 mA. **12.11.** 90 V. **12.12.** 2,1 A. **12.16.** 50,6 mA; 5 V; 25 V. **12.17.** Dastlabki tenglamalar sistemasi $1,8 = \beta(25 + I_{k0})$ va $4,8 = \beta(75 + I_{k0})$ bunda $I_{k0} = 50 \text{ mkA}$, $\alpha = 0,99$ va $\beta = 60$. **12.18.**

$\frac{\Delta\alpha}{\alpha} = \frac{\Delta\beta}{\beta} \cdot \frac{1}{\beta+1} = 0,04\%$ va $\alpha = 0,996 \pm 0,0004$. **12.21.** 1; 20 mA. **12.22.** $U_{qayta ul} =$

= 100 V va tok 1 mA. **12.36.** 110 V; 0,4 A. **12.37.** 40 V va 1,1 A. **12.39.**

16 mkF; 8,2. **12.40.** 4,7. **12.46.** 83,3%; 160 Om. **12.55.** 0,254 mGn. **12.56.**

6,4 nF. **12.60.** $P_{berk} = 0,05 \text{ mVt}$; $P_{ochiq} = 16 \text{ mVt}$.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Березкина Т.Ф. Гусев Н.Г., Масленников В.В. Задачник по общей электротехнике с основами электроники. М.: Высшая школа, 2001. – 380 с.
2. Karimov A.S., Mirhaydarov M.M. va boshq. Elektrotexnika va elektronika asoslari – Т.: O'qituvchi, 1995. – 469 b.
3. Новиков П.Н. Клуфман В.Я. и др. Задачник по электротехнике: Проф. обр. издат. М., 2001. – 336 с.
4. Majidov S. Elektrotexnika. – Т.: O'qituvchi, 2000. – 264 b.
5. Majidov S. Elektr mashinalari va elektr yuritma. – Т.: O'qituvchi, 2002. – 360 b.
6. Электротехника / Под ред. А. Я. Шихина. – М.: Высшая школа, 1989. – 336 с.

MUNDARIJA

So‘z boshi	3
1-bob. Elektrostatika	4
1.1. Elektrostatik maydon	4
1.2. Kondensatorlar	5
2-bob. O‘zgarmas tok elektr zanjiri qonunlari	10
2.1. Om va Kirxgof qonunlari	10
2.2. O‘zgarmas tok murakkab zanjirlarini hisoblash usullari	22
2.3. Elektr zanjirlarda o‘tish jarayonlari	28
3-bob. Magnit zanjirlar	31
3.1. Magnit zanjirlarning xarakteristikalari. Elektromagnitlar	31
3.2. Tarmoqlanmagan magnit zanjirni hisoblash	34
3.3. Tarmoqlangan magnit zanjirni hisoblash	36
4-bob. O‘zgaruvchan tok elektr zanjirlari	39
4.1. Bir fazali sinusoidal tok zanjirlarini hisoblash	39
4.2. Sinusoidal o‘zgaruvchan tokda quvvat va quvvat koeffitsienti	51
4.3. O‘zgaruvchan tok elektr zanjirida rezonans	54
5-bob. Uch fazali o‘zgaruvchan tok zanjirlari	58
5.1. Uch fazali o‘zgaruvchan tok zanjirlarini hisoblash usullari	58
6-bob. Elektr o‘lhash asboblari va ularning qo‘llanilishi	66
6.1. Elektr o‘lhash asboblarining assosiy xarakteristikalari va o‘lhash xatoliklari	66
6.2. Tok, kuchlanish, quvvat va energiyani o‘lhash	69
6.3. Rezistor va reaktiv elementlarning parametrlarini o‘lhash	73
7-bob Transformatorlar	79
7.1. Transformatorlarning xarakteristikalari va ish rejimlari	79
7.2. Avtotransformatorlar. Maxsus transformatorlar	85
7.3. Uch fazali transformatorlar	87
8-bob Elektr mashinalar	91
8.1. O‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok generatorlari	91
8.2. O‘zgarmas tok motorlari	95
8.3. O‘zgaruvchan tok motorlari	97
9-bob Elektr apparatlar	105
9.1. Dastaki va avtomatik boshqariladigan apparatlar	105

9.2. Elektr zanjirni uzuvchi avtomatlar	106
9.3. Elektromagnit va elektron relelar	107
10-bob. Elektr yuritma va elektroavtomatika	109
10.1. Elektr yuritma va uning ish rejimlari	109
10.2. Elektr yuritma uchun elektr motor tanlash	111
11-bob. Elektr energiya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish	116
11.1 Elektr energiyaning taqsimlanishi	116
11.2. Korxonalar va turar joylarning elektr ta'minoti	119
11.3. Elektr isitish qurilmalari. Elektr payvandlash	122
11.4. Elektr yoritish	124
12-bob. Elektron asboblar va qurilmalar	127
12.1. Elektron asboblarning parametrlari va xarakteristikalari	127
12.2. To'g'rilagich qurilmalar	133
12.3. Elektron kuchaytirgichlar	138
12.4. Yuqori chastotali tebranishlar generatorlari	142
12.5. Eng sodda mantiqiy sxemalar. Mikrosxemalar	145
Ilovalar	148
Javoblar	154
Foydalilanigan adabiyotlar	157

**Nasim Jabborov
Mirjalil Yakubov**

**ELEKTROTEXNIKA VA ELEKTRONIKA
ASOSLARIDAN MASALALAR TO'PLAMI**

Bosh muharrir	M. Saparov
Muharrir	I. Tursunova
Badiiy muharrir	A. Lopatin
Texnik muharrir	A. Sariboyev
Dizayner va sahifalovchi	I. Kravchenko
Muqova dizayneri	P. Petrov
Musahihih	F. Qurbanova

«Uzinkomsentr» elektron va bosma nashrlar bosh tahririyati.

Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 107 A.

Shartnomha № BT-07-2003

Bosishga ruxsat etildi 10.12.2003.

Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Ofset bosma. Times garniturasi.

Shartli bosma tabog'i 10,0. Nashr tabog'i 8,8.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma 105.

Bahosi shartnomha asosida.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41